

Alisher NAVOIY

Xazoyin ul-maoniy

BADOYE' UL-VASAT

ALIF HARFINING OFATLARINING IBTIDOSI «BADOYE'»DIN

1

Ey navbahori orazing subhig‘a jonparvar havo,
Andin gulu bulbul topib yuz barg birla ming navo.

To‘biyu shohi sidradur ko‘yung giyohi, negakim
Ushshoq ashku ohidin har dam topar suyu havo.

Zahri firoqingdin qayu oshiqki bo‘ldi talxkom,
No‘shi visoling yetmasa, Iso anga topmas davo.

Chun qoziyul hojot sen da’voi mahring qilg‘ali,
Dardu firoq anduhidin kelturmisham ikki guvo.

Qilmay qabul ijodning imkoni yo‘q, so‘ngra yana
Maqbulini rad aylamak lutfungdin o‘lg‘aymu ravo.

Zohid, ko‘ngulning xilvatin matlub g‘ayridin orit,
Sen sayr qilsang qil, kerak ko‘nglungga bo‘lsa inzivo.

Desang Navoiy jon aro mahbub bo‘lg‘ay jilvagar,
Avval ko‘ngul ko‘zgusidin mahv ayla naqshi mosivo.

2

Ne sun’ungdin ajab yuz ming jahon bo‘lmoq yana paydo,
Ne mulkungga xalal yuz ming jahondek bo‘lsa nopaydo.

Ne poyoni jalolu kibriyodurkim tafovut yo‘q,
Agar yuz ming jahondek bo‘lsa nopaydo va yo paydo.

Azal ham sen, abad ham sen, ne avval birla oxirkim,
Anga yo‘q ibtido paydo, munga yo‘q intiho paydo.

Irodang birla taqdiringdin o‘lg‘ay ikki kavn ichra,
Agar bo‘lsa fano zohir vagar bo‘lsa baqo paydo.

Falak ham ojiz, axtar ham zabun, sayru sukun ichra
Ki, sendindur, ne bo‘lsa anjumu aflok aro paydo.

Bahona ummohot o'ldiyu obo yo'qsa sun'ungdin,
Ato birla anog'a ne atovu ne ano paydo.

Nechakim bahr ila kon bo'lqa, sendin tarbiyat yetmay,
Emastur mumkin o'lmoq durru la'li beba ho paydo.

Chu bahri rahmating mavj ursa, paydo bo'lmaq'ay xascha,
Necha jurm ahlidinkim bo'lqa yuz ko'hi xato paydo.

Navoiyning tilin shukrungg'a go'yo aylakim, bo'lg'ay
Anga hamding gulistonida har dam yuz navo paydo.

3

Ey, qilib lutfu ato birla ulus komi ravo,
Ey, vujudu adam ikkisi vujudingg'a guvo.

Sen solib nav'i bashar xayli mizozi aro za'f,
Sendin aflok tiboida qavi barcha quvo.

Ofarinish sipahida bir emas yuz mingdin
Mehrkim, chekti falak burjida zarbaft livo.

Yetmasa gardi rahiing ko'hli bo'lub Ruhulloh
Ojiz aylar chog'i xuffosh amosig'a davo.

Lutfung ollida kirib ravzag'a ahli isyon,
Qahring o'lg'anda tushub vaylg'a ahli taqvo.

Sharqdin g'arbni bir dam borib ahli talabing
Kim, bo'lub himmat ayog'i bila ul qavm ravo.

Gulshani vaslinga har qushki havo ko'rguzdi,
Yetmadi lek agar yetti qilib erdi havo.

Zotinga g'ayrni kimsa nachuk etgay tashbih,
Mosivallohu chu savo keldiyu ul zot sivo.

Yo rab, ul barg nasib etki, Navoiy topqay
Bog'i tavhid gulu bulbuldek bargu navo.

4

Ey, jamoling jilvasi mir'ot insu jon aro,
Lek o'lub ul jilva komil mazhari inson aro.

Topmag'an bo'lqa labingning sharbatidin choshni,

Bas bu ne jonbaxshliqdur chashmai hayvon aro.

Nega olam o‘rtadi, husnung o‘tidin lam’ae,
Tushmagan bo‘lsa jamoli Yusufi Kan’on aro.

Tushmagan bo‘lsa quyoshingdin qo‘lig‘a partave,
Bas ne bayzo erdi jaybi Musai Umron aro.

Esmayin lutfung riyozidin chaman sari nasim,
Gulga bulbul qayda vola bo‘ldi bu bo‘ston aro.

Fayz agar olmas vujudung gulsitoni atridin,
Shammai naqshi vujud imkon emas imkon aro.

Tortibon solg‘il Navoiyni karam daryosig‘a
Kim, bo‘lubtur g‘arqa bahri bodai isyon aro.

5

Yo rab, o‘lg‘on chog‘da jonim jismi vayrondin judo
Ul bo‘lub mundin judo, sen bo‘lmag‘il andin judo,

Chun judo bo‘lsam meni g‘amnok yo‘qu bordin
Ne g‘amim, sen bo‘lmasang men zori hayrondin judo.

Naqdi jon chiqqanda imon gavharin ko‘nglumga sol,
Aylagil jondin judo, lek etma imondin judo.

Xonumondin oyirib, qilg‘anda zindon ichra hibs
Qilma lutfung men aloxonu alomondin judo.

Hashr g‘avg‘osi aro osiylig‘img‘a rahm qil,
Lutf ila ilgim tutub, qil ahli isyondin judo.

Garchi o‘ldum kofiri ishq ahli islom ichra qot,
Ul zamonkim bo‘lg‘usi kofir musulmondin judo.

Elga maxlas istasang, yetti tamug‘ni ayla kul,
Aylabon bir shu’la bu ohi duraxshondin judo.

Jannat istab aylaganlarni ibodat qilmag‘il
Kavsaru to‘biyu qasru huru rizvondin judo.

Barchadin ayru Navoiyg‘a qilib vasling nasib,
Qilmag‘il, yo rab, ani mundin, muni andin judo,

6

Ey gulshani ruxsoring o'lub dahrg'a oro,
Ruxsor uza soching gul uza anbari soro.

Gung etti Masihoniyu tor etti quyoshni,
Ul nutqi dilorom ila ul husni diloro.

Gesuvu yuzung sunbuliyu bargi gulidin,
Devona menu shifta laylan va nahoro.

Ul yerdaki raxshing qilibon jilvai parvoz,
Uchmoqqa falak qushlarig'a anda ne yoro.

Zaxm eldin o'lub zohiru sendin bori marham,
El unf ayon aylabu sen barcha madoro.

La'lingg'a yetib xora agarchi ushatibdur,
Chun anda yetib la'l bo'lub qadrda xoro.

Bildi chu hadisingni Sahih emdi Navoiy,
Maskan chu tilar bo'lsa ne Batho, ne Buxoro.

7

Ey, sanga muqtadoliq iki kavn aro,
Anta xayrul bashar, anta xayrul varo.

Kimki favqus surayyo edi manzili,
Tobe'ing bo'limg'ach kirdi taxtas-saro.

Zotinga faxr etib yetmish ikki fariq,
Orazing sham'idin yorub ikki saro.

Nafsinga rahmati haq bila iqtirola,
Mu'jiz otingg'a sihru fusun iftiro.

Hashrg'a tegru me'rojing afsonasi,
Xayli xayl maloyik aro mojaro.

Ham raf'atingg'a arshi barinda makon,
Ham Buroqingg'a xuldi barinda charo.

Kim kasofat bila qo'ydi yuz na'tingga,
Gar quyosh erdikim, bo'ldi yuzi qaro.

Yo nabiyallox, ahvolima qil nazar,
Jurmu isyonu ojizlig'im mo taro.

To aning birla bo‘lg‘ay, Navoiy, sening
Na’tu hamding bayonig‘a doston saro.

8

Ulki ishq ahlini o‘lturmak erur odat anga,
Jon kerak bo‘lsa ko‘ngul aylamagay rag‘bat anga.

Hajr muhlik ekanin mundoq agar bilsam edi,
Tutmag‘ay erdim agar o‘lsam edi ulfat anga.

Ul pariy suvratig‘a telba ko‘ngul bo‘ldi asir,
Ishq aro, voyki, yuzlandi ajab suvrat anga.

Yuzi ko‘zni yoritur, lek quyosh xira qilur,
Bilur ulkim ko‘zi borkim, munga yo‘q nisbat anga.

Tosh urarlar meni Majnung‘aki, qozmish Farhod,
Ishq aro mencha qachon erdi ekin shiddat anga.

Uldi Majnun ko‘rubon dilbarinu men ko‘rmay,
Mencha yo‘q erdi ekin o‘lganida hasrat anga.

Diyda pobo‘sin ayog‘ingg‘a magar eltur ashk,
Yo‘q esa muncha yugurmakda nedurur sur’at anga.

Meni sargashtada hijron o‘qidin ming paykon,
Charxi gardong‘a mushobih ko‘runur hay’at anga.

Dahrning gulshanidin bo‘yi vafo tutma tama’
Kim, sabo mashshotasi sepmadi bu nakhat anga.

Ey xush ul rindki, mug‘ dayrini qildi maskan,
Yetsa ham mug‘bachalar ishqida yuz ofat anga.

Ey ko‘ngul, qo‘yma Navoiyniki, hushyor o‘lg‘ay,
Ko‘p yetardek esa davron elidin mehnat anga.

9

Kilk erur jismimki, til bo‘lmish demakdin lol anga,
Ichda pechu toblig‘ nolamni angla, nol anga.

Sun’ kilkidin yozildi go‘yi, ul go‘yi zaqan,
Nuqtalar yanglig‘ zanaxdoningda ikki xol anga.

Kokulung elga jahonni tiyra qilg‘on dud erur,
Har sari zulfung iki yonida tushkan dol anga,

Ko‘ynda ovora ko‘nglum xasta ermish, ey rafiq,
Lutf etib ma’lum qilsangkim, ne bo‘lmish hol anga.

Ey musavvir, topmasang Layliyu Majnun chehrasin,
Dilbarimni bil munga o‘xhash, meni timsol anga.

Soqiyo, ko‘nglumni davron qildi ko‘ptin-ko‘p malul,
Bo‘lg‘ali forig‘ kerak bir jomi molomol anga.

Ey Navoiy, kimki qildi hajr bedodin qabul,
Rahbari sarmanzili vasl o‘ldi bu iqbol anga.

10

La’li labingki, jonim erur mubtalo anga,
Maxlas demonki, istaram o‘lg‘ay fido anga.

Hajring balosig‘a ne iloj aylagay Masih,
Ranjidur ulki zahr yemakdur davo anga.

Vasling qushiki ashk ila ohimdin etti ram,
Go‘yo yarashmadi bu su birla havo anga.

Mar’yam kebi ano edi tuqqonda ul Masih,
Tarso emon desamki, kim erdi ato anga.

Dashnomim etsa shod nechuk bo‘lmayinki, men
Andoq haqirmenki, dey olmon duo anga.

Soqiy mayiki yor labu orazi kebi
Bo‘lg‘ay nazar harimida rangu safo anga.

To ichsam ani ul yuzu lab jilva aylasa,
Jon ko‘zgusida raf“ bo‘lub mosivo anga.

Ulkim zamona ahlidin istar vafov u mehr
Kim, naqshi mehr ko‘rdi munga yo vafo anga.

Ayb etmangiz, Navoiy agar bo‘lsa benavo,
Qo‘ydimu davr charxi muxolif navo anga.

11

Hajridin har nechakim bo‘ldi ko‘ngul zor manga,
Hech rahm etmadi ul sho‘xi jafokor manga.

G‘unchadekdurkim, ocharlar kuch ila barglarin,

Bo‘lg‘ali hajrida qonlig‘ ko‘ngul afgor manga.

Otashin la’ldek axgar to‘kadurlar har dam,
Labi hajrida iki diydai xunbor manga.

Zulfidin shiddati kufrum erur ul hadg‘achakim,
Sabha toricha erur rishtai zunnor manga.

Yaxshiroq ravza savodidin, agar dast berur
Ul quyosh ko‘yida bir soyai devor manga.

Chunki bu qubbai xazro aro juz hodisa yo‘q,
Ey ko‘ngul, avlo erur kulbai xammor manga.

Ey Navoiy, ne mayu mutribu ne huonu ne ishq
Xonaqah tarki erur, anglaki, nochor manga.

12

Lablaringdin garchi qon yutmoq damo-damdur manga,
Gar dame jomi visoling yiqlsa, ne g‘amdur manga?!

Pand eshitmay, ko‘rub ani, yuz balog‘a uchradim,
Ko‘zlarim chiqsunki, yuz muncha sazo kamdur manga?!

Qofi shavqum sharhini tahrir qildim, vah, ne sud
Kim, anga irsol uchun Semurg‘ mahramdur manga?!

Yorkim, mundoq nihondur ko‘zдину мен телбамен
Kim, degaykim, fitna bo‘lg‘an nasli odamdur manga,

Qora chirmab yosh to‘kub, afg‘on qilurmen xomadek,
Etkali nolon ko‘ngul bu nav’ motamdur manga?!

O‘zga yuzga boqma deb, bir-bir ko‘zumg‘a bosti muhr,
Iynak-iynak har qora bir naqshi xotamdur manga?

Dahr aro tushkan havodis o‘tidin mone’ emas,
Ko‘z yoshimdin garchi ko‘z tushkuncha bir namdur manga?!

Soqiyo, jomi jahonbin tutki, andin kashf etay
Kim, ko‘p ish bu korgah vaz’ida mubhamdur manga?!

Dilbari ollida Majnun naqdi jon sarf etmadi,
Ey Navoiy, ishq atvori musallamdur manga?!

13

To seningdek qotili xunxorae bordur manga,
Billah, ar o'lmaqdin o'zga chorae bordur manga?!

No'shi jon har bodakim ahbob ila no'sh aylading,
Garchi hargiz demading ovorae bordur manga?!

Vasli iqboliyu men, hayhot, basdur bu sharaf
Kim, yiroqdin davlati nazzorae bordur manga?!

Deb emish har kimda bor zaxme, otay marham bir o'q,
Shukr erurkim, har sarimo' yorae bordur manga?!

Bordi ul xurshidu ashkim oqtি, vah, tole' ko'rung
Kim, ne yanglig' axtari sayyorae bordur manga?!

Sabr soldim ko'ngluma vasling tilab, vah, bot kelib
Turfa ko'rkim, shisha ichra xorae bordur manga?!

Dema ko'p, ey nafskim, dunyo arusin iqd qil,
Uyda ba'zidek sog'in makkorae bordur manga?!

Dev urub ishqи majoziy ichra majnun aylagan,
Yova der, bukim pariy ruxsorae bordur manga?!

Ey Navoiy, kuymakimni qilmag'aysen man', agar
Jon aro bilsang ne otashporae bordur manga?!

14

Labing sari tokim nazardur manga,
Yosh o'rnida xuni jigardur manga.

Dema mendin ayril, dog'i umr sur
Ki, ul umr o'lumdin batardur manga.

Tugonlar diram shaklidur zod uchun,
Adam sari chunkim safardur manga.

Qilur ayb oshiqlig'im barcha xalq,
Ulus aybi, vahkim, hunardur manga.

Tabibo, yana sabrdin dema so'z
Ki, bu sharbatingdin zarardur manga.

Dema mayni tark etki, soqiy yuzi
Bu ko'zgu aro jilvagardur manga.

Navoiy, ul oy hajrida tunu kun
Qotiq shomu tiyra sahardur manga.

15

Javru zulmung garchi o'lmaklik nishonidur manga,
Chunki sendindur hayoti jovidonidur manga.

Ul parivash ishqidin, nosih, meni man' etmakim,
Telbalik vaqtiyu oshiqqliq zamonidur manga.

To o'qubmen ishq harfin darsu takroru sabaq
Vomiqu Farhodu Majnun dostonidur manga.

Muztaribmen charx yanglig'kim, nujumi tiyradin
Tanda har kun yuz tuman dog'i nihonidur manga.

Hech ranje zohir o'lmay men xud o'ldum, ey tabib,
Lek bilkim, qasdi jon etkan falonidur manga.

Eyki, dersen ishq aro o'lma ziyondur, umr sud,
Har ne sudidur sanga, nekim ziyonidur manga.

Ko'rmisham vojib baqosin ravshan, andoqkim quyosh
Toki imkon soya yanglig' ko'zda fonidur manga.

Bu fano dayrin baqosiz erkanin to angladim,
El surudi ishrati motam fig'onidur manga.

Ey Navoiy, voizu firdavsi a'lo zikrikim,
Bog'i xuld ul huri paykar ostonidur manga.

16

Qildi yuz pora ko'ngul bo'lg'ali afgor sanga,
Yuz ko'ngul birla meni ishq giriftor sanga.

Yo'q badan birla ko'nguldin manga yuz mehnatu dard
Kim, bo'lubtur badan afgoru ko'ngul zor sanga.

G'am tuni subh tilarsen, ko'ngul uz, zaxming ko'p,
Voqif o'lkim, damidin yetmasun ozor sanga.

Eyki, dersen manga oshiqmusen, ahvolima boq,
Vahki, til birla nechuk qilg'amen izhor sanga.

Eyki, davron g'amidin yo'q senga bir lahza amon,
Bilki, xush ma'man erur kulbai xammor sanga

May ich, ei shayxki, matlub yuzi jilvasidin,
Qilmadi man' bajuz pardai pindor sanga.

Vasl ko'yida, Navoiy, turubon istama yor,
Muddai borida ul ko'yda ne bor sanga.

17

Bahona qatlimadur ishqdin fasona sanga,
Qilurg'a qatl ne hojatdurur bahona sanga.

O'qi o'tunlari ichra sen o'tsen, ey ko'nglum,
Boshog'lari uchidan har taraf zabona sanga.

Quruq tanim o'q uchidin ko'runmas, ey chobuk,
Yaqin ketur, kerak ersa so'ngak nishona sanga.

Ihota aylading, ey bahri ashk, yer kurrasin,
Ajab emastur, agar yo'qturur karona sanga,

Dam urma mug'bachalar ishvasidin, ey zohid,
Vujud naqshin oqizmay mayi mug'ona sanga.

Zamona tarkini kom aylabon xalos o'lg'il,
Desangki, solmasa nokomlig' zamona sanga.

Navoiyo, g'ami chun jonu ko'nglung oldi, ne sud,
Surudi dilkash ila jonfizo tarona sanga.

18

Mehnat o'qidin qabaqdek qolmisham afg'on aro
Kim, bukun chobuksuvorim yo'qturur maydon aro.

Tiyralikdin ko'r etibtur ko'zlarim har kungi gard
Kim, bor erdi to'tiyo bu diydai giryon aro.

Senki maydon ichra yo'qsen, paykaredur joni yo'q,
Har pari paykarki markab sekretur javlon aro.

Garchi har sho'xe surar maydong'a o'q yanglig' samand,
Chun sening raxshing emas, billah, o'qidur jon aro.

Ter oqizg'an ablaqingdektur seni kelgaymu deb,
Har sari tushkan ko'zum yuz ming duri g'alton aro.

Onsiz urmish halqa chobuklar, ne yanglig' etmayin

Kim, ko‘runmas zarra, xurshid o‘lmasa davron aro.

Mehrdek gar tavsani gardunga mingilkim, sipehr
Past etarda farq yo‘q xurshid ila Kayvon aro,

Gar quyosh zangin falakraftorlig‘ raxshingga os
Kim, tuzar ul zang navhang nag‘masin afg‘on aro.

Ey Navoiy, ket bu maydondin, gar ul hur o‘lmasa,
Billah, o‘lsam turmag‘aymen ravzayu rizvon aro.

19

Vahki, rasvomen yana devonavu oqil aro,
Bul-ajab holim bo‘lub afsona har mahfil aro.

Muztar erdim hajrdin, yor etkan ermish tarki mehr,
Mushkuledur ishqdin har dam manga mushkul aro.

Aqlu sabru hush itib, ko‘nglumda qoldi dog‘lar,
Korvon ko‘chsa, qolur o‘tlar yeri manzil aro.

O‘qlaring mujgon kebi giryon ko‘zum atrofida,
Rost bordur ul qamishliqkim butar sohil aro.

Kirpiking tushkan ko‘ngul ichra xayoling, ey pariy,
Go‘yiyo Yusuf nuzul etmish chahi Bobil aro.

Qullug‘ung dog‘idin o‘lsam, istamon ozodliq
Kim, bu tamg‘adur nishoni Mudbiru Muqbil aro.

Maskaning istar Navoiy, nasya jannat ahli zuhd,
Muncha-o‘q bo‘lur tafovut olimu johil aro.

20

Ey alifdek rost qadding hasrati jonlar aro,
Jism ichinda jon kebi sen barcha sultonlar aro.

Qushqa o‘xsharkim, tikandur oshiyoni, ey ko‘ngul,
Tiyri boroni g‘amingdin qoldi paykonlar aro.

G‘am topar hajringda ashkim ichra ko‘nglum porasin,
Ish kuni topqan kebi el g‘oyibin qonlar aro.

Chok ko‘nglum xo‘blar ko‘ngli aro topti shikast,
Vah, butun qolg‘aymu yoruq shisha sandonlar aro.

Dog‘lar ichra aliflar zor jismim mulkida,
G‘am sipohig‘a silichlar bo‘ldi qolqonlar aro.

Elga ko‘yungdur makon, men qulni qavmog‘lig‘ nedur,
Bulbul o‘lsa, zog‘ ham bo‘lur gulistonlar aro.

Ista yirtuq janda kiyganlarda ma’ni maxzanin
Kim, bu yanglig‘ ganj o‘lur ul nav’ vayronlar aro.

Atlasu zarbaft aro nodon aningdek hashv erur
Kim, xatoyi safhada sabt o‘ldi afshonlar aro.

Bu eshikni chun tilab keldi Navoiy tengridin,
Ul sababdin go‘iyokim qoldi darbonlar aro.

21

Demaki, kirdi o‘sni qatl vaqtin qonim aro
Kim, ul alif kebi kirdi o‘larda jonim aro.

Ulub edim g‘ami hajringda, bo‘lmasa erdi
Labing taxayyuli jon jismi notavonim aro.

Gar aylasam vatan ul ko‘y aro, meni qovmang
Ki, ishq shu’lasi o‘t soldi xonumonim aro.

Ko‘zu ko‘ngul qurumish, ne to‘kay ayog‘ingg‘a
Ki, qolmamish duru la’li ushbu bahru konim aro.

Ajab yo‘q, oqsa erib mag‘zi ustixonimkim,
O‘tun so‘ngaklar erur shu’lai nihonim aro.

Sabuhi istayu yetkach sahar ochildi eshik,
Bu fath dayrida o‘tmas edi gumonim aro.

Navoiy, istama juz yig‘lamoq, unumdinkim
Nashot zamzamasi yo‘qturur fig‘onim aro.

22

Seningdek bute yo‘qturur Chin aro,
Buti chin sening bandang oyin aro.

Magar obi hayvong‘a kirish Masih,
Kaloming labi la’li shirin aro.

Gulandomlar ichra, ey gul’uzor,
Qizil gul kebisen rayohin aro.

Qadingdek desam sarvni, qilma ayb,
Agar tushmadi rost taxmin aro.

Firoq ichrakim va'da qilding visol,
Ajab lutf qilding ayon kin aro.

Ko'ngulda sen o'lsang, tafovut nedur,
Yo'lum bo'lsa gar kufr, agar din aro.

Navoiy duo aylar ul hur uchun,
Maloyik, madad aylang omin aro.

23

Bag'ir xunobidin za'f o'ldi g'olib xasta jonimg'a,
Og'ir erdi g'izo, avd etti zahmat notavonimg'a.

Labing hajrida jismim konidin bir pora la'ledur
Ko'ngul zaxmida, yaxshi boqsalar har qatra qonimg'a.

Adam durjiki og'zing huqqasidur, marhame andin
Davodur g'unchadek ko'nglumdag'i dog'i nihonimg'a.

Sarig' yuzumdin el yig'lar, magarkim o'lmakim yetti
Ki, mundoq xosiyat bar'aks bo'ldi za'faronimg'a.

Salohim pardasi kuydi ul o'tlug' yuz xayolidin,
Fig'onkim, oyni yod etmak zarar qildi katonimg'a.

Ul oy kulbamg'a keldi, jonduru xunob ila ohim,
Bu tortig'lar murattab aylamishmen mehmonimg'a.

Qaroru aqlu hushum ishqing o'ti birla churkandi,
Samum esdi balo dashtida ozg'an korvonimg'a.

Zamon avroqiyu ishqim edi Farhodu Majnundin,
Falak bir-ikki fasl etti izofat dostonimg'a.

Navoiy, Zuhra udin motamim tutqonda kuydurdi
Falak sari erishib borg'an uchqunlar fig'onimg'a.

24

O'tg'a solg'il sarvni, ul qaddi mavzun bo'lmasa,
Yelga bergil gulni, ul ruxsori gulgun bo'lmasa.

Sarsari ohim esar g'am shomi hijron tog'ig'a,

Yaxshidur tong otqucha bu tog‘ homun bo‘lmasa.

Telbalikdin, vahki, har dam dardim afzundur, agar
Ul pariy ishqida har dam dardim afzun bo‘lmasa.

Gar ko‘ngul qatl istabon sen va‘da qilding tongla deb,
Ushbu dam o‘ltur, bu ehson birla mamnun bo‘lmasa.

Xirqa jinsin rahn uchun, ey shayx, olmas piri dayr,
Boda bermas, toki o‘zluk jinsi marhun bo‘lmasa.

Foniy o‘l, vasl istar o‘lsang, benavolig‘din ne g‘am,
Bo‘lmasun hargiz mato‘e dunyoi dun bo‘lmasa.

Ey Navoiy, tonma, gar der ul pariy majnun seni,
Oshiq o‘lg‘aymu pariyg‘a, ulki majnun bo‘lmasa?!

25

Xotirim vayronlig‘in bilgay birov hijronida,
Ulki har soat birovni yo‘qlag‘ay vayronida.

Anglag‘ay bekasligimni bir quyosh qilg‘an gumon,
Tebranurda soya ham tebransa nogah yonida.

Tiyya shomim shiddatin andin so‘rungkim, bo‘limg‘ay
Nur bir sham‘i shabistondin saro bo‘stonida.

Kulbam ayvonin falak yiqqonni so‘r ul zordin
Kim, anisi yo‘q, yiqilg‘ur kulbasi ayvonida.

Hajr Kan’onida sha’nimda o‘qir sabr oyatin
Ulki, hajr oyatlari nozildur aning shonida.

Eyki, aytursen falak bedodidin ko‘rmay sitam,
Davr ayog‘in solmag‘il qo‘ldin falak davronida.

Rahm etib ahbobqa gardun, Navoiy ko‘rdi zulm,
Qo‘shmadi go‘yo ani ahli muhabbat sonida.

26

Dahrkim, yor yo‘q mango anda,
Bor esa dog‘i yo‘q vafo anda.

Toza dog‘edurur ko‘zum qondin
Kim, bo‘lubtur nihon qoro anda.

Uyla zindon durur firoqki, yo‘q
Men kebi kimsa mubtalo anda.

Zaxmi ko‘p ko‘nglum o‘ldi g‘am tog‘i,
Lolalar har taraf yaro anda.

Dardinga jonu ko‘nglum o‘ldi vatan,
Istagan topti munda yo anda.

Ka’badin dayr sari chek menikim,
Rind o‘lur kirsa porso anda.

Furqat ichra Navoiy ul gulsiz
Bulbulledurki, yo‘q navo anda.

27

Tushta ko‘rdum yorni xandon raqibin o‘truda,
Rashkdin har lahza tish qirchillaturmen uyquda.

Ul pariy vasli aro yodimg‘a kirsa furqati,
Telbalar yanglig‘ to‘karmen ashk ayni kulguda.

Ko‘zgu jannat ravzanidurkim, tamoshlo qilg‘ali
Hur kelmish go‘yiyo, aksing emastur ko‘zguda.

Yulduz itkandek quyosh yog‘dusida, itti quyosh
Orazing xurshidi chun qildi tulu’ ul yog‘duda.

Soqiyo, bir jur‘a tut, shoyadki yuzlangay nashot,
Necha bo‘lg‘ay hajrdin ozurda ko‘nglum qayg‘uda.

O‘zlukumni ashk eltib, o‘zdin andoq yotmen
Kim, o‘zumni tonimon, aksimni ham ko‘rsam suda.

Chun Navoiy yor sari yuzlanur, qayg‘u qolur,
Soya qolg‘andek keyin, xurshid bo‘lg‘ach o‘truda.

28

Behi rangidek o‘lmish dardi hajringdin manga siymo,
Dimog‘im ichra har bir tuxmi yanglig‘ donai savdo.

Mazallat tufrog‘i sarig‘ yuzumda bordur andoqkim,
Behida gard o‘lturg‘on masallik tuk bo‘lur paydo.

Oqartib ishq boshimni, nnhon bo‘ldi sarig‘ chehram,
Momug‘ ichra behini chirmag‘an yanglig‘ kishi amdo.

Yuzumda tig‘i hajring zaxmi har sari erur bevajh,
Behini tig‘ ilan chun qat’ qilmoq rasm emas qat’o.

Yuzum tufroqdadur har dam qurug‘on jism ranjidin,
Behiga sarnigunlik shoxi za’fidin bo‘lur go‘yo.

Bu gulshan ichra behbud istagan doim behi yanglig‘,
Kiyib pashmina, toatqa qadin ham asramoq avlo.

Navoiy gar quyosh noranjidin behrak ko‘rar, tong yo‘q,
Behikim lutf qilmish mahdi ulyo ismat ud-dunyo.

29

Jismi bemorimg‘a bor ul nargisi shahlo balo,
Joni xunxorimg‘a ham ul la’li ruhafzo balo.

Dahr ichinda ofiyat netsunki, ichkach bir qadah,
Yog‘durur olamg‘a ul sho‘xi qadah paymo balo.

Ne balodurkim, qutulmasmen balodin bir nafas
Kim, manga yetmas dame ul sho‘xdin illo balo.

Voykim, jonimg‘a ko‘zu qoshu xattu xolidin,
Yo adamdur, yo malolat, yo suubat, yo balo.

Qasdima azm etti, vah, o‘lmaktin o‘zga chora ne
Kim, erur ham jilva ofat, ham qadi ra’no balo.

Sevgali ul shahni men munlug‘, balo har dam yog‘ar,
Bor emish bo‘lmoq gadoning dilbari mirzo balo.

Ul balog‘a o‘rganibmen, o‘ylakim jonim chiqar,
Ko‘rmasam boshimda bir soat meni shaydo balo.

Jomi minoyi ilikdin qo‘yma, bu davrondakim,
Yog‘durur davr ahli uzra gunbadi mino balo.

Ey Navoiy, farq aro qil mosivalloh daf’ikim,
Keldi solik boshig‘a dunyovu mofiho balo.

30

Tig‘i zahr oluditin jismimda sar-tosar yara,
Chashmai zahri g‘amidin ichmakimga har yara.

Naylay o‘lmay, ey ko‘zi qotilki, yuz ming yaradii,

Jismi afgorim uza muhlikdurur aksar yara.

Itlaring mehmonim o'lsa, to‘ma yaram qonidur,
Qotil o'lg‘ach, turfa ko‘rkim, bo‘ldi jonparvar yara.

Qon borurdin garchi jismim bog‘ig‘a bo‘lmish xazon,
Turfarokim, qondin ochmish yuz guli ahmar yara.

Yarag‘a qo‘yg‘an momug‘lardin bo‘lub boshimg‘a toj,
La’lu yoqut aylamish ul tojg‘a zevar yara.

Yog‘mag‘an bo‘lsa tanimg‘a tiyri boroni firoq,
Bir badanda kimga bo‘lg‘ay bu qadar bovar yara.

Yara gar mahbubdin yuz muncha yetsa bok emas,
Chun yetar ahbobdin, aylar meni muztar yara.

Desang, ey soqiy, badal bo‘lsun, qadah tut behisob,
Kim to‘kar qonimni behad, kim erur bemar yara.

Ey Navoiy, qaysi bir yarang o‘ng‘alg‘ay, negakim,
Turg‘ani birla erur bu notavon paykar yara.

31

Gulu gulzor sening bog‘i jamolingga fido,
Sarvu shamshod dog‘i toza niholingga fido.

Butubon mehrigiyah donasi ham sochilsa,
Orazing gulshani ichra xatu xolingga fido.

Yo‘q mening, balki Xizr birla Masiho joni,
Chashmai no‘sh aro jonbaxsh zulolingga fido.

Yangi oy, balki to‘lun oy demayin, balki quyosh,
To‘lin oyu quyoshing uzra hilolingga fido.

Ey ko‘ngul, vasli xayolini qilursen doim
Ki, mening jonusi jahonim bu xayolingga fido.

Tuttung, ey rindi xarobot, manga sog‘arkim,
Ruh bodangg‘avu tan eski safolingga fido.

Ey Navoiy, labidin nukta so‘rarsen, yuz jon
Bo‘yla shirin so‘zu jonbaxsh maqolingga fido.

32

Majnun boshini sajdadin olmas edi aslo,
Gar Layli itining julidin topsa musallo.

Naylay qora nargisni, boshimg‘a urayinmu
Kim, boshima ofat keturur ul ko‘zi shahlo.

Yozg‘anda yuzung mushafini kotibi taqdir,
Ishq oyatini qildi mening sha’nima imlo.

Ul mug‘bacha go‘yoki chiqibtur yana usruk,
Yo‘qsa ne uchun dayrda bor elga alolo.

Do‘zaxni agar ishq o‘ti birla qiziturlar,
Dard ahlig‘a uchmoqdin erur bas tamug‘ avlo.

Maqsadni yigitlar g‘ami ishqqi aro ista,
Yoxud qarilar himmatidin ayla tavallo.

Vaslig‘a yetushkung necha sa‘b ersa, Navoiy,
Gar qilsa karam tengri taborak va taolo.

33

Dardi hajrimg‘a ul ikki la’li xandondur davo
Kim, o‘lar Iso damiyu obi hayvondur davo.

Ne davo Iso damin fahm ayla, ne hayvon suyin,
Hajr jonin olg‘on elga vasli jonondur davo.

Ishq aro za’fim davosi sharbat ermas, ey hakim,
Sharbati vasl etmayin hosil, ne imkondur davo.

Hajr aro dardim davosin yor mushkul, deb emish,
Rahm agar qilsa, aning ollida osondur davo.

Dariddin g‘amgin ko‘ngulda xona qilmish yuz mavod,
Ey, qora ko‘z, daf‘ig‘a bir nishi mujgondur davo.

Zulfi zunnorig‘a chirmang‘an uzorin ochti yor,
Zulmati kufr ichra elga nuri imondur davo.

Gar mening bedillig‘im dardi davosin istasang,
Ey Navoiy, bu marazg‘a ko‘nglum olg‘andur davo.

34

Gulborg uza qilmishsen to sabzai tar paydo,
Kun ko‘zgusida go‘yo zang etti asar paydo.

La'ling g'amidin suda gul yafrog'i kelgandek,
Ashkimda kelur har dam parkandi jigar paydo.

Jismimdin oqib qoni, paykoni ayon bo'ldi,
Shox uzra bo'lur doim gul ketsa, samar paydo.

Jon rishtasidek ermas ko'zlarga beling mar'i,
Chobuklik uchun qilding bag'larg'a kamar paydo.

Ul zulf savodida o'ldum yuzini ko'rmay,
Vahkim, yo'q edi muhlik shomimg'a sahar paydo

Davron g'amidin ko'nglum maqbuz erur, ey soqiy,
Basti uchun etkaysen ham boda magar paydo.

Kilkida Navoiyning jon shirasi muzmardur,
Har nayda qachon bo'lg'ay bu nav' shakar paydo.

35

Qilur ishq yuz ming balo oshkoro,
Vale borin aylar mango oshkoro.

Balo, ko'rki, ag'yorg'a ko'rguzur yor
Nihon mehru bizga jafo oshkoro.

Dedim: ishqni oshkor etmay, ammo
Yoshurdum men, etti qazo oshkoro.

Netib men nihon asrayin, aytin oxir,
Tilar bo'lsa dardim xudo oshkoro.

Jununum bu bo'lsa, g'amim bo'lg'usidur
Nechakim yoshursam yano oshkoro.

Qilur yuz jafo oshkoravu bir ham
Vafo qilmas ul bevafo oshkoro.

Yedim tiyr boroni hajringda ming zaxm
Ki, bo'ldi ne o'qu ne yo oshkoro.

Necha boda maxfiy, chu fosh o'ldi ishqim,.
Tut emdi qadah, soqiyo, oshkoro

Ki, to mast o'lub ishq ramzida, tortay
Navoiy kebi bir navo oshkoro.

Ey, sanga qomati diljo‘ ra’no,
Tavru tarzing dog‘i asru ra’no.

Paykaru qaddinga volihmenkim,
Ul biri nozuk erur, bu ra’no.

Ul pariy uchqusi ra’noliqdin,
Odami muncha bo‘lurmu ra’no.

Qomating nozuku to‘bi nozuk,
Sarv ra’novu tarong‘u ra’no.

Ey musulmonlar, o‘larmenkim, erur
Asru ul sarvi sumanbo‘ ra’no.

Bevafodur bu chaman, ko‘p bo‘lmang,
Ey, sapidor ila nojo‘ ra’no.

Bil, Navoiyki, g‘izolingga emas,
Chin gulistonida ohu ra’no.

Zihi la’ling mayidin jong‘a yag‘mo,
Ko‘zungnung kufridin imong‘a yag‘mo.

Buzug‘ ko‘nglumga torojingni bas qil,
Kishi solmaydurur vayrong‘a yag‘mo.

Yuzung ko‘z mardumining nurin oldi,
Pariy solg‘an kebi insong‘a yag‘mo.

Bo‘lur har sho‘x yag‘moyi asiri,
Chu ul chobuk solur maydong‘a yag‘mo.

Ajab hayron qolibmenkim, ne olg‘ay,
Solib ul ko‘z meni hayrong‘a yag‘mo.

Yuzung ko‘rguz manga andin burunkim,
Xazondin yetkay ul bo‘stong‘a yag‘mo.

Ko‘zidin zulf agar to‘lg‘ondi, tong yo‘q
Ki, solmish turk Hindistong‘a yag‘mo.

Junun dashtida ne axz aylagay ishq,
Bukim solg‘ay meni uryong‘a yag‘mo.

Navoiy, anda chekti davr ayog‘i
Ki, soldi jomi may davrong‘a yag‘mo.

38

Yor javlongahidin keldi sabo,
Paykarim tufrog‘ini qildi habo.

Yuz samandi ayog‘ig‘a qo‘yarim,
Misli kah bargdurur kahrabo.

Buki ko‘ksumni g‘aming qildi shikof,
Xilqatim ko‘nglakini qildi qabo.

Bo‘ldi bag‘rim yarasi ila afan
Ki, shamimidin erur biymi vabo.

Boshima yog‘sa qilich ishqingda,
Bo‘lmasun boshim, agar qilsam ibo.

Vahki, jonim bila o‘ynar ul tifl,
Sho‘xlug‘ lozimasi keldi sabo.

Panja pashminag‘a urdumki, erur,
Ey Navoiy, panahim oliy abo.

39

Ey, yuzung gulbargiga oshuftavu hayron sabo,
Telbalardek gulshani ko‘yungda sargardon sabo.

Qo‘pmog‘i mumkin emastur, balki tebranmakligi,
Topmasa jonbaxsh la’ling nuktasidin jon sabo.

Sunbuli zulfin agar oshufta qilmaydur, nedur
Kim, shabistong‘a esar har dam abirafshon sabo.

Pora-pora jism aro ohim netib qolg‘ay nihon,
Bo‘lmog‘ imkon yo‘q xasu xoshok aro pinhon sabo.

Yordin keldi sabo kech kelmakin aylarga fosh,
Ko‘nglum ichra tez qildi shu'lai hijron sabo.

Notavonlar ohi ul gul ko‘yida har subhidam,
Uyladurkim, gulsiton ichra esar har yon sabo.

Subh chun esti sabo, ichkil qadahkim, bo‘lmog‘ung

Senu ko‘p esturgusi bu bog‘ aro davron sabo.

Lolaruxlar ahdining mahkamligi mumkin emas,
Sobit o‘lmoq lahzae bir yerda ne imkon sabo.

Tong emas, solsa Navoiy ohi ko‘yungda g‘irev,
Chun guliston sayrida zohir qilur afg‘on sabo.

BYe XARFINING BALOLARINING BIDOYATI «BADOYE»DIN

40

Haq o‘zin qildi muhib, sen oyni mahbub, ey habib,
Ul muhibqa sen kebi mahbub erur xo‘b, ey habib.

Rog‘ib erding ul muhib vaslig‘a, chun shomi uruj
Topting, ulkim xotiringg‘a erdi marg‘ub, ey habib.

Bir sarimo‘ olam ahli bo‘g‘zidin parvoysi yo‘q,
Aylagan o‘znn sening hubbungg‘a mansub, ey habib.

Bo‘lsalar ahli muhabbat har kishining tolibi,
Bizga sendursen iki olamda matlub, ey habib.

Har kishi ahbobing ichrakim o‘zin aylar hisob,
Bermayin jon ul muhibqa qayda mahsub, ey habib.

Chun shafoat daftari sendin tutarmen ko‘z, ne g‘am,
Har qo‘lumg‘a bersalar mahsharda maktub, ey habib.

Chun muhabbat ahlig‘a toat hunardur, rahm qil
Kim, Navoiy keldi ul xayl ichra ma'yub, ey habib.

41

Yor gulgun to‘n yenginmu yuzga aylabtur hijob,
Yo yoshurmishtur quyosh ruxsorini gulgul sahob.

Yo‘qli, ishq ahlig‘a olamni qorong‘u qilg‘ali
Ul shafaqdin yopti xurshid uzra gulnori niqob.

To qizil to‘n ichra bo‘ldi jilvagar mohim mening,
Mehr etar har tun shafaq xunobi ichra iztirob.

Qon yoshim aksimu ol etmish falak mir’otini
Kim, bo‘lubtur la’lgun atlasda soyir oftob.

To‘n kiyib gulrang, olamni guliston aylading,

Bizga qism aylab xazoni hajr aro xori azob.

Soqiyi gulchehra, gulgun boda beandoza tut
Kim, bu gulshan ichradur xori malolat behisob.

Ikki olamda, Navoiy, surxro‘lug‘ istasang,
Ham nabi, ham oliy hubbig‘a durust et intisob.

42

Vahki, ul mug‘bacha, har damki chekar bodai nob,
Qo‘zg‘alur arbadasidin bu ko‘han dayri xarob.

Yoqa choku, o‘zi beboku belida zunnor,
Bir ilikida pichoq, bir qo‘lida jomi sharob.

Ko‘zi islom elining jonin olurg‘a qotil,
Zulfi taqvo elining bo‘g‘zidin osmoqqa tanob.

Yuzida kufr o‘tining shu’lasidin yuz ming nur,
Sochida din xalalidin tushubon yuz ming tob.

O‘lturub dayr eshiki ollida tufrog‘ uzra,
Durdi jomiki tomib, ruh topib ahli turob,

Jonlaridin yub ilik barcha xarobot ahli,
O‘zni qutqarg‘ali har qaysig‘a bir sari shitob.

Buyla holatda ko‘zi tushti mangavu kulibon
Yuz tuman lutfu karam birla bu nav’ etti xitob:

«Kim ayo rindi vafo peshavu mehr andisha,
Kelib ich bir qadahu chekma xumor ichra azob».

Yugurub tushtum ayog‘ig‘avu tufrog‘ o‘ptum,
Berdi may ilgima hayvon suyi ollida sarob.

Chektimu hush yuzin ko‘rmadim, andin so‘ngra
Tushmisham ko‘yi xarobot ichida masti xarob.

Ey Navoiy, angakim bor esa bu roh nasib,
Ruhullohu taolo valahu husni maob.

43

Pariydek ulki erur xo‘blar aro mahjub,
Hijob sizu men uldur bu telbaga matlub.

Hayosi birla hijobida garchi volamen,
Qilibturur meni ollida noladin majhub.

Muhabbat ahlig'a noz etkuchidin ermish sa'b,
Tariqi hilmu adab zohir etkuchi mahbub.

Chu ishq g'olib erur, ehtiyoj emas Layli
Qilurg'a ishvaki, Majnunni aylagay mag'lub.

Kishiki, da'voi ishq ichra o'zdin oldi hisob,
Bu muddaoda agar o'lmagay, emas mahsub.

Fano yo'lida sabukbor istasang o'zni,
O'zungdin ayla burun o'zlukung yukin maslub.

Navoiy, asru muaddabdur ul mahi maktab,
Adab tariqi bila yozg'asen anga maktub.

44

Labingdin xasta jonkim bo'ldi betob,
Emas betob, anga erur shakarxob.

Yoshimdin obro'yum bordi, bildim
Ki, ravnaqsiz qilur oltunni siymob.

Qoshing hajrida har na'liki kessam,
Kelur payvasta, jono, shakli mehrob.

Qilich bog'i beling quchqon hasaddin
Ko'zumga ajdaredur shakli qullob.

Ko'zum ollidadur la'ling xayoli,
Emas kirpiklarim ostida xunob.

Firoq ilgi fig'on jon rishtasidin
Chiqarur, tordin andoqki mizrob.

Falak boshingg'a qoplاب it terisin,
Sen ani jahldin deb kishu sanjob.

Ajab yo'q, odamilig'ni unutsang,
O'zungni buyla it charmida asrob.

Navoiy, ranj ko'rma, og'zin istab
Kim, ul bir javharedur — asru noyob.

45

Shahd aro og‘ushta gulbargedurur ul ikki lab,
Har so‘z andinkim chiqar, shirin esa, yo‘qtur ajab.

Jonim ichra kirpigi nishi teshuk qilg‘an kebi
Bilgurur og‘zi, tabassum aylagach ul ikki lab.

Ishqini jon rishtasi birla muqayyad ayladim,
Ey xirad, ketkim, seni qayd etkali yo‘qtur sabab.

Xoksorin ul quyosh yuzlik pariy malshun demish,
Tengri bizga osmondin nozil etmish bu laqab.

Ko‘yida maqbul ulus hajrida bilmas kuymakim,
Do‘zax ahlidin ne ogah ravzada ahli tarab.

Topti Layli noqasi Majnun fig‘onidin hudi,
Mumkin ermas po‘yadin taskini aning, ey arab.

Dayr aro har dam yiqilma vajd etib, ey shayxkim,
Piri dayr ollida mustahsan emas har beadab.

Ko‘p achig‘lanma, agar bo‘lsang ulustin talxkom,
Ulcha qismingdur qazodin, kimga aylarsen g‘azab.

Ey Navoiy, olma yor ollida yuz tufrog‘din
Kim, bu shar‘ ichra muhabbat sajdasidur mustahab.

46

Bo‘lmayin husn ko‘ngul topmadi ishq ichra tarab,
Anga haqdin talabi ishqdurur husn talab.

Dahr bo‘stonida bir husn guli ochilmas,
Bulbuli ishq agar bo‘lsa navosiz, ne ajab.

Otashin yuzga yetib, qayda ko‘ngul o‘rtangay,
Bo‘lmasa zulf kamandi anga bu ishda sabab.

Talxliq birla berurmu kishi shirin jonin,
Noz ila talx hadis aylamasa shirin lab.

Bir quyosh mash‘alidin jonima ur ishq o‘ti,
Yo‘q esa sham‘i hayotimni o‘chirgil, yo rab.

Soqiyo, ishq o‘ti gar yo‘q, may o‘tin ravshan qil
Ki, kul o‘lsun nafasi xoru xas, ranju taab.

Ko'rgach-o'q axtari husn, o'lsa Navoiy, tong yo'q
Kim, o'tub umr, tulu' etti bu farrux kavkab.

47

Jamolin ayla ulus ko'zidin nihon, yo rab,
Nihon o'tumni aning ko'nglig'a ayon, yo rab.

Ayog'i chunki yetar ostoni tufrog'ig'a,
Boshimni aylagil ul xoki oston, yo rab.

Agarchi emin emon bir zamon jafosidin,
Chekardin ani manga bermagil amon, yo rab.

Demonki, lutfini, javrini dog'i mendin o'gun
Birov xayolig'a o'tkarma, nogahon, yo rab.

Zamon-zamon chekibon ishq o'ti shu'lasini,
Yorut ko'ngulni ul o't birla har zamon, yo rab.

Agarchi aylamasang yaxshi, yaxshi ko'rguzgil
Meni anga nechakim bor esam yomon, yo rab.

Navoiy ohini yetkur anga, vale qo'yma
Aning jamolida bu duddin nishon, yo rab.

48

Ey, jamoling gulshani xo'bu visoling bog'i xo'b,
Elga lutfung xo'b esa, jonimg'a zulmung dog'i xo'b.

Maydin ul ruxsora gul-gul, bas muloyimdurki, bor
Sof su uzraki bir-bir tushsa gul yafrog'i, xo'b.

La'li ko'nglum holini so'rg'och, tirildim hajr aro,
Ne balo bor ermish aning la'lining so'rmog'i xo'b.

Dema bu olamda ul oy xo'b yo jannatda hur,
Ko'rmamishmen andag'in, bori erur mundog'i xo'b.

Mehrig'a ko'kta shafaq xo'b ermas andoqkim manga.
Moviy terlik uzra ul oyning qizil shirdog'i xo'b.

Tut yigitlikni g'animatkim, qarig'ach angladim
Kim, yigitlar ishqil bor ermish, yigitlik chog'i xo'b.

Zohido, sen bo'l riyo avji uza masnadnishin
Kim, Navoiyg'a erur faqru fano tufrog'i xo'b.

49

Ey, firoqingdin manga g‘am ro‘ziyu mehnat nasib,
Ohkim, hajringda o‘z shahrimda bo‘lmishmen g‘arib.

To g‘arib erdim, nasibim g‘am yemak erdiyu bas,
Shahrim ichra dog‘i g‘am bo‘lsa nasibim yo nasib.

G‘urbat ichra istar erdim kezibon yoru diyor,
Chunki toptim, istamak g‘urbat erur behad g‘arib.

O‘z diyorimda buzug‘ ko‘nglum ne yanglig‘ to‘qtasun
Kim, erur begona ham ahbob mendin, ham habib.

Kim raqibim bo‘lsa, baskim, yor aylar iltifot,
Olam ahlin sog‘inurmenkim, menga bo‘lmish raqib.

Dahr aro, eykim, deding: aylab vafo, ko‘rdum jafo,
Kim vafo ahlidurur, bu so‘z anga bordur ajib.

Ey Navoiy, yor vaslin topmasang, yo‘qtur ajab,
No‘s sh yo‘q, lekin ko‘rar yuz nish guldin andalib.

50

Yuzungda qironing erur bas ajoyib
Ki, oy davrida halqa urmish kavokib.

Ajab safhadur orazingkim, esirkab,
Ani xat bila qilmadi tiyra kotib.

Yuzung ollida har nafas tutma ko‘zgu,
Quyoshni qamar yopmoq ermas munosib.

Erur suvrating zebi andoqli, bo‘lg‘ay
Raqam aylagan suvrat o‘pmakka rog‘ib.

Kishi suhbatidin qoch, ey lo‘‘bati Chin
Ki, lo‘‘batlaring-o‘q sanga bas musohib.

Yigitlar ishi pardadarlig‘dir, emdi
Bo‘ladur ko‘ngul pardadarlig‘larg‘a rog‘ib.

Navoiy, yigitlikni qo‘y, chun qariding,
Qilib tavba, bo‘l zuhdu taqvog‘a tolib.

51

Ishqing iffosig'a ne yanglig' bo'layin murtakib
Kim, bo'lurmen, har kishi otingni tutg'och muztarib.

Eyki, dersen: bormasun ul yuz sari ko'nglung qushi,
Kim ko'rubtur sham'din parvona bo'lmog' mujtanib.

Ko'rmagan mushkin sahab ichra payopay soiqa,
Dudi ohimdin damo-dam shu'lalar ko'r multahib.

Gah ko'zidin o'lturur, gohi labidin jon berur,
Sho'xlig'dindur anga har dam burayi munqalib.

Rindlar, iflosdin g'am yo'q, to'kilgan bodadin
Aysh etarsiz, chunki mug' dayrig'a kirdi muhtasib.

Itlaringga nisbatimni rost qilsam, qahf iti
Odamilarg'a o'zin qilg'an kebidur muntasib.

Markabing javlonida boshin Navoiy qildi go'y,
Ishq aro bo'ldi ajab sargashtalikka murtakib.

52

Kuydi ko'nglum, shu'la o'tlug' dostonidin tushub,
Rost ul qushdekki kuygay, o't fig'onidin tushub.

Boruram uryon tushub tan zaxmidin, nolon ko'ngul
Ul qalandardekki, qolg'ay zang yonidin tushub.

Ko'yidin tushgan yiroq ko'nglum erur ovorae,
Kim erur devona, ayru xonumonidin tushub.

Tig'i bedoding bila borg'on shahidi ishqning,
Rustaxezi dahr aro har qatra qopidin tushub.

G'unchasi rangin bo'lub la'li mayidin, uylakim,
O't tutashqay oshiqi ko'ngliga jonidin tushub.

Ruhi isyon tufrog'idin avj topmas, uylakim,
Bir malak jurm aylabon oliv makonidin tushub.

Xoli hajridin Navoiy ko'ngli og'rir, negakim,
Og'rig'ay elning qora dog'i nihonidin tushub.

53

Ishq nobud etti bizni volayu shaydo qilib,
Qatl uchun har lahza muhlik boise paydo qilib.

Ekkali g‘am tuxmi xayli dard ashkim saylidin
Aylabon vayron chu ko‘nglum kishvarin, yag‘mo qilib.

Hushu aqlu nomu nangim shishasin sindurg‘ali
Nozanin siyminbarim ko‘nglin qazo xoro qilib.

Ishq kimni ko‘rmasun deb odamilig‘din nishon,
Dilbarin aning pariy paykar, malaksiymo qilib.

Ibtido aylab alifdin, muhr aylab dog‘din,
Ishq manshurin chu davron otima insho qilib.

Topibon Farhod ila Majnun tariqi ofiyat,
Ishq bedodi aro yerda meni rasvo qilib.

Soqiyo, tut jomi ruhafzoki, muhlik hajrdin
Kim, bo‘lub mahzun ilojin sog‘ari sahbo qilib.

Ey, xush ul rindi xarobotiki, mast o‘lg‘on zamon
Dahrg‘a hukmin surub, gardung‘a istig‘no qilib.

Ishqi kofir, chun Navoiy telbani din mulkidin
Xorij aylab, moyili dayru mug‘u tarso qilib.

54

Vah, ne balo ekinkim, ul chiqtı samandin o‘ynatib,
Qoshlari yosini chekib, g‘amzası o‘qlarin otib.

Fitna qilurg‘a otlanib, goh chopib, gahi yonib,
Har tarafekim aylanib, o‘zgacha la’b ko‘rsatib.

Tizginib, uylakim quyun, aylanib uylakim tutun,
Raxshi solib chu dubdurun, xayli baloni qo‘zg‘atib.

Elga ochib uzorini, gul kebi yuz bahorini,
Dardu firoq xorini ko‘kragim ichra o‘rnatib.

Ishqi chu elga o‘t yoqib, ikki ko‘zum suyi oqib,
Har sarikim kula boqib, dard ila bizni yig‘latib.

Mug‘bacha ishqida meni tezrak itti piri dayr,
Nechaki mast tashladi, ko‘yi boshig‘a sudratib.

Itti Navoiy oh ila, nolai umri koh ila,
Chunki shahu sipoh ila sirrini elga anglatib.

55

Ul meni surmakka har dam xanjari hijron chekib,
Men ayog‘idin boshim olmay, yo‘linda jon chekib.

Ul ichib el birla ruhafzo qadahlar oshkor,
Men balo jomida zahri g‘ussani pinhon chekib.

Vasl ne mumkinki, to oshiqmen, ul qatlim uchun
O‘q chekib qosh yoyig‘a, men zaxmdin paykon chekib.

Men chekib ko‘z qonidin yuz uzra xatlar birga yuz,
Nildin xatkim banogo‘shi aro jonon chekib.

Zikrida ohim damo-dam uyladurkim, ahli zuhd
Har zamon bir mad o‘qurda oyati Qur‘on chekib.

Davr bazmida ne maykim xalq no‘sh aylar, meni
Qon yutarg‘a ul aroda soqiyi davron chekib.

Ul pariy borg‘ach, Navoiy dasht sari qo‘ydi yuz,
Telbalar yanglig‘ yaqosin chok etib, afg‘on chekib.

56

Ishq o‘ti ichra har dam kul bo‘lurmen o‘rtanib,
Gah-gahi ham telba itlardek chiqarmen churkanib.

Toblig‘ gisusig‘a chirmar meni sargashtani,
Ko‘rmaduk ikki quyun bir tor birla chirmanib.

Mast bo‘lsam, ostoning bas manga bosh qo‘yg‘ali,
Ne hadimkim, takya qilg‘aymen, tizingni yostanib.

Ishqdin ko‘p ma‘rifat xarj ayladi Majnun manga,
Bo‘lmasa majnun, qilurmu xarj, mendin o‘rganib.

Men kimu gustox o‘pmak ilging, ey sultonи husn,
Itlaringning chun kafi poyin o‘parmen iymanib.

Yordin bo‘lmasa judo, jong‘a balo bo‘lg‘an ko‘ngul,
Qush bolosidekki, ayrilmas kichikdin o‘rganib.

Hajr aro sargashtamen andoqki, to tutqum qaror:
Ish yiqilmoqdur, bori olam boshimg‘a aylanib.

Bevafodur chun jahon gulzori, ey ko‘nglum qushi,
Bo‘lma bir gul volehi, bulbulg‘a nogoh o‘tkanib.

Yorig‘a borsa, yuz ish bo‘lsa, Navoiy tark etib,
Lek qaytur vaqtir har soat bir ishga kuymanib.

57

Ul pariy ko‘nglum qushin sayd etti, zulfin dom etib,
Yuzi birla xoli su donasidin rom etib.

Soldi o‘t ko‘nglumg‘avu orom tutti g‘ayr ila,
Shu’la yanglig‘ so‘zlug‘ ko‘nglumni beorom etib.

Kofirekim dinim oldi, dog‘i kirdi qasr aro,
Qal’ai Xaybarg‘a kirdi, g‘orati islom etib.

Bazm aro men o‘lsam, ul jon topsa, tong yo‘qkim, manga
Tutti zahri hajr, o‘zi no‘shi tarab oshom etib.

Ey kabutar, chun damim o‘rtar malak bolu parim,
Sendin o‘lmas ishqim o‘tin yorg‘a payg‘om etib.

Ul quyosh hajrinda, ey soqiy, shafaqgun may manga
Tut labolab, lek davri charx zarfin jom etib.

Yaxshi ot badnomlng‘ birla chiqarg‘il o‘lgucha,
Ey Navoiy, o‘zni yaxshi ot bila badnom etib.

58

Ichsangiz may suyidin, ishrat uyin obod etib,
Jur’ae ham quyg‘asiz tufroqqa, bizni yod etib.

Soz eting avval g‘amimdin nag‘makim, bir usl erur
Uy imorat aylamak, xoro bila bunyod etib.

To havoiymen ul oy hajrida andoqkim, bulut
Toqqa har dam yuzlanurmen, yosh to‘kub, faryod etib.

Va’dai vasl etsa ul Shirin sanam, g‘am tog‘ini
Qozg‘amen, tirnog‘larimni teshai Farhod etib.

Ul quyundurmen fano dashtidakim, bo‘ldum adam,
Har ne borimni boshimdin chuyurib, ozod etib.

Har zamon ko‘nglum qotig‘ ermas dema, ey siymbar,

Yoshurun qolmas billur ichra nihon po'lod etib.

Voqif o'lkim, dahr dehqoni sening qasdingdadur,
Ismim aning gul qilib, otin munung shamshod etib.

Mayg'a targ'ib etmaking kofidurur, ey piri dayr,
Mundin o'zga ishni naylarsen manga irshod etib.

Istama la'lin, Navoiykim, marazda emganur,
Tab'ini sihhatliq el sharbat bila mu'tod etib.

59

Vafoni qildi ko'p ozurda ul oy, chun jafo aylab,
Adam dashtida ko'nglumni vatan qilmish, jalo aylab

Vafo andoqki ochti ul jafogardin, agar men ham
Qocha olsam, yana ishqin havas qilmay, xato aylab.

Demon davron aro yo'qtur vafo aylab vafo ko'rgan
Ki, yo'qtur ming jafo tortib, qutulg'an, bir vafo aylab

Yiqilg'an ishq aro, sihhat tama' qilma Masihodin
Ki, bu bemorlig'din kimsa qo'pqon yo'q, davo aylab.

Safoli faqr ol, jonu jahon naqdin berib, garchi
Kishi Jamshid jomin sotqin olmaydur, baho aylab.

Qutulsang bevafovashlar g'amidin, ey ko'ngul, shukr et,
Yana chekma balo, o'zni birovga oshno aylab.

Bizing afsonamizdin nukta so'rmang, ey xirad ahli,
Nedinkim, bu junun fasli tunganmas, mojaro aylab.

Manga yo'q, o'zgaga bori vafo qilg'anni gar topsam,
Boshig'a evrulay, ollida jonimni fido aylab.

Ko'ngulkim, ro'zgorimni qorartib bo'ldi ovora,
Topilsa, kezduray davron aro, yuzun qora aylab.

Gadolarg'a gahe lutf et, shaho, bu shukr uchunkim, haq
Seni lutf aylabon shoh ayladi, bizni gado aylab.

Navoiy, kimsa yo'qkim, charx zulmidin zabun ermas,
Navo jojid kimga berdi, bizni benavo aylab.

60

Un chekarmen ishq aro, bir nargisi jodu ko‘rub,
Bag‘lag‘an itdekki, faryod aylagay, ohu ko‘rub,

Vah, netib mashshotani ollinda ko‘rgaymenki, yor
Aksidin g‘ayrat qilurmen, ollida ko‘zgu ko‘rub.

Orazu xoling xayol etkach, yetishti novaking,
Qildi ul quş mayl, go‘yo dona birla su ko‘rub.

Chekti bosh xatting labu xoling qoshida, vah, ne tong,
Gar muloyim bo‘lsa to‘ti shakkaru hindu ko‘rub.

Lablari xandon bo‘lur, ko‘rgach ko‘zumda yig‘lamoq,
Ko‘zlarim yig‘lar, labi jonbaxshida kulgu ko‘rub.

Nosiho, ne nav’ mayi jomini og‘zimdin olay
Kim, icharmen, mayda soqiy orazin o‘tru ko‘rub.

Gar Navoiy mufrif afg‘on etsa, jono, qilma ayb,
Sen halok etgan ko‘ngul so‘ngida yig‘lar o‘kurub.

61

O‘rtanurmen, ko‘ngliga andin asar bo‘lg‘aymu deb,
Bo‘lsa ta’sir, anga holimdin xabar bo‘lg‘aymu deb.

Telmururmen mungrayib ul bevafog‘a muttasil,
Bir ham andin dardi holimg‘a nazar bo‘lg‘aymu deb.

O‘rtanur, ey voiz, ohimning sharoridin sipehr,
Ne so‘ray, do‘zaxqa mundoq bir sharar bo‘lg‘aymu deb.

Sursa maydon ichra har chobuk, yugurmoqdur ishim
Keyinicha, ul chobuki zarrin kamar bo‘lg‘aymu deb.

Telbalik ko‘rkim, qucharmen bog‘ aro har sarvni,
Birisi ul sarv qaddi siymbar bo‘lg‘aymu deb.

Dahr bo‘stoni aro so‘r bog‘bondin, ey rafiq,
Juz baliyat mehr naxlig‘a samar bo‘lg‘aymu deb.

Ey Navoiy, nechakim qildim gadolig‘, so‘rmadi,
Yo rab, ul majnuni zor darbadar bo‘lg‘aymu deb.

62

Ul pariy ishqida yo‘qkim meni devona kuyub,

Yasag'anlar ham o'zin, oqilu farzona kuyub.

Ishq o'tidin kishi bir qatla kuyub bo'lsa xalos,
Chun yana qaytibon ul shu'la sari, yona kuyub.

Ishq ko'ksumga chu o't soldi, ko'ngul ham kuydi,
Chug'z ham o'rtanib, ul o'tqaki vayrona kuyub.

Yuzidin o'rtanibon talpinur ollida ko'ngul,
Sham' ayog'ida urung'an kebi, parvona kuyub.

Eyki so'rdungki, qachon kuydi buzug' ko'nglung uyi,
Orazing barqi chaqilg'onda, bu koshona kuyub.

O'rtanib aqlu ko'ngul, ishq chu aylab tug'yon,
Andakim barq tushub, oqilu farzona kuyub.

Chun Navoiy chekib ul oy g'amidin shu'lai oh,
Oshno kul bo'lub ul o'tdinu begona kuyub.

63

Xorlar bir gul g'amidinkim ko'ngulga butrashib,
Har biri mujgonining bir zaxmi ichra o'rashib.

Yo rab, andin sa'broq holat bo'la olg'aymukim,
Ikki hamdam bir-biridin ayrilurda yig'lashib?

Bu uqubatqa talofiy hajr daf' o'lg'och budur
Kim, quchushqoylar alar bir-birga nogah uchrashib.

Istagaymu huri jannat yonida kavsar suyin,
Kimki yori birla bir kun boda ichti yondashib?

Sarv qaddim ishqidin ko'p to'lg'anib, men ko'rgali
Bog' arokim chiqtı sarvu ishqı pechon chirmashib.

O'lsa o'ldummu degay, ulkim sevar yori bila
Qolsalar xilvat aro, ag'yor har yon tarqashib.

Soqyo, may birla sol jonimg'a andoq shu'lakim,
Ranju mehnat dudi chiqqaylar boshimdin to'lgashib.

G'am xazonida to'karmen ashklar, tortib g'irev,
Navbahor andoqli yog'qaylar bulutlar kukrashib.

Ey Navoiy, bevafo davr ahlig'a indurma bosh
Kim, alar qoshida bosh indurgan el bo'ynin qashib.

Kuysalar Farhodu Majnun ishqdin afsona deb,
Zohir etmaslar manga ul nuktani, devona deb.

Ishq ichinda munglarim deb, eyki, yig‘latting meni,
Jon fidong aylay, yana bir lahza yig‘lat, yona deb.

Bir yo‘li ishq ahli orimenki, qo‘ymaslar meni
Jam aro bir yo‘li, aqlu hushdin begona deb.

So‘ngg‘i uyqum shiddatin naql etma, rovi, zinhor,
Kelturur bo‘lsang anga uyqu kecha afsona deb.

Men hamulmenkim, qovar majnun deb emdi tifllar
Kim, tilar erdi ulug‘lar oqilu farzona deb.

Tushti zulfi domig‘a ko‘nglum qushi mayl aylagach,
Ul taraf ruxsori ko‘zgusin su, xolin dona deb.

Tongla barcha yaxshilar bo‘lg‘usi kavsar davrida,
Men yomonni mahram etmang sokini mayxona deb.

Naylab ul tovus paykarni tilay kulbamg‘akim,
Chug‘z qo‘nmas, dam-badam yemrulgudek vayrona deb.

Shohlig‘din or etar, chunkim Navoiy kirsa mast
Dayr ko‘yiga, surudu nag‘mai mastona deb.

May quyoshimu ichimda uyoqib,
Yo falak mehr o‘ti ko‘nglumda yoqib.

Hajr aro vasli dog‘i har ishin
Aytib ahbobu mening ashkim oqib.

Telbalik xushtur, agar sudrasalar
Zulfi zanjirini bo‘ynumg‘a toqib.

Tushubon yuz tuban el ko‘z yoshidek
Ko‘z uchi birla chu har sari boqib.

Hajr toshiyu salosil temuri
Telbalik o‘tini ko‘nglumga choqib.

May bati dayrda uchmoq tilabon,
Mastlar anda ovuch, baski, qoqib.

Debki, marham yoqayin zaxmingg'a,
Ul nekim desa, Navoiyg'a yoqib.

66

Qotil ko'zungki o'lturur elni boqib turub,
Boqmas manga, ko'zum nechakim tursa telmurub.

Har qatla it kebi tusharam o'zga raxnadin,
Har lahza chun meni chiqarur ko'yidin surub.

Sing'on qadah kebiki, oqar har taraf mayi,
Qonlar oqib, chu g'am toshi boshimni sindurub.

Har bir bo'lub bir axtari nahse chu shomi hajr,
Chun dudi ohim uchqunini ko'kka yetkurub.

Ishqing bosh ursa zor tanimdin, emas ajab,
Xoshok ichinda shu'lani bo'lg'aymu yoshurub.

Andoq latifdur tanikim, ichsa jomi may,
Borur tanida qursog'ig'a tegru bilgurub.

Bulbul parin ne gulki sovurdi bu bog' aro,
Day sarsari aning dog'i bargini sovurub.

Davron eliga kimki vafo no'shi arz etib,
Ul ham muqobilida jafo nishi yetkurub.

Bukim qovar jafo bila, ey kosh, ko'yida
Itlarga to''ma qilsa, Navoiyni o'lturub.

PYe HARFINING PARIVAShLARINING PARVOZI «BADOYE»»DIN

67

Nechakim ko'nglumda bor ul dilraboning yodi ko'p,
Bor aning yod etmaki ozroq, vale bedodi ko'p.

Layliyu Shirinvashimning ishq dashtu tog'ida
Mencha bir yo'q, garchi bor Majnun ila Farhodi ko'p.

Xo'blar vodiysida topilmas el ko'ngli qushi,
Ne uchunkim, bordurur bu beshaning sayyodi ko'p.

Topmag'ay naxli qadingdek bir niholi xush xirom,
Garchi bo'lg'ay bog'bonning sarv ila shamshodi ko'p.

Telba ko‘nglumdin emon roziki, har tun ko‘yida
Itlarining og‘ritur boshin aning faryodi ko‘p.

Kirpigingga qatl ta’limin ajal bermish, valek
O‘zidin ustodroq etmish aning ustodi ko‘p.

Shayx ila ahli riyovu dayr piri birla rind
Kim, fano ichra keraktur pirning irshodi ko‘p.

Umr qasrin necha kun tutqil g‘animatkim, darig‘
Xush binodur — poydor ermas vale bunyodi ko‘p.

Davr ayog‘idur iloji, kimki davron ahlining
Javridin ozurda bo‘lmish xotiri noshodi ko‘p.

Tarqang, ey ushshoqkim, sayd etti bizni mug‘bacha,
Dayr aro siz ham kezing, kufr ahlining avlodи ko‘p.

Tifllar o‘ynar Navoiy birla majnun deb, magar
Tifl ekanda ul dog‘i bu qavm ila o‘ynodi ko‘p.

68

Javr o‘qin xoki tanimg‘a urma ko‘p,
Ko‘kka bu tufrog‘ni sovurma ko‘p.

Ishqdin bastur manga o‘rtanmakim,
Hajr barqi birla ham kuydurma ko‘p.

Yuziga, ey ko‘z, chu yo‘q tobi nazar,
Bas, aning sari boqib, telmurma ko‘p.

No‘shi la’lingdin agar jon istadim,
Bu gunoh uchun meni o‘lturma ko‘p.

Doimo rasmi muhabbat bor emish,
Bizni ushbu jurm chun yozg‘urma ko‘p.

Vaslg‘a chun yo‘q nihoyat juz firoq,
Bas, vafo amlin qoshingdin surma ko‘p.

Hech ish o‘lmas ayru xoliq amridin,
Iltijo maxluqqa kelturma ko‘p.

Ey gado, chun shayalilloh deding, o‘t,
Aylabon ibrom boqib turma ko‘p.

Tut gadolig‘ni, Navoiy, mug‘tanam,
Shohlar ollinda bosh indurma ko‘p.

TYe HARFINING TOROJGARLARINING TAMOSHOsi «BADOYE» DIN

69

Taxtu johing kishvari mulki Skandar bo‘ldi, tut,
Xizr umri ham bu mulk uzra muyassar bo‘ldi, tut.

Buyla mulku umrdin so‘ng jinu insu vahshu tayr
Hukmu amringg‘a Sulaymondek musaxxar bo‘ldi, tut.

Muncha hashmat topmog‘ingdin so‘ngra birovni qulung
Joh ila muknatda Qoruncha tavongar bo‘ldi, tut.

Poya yetti zinalig‘ taxtingg‘a, yetti charx o‘lub,
Taxtpo‘shung zinati tarsi’ axtar bo‘ldi tut.

Buyla taxt uzra bo‘lub boshing uza xurshidi toj,
Mundoq oltun toj uza Birjis gavhar bo‘ldi, tut.

Bazmi ishqing bodasin kavsar deyin yo salsabil,
Jomi Jam ul jonfizo sahbog‘a sog‘ar bo‘ldi, tut.

Har nekim zikr o‘ldi, oxir chun solib ketkungdurur,
Tengdurur, gar bo‘lmadi tut, barchani gar bo‘ldi tut.

Umrg‘a chun yo‘q vafo, tengri necha bu dahrcha
Yona xalq aylab, sanga hukme muqarrar bo‘ldi, tut.

Chun borursen, avlo ulkim, yo‘l yarog‘in aylasang,
Qolibon aksar gunohing, dog‘i aksar bo‘ldi, tut.

Sust himmatlig‘ bila uchmog‘ ne mumkin, ey hakim,
Hikmat avroqi iki egning uza par bo‘ldi, tut.

Deb eding, soqiysi, vaqt o‘lg‘och, tutay bir jomi may,
Davrdin mir’oti avqotim mukaddar bo‘ldi, tut.

O‘lsa deb erding Navoiy, turguzay vaslim bila
Biltur o‘lganlar bila ani barobar bo‘ldi, tut.

70

Tutti ko‘k feruzagun jomini shingarfi bulut,
Soqiyo, nilufari jom ichra gulgun boda tut.

Charx davri chun malolat boisidur, necha kun
Charxdek jomu shafaqgun may bila o'zni ovut.

Topsa kunduz kavn shug'lidin zamiring tiyralik,
Kecha bori may quyoshidin zamiringni yorut.

Chun unutqungdur sen elni, el seni, bori chekib
Aysh jomin, bu unutmog'larni bir soat unut.

Nosiho, chun umr o'tar, qo'ykim, bo'lay ishrat bila,
Aysh tarkin kim buyurdung, o'ktadur bu nav' o'gut.

Gar zuloli vasl, ey solik, qilursen orzu,
Xotiringni orzular o'tidin avval sovut.

Ey Navoiy, chiqtı chun rangin bulut, rangin may ich
Kim, sen o'lmay qilg'usi ko'p jilva bu rangin bulut.

71

Jon farah topti, labing javhari bo'lg'ach anga qut,
Olloh-Oolloh, ne mufarrih bo'lur ermish yoqut.

Nola man'in qilasen, xotami la'l og'zima qo'y,
Bu nigin naqshi bila qo'yg'il anga muhri sukut.

Mayi la'ling ne ajab bodaki, kayfiyatidin
Ruh loya'qilu andin xirad o'lmish mabhut.

Xanjaring tig'ida yuz ko'rdungu ashkim yog'di,
Yomg'ur ermas ajab, o'lg'onda quyosh manzili Hut.

Husn mulki uza, oyo, ne pariy erkinsen
Ki, bo'lur sadqa sanga charx uza xayli malakut.

O'zluki boqiyu zohid uradur lofi vusul,
Foniy o'lmay kishi topqaymu bu da'vog'a subut.

Jon halok o'ldi Navoiyg'avu tan zoru nahif,
Ul o'lukka yasamish ushbu so'ngakdin tobut.

72

Vahki, la'ling qildi bag'rim tah-batah qon oqibat,
Qatra-qatra ko'zdin ul qon bo'ldi g'alton oqibat.

Bordingu og'zimg'a qo'ydung muhr, afg'on chekma deb,
Bu ishingning muhri bo'ldi dog'i hijron oqibat.

Furqating tig‘i buzug‘ ko‘nglumni yiqti, ohkim,
Sayli ofat birla yemruldi bu vayron oqibat.

Ko‘ngluma qoshing xayoli bo‘ldi tanvin nunidek,
Uyla nung‘a nukta bo‘ldi dog‘i pinhon oqibat.

O‘lmish erdim g‘am tuni, la’ling xayoli berdi jon,
Zulmat ichra bo‘ldi paydo obi hayvon oqibat.

Soqiyo, jom ayla doirkim, g‘animatdur hayot,
Tutqusidur chun ajal kosini davron oqibat.

Ey Navoiy, yor vasli garchi bas dushvor edi,
Foni y o‘lg‘ach, buyla dushvor o‘ldi oson oqibat.

73

Ko‘zdin uchti ul pariy, vahkim, anga yetmakka bot,
Kosh aningdek chiqsa dermen ikki egnimdan qanot.

Novaking ko‘nglumda gar itti hamul andoz ila,
Ani topmoq istasang, jono, yana bir novak ot.

Kosh sensiz o‘lsam erdi, ey parivash, qilma ta’ n
Kim, meni majnung‘a ortuqtur o‘lumdin bu uyot.

Soqiyo, bexudmen andoqkim, qilurmen kasbi hush,
Imtihong‘a doruyi behush agar jomimg‘a qot.

Xonaqah shayxi ushatti sog‘arin, ey piri dayr,
Sen karomat ko‘rguzub, rag‘mig‘a tavbamni ushot.

Ey tani xoki, ul oy ollida hukmi birdurur,
Garddek chiq ko‘kka yo tufrog‘dek yo‘linda yot.

Bir diramkim qalb bo‘lg‘ay, arzimassen, ey ko‘ngul,
Har necha mehru vafo bozorida o‘zungni sot.

Telbalar yuz pora ko‘nglidek yasabsen bolu par,
Garchi g‘aybatda pariyg‘a hojat ermastur qanot.

Chun Navoiy jonig‘a ofat erur lo‘livashe,
Sog‘inur g‘uli biyobon, ko‘rsa qo‘ng‘rotu qiyot.

74

Boshim chu gardu ko‘zum ko‘r sensiz o‘lmadi bot,
Qoshingda bosh ko‘tarib, ko‘z ocharg‘a qo‘ymas uyot.

Erur maloyikai rahmat o‘qlaring jong‘a,
Malak tanida, ajab yo‘q, agar uch o‘lsa qanot.

Xizr suyiki erur zulmat ichra, tengmu bo‘lur
Labing bilaki quyoshdin chiqardi obi hayot.

Habib ishqil aro buki o‘lmading, ey Xizr,
Ichib hayot suyi, zoye’ aylading avqot.

Quyoshqa kimki yuzung borida qilur sajda,
Parastish aylamak angla iloh ollida Lot.

Kirib quyosh kebi qo‘yma vujud g‘ayrg‘a hech
Ki, ko‘nglum ichra xavotirdur uylakim zarrot.

Navoiy o‘ldi o‘qung hasratidin, ey chobuk,
Inoyat ayla bir o‘q, sekretib aning sari ot.

75

G‘aming qattig‘lig‘in qilsam hikoyat,
Eshitsa tosh, anga aylar siroyat.

Ko‘ngul g‘am shomidin chiqmoqqa bo‘ldi,
Boshog‘lig‘ novaking sham‘i hidoyat.

Ne nav’ ollingda shavqumni qilay sharh
Ki, husnungdek anga yo‘qtur nahoyat.

Xayoling ko‘nglum ichra muztaribdur
Kim, ul vayrona issig‘dur bag‘oyat.

Ko‘zung qonimni ichmakka ne haddim
Erur, ani iting ichsa, kifoyat.

Dema bir yo‘ldurur ishq ichra, ey shayx
Ki, munda muxtalif keldi rivoyat.

Navoiy qonin ul ko‘z birla to‘ktung,
Tirik bo‘lkim, budur ayni inoyat.

76

Tanimni qilsa g‘amzang yuz jarohat,

Yotar har zaxmdin jonimg'a rohat.

Halovat topmayin jonom labingdin,
Solor zaxmim aro tuz ul malohat.

Jamoling subhi ochib erdi yuz gul,
Quyosh sarg'ardi, ko'rgach ul sabohat.

Supurdum ko'z bila ko'yung fizosin
Ki, jonlar jilvagohidur bu sohat.

Bo'lur zohir labingdin qatl etar chog',
O'lukni tirguzurdek yuz fasohat.

Chu sendin ayru ermas yor, nedur
Uyin istab jahon qilmoq masohat.

Qabih etti Navoiy haq jahonni,
Elidin tutmag'il ko'z juz qabohat.

77

Boshig'a may chiqibon, bo'ldi ul sitamgar mast,
Yo'q ahli husn aro bir uyla qotili sarmast.

Nachukki sarv niholi nasimdin egilur,
Xirom vaqtida ul nahli mohi paykar mast.

Kabutar o'ynamog'idin ko'ngul qushi behud,
Xuruj etar bo'lubon uylakim kabutar mast.

Ne masti arbada gar senki, chiqsa bazmingdin,
Buzar zamonani badmastlig' bila har mast.

Labing haloki agar bodano'sh, agar toib,
Ko'zung xarobi agar hushyor erur, gar mast.

Labing xayolidan ar mastmen, ne tongki, erur
Bu may xayoli bila olam ahli aksar mast.

Navoiy usruk agar qilsa arbada, tong yo'q
Ki, shayn o'lur ishi, majnunni gar qilurlar mast.

78

Yo rab, ul oy husnining idrokin elga mubham et,
Ko'z bila ko'nglumni ul sirri-xafiq'a mahram et.

Ko‘iyu qaddu labi yodin manga q0ilg‘il fuzun,
Jannatu to‘bi bila kavsar tamannosin kam et.

Diyda ko‘rmak istasa aning yuzidin o‘zga yuz,
Qiyrlar birla bu ikki suqba javfin mahkam et.

Gar ko‘ngul vaslidin o‘zga vasl surin istasa,
Qism anga hijron siyah cholida doim motam et.

Xotiri savdoi ar ul zulfdin o‘zga havas
Qilsa, ani zulfdek oshuftaholu darham et.

Ruh ul qad jilvasidin o‘zga qilsa orzu,
Hajr o‘ti ichra anga do‘zax azobin har dam et.

Ko‘nglum o‘ldi hajr o‘tidin resh, ey soqiy, manga
Bodai kofurgun durdidin olib marham et.

Yo‘q chu olam bog‘ida bo‘yi vafo, ey piri ishq,
Jilvagah bir jom ila ko‘nglumga o‘zga olam et.

Ishq jurmig‘a Navoiyni qovarsen, ey pari,
Qovma, javru zulm qil, devonavu rasvo ham et.

79

Harfi ishq o‘ldi azaldin safhai jonimda sabt,
Har ne andin o‘zga barcha lavhi nisyonimda sabt.

Dedim: ey ko‘nglumga o‘q urg‘on, nedur otting, degil,
Dedi: boqkim, aylamishlar ani paykonimda sabt.

Qaysi shahlar boshi qasring davrida bormish desam,
Derki: boqqilkim, erur ul toqi ayvonimda sabt.

Bo‘lsa tobe’ Vomiqu Majnun, ne tongkim, aylamish
Ishq tug‘rosin qazo kilki mening shonimda sabt.

Ishq avroqida, eykim, o‘qiding yuz ming balo,
Yuz tuman oncha erur avroq hijronimda sabt.

Dardi ganji sharhini, eykim, tilarsen, qilmisham,
G‘ussa nishi no‘gi birla kunji vayronimda sabt.

Ne o‘qirsen qissada Ya’qub huzninkim, erur
Oncha yuz bir oy g‘amidin baytul-ehzonimda sabt.

Juzv-juzvimni ayiribkim parishon aylading,

Bordur aning sharhi ajzoyi parishonimda sabt.

Ishq tig‘i yarasidin o‘lganim tarixini,
Ey Navoiy, nazm aylab, ayla devonimda sabt.

80

Vahki chiqdi otlanib bir mast loyaqil yigit,
Sarvdek yeldin ot uzra har taraf moyil yigit.

La’li no‘shi birla yuz yillig‘ o‘lukka ruh baxsh,
G‘amzae nishidin Masihu Xizirg‘a qotil yigit.

Tig‘i xunrezi ajaldek qatli om aylab valek,
So‘rsa har jonib nechukkim umr musta’jil yigit.

Anglamonkim hurmu erkin, malakmu yo pariy
Kim, bashar jinsida andoq ko‘rmaduk hosil yigit.

Ko‘ngli qotig‘liqdin elni o‘lturur, rahm aylamas,
Olloh-Oolloh kim ko‘rubtur buyla sangin dil yigit.

Zahri chashmu tig‘i qotil g‘amzayi hunrez ila,
Kilg‘uchi elga tiriklik rasmini mushkil yigit.

G‘orati din qildiyu kofirlig‘ irshod aylabon,
Ahli kufr alfozi birla har zamon qoyil yigit.

Qaribon qilma yigitlar suhbatin har dam havas
Kim, qarini istamas bazm ahlig‘a doxil yigit.

Ey Navoiy, nega bo‘ldung telba deb ko‘p so‘rmakim,
Aqlu hushum qolmadidi chiqqach bu loyaqil yigit.

81

Vah qayon bordi buzuq ko‘nglumni zor etgan yigit,
Javr tig‘i birla ko‘ksumni figor etgan yigit.

Orazin ochqanda ko‘nglumni ochib gul-gul valek,
Kirpikidin onda yuzming xor-xor etgan yigit.

Necha ko‘nglum toatu taqvokim aylabon ixtiyor,
Jilva qilg‘ach mast ani beixtiyor etgan yigit.

Bizni ishq oyinida rasvoyi olam aylabon,
Ofiyat ahli qoshida sharmisor etgan yigit.

Ishq tarkidaki yuz tadbir etib ko‘nglum nihon,
Daf‘ig‘a yuz labu afsun oshkor etgan yigit.

Meni salohu ofiyat ishqingda tark etgan qari,
Sen jafoyu zulm qatlimg‘a shior etgan yigit.

Tavba aylab erdim, ey zohid, netay tutti manga,
Lolagun may ber, uzorin lolazor etgan yigit.

Bilki ne ajzu niyoz oyinu rasm etgan qari,
Qolg‘usi ne nozu istig‘noyu sor etgan yigit.

Nosiho tarki junun qilmas Navoiy kelmayin,
Ishq dashtida ani devonavor etgan yigit.

82

Olami ishq ichra darding o‘tdurur, hajring ham o‘t,
Dardi hajring so‘zidin ko‘nglumda olam-olam o‘t.

Dog‘i ishqing uyladurkim hirqatin o‘ksutkali,
Yoqsa bo‘lg‘ay ustiga aning nachukkim marham o‘t.

Ne haroratdур, mayi ishqingda tokim ichmisham,
Ko‘kka dudimni chekar, ko‘nglumga solib har dam o‘t.

Shu’lae tushmanish firoqingdin hazin ko‘nglumdakim,
Ashkdin to‘ktim yeti daryo suyin, bo‘lmas kam o‘t.

Vah, ne muhlik hol erur jonimg‘a la’ling hajrida
Kim, solur daf‘ig‘a anfosi Masihi Maryam o‘t.

Bu kecha voqif bo‘lung evlardin, ey hamsoyalar
Kim, manga tushmanish firoq otashgahidin mahkam o‘t.

Hajr ko‘nglum kishvarin bir o‘t bila kuydurdikim,
Kildi ishq ahlig‘a dudidin savodi a’zam o‘t.

Dahr bo‘stoni aro sunbul bila gul demakim,
Charx zulmi solmish anda dud birla darham o‘t.

Ey quyosh, naylab Navoiy kuymasinkim, bor anga
Ishqing o‘t, husnung ham o‘t, lutfung ham o‘t, qahring ham o‘t.

83

Yor bo‘lmoq tong emas men zori rasvo birla do‘st
Kim, pariy gohi bo‘lur majnuni shaydo birla do‘sx.

La'lini sevdum, ko‘zining qatlidin qayg‘urmog‘um,
Ne g‘am o‘lmaktin, kishi bo‘lsa Masiho birla do‘st.

Zulfi savdosi, bu savdoi boshinda ko‘pturur,
Bo‘lsa savdo ahli, tong yo‘q, ahli savdo birla do‘st.

Sarv qadliq, guljabinlik do‘stning hijronida
Bo‘lmog‘um ne gul bila, ne sarvi ra’no birla do‘st.

Hajrdin olam qorong‘udur vale, g‘am yo‘q, gahe
Jilva qilsa ul jamoli olamoro birla do‘st.

Xizr yuz mehr ila tutqan jomi Jamdin yaxshiroq,
Tutsa may durdini yuz toroju yag‘mo birla do‘st.

Bo‘lma dunyo do‘st, gar istar esang osudaliq,
Lek har ne qilsalar, bo‘l ahli dunyo birla do‘st.

Ey Navoiy, necha dushman bo‘lsa, yonma do‘stdin,
Chun sanga bo‘lmishtur ul yuz ming tamanno birla do‘st.

84

Chu qildi jilvagar ul sho‘xi no‘shlab suvrat,
Meni zaifqa ko‘rguzdi yuz ajab suvrat.

Jamoli suvratini safhada ko‘rub, ittim,
Tushub jahonni kezarga qilib talab suvrat.

Ne nav’ suvratidin ko‘z olayki, ma’nidin
Bo‘lurg‘a bir xabar o‘lmish manga sabab suvrat.

Nishot suvratidin topqamen dedim, vahkim,
Muyassar o‘lmayin ul berdi yuz taab suvrat.

Firoq anduhida, soqiyo, qadah tutkim,
Bu ko‘zgu ichra manga ko‘rguzur tarab suvrat.

Ul oy jamoli aro zulfidin ajab qoldim
Ki, oy arosida qilmish ayon zanab suvrat.

Navoiy oso dardu fig‘on ilan menkim,
Bulardurur manga zotiyu muktasib suvrat.

85

Ko‘yi gardidin ko‘zumni avval, ey hamdam, yorut,

So'ngra. marham aylabon ko'ksum shikofin dog'i tut

Gar unutti yor bu mahzunni, vahkim, ko'ngluma,
Bor ani har dam sog'nndirmoq desam, sen ham unut.

Qaddu ruxsoridin ayru dudu o'tdur, ey rafiq,
Dema sarvu gul bila bir lahza ko'nglungni ovut.

Zahri hajring birla chun yuz qatla qilding talxkom
No'shi la'ling birla ham bir qatla og'zimni chuchut.

Zulfi zanjiri jununum chorasidur, ey hakim,
Aqldinmu erdi bu devonag'a bermak o'gut.

Va'dai vasl ayladi ul oy, hamono kelgusi,
Tig'i hajridin shikof o'lg'on ko'ngul bu so'zga but.

Asru vahshiydur mening mushkin g'izolim, ey ko'ngul,
Chin kiyigi go'yiyo bermish anga tuqqonda sut.

Ey ko'ngul, davron elining tarki tut yo har nafas
Bag'ringga bir xanjari bedod yeb, xunoba yut.

Olam ahli, demangiz emdi Navoiykim, meni
Bir quyosh hajri havoni qilmish andoqkim bulut..

86

Bahor el gulga moyil, bag'rima yuz xor har soat,
Yetib har xoridin ko'nglumga ming ozor har soat.

Bu aqshom notavon ko'nglumdin, ey ahbob, o'lung voqif
Ki, holdin borur za'f aylab ul bemor har soat.

Bo'lurmen uylakim, ko'rgan zamon vayron bo'lub ko'ngli
Boshimda yig'lag'ay ham yoru ham ag'yor har soat.

Emas vayronada har dam o'lardek holatim, vahkim,
Turubtur boshima yemrulgali devor har soat.

Damo-dam za'fim andindurki, mujgoning xayolidin
Jarohatlig' ko'ngulga sanchilur bir xor har soat.

Jununum har dam afzun bo'lsa, ey hush ahli, tong yo'qkim,
Ko'zumga jilva aylar ul pariy ruxsor har soat.

Mayi la'lingg'a ne kayfiyat erdikim, nasimidin
Bo'lurlar mastu bexud yuz tuman hushyor har soat.

Bu bazm ichra ne amnu ayshkim, har davr ayog‘inda
Yiqar bir notavonni gunbadi davvor har soat.

Fano dayrida gar may vajhi yo‘q, bas xirqavu daftar,
Meni mayxonadin sudratma, ey xammor, har soat.

Agar boshimg‘a yog‘sa tosh gardundin, tong ermaskim,
Borurmen ul pariy ko‘yiga Majnunvor har soat.

Navoiy, to jahon ahlig‘a sen vobasta, ko‘ngronma,
Alar javridin o‘lsa xotiring afgor har soat.

87

Tanimg‘a berdi jon ul naxli qomat,
Dema qomat ani, degil qiyomat.

Vafog‘a mayl qilmas naxli qaddnng
Ki, topmisj javr aro ko‘p istiqomat.

Yuz ochma, garchi tutqay ko‘rsa ma’zur,
Meni ishqingda arbobi malomat.

Ne g‘am gar yuz meningdek o‘lsa, yo rab
Ki, bo‘lsun ul masihodam salomat.

Abad umricha bor ollida o‘lmak,
Buyurma, ey nasihatgo‘, nadomat.

Nedur, ey shayx, ushatmoq sog‘arimni,
Butun qil, bor esang ahli karomat.

Navoiyni deding ko‘yumdin o‘tma,
Salomat bo‘l, desang aylay iqomat.

88

Ey qoshing fitnavu ul nargisi shahlo ofat,
Yo‘qtur ul ikkida juz fitnavu illo ofat,

Ne qadu, ne ko‘zu ne g‘amzaki, har dam andin
Yo balodur manga, yo fitnadurur, yo ofat.

Dema ra’no qad ila jilvasidin xolingni,
Jilva jonimg‘a balo, ul qadi ra’no ofat.

Manga ne ofiyat o‘lg‘ayki, xayol etsam, erur

Yuzini yuz sardin jonima paydo ofat.

Muncha ofatki erur dahrda, sendin tushmish,
Yo'qsa olamda burun yo'q edi muncha ofat.

Soqiyo, bodaki, taqvoysi riyo ofatidin
Yaxshiroq, bo'lsa manga sog'aru sahbo ofat.

Vahki, kirpiklarining ofati ko'nglumga kirib,
Solmish ul kulba aro bu kecha g'avg'o ofat.

Foniy o'lg'il, tilasang vaslki, bu yo'lda erur
Xirqavu daftaru tasbihu musallo ofat.

Asl uldurki, sanamlar sori ko'z solmag'asen,
Ey Navoiy, tilasang ko'rmamak aslo ofat.

SYE HARFINING SAMIN GAVHARLARINING SAMARASI «BADOYE» DIN

89

Agar jahong'a falakdin g'ame bo'lur hodis,
Erur bu xastani g'amnok aylamak bois.

Magar o'lar kuni Farhod birla Majnunning
Balovu dardig'a ishq ayladi meni voris.

Firoq xirmani yig'dim, visol tuxmin ekib,
Zamona mazraida bormu men kebi horis.

Iyodatimdin ul oy gar qo'par, chiqar jonom,
Tirikmen ar bo'lur ul umr bir zamon mokis.

Tariqi ishqu muhabbat mangayu Majnung'a
Aningdek o'ldiki, topmas sipehr anga solis.

Sen ista fayzi fano dayr gungu lolidin
Ki, ishq darsini bilmas mujodilu bohis.

Erur Navoiyu ishq ichra ming balo, go'yo
Falak havodisi barcha anga bo'lur hodis.

90

Mening majnunlug'umg'a ishqu savdo gar erur bois,
Va lekin bu ikkiga bir pari paykar erur bois.

Dema bois nedurkim, talpinursen har kecha to subh,

Tikilgan kirpikingdin jong‘a yuz nishtar erur bois.

Ko‘ngulda otashin la’ling g‘ami, ayb etma kuysamkim,
Tutashmoqqa tanim xoshoki ul axgar erur bois.

O‘qungdin par chiqardim, ko‘yunga qilsam havo, tong yo‘q
Ki, uchmoq mayli qilmoqqa bu bolu par erur bois.

Firoqing biymidin yuz qatla jon bergay edim, lekin
Hayotimg‘a umidi la’li jonparvar erur bois.

Chu mendin yuz evurdung, tong emas, boshingg‘a evrulsam,
Bu sargardonlig‘img‘a gardishi axtar erur bois.

Agar rahn o‘ldi tasbihu rido mayxonada, ey shayx,
Icharga dayr piri ilgidin sog‘ar erur bois.

Fano bahrig‘a cho‘mmoqdin g‘araz tolibqa vasl o‘ldi
Ki, g‘avvos o‘lmakiga g‘arq o‘lub, gavhar erur bois.

Navoiy jismining za’fig‘a bois bo‘ldi bedilliq,
Vale bedillig‘in so‘rsang, anga dilbar erur bois.

91

Va’dai vaslidin etsa ul so‘zi shirin hadis,
Garchi yolg‘on aytur, ani sog‘inurmen chin hadis.

Istasam vaslini, der g‘am tog‘i qoz tirnog‘ ila,
Buyla hargiz qilmadi Farhod ila Shirin hadis.

Chunki har bir nukta dersen, sochilur yoqutu la’l,
Olloh-Oolloh, kim deb erkin bu sifat rangin hadis.

Bazmi ayshida hadisimni demang, ey do‘stlar
Kim, erur g‘am mujibi nekim qilur, g‘amgin hadis.

Gar takallumdin o‘lukni turguzurlar xo‘blar,
Barchasig‘a mahvashim go‘yo qilur talqin hadis.

Ishq sIRRIN sharh qilmoqdin chu qosirdur bayon,
Bas kerak oshiq demakni qilmasa oyin hadis.

Darsi ishqining, Navoiy, uyla der ushshoq aro
Kim, degay ilm ahlig‘a Sayid Jamoliddin hadis.

JIM XARFINING JAMILALARINING JILVASI «BADOYE»DIN

Ey jahon mulki xiroji sanga bir gavhari toj,
Mulklar shohi qo'yub dargahinga toju xiroj.

Tuzubon adl, ko'ngul mulkini obod etting,
Mulk ma'mur bo'lur, adlg'a shah bersa rivoj.

Tengriga gavhari zoting edi kulli maqsud,
Sun'daryosin azal subhi qilurdin mavvoj.

Ehtiyoj aylabon izhor quyosh ra'yingg'a,
Xalq andoqki quyosh nuriga bo'lg'ay muhtoj.

Paykaring tufrog'ig'a xayli maloyik homil,
Taxti izzu sharafingg'a to'quiz aflok davvoj.

Chun chiqib taxti xilofat uza haqdin, bo'lubon
Hukmi gardankashiga mulkdin amri ixroj.

Buyla mardud hadisin nega qilding maqbul
Kim, tanazzulg'a badal bo'ldi sanga ul me'roj.

Ne tag'oful edikim, uyla aduv makr bila
Xoksor etti seni, mulkunga solib toroj.

Ro'zg'oring qorarib zulmati isyon ichra,
Zor eding, afv ilki tutmasa ollingga siroj.

E'tiroz etma, Navoiyu fuzul o'lmaki, haq
Xalq etib sevdi, yana dard berib qildi iloj.

El ne bilsun ne edi haqqa bu ishda hikmat,
Mehr nurin ne bilur shapparaki tiyra mizoj.

Telba ko'nglum po'yasig'a anbarin banding iloj,
Xasta jonim za'fig'a la'li shakarxanding iloj.

Solib erdi choklar bag'rimg'a tig'ing har taraf,
Bo'ldi mujgon o'qidnn har sori payvanding iloj.

Muhlik o'ldi shavq, yo sur tig', yo qil jilvakim,
Bu ikidin o'zga topmas orzumanding iloj.

Hajr qatlidin meni turguzdi la'li, ey Masih,
Ojiz erding, sen nafas asra, gar o'rganding iloj.

Yuzu la'li hajridin bemor o'lubmen, ey hakim,
Umr zoe' qilma, qilmas chunki gulqanding iloj.

Dardi hajrim sa'b erur — kel, ey ajal, boshimg'akim,
Vasldin ayru emas ma'lum monanding iloj.

Ko'nglung, ey bulbulki, yuz parkand erur, gar kelsa gul,
Barg-bargidin topar parkand-parkanding iloj.

Murshidesen bas ajab, ey ishqkim, matlubning
Vaslidin ham istamas mehnatqa xursanding iloj.

Ul pariy hijronida bo'lg'on Navoiy nosihe,
Aylay olg'aymu junun mag'lubig'a panding iloj.

94

Ey, soching oshuftasi yuz xayli savdoiy mizoj,
Ko'rmaduk zanjir ham savdog'a bois, ham iloj.

Vasl ishida asru nozukluk tushubtur, ey ko'ngul,
Kim erur ham nozuk ul gulchehra, ham nozuk mizoj.

Dardi hajrim arz qilsam, derki, sabr et, voykim,
Zahr ila muhlik marazg'a ko'rmaduk hargiz iloj.

Tig' tortib tojvarlar, boshig'a chun chopti raxsh,
Tandin uchti, vahki, har yon boshu boshtin uchti toj.

Zulmunga bo'lsam zabun yuz vajh ila, ne aybkim,
Sen g'anisen — men gado, sen shah — men ahli ehtiyoj.

Tuz bo'yung oqu qoralik, dolu gul tundin erur,
Uyla o'qkim, obno's o'lg'ay anga payvand oj.

Kishvari ishq ichra zolim shahdur ul sultonи husn
Kim, ko'ngullar mulkidin jon naqdini olur hiroj.

Arsh qandili gumon qil shishadek sofiy ko'ngul,
Urmag'il damkim, topar yeldin xalal ravshan zujoj..

Ohi muhlikdur, Navoiy ko'ngli zaxmi islanib,
El o'lar, topsa havog'a chun ufunat imtizoj.

95

Emas la'ling qatili jong'a muhtoj,

Ko‘zungnung kofiri imong‘a muhtoj.

Labing muhtojidur ko‘nglum, nachukkim,
Skandar chashmai hayvong‘a muhtoj.

Chu maydon ichra surdung, bas bu ofat,
Emas nazzora gar javlong‘a muhtoj.

Tilar ko‘nglum o‘zin ishqing shahidi
Ki, bor ul g‘amzai fattong‘a muhtoj.

Qochar ko‘nglum qushi tan kulbasidin,
Agarchi chug‘z erur vayrong‘a muhtoj.

Yuzung qursi qamar, muhtoj anga men,
Gado andoqki bo‘lg‘ay nong‘a muhtoj.

Fano mayxonasida qil gadolig‘,
Desangkim, bo‘lmayin sultong‘a muhtoj.

Anga muhtojroq menmen, agarchi
Erur ko‘p gar boqar har yonga muhtoj.

Navoiy jong‘a muhtoj ermas, ammo
Erur yuz jon bila jonong‘a muhtoj.

ChIM HARFINING ChOBUKLARINING ChYeHRAKUSHOYLIG‘I «BADOYE»»DIN

96

Ko‘zi qatl etti, ko‘nglum ichra zulfi mubtalo bo‘lg‘ach
Ki, qush bismil uchundur, bastai domi balo bo‘lg‘ach.

Yetib munglug‘ ko‘ngul vaslig‘a hech o‘z holini bilmas,
Ajab ermas gado o‘zni itursa, podsho ko‘rgach.

Ne so‘rdung bir yo‘li nogah qorarg‘an ro‘zgorimni,
Bu hol o‘ldi bir oy hijronidin shomim qora bo‘lg‘ach.

Qachon bo‘ldung demang begona aqlu, hushu taqvodin,
Muni so‘rmog‘ ne hojat, ul parig‘a oshno bo‘lg‘ach,

Maloyik xayli jonidin to‘la bo‘ldi falak javfi
Jahonda ul pari vaslig‘a jon naqdi baho bo‘lg‘ach.

Ulusqa tiyri boroni baliyat yog‘di, ul oyning
Sipohi husn aro mujgoni novak, qoshi yo bo‘lg‘ach.

Xijolatlar kelur Farhodu Majnun ruhig‘a har dam,
Mening ishqim so‘zidin xalq ichinda mojaro bo‘lg‘ach.

Zamon ahli vafosizliq bila gar qildilar qatlim,
Farah topqay magar ruhum, alar da’bi vafo bo‘lg‘ach.

Chu ketti bargu gul, bulbul navodin qoldn, ko‘rgilkim
Navoiydek emish ul dog‘i bebargu navo bo‘lg‘ach.

97

Turra marg‘ulin ochib ruxsori mah siymog‘a soch,
Tun savodi anbarin mehri jahon orog‘a soch.

Sarvi gulro‘yim qilur gulgashki gulzor, ey nasim,
Dam-badam sarig‘, qizil gul, ul guli ra’nog‘a soch.

Yig‘lama, ey ko‘zkin, ul oy bo‘lg‘usidur mehmon,
Gar socharsen yuz guhar, ul gavhari yaktog‘a soch.

Yordur sham’i shabistonim bu aqshom, ey sipehr,
Axtaringning durlarin bu bazmi mehrosog‘a soch.

Tashnag‘a ber fayz, ey abri karamkim, yo‘q osig‘,
Gar suni yuz qatla daryodin olib, daryog‘a soch.

Dayr aro din ahlining ko‘ngliga zulfi bo‘ldi qayd,
Bulajab zunnordur, ul dilbari tarsog‘a soch.

Zuhd elin may birla rasvo aylading, ey mug‘bacha,
Jur’ae ham netti rahm aylab meni rasvog‘a soch.

Yo‘q u dunyoda vafo, ey sarsari dashti fano,
Gardi nisyon sovurub, dunyovu mofihog‘a soch.

Ey Navoiy, umri joqid aylar ersang orzu,
Bas hayoting naqdini ul la’li ruhafzog‘a soch.

98

To‘lg‘adi sabrim, qo‘lin zohir qilib dildor kuch,
Garchi nozukdur va lekin bor anga bisyor kuch.

Ishq uylarni yiqrar, oshiqqa kin qilmoq nedur,
Mo‘r xaylig‘a qachon pil aylamish izhor kuch.

Qosh agar budur, sening yoyingni chekmak sa’b erur,
Kimsa ilgida chu maqdur ermas ul miqdor kuch.

Ko‘zlarin bedodi jon birla ko‘ngulga tong emas,
Ne ajab, din ahlig‘a gar ko‘rguzur kuffor kuch.

Za’f aro ul ko‘ydin sudrar qo‘lum tortib raqib,
Bandin oyirg‘udekdur qilsa nohanjor kuch.

Soqiyo, men xastadin badmastlig‘ ermas ajab,
Ko‘rguzur ko‘prak zaif elga mayi xammor kuch.

Ishq aro andoq zabundurmenki, aylarlar manga
Ham gado, ham shoh kuch, ham your ham ag‘yor kuch.

Sog‘ ekanda hajr aro kuch birla o‘zni asraram,
Lek may ichkanda aylar yig‘lamoq bisyor kuch.

Kuch bila o‘lturdi ul zolim Navoiy xastani,
Necha torta olg‘ay oxir bir zaifi zor kuch.

99

Chiqti bog‘lab yana ul kofiri xunrez qilich,
Mast har sari surar raxsh, chekib tez qilich.

Qilichin ko‘rdumu jonimg‘a tarab yuzlandi,
Turfadur qon to‘kub o‘lmoq, tarabangez qilich.

Qatra qonlarki, tomar tig‘idnn, uchmoq gulidur
Ki, shahidin qilur ul g‘amzag‘a xunrez qilich.

Har qayon tig‘ solur, ko‘nglum osig‘lig‘dur anga,
Buyla qatl ahlida kim ko‘rdi dilovez qilich.

Lam‘ayi tig‘i dema, barq choqilg‘an kebikim,
Go‘yiyo keskali ilgidin etar xez qilich.

Ishq aro ajzini ko‘rgilki, o‘larga Farhod
Xasmi fartut tilin ayladi Parvez qilich.

Shah Navoiy tilidek tig‘ ila ko‘p mulk ochti,
Tortmish ochqали Bag‘dod ila Tabriz qilich.

100

Chiqti jon, qoshima jonon kirgach,
Kim halok o‘lg‘on ekin jon kirgach?

Keluringga yasadim ko‘nglum uyin,

Yasalur kulba, chu mehmon kirgach.

O‘zni asrarmenu ko‘nglum chekar oh,
Nogah ul sarvi xiromon kirgach.

Ohdin shu’la yetishkandek erur,
O‘qidin ko‘ngluma paykon kirgach.

Yuz junun shu’basi aylar paydo,
Ul pariy ko‘ngluma pinhon kirgach.

Dahr uyi ichra iqomat tilama,
Chiqmamoq anda ne imkon, kirgach.

Borma ko‘yiga, Navoiyki, qochar
Yor, sen telbai uryon kirgach.

HYE HARFINING HAROMIYLARINING HUSN OROYLIG‘I «BADOYE» DIN

101

Zihi taqaddumung odamg‘a bas hadisi sahih,
Bu nukta kuntu nabiyan ishoratida sarih.

Azalda vaslingu hajring magar nasib o‘ldi
Ki, jon toparni Xizir oldi, jon berurni Masih.

So‘zungni xoni nubuvvatqa tengri tuz yasadi,
Zihi kamoli malohat, zihi kalomi malih.

Chu sep chekib «ana afsax» taronasin ochirib,
Alarki da’vo ila so‘z ochib, deb o‘zni fasih.

Demak shariati bayzoni mehrga rojih,
Quyoshni zarrag‘a qilg‘an kebidurur tarjih.

Yuzung sabuhi azal bodasidin andoqnm,
Ne subhg‘a bu sabohat, ne mehr muncha sabih.

Navoiy o‘ldi nihon ishKing ichra, turguz ani,
Necha nihon tutayin, ayladim o‘lub tasrih.

102

Bu ko‘han dayrda ich shomu saboh,
Rohati ruh tilar bo‘lsang, roh.

Chun quyosh lolasi tong gulshanidin

Chiqtி, tut lola masallik aqdoh.

Anga tegruki shabistoni sipehr,
Yetkirur ruh dimog‘ig‘a riyoh.

Yana ul vaqtqachakim, xurshid
Ko‘k biyobonida bo‘lg‘ay sayyoh.

Qo‘yma mug‘ dayrida jom ilgingdin,
Dayr piri chun ani qildi muboh.

Ro‘zgoring buzug‘ etkan esa charx,
Sen kimu aylamak ani isloh.

Ko‘p girihi tushti Navoiy ishiga,
Sen kushode ber anga, yo fattoh.

103

Ey, xatu jonbaxsh la’lingdin nishon Xizru Masih,
Balki bu ikki uyotidin nihon Xizru Masih.

Xat labing uzra, labing yuz uzradur qilg‘on kebi
Obi hayvonu quyosh uzra makon Xizru Masih.

Ul yoshung‘oy zulmat ichra, bu falakdin yonmag‘ay,
Ko‘rsalar xattu labingni nogahon Xizru Masih.

Gar Masihu Xizr ko‘zdin g‘oyib o‘lmishlar, ne tong,
Sabzavu obi hayotingdur hamon Xizru Masih.

Go‘yiyo Ruhul quds ya’ni damingdin yetti fayz
Kim, muabbad topti umru berdi jon Xizru Masih.

Yo‘q daming, balkim nasimi gulshaning aylar sahi
Bo‘lsalar muhlik marazdin notavon Xizru Masih.

Xattidin la’lig‘a yettim, la’lidin toptim hayot,
Ul ikav bo‘ldi manga, ey xasta jon, Xizru Masih.

Soliki foniy tavajjuhdin taraddud aylamas,
Yotsalar mahviy shuhud bo‘lg‘an zamon Xizru Masih.

Dayr piri qo‘ldabon, turguzdi maydin mug‘bacha,
Ey Navoiy, bu ikavni qil gumon Xizru Masih.

104

Boda keltur, chun quyoshtin chekti maxfiy jom subh
Kim, erur jomi nishot ichmakka xush hangom subh.

Oshkoror bodai gulrang ichmak xushturur,
Chun nihon aylar kavokib gullarin gulfom subh.

Siybarlarkim, sabohat birla tutqaylar qadah,
Ne balo xushtur tulu' etkanda siym andom subh.

Sarg'arib ashkin to'kub, mendek yaqo chok aylamish,
Bir nihoni mehr ila to bo'ldi beorom subh.

Vahki, ul subh uzoru shomi zulf anduhidin
Yig'laram to subh shom, afg'on tuzub to shom, subh.

Dahr gulzorida har tun chekkali jomi sabuh,
Yetkurur tong bulbuli faryodidin payg'om subh.

Subhi vasl ummididin o'ldn, Navoiy shomi hajr,
Anga ne sud, o'zgalarga hosil etsa kom subh.

105

Istamon may bo'lsa xurshidi jahonoro qadah,
Tutmasa bazm ichra ul sho'xi qadahpaymo qadah.

Yor chun tutti qadah, ichmon demak bo'lmas, valek
To ne hol o'lg'um yana ichkach meni shaydo qadah.

Hajr anduhida oz may tutmas, ey soqiy, meni
Bazm ahlidin to'laroq tut manga amdo qadah.

Bir quyosh hajridin andoq menki ichkum sipqarib,
Tutsalar, solib shafaqgun may, sipehroso qadah.

Hajr daf'in chun tabibi ishqdin so'rdum, dedi:
Kim erur yo vasl, yo jon tarki qilmoq, yo qadah.

Bu fano dayrida zohir bo'ldi anfosi Masih
Kim, ichib tutti manga ul dilbari tarso qadah.

Chun xumor ilgimni qildi ra'sha, jono, og'zima
Netti o'z ilging bilalutsang solib sahbo qadah.

Su xumor ahli icharlar, ul ham o'lg'anдин zarur,
Ichmagum hayvon suyin, ey Xizr, topqum to qadah.

Chun xarobot ichra mast o'ldum ichib, ey mayfurush,
Rindlar birla solib g'avg'o meni rasvo qadah.

Shahna bazmig'a ne hosil, gar kirib oshub ila,
Chekmasam shohid bila mutrib, qilib yag'mo qadah.

Cheksalar, tongla tutub Bog'i jahonoro sari,
Dayr aro topib surohi, aylabon paydo qadah.

Vah, ne hol o'lg'ay alarg'akim, Navoiydur debon,
Tanibon chorlab, manga lutf aylasa mirzo qadah.

Xusravi G'oziyki, jomi Jam anga bo'lsun nasib,
To quyoshtin ko'rguzur bu torami a'lo qadah.

106

Ey sening ko'yung harimi tufrog'i yuz pok ruh,
Solqinidin sovrulub ul nav'kim xoshok ruh.

Ruh agar yuz vajh ila tufrog'ing o'lsa, ne ajab,
Lutf aro jisming bila chun teng emas yuz pok ruh.

Xilqatim bog'ida ul gul hayfkim, bordur manga
Zor tan, majruh jon, mahzun ko'ngul, g'amnok ruh.

Ul quyosh qasrig'a mayl aylar tanimdin chiqsa jon,
Kimsa o'lgandekki, bo'lg'ay ozimi aflok ruh.

Jon fido bo'lsun sangavu ruh sadqangkim, emas
Jon chuchuk la'lingdegu qadding kebi cholok ruh.

Mo'min o'l aj sod hashrig'avu da'vo qilma ko'p
Kim, azobu ne'matin tongla qilur idrok ruh.

Tig'i ishqidin Navoiyg'a ne dahshat, negakim
Telbadur jonu fidoidur ko'ngul, bebok ruh.

XYE HARFINING XO'BLARINING XIROMI «BADOYE»DIN

107

Jafo tariqida andin erur jahong'a rusux
Ki, qildi mehru vafo rasmu royini mansux.

Jahong'a chunki vafo bo'lmasa, ajab ermas
Ki, bo'lsa ahli jahong'a dog'i jafoda rusux.

Sog'inma barcha pishig' so'zni ta'b etar oshom,
Bo'lur muqayniyu hozim chu ikkisi matbux.

Kamoldin neki o'tti, yana topar nuqson
Ki, ko'p yashab, kirar atfol chergasiga shuyux.

Durusht xo'y qilur elni chirik dunyoliq,
Nechukki, qilg'ay irik jam' bo'lsa uzvida sho'x

Chu sifla ganj topar, mujibi haloki erur
Ki, hayzadur mushuk ilgiga chun tushar maslux.

Navoiyo, tila faqru riyoe eldin qoch
Ki, odamilar erur o'zga, dog'i o'zga masux.

108

Qotilekim, anga ermas kishi aslo gustox,
To'ldi qonimki, bo'lubmen meni shaydo gustox.

Ey ko'ngul, o'zni yostlab mast tilarmen har kun,
Aylasam la'lidin o'pmakni tamanno gustox.

Bu mahol amredurur, chunki taxayyul birla
Qila olmon iki la'lini tamoshlo gustox.

Men siyahro'z kimu vasliki, hargiz kunduz
Bo'la olmasmen aning ko'yida paydo gustox.

Xatti davrig'a, ne tong, evrula gar olmas Xizr
Kim, bu jur'atda emas gunbadi xazro gustox.

Ul pari dahshati ishqidin eta olmon anga
Telbalik birla ham o'zni, meni rasvo gustox.

Xonaqoh ichra tutub savm, su ichmak bo'lmas,
Bo'l xarobotiyu chek sog'ari sahbo gustox.

Fayzi qudsiy tilasang ko'nglungga bo'lg'ay zohir,
Ahli botin qoshida so'z dema aslo gustox.

E'tidol ista, Navoiyki, fano dayri aro
Ulki yo'l topmadi, yo kohil erur, yo gustox.

109

Dilrabolar gar ko'ngul olmoqda durlar asru sho'ya,
Lek dildorim erur bu sho'xlardin ayru sho'x.

Sho‘xlardin ba’zi olsa jonu ba’zi bersa jon,
Sen qilursen ikkisin, vah, sen kebi bo‘lg‘aymu sho‘x

Sho‘xluqtin har dam ul tifl aylar o‘zga nav’ noz,
Ko‘ngli istar ne qilur xo‘beki, bo‘lsa tifl sho‘x.

Gah kirar ko‘zdin ko‘ngulga, gah ko‘nguldin jon aro,
Tutmasa orom, tong yo‘q, nozanin, bo‘ldi chu sho‘x.

Sho‘xlar ichra biri ko‘nglum olibdur voykim,
Desalar, de qaysi sho‘x olmish, dey olmonkim, bu sho‘x.

Gar namozim sahv bo‘lsa har dam, ey zohid, ne tong
Kim, erur mohimki, ang o‘lturubtur o‘tru sho‘x.

Ey Navoiy, bir zamon ko‘nglung emas osuda, kosh
Ko‘nglung olg‘an bo‘lmag‘ay erdi bu yanglig‘ asru sho‘x

110

Garchi ul shirinlab ichgan may erur bisyor talx,
Lek men ichgan mayi hajri yuz oncha bor talx.

May necha talx ersa, hijron sharbaticha talx emas,
Zahri qotil, onglamon, bo‘lg‘aymu ul miqdor talx.

Achchig‘-achchig‘ dam-badam sho‘robam etmang aybkim,
Qildi ayshim hajr ila bir sho‘xi shirinkor talx.

Hajri zahri ichkanidinmu ekin, oyo bukim,
Nabiz soqit bo‘lmishu og‘zim erur bisyor talx.

Naylay o‘lmaykim, hayotim sharbatin men telbaga
Qildi hijron zahri birla ul pari ruxsor talx.

Ko‘p chuchukluktin ochig‘liq anfa’ o‘ldi ishq aro,
Sharbati attor erur shirin, mayi xammor talx.

Talx may birla meni mast ayla, ey soqiysi, bor
Hajr aro umrum, gar o‘lsam lahzae hushyor, talx.

Dinim ahvolig‘a ochig‘ yig‘laramkim, mug‘bacha
No‘sh etar dayr ichra har dam jomi mug‘kirdor talx,

Yor shirin la‘lidin har lahza aylar no‘shxand,
Ishqidin har dam Navoiy garchi yig‘lar zor talx.

111

Meni havosida devona ayladi ul sho‘x,
Jununu ishq ila afsona ayladi ul sho‘x.

Parin kebi chiqibon hushu aql g‘orat etib,
Nihon o‘lub, meni devona ayladi ul sho‘x.

Ushatti shishavu, jomu qadahni bazm ichra,
O‘yun tariqini tiflona ayladi ul sho‘x.

Qulq solingki, xarobot ichra g‘avg‘odur,
Magar azimati manxona ayladi ul sho‘x.

Qadahg‘a xirqam etib rahi, vahki, subhamni
Qimor aylagali dona ayladi ul sho‘x.

Chu oldi o‘ynag‘ali naqdi hushu sabrimni,
Yana topilmadilar — to ne ayladi ul sho‘x.

Qilib Navoiyi ovorani jaloi vatan,
Balovu dardg‘a hamxona ayladi ul sho‘x.

112

Har nechakim sanga jafoda rusux,
Men jafokashgadur vafoda rusux.

Bandi zulfungni kimki qilsa havas,
Anga vojibdur ibtiloda rusux.

Yuzi mir’otin orzu qilg‘an
Kerak etsa ayon safoda rusux.

Soqiyo, ber qadahki, hijrondin
Jong‘adur dard ila anoda rusux.

Sidq aro piri dayr rosixdur,
Lek zohidg‘adur riyoda rusux.

Qilma ishq ichra da’vo, ar qilsang,
Zohir etkil bu mojaroda rusux.

Ey Navoiy vusul agar tilasang,
Ishq aro fosh qil fanoda rusux.

113

Sochingki, yur chog‘ida bordi har taraf bir shox,
Su ichra sunbuli tardur anga mukarrar shox.

Demanki sunbuli tarkim, suda erur aksi
Ki, suda sunbuli tar ko‘rguzur muanbar shox.

Magarki sunbulunga chirmashur taxayyuli bor
Ki, zohir etti tarog‘ sandali sarosar shox.

Chamanda qilg‘usi gulgasht go‘yiyo ul sarv
Ki, ochti soya uchun har taraf sanavbar shox.

Yoshil yengingki sarig‘ dakladin ko‘rundi, ne tong,
Xazon daraxti bo‘lur ham birorta axzar shox.

Karam qil, el panahing ichra kirsakim, xushtur
Chamanda meva dog‘i bersa soyagustar shox.

Navoiy, ongl a yaqinkim, hayot rishtasidur,
Qo‘lungg‘a kirsa aning iqdi zulfidin har shox.

DOL HARFINING DILOROMLARINING DAVRONI «BADOYE» DIN

114

Qani sening kebi mahbubi oqibat mahmud
Ki, zilli otifating bo‘lsun el uza mamdud.

Jamol aro mutajalli yuzungda partavi zot,
Kamol aro mutualolo o‘zungda nuru jud.

Vujudung ikki jahon xilqatidin o‘ldi murod,
Nachukki zoting o‘lub ikki kavidin maqsud.

Ne jud erur, ne vujud elga zoting ollinda,
Sanga chu keldi musallam vujud birlan jud.

Nubuvvat avjida ko‘p tole’ o‘ldi kavkabi sa’d,
Biri sen oydek emas erdi axtari mas’ud.

Chu sen mushohada shomi shuhud qozg‘ondek,
Kishi ne bildiki, shohid kim erdi — kim mashhud.

Navoiy, o‘lsa gunah dudi birla noma siyoh,
G‘ami yo‘q, o‘ttin erur chun shafoating mav’ud.

115

Xo‘blar bazmida jam’ o‘lmoqqa bor ul oy mujid,
Husnin izhor aylamakka istar atrofida zid.

Gar jamol ahli jafo bobida bor ahli kamol,
Lek ijodi jafo qilmoqqa sensen mujtahid.

Erni shavqida sovug‘ ohu isig‘ ko‘nglumdin ashk
Goh qon yanglig‘ ravon, gah la’l yanglig‘ munjamid.

Qahr yo lutf ulcha andin kelsa minnat jonima,
Menkim o‘ldum bo‘lg‘ali munkir anga yo mu’taqid.

Ostoning takyagohimdurki, taxti joh erur,
Lek darboning madorosig‘a ermon mustanid.

Dilbarim andoqli keldi husn mulki ichra fard,
Shukrkim, men dog‘i ahli ishq aromen munfarid.

Ishqi komil gulshani ichra guli ra’no nedur,
Bilhaqiqat bo‘lmasa ma’shuqu oshiq muttahid.

Do‘sslug‘ kim qilsa, dushmanliq topardin dahr aro,
Bo‘lmamish go‘yo muhabbat ahli hargiz mun’aqid.

Istaram, ko‘rgach ani, afg‘onlar aylab o‘lgamen,
Soqiyo, bir jom ila bo‘lg‘il Navoiyg‘a mumid.

116

O‘zin shakkar desa la’lingg‘a monand,
Kilay tishlab ani parkand-parkand.

Labing o‘pmakka haddim yo‘q, bo‘lubmen
Taxayyul birla o‘pmaklikka xursand.

Meni chun ul parivash telbaratti,
Ne sud, ey nosih, emdi telbaga pand.

Magar tengriga odam xilqatidin
Murod erdi seningdek turfa farzand.

Labingning shakkari aylab tabassum,
Guli xandong‘a ko‘rguzdi shakarxand.

Jahon ra’nosig‘a berma ko‘ngulkim,
Anga oldurmamish ko‘nglin xiradmand.

Navoiy naylabon sendin uzulgay,
Chu topting rishtai jonig'a payvand.

117

Ko'ngulning xonumonin berdi barbod
G'ami ishqingki, xonumoni obod.

Meni yod aylamakni chun unuttung,
Unutub, nettn gohe anlasang yod.

Firoqing kunjida tun-kun erurmen
G'amidin shodu mendin ham g'amid shod.

Senga sayd o'lg'ali uryon bo'lubmen,
Qachon yuldi tiriklay qushni sanyod.

Ko'ngul jinsi bashardin asrab oxir,
Meni devona qildi bir parizod.

Sen ich maxsuslar vaslida maykim,
Meni hajr etti qon yutmoqqa mu'tod.

Vafolig' tuz bu gulshan ichra yo'qtur,
Agar nasrinu gul yo sarvu shamshod.

Ne shayxi xonaqah maydin qilur man'
Ki, qilmish dayr piri bizga irshod.

Navoiy, yor faryodingg'a yetmas,
Aning forig'lig'idin ayla faryod.

118

Yor vaslidin uzub erdim meni shaydo umid.
Shoh lutfi qo'ymadi shaydo ko'ngulni noumid.

O'rtar erdi hajr navmid erkanimda, voykim,
Shavq o'ti kul qilg'udekdur bo'lg'ali paydo umid.

Bir nazardin gar bo'lur jonim gahe osuda, bas,
Mundin ortuq vaslidin yo'qtur manga qat'o umid.

Hayrat aylarlar mening holim ko'rub ahli junun,
Aqldin, vah, qayda tutg'aymen meni rasvo umid.

Yo'q ajab, gar odamiylig'din chiqib devonamen,
Chun manga bor ul pari paykar, malaksiymo umid.

Hajr navmid erkanimda o‘rtar ummidimda shavq,
Vahki, yo navmidlig‘ aylar halokim, yo umid.

Ham jafo, ham javr umidi borduru ham lutfu mehr,
Har jihatdin yo‘qturur andin manga illo umid.

Hajr dardig‘a davo bexudlug‘ ermish, soqiyo,
Bu balo ichra tutarmen sog‘arn sahbo umid.

Ey Navoiy, g‘arqi bahri vahdat o‘lsam, ne ajab,
Menki ko‘z daryosidin tuttum duri yakto umid.

119

Domi zulfu donai xolidin etsa yor sayd,
Yo‘q xaloyiqkim, maloyik bo‘lg‘usi bisyor sayd.

Ul ko‘zi sayyod agar jon qasdi aylar saydg‘a,
Ollida o‘lgay bo‘lub jon birla minnatdor sayd.

Oolloh-Oolloh, ne balo ul husn erur mardum firib
Kim, ani ko‘rgach bo‘lur ham yoru ham ag‘yor sayd.

Saydgahda qochmas andin saydkim, jon bergaln
Sekrebu o‘ynab, nishotu zavq etar izhor sayd.

Saydi gulrang oldi xirman-xirman ul gul xirmani,
Lolazori dahraro kim ko‘rdi bu miqdor sayd.

Xushtur o‘lsam itlariga to“ma, ne imkoni bor,
Shoh fitrokiga yetmak bir zaifi zor sayd.

Har kishi nafs itligidin aylasa o‘zni xalos,
Vahsh xaylin aylar ul dasht uzra Majnunvor sayd.

Jomi zarrin tutki, bo‘lmas mehr ko‘rguzmak bila,
Kimsaga zarrin g‘izoli charxi kajraftor sayd.

Ey Navoiy, gar desang ming zulm birla o‘lmayin,
Bevafolar makri birla bo‘limg‘il zinhor sayd.

120

Buki har yondin ko‘kartibdur yuzumni koji dard,
Jism uyi toqini oltun birla qildim lojuvard.

May yuzungda gullar ochti, qilma faryodimni man’,

Bulbul afg'oni ne tong, ochildi chun gulshanda vard.

Bul-ajablig'lardurur ishq ichrakim, zohir qilur,
Mehrdek o'tluq ko'nguldin day yelidek ohi sard.

G'am toshi xoki tanimdin har sari eltur g'ubor
Boshima tufrog' sovurmog'din emas tegramda gard,

Ul quyosh zulfi xamidin chiqsa ohim to'lg'anib,
Bir quyun bil anikim, davri erur gardun navard

Eyki, istarsen o'zungni fard ul oy ishqida,
Avval aning g'ayri yodidin o'zungni ayla fard.

Ey Navoiy, dardlig' nazmingni dard ahli bilur,
Dardsiz dog'i bo'lur, ani o'qug'och, axli dard.

121

Ey jamoling qoshida lol xirad,
Ishqing oshhubig'a pomol xirad.

Andakim sen qilibon jilvai husn,
Hush o'lub zoyilu badhol xirad.

Ishq Masih ayladi, garchi bor edi
Ilm ashkolig'a hallol xirad.

Chiqmadi tuz yo'lidin ishq ahli,
Nechakim ayladi izlol xirad.

Ishqqa aql zalil o'lmasa, ko'r,
Ne qolur, chunki ketar dol xirad.

Ich mayi ishqu Navoiy, mast o'l,
Kelturur bo'lsa ko'p ashkol xirad.

122

Unla hijron toshlarin yog'durdi charxi tezgard
Kim sipehr avjig'acha xoki tanimdin chiqtı gard.

Yor ila ahbob mendin anruyu men barchadin,
Yo'q ajab, gar barchaning dardicha bo'lsa menda dard.

Hajr toshidin ko'kardi paykarim yoxud bu rang
Ayladi uryon tanimni, baski chektim ohi sard.

Kahkashoidin chekma saf anjum sipohin shomi hajr,
Men o'lubmen, ey falak, hojat emas qilmoq nabard.

Ashku ohimdi natija bo'ldi qonlig' toza dog',
Go'yi ul suyu havodin ochilur bu nav' vard.

Ey ko'ngul, gar xud xazon fasli emas, hijron kuni,
Nega bog' ahlig'adur titratmavu ruxsori zard.

Xalqning qaydi Navoiyni parishoi ayladi,
Kimki jam'iyat tilar, qilmoq keraktur o'zni fard.

123

Qading deb sarvni jon bo'lsa xursand,
Ajab yolg'ondur, ammo rostmonand.

Shakar chun qildi shirinlikni da'vo,
Eshitkach lablaring qildi shakarxand

Ko'ngul jonimg'a yetmish erdi, yuz shukr
Ki, qildi itlaring parkand-parkand.

Iti bag'rim yegandin o'lsa, aylang,
Kesib bag'rin, kesuk bag'rimg'a payvand.

Bu nav' ar zulfi savdosi olur hush,
Erur sa'b, ey hakim, o'lmoq xiradmand.

Talab yo'linda avval fonyi o'lg'il
Ki, yo'q bu yo'lda o'zlukdin og'ir band.

Navoiyg'a yana ko'p pand berma,
Kel, ey nosih, eshit sen dog'i bir pand.

124

Ishq o'zluk nafyi aylar, zuhd ila taqvo ne sud,
Chun vujudung manfi o'ldi, kibru istig'no ne sud.

Sudu sarmoyang nechun nobud qildi bir yo'li,
Sen pishurmak har zamon bir o'zgacha savdo ne sud.

Telbarab eldin chiqib, yo'linda jon berding valek
Rahm qilmas ul pari pankar malaksiymo, ne sud.

Oshiq o'ldung vaslidin sud istabon, oyo firoq
Qo'ymadi naqshi vujudungdin asar paydo, ne sud.

Ishq daryosig‘a sud ummididin kirding valek
Bo‘lmadi oxir nasibing ul durri yakto, ne sud.

Yor erur jon ichra, sen g‘ofil vale istab ani,
Kecha-kunduz yel kebi bo‘lmoq jahonpaymo ne sud.

Sud qildi ulki ichti vasl bazmi ichra may,
Bizga soqiy tutmadi bu sog‘ari sahbo, ne sud.

Istasang faqr, o‘rta olam sud ila sarmoyasin,
Ko‘nglunga to evurulur dunyovu mofihon, ne sud.

To Navoiy ishq bozorida savdoiy erur.
Juz ziyon ne topti bir sarmoya ul rasvo, ne sud.

125

Garchi yor etmadi hargiz meni noshodni yod,
Lek aning yodi bila ko‘nglum erur har dam shod.

Zulfidin surdi ko‘ngullarni ko‘zi arbadasi,
Domdin ko‘rmadn el saydни surmak sayyod.

Qomating bandasidur sarv vale xidmat aro
Ko‘rubon rostlig‘in ani qilibsen ozod.

Qatlima chiqti etak belga urub, tig‘ chekib,
Qon tegardin ayab erkin etagin ul jallod?

Chunki Shirin ko‘zi behad qoradur, bas necha mil
Toshni surma nedin ayladi oyo Farhod.

O‘zgalarga ichur, ey soqiysi davron, mayi vasl
Kim, manga zahri firoq ichmak o‘lubtur mu’tod.

Muncha faryod Navoiyдин emas hajr tuni
Kim, qilur har kecha faryodidin el ham faryod.

126

Ruxsori jonibida ul xoli anbarolud,
O‘t go‘sasida go‘yo anbar tushub qilur dud.

Bahri g‘am ichra ashkim ko‘ngliga rahm soldi,
Daryo musofirimen — gardundin aylagan sud.

Bazmi g‘amida shahmen, sarig‘ yuzumda qon yosh,

Bu la'lrang boda, ul sog‘ari zarandud.

Ko‘nglum gadolig‘ aylar, og‘zingni garchi topmas,
Yo‘q va’da birla ani qilsang ne bo‘ldi xushnud.

Kelkim, yo‘lungda tufroq, boshingg‘a sadqa bo‘lsun
Ham jismi dardparvar, ham joni ranj farsud.

Nobudu bud fikrin mahv et zamirdinkim,
Ne bud qolg‘usidur oxir sanga, ne nobud.

Sarxush taronagustar bo‘lmishsen, ey Navoiy,
Soqiy, sen emdi tut may, mutrib, sen emdi tuz ud.

127

To‘sh-to‘shumdin dushmanu yo‘q do‘stdin qat’o umid,
Kilma, yo rab, do‘stdin dushmanni mendek noumid.

Ushbu muhlik varta ichra garchi eldin qolmamish
Hech umidim, qat’ qilmon do‘stdin ammo umid.

Ula girdobi balo ichra tushubturmenki, bor
Necha dersen biym, ammo yo‘qturur paydo umid.

Jon fido qildim — meni navmid qildi vaslidin,
La‘lidin jon istar elga yo‘qturur illo umid.

Soqiyo, muhlik g‘amimg‘a shodlig‘ imkon yo‘q,
Ne tutay sendin yana jomi nishot afzo umid.

Yor vaslidin vafo ko‘z tutmasam, ayb etmakim,
Umru davlatdin vafo tutmaydurur dono umid.

Ne visolu ne umidi vasl, vah, o‘lmay netay,
Ey Navoiy, koshki yo vasl bo‘lsa yo umid.

128

Ham ayog‘ida o‘tuk, ham boshida dastori tund,
Oshiq o‘lturmak uchun boshtin ayog‘i bori tund.

Tundliq man‘in ne nav’ aylay angakim, o‘zganing
Bir ishi bor ersa, bor aning bari atvori tund.

Dahrni raxshi agar zeru zabar istar, ne tong
Kim, erur ham o‘ynamog‘i tundu ham raftori tund.

Ul kishi har lahza bilgay o'lmakim kayfiyat
Kim, bo'lur har dam anga bir kofiri xunxori tund.

Ey sabo, tund erdi badmastim kecha bo'ston aro,
Subhidam uyqug'a bormish — esmagil ul sori tund.

Dayr pirin tund agar qilmish xumor, ey mug'bacha,
Jomini quyg'il to'lo, anda mayi xammori tund.

Ey Navoiy, dahr komi yo'q esa, tund o'tmag'il,
Anda yuz kom arzimas bir dam bo'lurg'a bori tund.

ZOL HARFINING ZAVIL HAYOTLARINING ZUFUNUNLUG'I «BADOYE» DIN

129

Junun daf'ig'a qildim yuzda qon yoshtin ayon ta'viz
Ki, yozg'onda kerak shingarf birla za'faron ta'viz.

Bo'lubtur toza qonlig' dog'u tirnog' xatlari birla
Tanim ul nav'kim, ko'rgan kishi qilg'ay gumon ta'viz.

Dema ta'vizkim, afsuni savdo erdi ko'nglumga
Ki, oshti shu'lai ishqu junun yozg'an zamon ta'viz.

Manga yozing duokim, ul parini ko'rgamen nogah,
Yozarlar chun pariy ko'zga ayon bo'lg'an zamon ta'viz.

Jununumdin pariro'yumg'a ham savdo asar qilsa,
Bitidiklar ko'zi ko'nglum qushidin to'ksa qon ta'viz.

Meni ishq aylamish devona, ey roqiy, ne sud etkay,
Necha qilsang bayon afsun, necha qilsang ayon ta'viz.

Navoiy ishq asrorin yoznb, bo'ynig'a osibdur,
Tasavvur qilmag'aysen, ey rafiqi mehribon, ta'viz.

130

Labing hukmi erur qonimg'a nofiz,
Demay qonimg'akim, jonimg'a nofiz.

Nekim kofir ko'zung farmoni bo'lg'ay,
Erur ul dinu imonimg'a nofiz.

Erur, har zulmkim amr aylagungdur,
O'qungdek jismi uryonimg'a nofiz.

Ko‘ngul mahkumi amringdurki, hukmung
Erur bu mulki vayronimg‘a nofiz.

Shah o‘lsam, bandamen ollida hosh
Ki, bo‘lg‘ay hukm jononimg‘a nofiz.

Ko‘ngul ittiki, zulmung bor edi ul
Aloxonu alomonimg‘a nofiz.

Navoiyni labing qatl etsa, tong yo‘q
Ki, aning hukmidur qonimg‘a nofiz.

131

Ey, labing bodasig‘a ruhu ravon ichra nufuz,
Qaysi ruhu ne ravon, javhari jon ichra nufuz.

Mayi ishq uyladurur tezki, ichkanga qilur
Juzvi-juzvi aro har qatral qon ichra nufuz.

Qo‘ydi o‘lmakka ko‘ngul jism ila jonom, go‘yo
Zahri hajr ayladi paydovu nihon ichra nufuz.

Dahr bog‘idin esar royihi ishq, magar
Ayladi ohim o‘ti tab’ zamon ichra nufuz.

Otashin nevchun erur la’lu mufarrih yoqut,
Bodai ishq agar qilmadi kon ichra nufuz.

Ichtilar ko‘p mayu fosh aylamadi, qilg‘andek
Meni ovorai benomu nishon ichra nufuz.

Gar Navoiyg‘a erur ruhu ravon mast, ne tong
Ki, mayi ishq qilur ruhu ravon ichra nufuz.

RYE HARFINING RA’NOLARINING RUSTAHYEZI «BADOYE»»DIN

132

Sipehr osebidin solim qutulmog‘liq ne imkondur
Ki, mehre dashtu tig‘u kulgusi barqi duraxshondur.

Munungdek mehr ko‘rgach, shod o‘lub kulgan zihi g‘ofil,
Bu yanglig‘ kulgu sari mehr solg‘an asru nodondur.

Tengiz ko‘nglida andoq mehrdin yuz shu’ladur paydo,
Qiyo bag‘rida mundoq kulgudin ming dashna pinhondur.

Hijoridin qiyodur anga yuz ming tig‘ ila ojiz,
Hubobidin tengiz yuz ming ko‘z ilan anga hayrondur.

Chekib qavsi quzahdin yo ko‘ngullar qasdig‘a, aning
Yog‘in haddi xadangu qatra sular anda paykondur.

Bu yoy birla aningdek o‘qni yog‘durg‘och, xaloyiqning
Hayoti qasrida har sari qilmoq raxna osondur.

Hayot ichra baqo chun mumkin ermas Nuh bo‘lsinkim,
O‘lar holatda tug‘may o‘lgan o‘g‘li birla yaksondur.

Baqo sarchashmasi zulmatda derlar, yo‘qki, ul zulmat
Skandar ohi o‘tidin yig‘ilg‘on dudi hirmondur.

Navoiy, o‘rtabon o‘zluk qadam bu yo‘lg‘a qo‘y, ya’ni
Ki, har hamrohkim bo‘lg‘ay tajarrud moni‘i yondur.

133

Menki hijron dashtig‘a kirdim quyundek beqaror,
Ohu vovayloki, ham sargashtamen, ham xoksor.

Sanchilib uryon tanimg‘a har taraf yuz ming tikan,
Har tikanni kuydurub ko‘nglum o‘tidin bir sharor.

Qaydadur Majnunki, bergay pandu chun fahm etmasam,
Yig‘lag‘ay holimg‘a bag‘ri og‘rig‘andin zor-zor.

Yo qani Farhodkim, g‘am tog‘ini tirnog‘ ila
Qozg‘animdin, teshavu tog‘idin o‘lg‘ay sharmisor.

Bilsam erdi bir zamonlig‘ hajr dardi shiddatin,
Yuz yil o‘lsa vasl davri, qilmas erdim ixtiyor.

Do‘sstar, mehru muhabbatning niholin ekhangiz
Kim, bo‘lur ermish anga anduhi hijron bargu bor.

Ey sabo, kelmish Navoiy xasta jonidin batang,
Eltibon yor itlarining ollida qilg‘il nisor.

134

Har kishikim, yer yuzinda bir seningdek mohi bor,
Tong emas, yer-ko‘kni gar tutquncha ashku ohi bor.

Ne ajab, ko‘nglum adam ko‘yi sari azm aylasa,
Xossakim og‘zing xayolidek aning hamrohi bor.

Poku ogah bo‘lsa ko‘nglum xalq javridnn, ne g‘am,
Yorning chun tab’i poku xotiri ogohi bor.

Yorni ko‘nglumda jon yanglig‘ nihon qilg‘ay edim,
Aybi ko‘nglumning budurkim, nolai jonkohi bor.

Ishq ko‘yida qora tufroqcha yo‘q jon qiymati,
Yo‘l yarog‘in dog‘i topmas, ulki molu johi bor.

Men kebi hijronda jon bermaktin o‘zga naylagay,
Dilbarimdek kimki bir begonavash dilxohi bor.

Ishq vodiysidin anrukim erur mo‘r ajdaho,
Ko‘rmaduk shahkim, gado ollinda shayallohi bor.

Ey musulmonlar, erur ko‘nglumda bir kofir g‘ami
Kim, erur boiski, taqvo jonibi ikrohi bor.

Ey Navoiy, hajr bedodu jafosidin ne g‘am,
Har gadokim, xusravi G‘oziydek aning shohi bor.

135

Bukim, ko‘ngulning ul oysiz ne sa‘b holati bor,
Ul anglag‘ayki, birav hajridin malolati bor.

Quyiga tushmish aning zulmi tig‘idin boshim,
Hanuz tig‘i yuzidin magar xijolati bor.

Quloq duriyu yuzi ikki axtar etti qiron
Ki, olam ichra base fitnag‘a dalolati bor.

Sabo debon xabar ul guldin, elni turguzdi,
Masihcha desa bo‘lg‘ay aning risolati bor.

Ko‘ngulni zulm ila buzdung, bale bo‘lur ma‘mur
Shaheki, mulkida ehson bilanadolati bor.

Qadah quyoshi bila ravshan ayla xotirni,
Chu anglasangki, falak zulmidin zalolati bor.

Navoiy istamas el ishqin anglag‘ay, bukim
O‘z-o‘zi birla junun ahlidek maqolati bor.

136

Bu tiyrai qotilki, oti hajr tunidur,

Ohim tutunidur dema, dog'im tutunidur.

Jism ichra yuzung hajrida ming dard xadangi,
Go'yo ko'ngul otashkadasining o'tunidur.

So'ngakdin emas rishtai jismimda bo'g'unlar
Ul torda ranjim adadining tugunidur.

Ul sho'x simo' ichra uchurmoqqa ko'nguldin
Hushu xiradu sabrni ofat quyunidur.

Uyqu keturur su uni, lek uyquni olg'on
Elning ko'zidin sayli sirishkimnnng unidur.

O'ynay-o'ynay to'ksa ul oy qonim, emas tong
Kim, barcha bular charxi muloib o'yunidur.

Yuz pora boshimni iti rad qildi, Navoiy
Bilmaksi, so'ngaklarda borining butunidur.

137

Ul quyoshkim, ko'nglum ichra hajrining ozoridur,
Jonom olsa ham, ko'ngul jon birla minnatdoridur.

Naylab ul qotildin o'lg'aymen xalos, ey ishqkim,
Jonom afgori, tanim bemori, ko'nglum zoridur.

Hajr o'ti paykonni zaxmin men kebi bilmas kishi
Kim, ichim boshtin-ayoq ul nishning afgoridur.

Hajraro joning olay der, ko'r ne bo'lg'ay javrkim,
Bu manga ul sho'xdin mehru vafo izhoridur.

Qof agar yuzdur adadda, Qof tog'i mehnatim
Shiddati a'dodining yuzdin biri miqdoridur.

Telba ko'nglum istasa Farhodu Majnun sihhatin,
Oqil el rag'mi anga hushu xirad osoridur.

Kir xarobot ichra, ey zohid, tilar bo'lsang bihisht
Kim, mayi kavsar zuloli kulbai xammoridur.

Ne ajab gulshan erur davronki, dudi ohdin
Sunbuliyu ashk qoni saylidin gulzoridur.

Gar Navoiydek so'zung fahm etmadim, ey porso,
Afv qil, bir dam xayolim bodano'shum soridur.

Ishqdin, vahkim, manga har lahza hole yuzlanur
Kim, buzulg'on ko'ngluma andin malole yuzlanur.

Yorga o'zni taxayyul birla maxsus aylabon,
Ul xususiyat aro har dam xayole yuzlanur.

Chun xayol ilgida bo'ldi notavon ko'nglum asir,
Boshig'a har lahza savdoi muhole yuzlanur.

Vasl savdosidin o'tkarsam emas mumkin debon,
Xotiri ichra aning ham ehtimole yuzlanur.

Mahvashimni so'zga tortarmen taxayyul kunjida,
Har so'zumga kim javob aytur, savole yuzlanur.

Istamon aning xayolin dog'i qilg'aymen malul,
Bas qilurmen, garchi har dam qilu qole yuzlanur.

Vaslini aning xayoli birla qilmasmen badal,
Garchi har soat manga sohib jamole yuzlanur.

Chiq bu gulshandinki, past istar boshingni yer kebi,
Onda har damkim sanga sarkash nihole yuzlanur.

Ey Navoiy, yor zulfu qomatidin bo'lg'usi,
Gar parishon xotiringg'a e'tidole yuzlanur.

Za'fliq jismim qachon nozuk belingga chirmanur,
Zulfung ikki tori go'yo bir-biriga to'lg'anur.

Qomatingg'a sarv taqlid aylabon topti shikast,
Bu sazodur, gar giyah sarvi sihig'a o'tkanur.

Zul funga hamsarliq etmak o'zda topmas, nechakim
Sunbuli mushkin quyundek o'z-o'ziga aylanur.

Voqif erkin ishq o'tining so'zidin husn ahlikim,
Sham' agar parvonani o'rtar, o'zi ham o'rtanur.

O'ynamoq birla solur davrong'a raxshi qo'zg'alol,
Har qachonkim bazmdin ul sho'x sarkush otlanur.

Bu chamanda tortibon bulbul tong otquncha fig'on,
Ishq darsin go'yiyo gul daftardin o'rganur.

Dema sarg‘ardi Navoiyning yuzi ishq ichrakim,
Buyla oltunni qilurg‘a poymoling qozg‘anur.

140

Yordin hijron chekar ushshoqi zor, ey do‘stlar,
Necha tortay hajr, chun yo‘q menda yor, ey do‘stlar.

Yor ishqin asrag‘il pinhon, debon sa’y etmangiz,
Vah, ne nav’ etgum yo‘q nshni oshkor, ey do‘stlar,

Ishq birla gar birov lofi vafov uhd urar,
Ishvagarlar ahdig‘a yo‘q e’tibor, ey do‘stlar.

Aylamang bekasligimni ta’n, bir kun bor edi
Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do‘stlar.

Yorsiz vayronda qon yig‘larmen oxir, siz qiling
Yor birla gashti bog‘u lolazor, ey do‘stlar.

Yorsiz ifrot ila gar yig‘lasam, ayb etmangiz
Kim, erur bu ish manga beixtiyor, ey do‘stlar.

Do‘stluq aylab tutung gah-gah labolab jomkim,
Qasdi jon qilmish manga dardi xumor, ey do‘stlar.

May ichingkim, dahr eli ichra ko‘p istab topmaduq
Ahdu paymonida bo‘lg‘on ustuvor, ey do‘stlar.

Yoringiz vaslin g‘animat anglabon shukr aylangiz
Kim, Navoiy o‘ldi bekaslikda zor, ey do‘stlar.

141

Vasldin, vahkim, damo-dam elga jomino‘sh bahr,
Bizga sog‘ar-sog‘ar aning furqati bazmida zahr.

Ul ko‘zu qoshdin agar qo‘zg‘olsa olam, tong emas
Kim, biridur ofati davron, biri oshubi dahr.

Vah, netib sabru shikebim mulki vayron bo‘lmasun,
Ikki ko‘zdin Dajlayu Jayhundek oqib ikki nahr.

Xoslarg‘a lutfung o‘ldi om, yuz afg‘onki, men
Omdinmenkim, mening jonimg‘a qilding xos qahr.

Otlanib chiqt magar ul mast zolimkim, yana

Tushti olam kishvarig'a fitnavu qo'zg'oldi shahr.

Mehrdin yuz qilsakim, gardun arusi Zoldur,
Rustam ani aqd qilsa, naqdi jon bergusi mahr.

Ey Navoiy, yor yodinda malak mahram emas,
Faqr odobi aro tajviz qilma zikri jahr.

142

Vahki, zolim ishq jonimg'a yana bedod etar,
Qatl umidi birla g'amgin xotirimni shod etar.

Zuhdu taqvo buzdi obod aylamak birla meni,
Shukrkim, ishqu junun buzmoq bila obod etar.

Bazmi ayshi ichra g'avg'o uyladurkim, tashqari
Kim, quloq solur agar, devonae faryod etar.

Necha tartib aylasam sabru saloh avroqini,
Sarsari ishqu junun yetkach, borin barbod etar.

Ishq ko'yida ko'ngul holi parishonroq bo'lur,
Ofiyat mulkidagi jam'iyatin chun yod etar.

Ul quyosh hijronida bu zarrai sargashtag'a
Ishq zulmi bas emaskim, charh ham imdod etar.

Ishq aro yolg'uz mening holim ko'rub har dam sipehr,
Vomiqu Farhodu Majnun holin istishhod etar.

Vah, netib, ey xonaqah shayxi, tutay zuhdu riyo,
Dayr piri chun manga faqru fano irshod etar.

Ey Navoiy, ani bil ozoda olam ahlidin
Kim, o'zin olam eli g'avg'osidin ozod etar.

143

Labki xandon qilibon qoshu ko'zin o'ynatadur,
O'ynay-o'ynay meni bechorani qon yig'latadur.

Ko'rgach ul oyni, yaqindurki fig'onlar qilg'ay,
Lek bexudlug' ila ko'nglum o'zin to'xtatadur.

Tortmoq mumkin emas o'qini ko'nglumdinkim,
Yana o'q har nafas aning yonig'a o'rnatadur.

Baxtim uyg‘onmas agarchi faza’im dard ahlin
O‘lum uyqusig‘a borg‘onlar esa uyg‘otadur.

Ko‘zum ashkin bu jihatdin desa bo‘lg‘ay xunob
Kim, bu su oqsa, bag‘ir ham anga qonin qotadur.

Sabru orom sipohin nechakim yig‘sam, ishq
Gah ani sindiradur, goh muni butratadur.

G‘arazi buki, habibimg‘a qul o‘lg‘ay Yusuf,
Husn bozorida har nechaki o‘zin sotadur.

O‘xshamaydur mening ollimda, agarchi dehqon
Sarvi gulro‘yuma sarvu gulini o‘xshatadur.

Ishq ani kelturadur xasta Navoiy tarafi,
Novaki g‘amzani ul sho‘x qayonkim otadur.

144

Chiqib ishq o‘ti ko‘ksum chokidin, boshimdin oshibdur,
Bu eskirgan yog‘ochqa o‘z ichidin o‘t tutoshibdur.

Junun ahlig‘a ul oy tori zulfi orzusidin
Base, sarrishtai savdoki bir-birga uloshibdur.

Qamar yuzinda mushtu kochdin ko‘rdum asar har yon,
Hamono ul quyosh badmast bo‘lg‘onda taloshibdur.

Qo‘ngul chokiga g‘am tuxmin xating fikri to‘la qilmish,
Zaxira, ko‘rki, xayli mo‘r maskan ichra toshibdur.

Sabo mashshotasi, lutf aylabon gulgun to‘nin kiydur
Ki, ra’no sarvig‘a gulbargdin xil’at yaroshibdur.

Falakning pardai zaylin bukim qildi shafaq gulrang,
Magarkim yer yuzidin ko‘z yoshim xunobi toshibdur.

Meni Majnun tanin tirnog‘larning zaxmidin ko‘rgan
Degay Layli iti har yon qo‘tur jismini qoshibdur.

Ko‘ngulkim, asru tavsan erdi zuhd oyinida, ko‘rgil
Ki, ishqing roizidin ne zabunlardek yuvoshibdur.

Navoiy turklarning tarki tutsa, ayb qilmangkim,
Anga bir turkmon mahvash g‘ami mahkam do‘loshibdur.

145

Kimki olam bog‘ida bir sarvi gulruxsori bor,
Bog‘ sayridin farog‘i, sarvu guldin ori bor.

Gul bila mayni netar devonaekim, ko‘nglida
Bir parivash la’lidin may, husnidin gulzori bor.

Gul nasimu atridin mumkin emas topmoq iloj,
Kimki bir gulchehra xori hajridin ozori bor.

Jon yetib og‘zimg‘a o‘lgum, bir nafas tengri uchun,
Ey Masihim, kel beri, ey muddai, sen nori bor.

Ko‘zlariga xori mehnatdur gul, ulkim gul chog‘i
Guljabinlar ko‘zları yanglig‘ iki bemori bor.

Dema bulbul zulmig‘a gul bog‘lamish bel, go‘yiyo
Charx zulmidin aning ham bog‘lag‘an zunnori bor.

Qoldi xurramliq falakdin tashqari, ko‘r, ey rafiq
Kim, qazo naqqoshining ne gardishi pargori bor.

Faqr yo‘linda og‘irroq yuk erur vobastaliq,
Ey ko‘ngul, tarki taalluq aylabon ul sori bor.

Ey Navoiy, o‘zni maqbul istasang, tufroq bo‘l
Kim, erur mardud, ulkim boshida pindori bor.

146

Turrangki, tobi yuzda o‘tumg‘a vasiladur,
Ul sham’ shu’lasi aro mushkin fatiladur.

Olsa ko‘zung hiyal bila ko‘nglumni, ayb emas,
Bor ul fusungareki, ishi makru hiyladur.

Ashhablaringki, rishtag‘a tortildi dahr aro,
Solmoqqa rustaxez ajoyib taviladur.

Layli qabilasi o‘ti qaydin ko‘runsa shom,
Majnunni kuydurur, bu ne o‘tluq qabiladur.

Kirsang fano tariqig‘a, devonavor kir,
Ul vajhdinki, aql bu yo‘lda aqiladur.

Eykim, jahon salitasini aylading nikoh,
Bilgilki, xasmkushdur, agarchi jamiladur.

La'lingg'a jonin etsa Navoiy fido, ne tong
Andin olurg'a kom bu ishlar vasiladur.

147

Binafsha atri bila el tarabni yod etadur,
Qadah keturki, egib qadni xayrbod etadur.

Chaman sahifasida sabza demakim, gardun
Tarab so'zini yashil xat bila savod etadur.

Kishiki g'uncha aro jola ko'rsa ishratdin,
Habib og'zida kulmakni e'tiqod etadur.

Sabuh may chekib oltun piyolada, nargis
Ko'zining uyqusig'a mujibi kushod etadur.

Xush ulki, lola kebi la'lujom aro manni
Ziyoda quymoq ila ishratin ziyod etadur.

Zamona boisi g'amdur, zamone ahli xirad
Qadah kuchi bila g'amgin ko'ngulni shod etadur,

Piyola davrini xush tutki, juz nadomat emas
Anga natijaki, davrong'a e'timod etadur.

Ne kelsa ollinga, tut sahlkim, jafo ko'rар ul,
Biravki dahr inodin ko'rub inod etadur.

Aning murodi murodimdurur, agarchi murod
Anga budurki, Navoiyni nomurod etadur.

148

G'amzang ul sayyodkim, gulshan aro oromi bor,
Xol birla zulfdin ham donasi, ham domi bor.

Xattining navrasta jannat sabzasidek holati,
Qaddining navras niholi umrdek andomi bor.

Sarv uza gul butmadi hargiz, qani ul sho'xkim,
Sarvi ra'nodek qad uzra orazi gulfomi bor.

Pora-pora bag'rim uzra tinmasa, tong yo'q, ko'ngul,
Shu'laning axgar uza bir dam qachon oromi bor.

Vasl subhin to abad ko'z tutmasun ushshoq aro,
Kimki hijronim tunidek bir qorong'u shomi bor.

Shukrlar qildik, manga boqib birovkim yordin
Kunda bir qatla nazar solg'uncha chog'liq komi bor.

Qatl qilsa, yo'q ajab, din ahlini kofir ko'zung,
Muncha islom olibon eldin qachon islomi bor.

Subh icharga boda rangi uylakim toji xurus,
G'aflat ahlig'a xurus afg'onidin payg'omi bor.

Itlaring sing'on safolidin Navoiy ichsa durd,
O'durur Jamshidu ilginda jahonbin jomi bor.

149

Ulki solg'ay shu'la a'zosig'a o'tlug' ohlar,
Qayda bilgay kuymakin zarbaft kiygan shohlar.

Bag'ridin qon tomg'uchi ushshoq zaxmin bilmagay,
Tig'idin qon tomg'uchi berahm oliy johlar.

Shiddatin Farhod qilg'ay fahm, yo'q Parvezkim,
Dardni xokilar anglar, yo'q falak dargohlar.

Jonu ko'nglum kirdilar g'am dashtig'a gum bo'lg'ali,
Men ham ettim azm, chun azm ettilar hamrohlar.

Bo'lsalar ogahki, bir g'amginni hijron o'lturur,
Fikr etar holig'a hijron dardidin ogohlar.

Vah, ne bilgay hajr zanjirida dilxohim nedur,
Halqa urg'on bazm ayshi davrida dilxohlar.

Ey Navoiy, shohlarg'a chun gadolar fikri yo'q,
Eltkil ham tengri dargohiga shayallohlar.

150

Xatti to bosh chekti, ko'nglin may bila xushhol etar,
Husni xat istab, yuz avroqin hamono ol etar.

Lekin el o'tni ayog' birla o'churgondek bosib,
Xattinnng xayli yuzining shu'lasin pomol etar.

Xat chiqardi ul pariy yuziga yo'qkim egniga,
Vah, ne pardur buki, andin elni forig'bol etar.

Xat emaskim, qildi husni kishvarin zeru zabar

Kim, bu yanglig‘ yuzni mashq avroqidin timsol etar.

Husni xattin sabzi po‘sh o‘lmoqqa norozi edim,
Ko‘r: ne hol o‘lg‘ayki, ul kisvatni emdi shol etar.

Husni zohirdin ne hosil, ey xush ulkim, har nafas
Shohidi ma’ni yuzidin o‘zni farruxfol etar.

To savodi xattini ko‘rmish Navoiy, za’fdin
Jismini kilk anda mehnat o‘qlaridin nol etar.

151

Shomi hijronim aro jismi chu nolim chirmashur,
Zulfi savdosida andoqkim xayolim chirmashur.

Ishq darsi ichra sursam nukta savdo ahlidin,
Turrasi tobig‘a chun yesam, savolim chirmashur.

Chirmashay deb zulfig‘a yuz pech urarmen har kecha,
Chun dimog‘ ichra bu savdoi muholim chirmashur.

Men quyun misli emon sargashta savdo dashtida,
Balki taqlidimni aylay deb misolim chirmashur.

Zulfiyu qaddini ko‘r, ey bog‘bon, ko‘p demakim,
Ishqi pechonim bila ra’no niholim chirmashur.

Mushkul ar qolg‘ay asar mehru muhabbat ahlidin,
Buylakim, ul xaylg‘a bu charxi zolim chirmashur.

Ey Navoiy, ko‘nglum istar zulfi torin, zulfidek
Har dam ul savdoiysi oshufta holim chirmashur.

152

O‘lmasam bu kecha, ranju dardi g‘avg‘osi nedur!
Itlaringning ham boshim uzra alolosi nedur!

Hajr shomi tiyralik birla meni devonani
Chun halok etti, yana boshinda savdosi nedur!

G‘am tuni jonim uqubatlar bila gar olmasa,
O‘rnidin tebranmay anjumming tamoshosi nedur!

Jism uyi vayron bo‘lub, sabru qaroru aqlu hush
Qolmadi bir, emdi ahli ishq yag‘mosi nedur!

Telba ko'nglim ittingu jonimni barbod aylading,
Yona kelding, ey malomat, dashti rasvosi nedur!

Xilqatimni ishq nobud ettiyu chekmas ilik,
Emdi bilmonkim, aning oyo tamannosi nedur!

Savtu harf ichra chu sig'mas ishq sirri, ey faqih,
Qilu qol ahlining oyo lovu illosi nedur!

Chun azalda har ne qismat bo'ldi, ko'rmay chora yo'q,
Xalq o'z komin o'zidekdin tavallosi nedur!

Ey Navoiy, ishq aro chun yo'qtur imkoni visol,
Telba ko'nglum xotirida muncha vasvosi nedur!

153

Har qachonkim xotirimg'a ul ko'zu qosh evruler,
Ham qoshimg'a chin tushar, ham ko'zuma yosh evruler.

Ul oy otqon toshni ko'ksumga soldim, chokidin
Surtsam har yon ilik, ko'ksumga ul tosh evruler.

Men nihonmen, za'f birla vahmdin o'lturdi rashk,
Gulshani ko'yidakim bodi sabo fosh evruler.

Ey junun arbobi, sargardonlig'im afsonasin
Go'sh qilmangkim, eshitkandin ani bosh evruler.

Bas ulug' toatdur ul but suvratin qilmoq nazar,
Chun aning naqshin ko'rub, xotirg'a naqqosh evruler.

Kelki, bu dayri ko'han vaz'ig'a hayrondur base
Kim, tun anda siymgun yuz naqsh xuffosh evruler.

Naqdi jon birla Navoiy azm etar mayxonag'a,
Har qachonkim ko'ngliga ul sho'xi qallosh evruler.

154

Shikanji turrasidinkim girih yozilmaydur,
Binafshaedurur, ammo hanuz ochilmaydur.

Ko'zung jafo aro andoqdururki, bilmas o'zin,
G'arib usruk erukim, o'zini bilmaydur.

Chu hur husnin etar vasf hozini jannat,
Sening jamolina go'yo nazzora qilmaydur.

Damim bahori bulutida dard kojidin
Ko‘zumga hech nafas yo‘qki, o‘t choqilmaydur.

Erur mulk aro ishqim so‘zi, tutung ma’zur
Ki, bu fasona hanuz el aro yoyilmaydur.

Takabbur aylama, dehqon, dekim, bu gulshanda
Qachon gule ochilibturkim, ul sochilmaydur.

O‘lar Navoiyi bedilki, xalqning ko‘ngli
Topildi, lek aning ovorasi topilmaydur.

155

Bu kecha sham’u subh yoqo chok qildilar,
Go‘yoki o‘lmakimni firoqingda bildilar.

Ishqim zuhuri Vomiqu Majnung‘a urdi xat,
Gar ishq daftarida burunroq bitildilar.

Ko‘yida ittilar yana jonu ko‘ngul qochib,
Har qatlakim ko‘p istab alarni topildilar.

Ushshoqi hajr chohidin o‘lg‘on zamon xalos,
Ko‘yida mo‘r xayli masallik yoyildilar.

Tavhid nuktasida xamush o‘ldi piri dayr,
Jam’iki sharh qildilar ani, yongildilar.

Shahdur gadoyi maykada, yo‘q-yo‘q, g‘alat dedim,
Shahni gadolar anda qachon ko‘zga ildilar.

Tuz qo‘y, Navoiyo, oyog‘ing ishq ko‘yida
Kim, anda ashk suyidin el ko‘p toyildilar.

156

O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakiz yoshindadur.

Desa bo‘lg‘aykim, yana ham o‘n sakiz yil husni bor,
O‘n sakiz yoshinda muncha fitnakim boshindadur.

O‘n sakiz yil dema, yuz sakson yil o‘lsa, uldurur
Husn shohi, ul balolarkim ko‘zu qoshindadur.

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,

Barchasi ezid taolo sun' naqqoshindadur.

Tan anga siymu ichinda tosh muzmar ko'nglidin,
Aqlg'a yuz hayrat ul oyning ichu toshindadur.

May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish
Masih, Bul-ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.

To Navoiy to'kti ul oy furqatidin bahri ashk,
Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.

157

Necha tortay vasl uchun men zori mahzun intizor,
Vahki, ko'zdin to'kti selobi jigargun intizor.

Demakim, ul oyg'a ko'p mushtoqsen yo muntazir,
Ishtiyooqim benihoyat, andin afzun intizor.

El mushavvashdur seni ko'zlarda andoqkim vuush,

Dasht aro tortar zamon Laylig'a Majnun intizor.

Yo quyoshimni yetur boshimg'a, yoxud jonim ol,
Ko'p manga yetkurma, ey bemehr gardun, intizor.

Ey sahobi hajr, qilma subhi umrum tiyrakim,
Ul quyoshtin ayru tortibmen uzun tun intizor.

Boshima bir qatla yet, gar xud erur o'lturgali,
O'ldi tortardin chu bu zori jigarxun intizor.

Ishq shahri muntazirdurlar Navoiy qatlig'a,
Ul ikiga tortqondek tog'u homun intizor.

158

Do'stlar, men telba ahvolig'a yig'lang zor-zor,
Kim soladur gah-gah o't ko'nglumga tushkan xor-xor.

Istamas bo'lsa sabo bir-bir ko'ngul jam' aylamak,
Nega zulfungni parishonlig'din aylar tor-tor.

Sen quyosh birla munosibsen o'yunda, xo'blar
Ikki-ikki chunki kirgaylar, otoshib yor-yor.

Qo'rqaramkim, bo'limg'ay ozurda nozuk qomating,
Egninga xush-xushki solmish chug'di anbarbor bor.

Halqa-halqa bo‘ynuma solmish tanobi zulfini,
Jurmi ishqimg‘a magar hukm ayladi dildor dor.

Ishq erur andoq murabbiykim, qilur yetkach asar,
Bulbul o‘lg‘ay, ochsa yuz bir sarvi gulruxsor-sor.

Ey Navoiy, bo‘ldi ul but kofiri otashparast,
Ne ajab, vah-vah, gar ursa joninga zunnor nor.

159

Ul ne ra’no qomatu ruxsori farruxfoldur
Kim, havas idrokidin lolu xirad bexoldur.

Jon o‘lardin, dog‘i g‘amzang o‘ltururdin to‘ymadi,
Olloh-Oolloh, ul ne maqtulu bu ne qattoldur.

Aql pirikim malak xaylig‘a erdi muqtado,
Ul pari ishqqi aro bozichai atfoldur.

Huru to‘bi kelmasa ollingg‘a, ermas aybkim,
Ne bu ham qaddingdurur, ne ul sanga timsoldur.

Chun nishiman qildi husnung bog‘ida ko‘nglum quushi,
O‘zga gulshang‘a qilurdin mayl forng‘boldur.

Vahki, chiqti shahsuvorim sekretib maydong‘a mast,
To ne dinlar naqdi raxshi ollida pomoldur.

Bas manga muncha sharafkim, bergamen nisbat anga
Holima andin agar idbor, agar iqboldur.

Kir xarobot ichra, ey hamdamki, davron ahlidin
Ranji gunogun davosi jomi molomoldur.

Deding, o‘lturgum Navoiyniyu aylarsan hiyal,
Ul xud o‘ldi intizor ichra, bu ne ihmoldur.

160

Yana bu oqshom buzug‘ ko‘nglum, base, badholdur,
Tan buzug‘ zindonida jon ham xarob ahvoldur.

Ro‘zgorim tiyralikdin yuzu xoling hajrida,
Ro‘zgori xirakash ruxsori uzra xoldur.

Axtari idborim aning barcha nahsiyat bila
Toli‘imning avji uzra kavkabi iqboldur.

Piri aqlimkim, manga man'i junun aylar edi,
Bir parivash ko'yida bozichai atfoldur.

Notavon jismim junun dashtidakim bo'lmish xayol,
Dema Majnun jismidinkim, ruhidin timsoldur.

Jannati ko'yungda tan soyirdurur, ko'nglum itib,
Shukr, ul uchmog'da jismim emdi forig'boldur.

Ko'nglum oldi ishqu itti aqlu sabru din, bu dam
Ul buzug' mulk ichra zolim shahg'a istiqlooldur.

Bevafolar o't, vafo ahli erur tufrog'kim.
Charxdin ul sarkash o'ldi, bu dog'i pomoldur.

Ey Navoiy, yor hajri dardida o'lmakdur ish,
Chun tirilgung yo'qtur, istarga bu ne ihmoldur.

161

Tushumga kirdi jannat ichra huru to'biyu kavsar,
Magar ko'yida topqum orazu, qaddu labidin bar.

Men ettim ishqil tarkin ham ul etti vaslidnn va'da,
Ne andindur manga bovar, ne mendindur anga bovar.

Yuzi ko'zguga, xatti yuzga ziynat berdi kim ko'rmish
Qamarg'a subhdin ravnaq, quyoshqa shomdin zevar.

Yuzinda xaymudur yo manglayidin qatra, vah, ko'rgil
Ki, guldinmu oqar shabnam, quyoshdinmu tomor axtar?!

Labida nutqu nutqida latofat ko'rki, ne yanglig'
Sudur yoqut aro mudg'am, hayot ul su aro muzmar.

Yuzinda partavu ul partav ichra la'lini ko'rkim,
O't uzra shu'la ko'rguzdi va lekin shu'lada axgar.

Xumori hajru dardi ishqdin muztarmen, ey soqiy,
Karam aylab, o'tumg'a su quy, ammo jonima ozar.

Zamondin ahli yo ahli zamondin istagan ehson,
Yonar o'tdin tilarkim su chiqarg'ay, xordin gavhar.

Tilar Laylini Majnun, dilbarin miskin Navoiy, vah,
Kerak bulbulg'a gul, devonag'a yori pariy paykar.

162

Vahki, men bedilg‘a ne ul nomusulmondin xabar,
Ul musulmonkim xabarg‘a bordi, ne andin xabar.

Qosidu jononadin yo‘qkim xabarsizmen bukun
Kim, ne qosiddin, ne jonon, balki ne jondin xabar.

Yo‘q manga andin xabar, doim so‘rub ahvolini,
Qayda bir so‘rmay anga men zori hayrondin xabar.

Masti noz ul, notavonmenkim keturgay, eltkay
Yo anga mendin xabar, yoxud manga andin xabar.

Vah, ne kun bo‘lg‘ayki, ul g‘oyib safardin keldi deb,
Istabon mendin sevinchi, yetsa har yondin xabar.

Hajr agarchi jondin itti bexabar, koshi o‘lg‘amen
Bexudekim, bo‘limg‘ay jonimg‘a hijrondin xabar.

Davr ayog‘in, soqiyo, andoq to‘la tutkim manga,
Qolmag‘ay ne ahli davrondin, ne davrondin xabar.

Ey xush ulkim, keldi andoq mastur bordi mastkim,
Topmadi mutloq ne kelgandin, ne borg‘ondin xabar.

Ey Navoiy, kim so‘rar bo‘lsa meni ovorani,
Dasht uza so‘rg‘ay magar g‘uli biyobondin xabar.

163

Ey falak, hijron g‘amidin xotirim noshod erur,
G‘ayri vasl ar saltanat bersang, manga bedod erur.

Bas necha mujrimg‘a bir jallodi g‘amzang xaylidin,
Bir yozug‘luq zor ko‘nglumga necha jalloid erur.

Noz ila gulshang‘a chun kirding — niholi qaddinga
Banda bo‘lg‘on sarvinozu sabsani ozod erur.

Dam-badam yetmaydur ersa ishq zulmi ko‘ngluma,
Har dam ul mazlumi mehnatkashka ne faryod erur.

Necha yig‘sam sabr avroqiyu toat xirmanin,
Sarsari ishqing yetishkach, sarbasar barbod erur.

No‘sh etib jomi fano, qo‘ysam riyo, ayb etmakim,
Dayr piridin manga, ey shayx, bu irshod erur.

Dard mulki, g‘am sipohi g‘ussa naqdin arz etib,
Ey Navoiy, ishq eliga arz isti’dod erur.

164

Ohim g‘amingda gunbadi axzarni kuydurur,
Har uchquni falakda bir axtarni kuydurur.

Otashkada o‘tida samandar topar hayot,
Ko‘nglum o‘ti valek samandarni kuydurur.

To qomatingg‘a ne uchun o‘xshatti bog‘bon,
Ohim samumi sarvu sanovbarni kuydurur.

Bir o‘tdurur tanimdakim, aning harorati
Ko‘nglakni kul qilur, dog‘i bistarni kuydurur.

Derlarki, og‘iz o‘t desa kuymas, vale bu oh
Chun sabt bo‘lsa, xomayu daftarni kuydurur.

La’ling xayoli ko‘ngluma o‘t soldi, vah, ko‘rung,
Ne tez erur bu bodaki, sog‘arni kuydurur.

Soqiy, g‘am ichra o‘ldi Navoiy — piyola tut
Kim, g‘ussalardin ushbu o‘t aksarni kuydurur.

165

Ko‘nglum o‘tin zohir etsam, barcha olam o‘rtanur,
Shu’lasin gar tortsam, to‘qquz falak ham o‘rtanur.

Momug‘ uzra yoyibon kofur qo‘ymang dog‘ima
Kim, momug‘ dog‘i tutoshur ham bu marham o‘rtanur.

Gar g‘aming so‘zokidin kuyar ko‘ngul, ermas ajab,
Har ko‘ngul ichraki tushti shu’lai g‘am, o‘rtanur.

Ayb emas, har lahza ohim shu’la cheksakim, ko‘ngul
Bir yuzi o‘tluq firoqi ichra har dam o‘rtanur.

Ishqing o‘ti uchqunidin jismim andoq kuydikim,
Barq xoshok uzra tushsa, bu sifat kam o‘rtanur.

Qaynabon ko‘z chashmasidin ashk, jismim o‘rtadi,
Yetса jo‘shon su qayu uzv uzra, mahkam o‘rnatur.

Ey Navoiy, ko‘nglum o‘ti uzra su quy bodadin
Kim, ko‘ngul ul o‘tqa yetmas bo‘lsa bu nam, o‘rtanur.

166

Zulfung ochilib, orazi diljo‘ bila o‘ynar,
Hindu bachae sho‘xdurur, su bila o‘ynar.

Ul sho‘x ko‘ngul lavhin etib tiyra nafasdin,
Bir tifldur alqissaki, ko‘zgu bila o‘ynar.

O‘ynay-o‘ynay bog‘ladi uyqumni fusundin,
To g‘amzası ul nargisi jodu bila o‘ynar.

Tong yo‘qki, ko‘zung bo‘lsa ko‘ngul birla muloib,
Majnung‘a ajab yo‘q, agar ohu bila o‘ynar.

Bir lo‘liyi bozigar erur chambar ichinda,
Xolingki, o‘shul halqai gesu bila o‘ynar.

Zohid bila nafs etsa tamasxur, ne ajabkim,
It sayd qilur vaqtda tulku bila o‘ynar.

Mug‘ dayrida mast o‘lsa Navoiyni ko‘rungkim,
Bir olma kebi gunbadi minu bila o‘ynar.

167

Tilab yuzungni ko‘ngul hajrdin farog‘ istar,
Qorong‘u tunda nachukkim kishi charog‘ istar.

Bihisht borida do‘zax sori qilur ohang,
Habib ko‘yi turub, ulki gashti bog‘ istar.

Saloh ko‘nglakini yirtib, oh o‘tin yorutub,
Ko‘ngul firoqim aro ko‘ksum uzra dog‘ istar.

Sochingni islabon oshuftamen, zihi savdo,
Birovki mushkdin osoyishi dimog‘ istar.

Hayot bodasidin nash‘a dog‘i hayf anga
Ki, lablaring mayi davrida o‘zni sog‘ istar.

Bu naqd jannat arodur, birovki dayr ichida
May ichsa, mug‘bachalar ilgidin ayog‘ istar.

Qo‘yung Navoiyi bedilni, qilsa ko‘yiga azm
Ki, ko‘ngli it mish aning — aylamak so‘rog‘ istar.

Ne tong, agar o‘qi vayron ko‘ngulga rog‘ibdur:
Qurug‘ nihol buzug‘ bog‘ aro munosibdur.

Sirishk qatralari tiyra kulbam ichra, magar
Balo sipehri aro nahsvash kavokibdur.

Qoshingdag‘i girih ul yuzni ko‘rgali qo‘ymas,
Jamol mulkida sulton ulu bu hojibdur.

Ko‘ngul uyi chu sanamlardin o‘ldi butxona,
Magarki, ishq bu butxona ichra rohibdur.

Talabda shevanu g‘avg‘o erur mening aybim,
Yo‘q ersa barcha ulus xo‘blarg‘a tolibdur.

Ne ixtiyor ulus bozi yerga mundoqkim,
Nujum lu’bati birla falak muloibdur.

Navoiy ittiyu ko‘yida kimsa demadikim,
Bu ko‘y itlari ichra birisi g‘oyibdur.

169

Forig‘u ozoda bylmas mubtalolardin xabar,
Shoh ko‘nglida qachon bo‘lg‘ay gadolardin xabar.

Hajr vodiysinda kim topqay meni ovorani,
Dam-badam so‘rg‘ay magar dardu balolardin xabar.

Ul vafosiz oldi ko‘nglumiyyu yuz ko‘rguzmadi,
Istasam ani, so‘rarmen bevalolardin xabar.

G‘unchadek qonlig‘ ko‘ngul gum bo‘ldi ul gul ko‘yida,
Ey sabo, tut goh-gohe ul arolardin xabar.

Chun xabar yo‘qtur qorarg‘an ro‘zgorimdin manga,
Qayda topqaymen ko‘zu qoshi qoralardin xabar.

Ulki mastu bexabar der, ishqil jomidin meni,
Go‘yiyokim, anglamaydur porsolardin xabar.

Tut Navoiy holidin gohe xabarkim, ayb emas,
Gar navozish ahli tutsa benavolardin xabar.

170

Shomi hijron subhidek bag‘rimni chok etti sipehr,
Subhg‘a yetkuncha jonimni halok etti sipehr.

Subhdek bir chok yo‘q, ko‘nglumni balkim g‘unchadek
Ishqi muhlik tig‘i birla chok-chok etti sipehr.

G‘am tuni har kavkabinkim jilvagar qildi, meni
Mahvashim hijronidin anduhnok etti sipehr.

Garchi kuydurdi meni, xushturki, ko‘nglum ko‘zgusin
G‘ayr naqshidin hamul kul birla pok etti sipehr.

To balo toshini yog‘durdi manga hajr ilgidin,
Demayinkim, xoksor ettiki, xok etti sipehr.

Shukrkim, jonimni ham muhtoj qildi zulmig‘a,
Qotilimni nechakim behahmu bok etti sipehr.

G‘am zaxira qo‘yg‘ali erdi magar ishq ahlig‘a
Kim, Navoiy ko‘nglini yuz ming mag‘ok etti sipehr.

171

Kecha kuymak rasmini parvona mendin o‘rganur,
Sham’ kuydurmak ishida mahvashimg‘a o‘tkanur.

Ul pariy hajrinda men devona cheksam o‘tluq oh,
Ey malak, gar bo‘imasang voqif, qanoting churkanur.

Anjum ermas, qatralar ko‘k saqfida aylar ayon,
Dudi ohimkim, falak toqig‘a har tun chirmanur.

Saltanat taxti uza yotqon uyumas rashkdin,
Ko‘rsa boshimniki, har tun ostoning yastanur.

Baxtim uyqudin ko‘z ochmas, yo‘qsa chun cheksam fig‘on,
So‘nggi uyqu masti bo‘lg‘onlar ul undin uyg‘anur.

O‘z-o‘zumga to‘lg‘anurmen, qaddu zulfin yod etib,
Sarvg‘a gulshanda sunbul shoxi chunkim to‘lg‘anur.

Devvashlardin qochib tutti Navoiy bodiya,
Bu jihatdin tegrasiga dashti vahshiy aylanur.

172

Ko‘zda su — ko‘ngul aro o‘t, ne ko‘rarsen, oxir?!

Yana ahvolin alarning ne so‘rarsen oxir?!

Rishtai vasl ila bir zaxmini tik, rahm aylab,

Hajr tig'i necha bag'rig'a urarsen oxir.

Ul oy oshuftalarin aylar emish diljo'liq,
Munda, ey shefta ko'nglum, ne turarsen oxir.

Tushta hajrini ko'rub men sanga sharhin aytay,
Ey hakim, ani agar aks yo'rarsen oxir.

Tiyri boronki, otar charxi muqavvas — basdur,
Necha qosh yosini qasdimg'a qurarsen oxir.

Mazrai dahr aro soch lutf ila ehson tuxmi,
Har ne eksang, ani-o'q chunki o'rarsen oxir.

Gar Navoiyg'a davodur unung, ey yor iti,
Hording erkinki, tong otquncha hurarsen oxir.

173

Qasrning har kunguri uzra balo toshimudur?
Yo'qsa botil ishq da'vo qilg'an el boshimudur?

G'am tuni, bilmon, shafaqdur yo falak mir'otida,
Aks ko'rguzgan ko'zumning la'lgun yoshimudur?

Kofiremu qatl aylar Ka'ba toqi ichra mast,
Yo'qsa ul xunrezning usruk ko'zu qoshimudur?

Bir humoyun qush kecha sadqang bo'lur, ey mug'bacha,
Qof anqosimudur yo dayr xuffoshimudur?

Bog'bonkim sarv uzra aylamish payvand gul,
Sarv bo'yluq gulruxumdur, yo'qsa bo'ydoshimudur?

Ilgida jomu ko'rар may ichra olam holini,
Yo rab, ul Jamshid yo mayxona qalloshimudur?

Tonglog'i kavsar uchun, dersen, bukun may ichmagil,
Tek tur, ey zohid, Navoiy sen kebi noshimudur.

174

Kecha har kavkab ko'rungach, yodima oyim kelur,
Oy chu tole' bo'ldi — mehri olamoroyim kelur.

Zuhdu taqvo, butrashingkim, bu kecha may ichkali
Baytul ehzonimg'a sho'xi boda paymonim kelur.

Bu sarig‘ yuzungni ko‘rmaski, Kilg‘ay ko‘ngli rahm,
Baski, yuzga qonlig‘ ashki chehra oloyim kelur.

Vah, ne hijrondur bukim, aylay desam zikri visol,
Dam-badam og‘zimga ohi mehnatafzoyim kelur.

Shayxu ibriqu ridosin chun ko‘rarmen — yodima
Dayr aro paymona birla bodapoloyim kelur.

Ozimi dashti fano bo‘ldum, kelur Majnun dog‘i,
Gar qadam tez urmon andindurki, hampoyim kelur.

Ko‘zlaru, jonu ko‘ngulda manzil et orasta,
Ey Navoiykim, bukun mahbubi xudroyim kelur.

175

Muztarib ko‘nglum aro ul yuz xayoli aylanur,
Mayjluq suda quyosh aksi nachukkim chayqanur.

To uzori jilva aylar — jilvagardur zulfi ham,
Mehr to aylar taharruk — soya dog‘i tebranur.

Chun ulusqa ishq o‘t soldi ajab yo‘q kuymakim,
Beshag‘a chun tushti har yon shu’la, xas ham o‘rtanur.

Egma qad birla meni sargashtadurmen muztarib,
Toki chavgon azmig‘a, bildimki, ul sho‘x otlanur.

Sho‘xliq rasmin anga taslim etarlar xo‘blar,
Sekramakta uylakim uchqun chaqing‘a o‘tkanur.

Aylay olmas orazingdin o‘zga yon ko‘nglum havo,
Qush o‘zin mash’alg‘a chun urdi — qanoti churkanur.

Soqiyo, ber mayki, g‘am shomi xumori hajrdin
Bir parishon tush ko‘rub, bu xasta har dam seskanur.

Kimki jon aylab fido, qozg‘onsa dahr ahlida do‘st,
Anglag‘il, ey do‘stkim, ul dushmani jon qozg‘anur.

Ey xush ulkim, boshining ostidadur dilbar qo‘li
Kim, Navoiy kechalar bori o‘z ilgin yostanur.

176

May labingg‘a yetsa, jonimg‘a harorat yetkurur,
O‘t agar Iso dami birla yorurkim, kuydurur.

Dardi hijron mendadurkim, umr o'tub ko'rmon yuzin,
Vasl komildur, bukim Laylig'a Majnun telmurur.

Har qo'lumni toza qonlig' dog' ila uzgan iting
Ul kishidekdurki, gul birla yog'ochni sindirur.

Keltirur ko'z bog'idin ashkim bag'ir pargolasin,
Bo'stondin uylakim gul yafrog'in su keltirur.

Yer yuzin bahr etti ashkim, eyki, aytursen meni,
Tog'lar uzra nedin ahli junun yanglig' yurur.

O'yg'ay erdim ko'zni tirnog' birla, bilsam erdikim,
Bir nazardin boshima muncha balolar keltirur.

Soqiyo, sog'arni aylandurki, har soat xumor
Za'fdin boshimni sog'ar davridek aylandurur.

Qo'y taraddudkim, fano dayrig'a kirsang, mug'bacha
Ikki sog'ar birla ko'nglunni o'zungdin tindirur.

Ey Navoiy, olam ahlidin qiroq tut zinhor
Kim, muloqoti alarning ko'p malolat yetkurur.

177

Ne ajab, har yon meni majnun boshida yoralar,
Baski, yog'di ustiga atfol elidin xoralar.

Orazing atrofida guldur ko'rungan, ey pariy,
Yo qamar davrida saf tortibdurur sayyoralar.

Har quyun go'yoki bir sargashta oshiq gardidur,
Baski, tufrog' o'ldi ishqing dashtida ovoralar.

Anglakim, ahbobni ko'nglumda mehmon etmisham,
Itlari og'zida gar ko'rsang bag'irdin poralar.

Anda Majnun — men, buyon Layli — sen etkach ijtimo',
Bir taraf devonalar, bir yon pariy ruxsoralar.

Xonaqah vaqfi suyin ichmaslar, ey shayx, anglag'il,
Gar xumor o'lsa fano dayridag'i mayxoralar.

Ey Navoiy, ishq aro o'lmaktin o'zga chora yo'q,
Bas, g'alat bo'lg'ay, demak ushshoqni bechoralar.

Turfa ko‘rkim, furqatidin yuz malol ollimdadur,
Garchi ko‘z har sari solsam, ul jamol ollimdadur.

Ul Masihodinki bir dam ayru tushtum, o‘lmadim,
Ohkim, o‘lguncha ushbu infiol ollimdadur.

Tuzgamen, har necha bo‘lsa tiyra hijron tunlari,
Gar yaqin bilsamki, ayyomi visol ollimdadur.

Anglamon: ollimdadur la’ling xayoli muttasil,
Yo aning shavqidin oqqan ashki ol ollimdadur.

Jon berib, la’lin bir o‘pmakni tamanno ayladim,
Ey ko‘ngul, bilkim, ajab fikri mahol ollimdadur.

Davr javridin tinarmen, ey ko‘ngul, har lahzakim,
Soqiyi mahvash bila jomi zilol ollimdadur.

Ey Navoiy, deb edi vaslimg‘a yetsang — jon olay,
Bo‘lmog‘um navmid, to ul ehtimol ollimdadur.

Menu g‘ariblig‘u hajru benavolig‘lar,
Diyoru yor firoqig‘a mubtalolig‘lar.

Shikibu sabr ila begonalig‘lar aylab ko‘p,
Balovu dard bila behad oshnolig‘lar.

Ne ko‘zgu tutmoq erur dam-badamki, hojat emas
Sening jamolinga bu nav’ xudnamolig‘lar.

Seni ko‘ngul bila jon kishvarida shoh aylab,
Xayol birla qilurmen ajab gadolig‘lar.

Qadah keturki, necha dahr eliga ko‘rguzsang
Vafo, natija emas g‘ayri bevafolig‘lar.

Saloh suvratida yuz fasodu voqif yor,
Boshimg‘a to ne keturgay bu behayolig‘lar.

Navoiy, emdiki mug‘ dayri ichra sen qadah ich
Ki, ko‘p sovug‘ ko‘runur munda porsolig‘lar.

Osilmamish qulog‘ingdin yuz uzra gavharlar
Ki, ayribitur ul o‘t shu’lasidin axgarlar.

Oting ayog‘ini o‘pmakka na’lu mix ermas,
Sipehr raxshidin inmish hilolu axtarlar.

Yuzungda xo‘y emas, obi hayot qatrasidin
Quyosh jamolig‘a sun’ ilgi taqtı zevarlar.

Boshog‘laring uchi ermaksi, chiqti jismimdin,
Chiqarmisham uchubon yetkali senga parlar.

Uzor safhasida xo‘blar xati demakim,
Tuz etti ishq meni o‘ltururga mahzarlar.

Bahor faslida maxmur bo‘lma, dashtqa chiq
Ki, lola tutti base la’lrang sog‘arlar.

Navoiy oldiribon ko‘nglini agar topmas,
Birovdururki, qulidur jahonda dilbarlar.

181

Xolu xattidinki, har birining bir o‘zga holi bor,
Xat yuzinda nuqtadek mushkin xat uzra xoli bor.

Charx uza zarrin g‘azol o‘ldi shafaqdin jilvagar,
Yo mening mushkin g‘azolimning hariri oli bor.

Bahri ashkim ichrakim topmas zarar ko‘z mardumi,
Go‘yiyo kirpik nayistonidin aning soli bor.

Garchi hindu bo‘lsa, maskan aylagay xurshid uza,
Xoldek ulkim jamolindin humoyun foli bor.

Ne uchun o‘lmayki, el qatlig‘a aylab ehtimom,
Qotilimning chun manga navbat yetar ihmoli bor.

Kon ila daryo matoin naylasun ul kimsakim,
Dayr aro la’li ravondin jomi molomoli bor.

O‘zni mast istar xarobot ichra vajdu hol ila,
Gar Navoiyning bu dam dars ichra qiyulu qoli bor.

182

Kofirekim, sen kebi ruxsori otashnoki bor,

O't solurdin lashkari islom aro ne boki bor.

Ishq o'tin ko'nglum yorutmoq istasa, yo'qtur ajib
Kim, churuk bo'lg'on so'ngaklardin quruq xoshoki bor.

Ko'nglakim chokin tikarga mayl qilding, ey rafiq,
Bilmading go'yoki, ko'nglak ichra ko'ksum choki bor.

Eyki, dersen pok husnumdek jamol ahlida yo'q,
Men kebi ishq ahlining ham qayda ishqqi poki bor.

Qatra-qatra ashku daf'a-daf'a ohim dudidiya
Ishq mulkining ajoyib anjumu afloki bor.

Sol yangi oy zavraqig'a atlasing, ey charxkim,
Ohdin bu shom ashkim bahrining ko'loki bor.

Ey Navoiy, qo'yma boshim sho'xlar go'y etkali
Kim, ani osmoqqa bo'lsun chobukim fitroki bor.

183

Har gadoekim, jahonda bir muvofiq yori bor,
Xizr umriyu Skandar hashmatidin ori bor.

Kimki ul bir ko'ngli sevgan naxl qaddin bar yedi,
Olloh-Olloh, umridin ne baxti barxo'rdoi bor.

Bilsa ko'nglum holatin, shoyadki kelgay so'rg'ali
Ulki, ko'ngli ichra bir badxo'ydin ozori bor.

Ko'zlaridin kecha tong otquncha uyqum yo'qturur,
Kecha naylar anda uyqukim, iki bemori bor.

Shu'laliq yuz pora ko'nglum xayli mujgoning aro
Otashin guldurki, atrofida hadsiz xori bor.

Istasang davron jafosidin qutulmoq, ey ko'ngul,
Xonaqah tarkin qilib, mayxona ko'y'i sori bor.

Hech yanglig' topmasang dayr ichra may olmoqqa vajh,
Rahn uchun bo'lsun Navoiy xirqavu dastori bor.

184

Ikki gul vaqtiduru ikki quyosh davronidur
Kim, ko'ngulda ul iki oraz g'ami hijronidur.

To latofatdin labing shavqi tushubtur jon aro,
Go‘iyokim ul munga tandur, bu aning jonidur.

Ko‘zda har sari qizil raglar demakim, mardumin
G‘amzang urdi, zaxmlar har yon yugurgan qonidur.

Multafit bo‘l holatim sharhig ‘akim, bu doston
Shahr aro har ko‘yning boshida el dostonidur.

Har quyun g‘am dashti ichra ko‘rsa Layli sog‘inur
Kim, xasu tufrog‘ aro Majnuni sargardonidur.

Ulki to mumkindurur, ko‘rmish falakdin e’tibor,
Bas, mazallat ham kerak, ko‘z tutsa to imkonidur.

Asrangiz o‘zni Navoiy shu’lai afg‘onidin
Kim, bu aqshom furqati oshubining tug‘yonidur.

185

Lo‘livashimdin ayruki, qabrimda loladur,
Ul o‘ynag‘on kebi yog‘och uzra piyoladur.

Gulzor oramu lo‘li etar la’b to‘lg‘anib,
Yo gul kebi uzorida mushkin kuloladur.

Ul turfa chehra doiraning chambari aro,
Xurshid davrasida aningdekki holadur.

Tablu nafir ma’rakasi ichra demangiz
Kim, ishqida ulus ishi faryodu noladur.

Bormu o‘yun haroratidin chehrasida ter
Yo ravza gulistonida har sari joladur.

Gulshanda g‘unchadur demakim, charx chirmag‘an,
Bulbul g‘izosi har sari qonlig‘ navoladur.

Pinhonu oshkor Navoiydin o‘lmog‘i
Gohe jafo qilib, yana gohe uyoladur.

186

Sarv uza gul butmasa, qad uzra ruxsori nedur?
Jon agar shirin emas — la’li shakar bori nedur?

Noman hajrim kabutar parlarin gar o‘rtamas,
Ul qora xatlar qanoti uzra har sori nedur?

Orazu zulfungda ko‘nglum kofiri ishq o‘lmasa,
Bas, aning bir sari but, bir sari zunnori nedur?

Rishtayi zulfig‘a bog‘liqdur ko‘ngul ul sho‘xning,
Tifl qush sudrar kebi har sari raftori nedur?

Ishq dashtida ko‘rungan yerda tushmish erdi o‘t,
Bildim — anda o‘tdur, andin bilmadim nori nedur?"

Sabz xatlar vasli holo mug‘tanamdur, ey ko‘ngul
Kim, bilurkim, iqtizoi charxi zangori nedur?

Gar iting debdur Navoiy qilmadi mehmonlig‘im,
Kecha tishlab-tishlab olg‘on jismi afgori nedur?!

187

Men kebi parvona ishq o‘tida beoromdur,
Kim, ani ham o‘rtagan bir sarvi siym andomdur.

Kom ila islomsiz o‘lmak, musulmonlar, ne tong,
Mendek ulkim qotili bir kofiri xudkomdur.

Tunu kun oqu qorasin naylayin menkim, manga
Orzu bir xatti sabzu orazi gulfomdur.

Xolu zulfung saydi bo‘lmoqqa magar ham jon qushi»
Kim, aningdek qushqa loyiq dona birla domdur.

Ayshdindur, anda nargisdek ul olg‘ay bahrakim,
Ollida besh kursi kofur ichra oltun jomdur.

Chun zamon ahli zamona rangi tutmoqdur zarur,
Dahr nofarjom uchun el holi nofarjomdur.

Ey Navoiy, chun zamona ahlida yo‘qtur vafo,
Har nekim yo‘qtur, tama’ tuttsang, xayoli xomdur.

188

Parivashe, dedilar, pardai hijobdadur,
Ko‘rarga telba ko‘ngul ani iztirobdadur.

Iti uchun tilar eshkay tanob ul chobuk
Ki, elga rishtai jon barcha pechu tobdadur.

Hamul tanob, ne tong, cheksa it kebi meni ham,

Mening chu rishtai jonim hamul tanobdadur.

Xirom vaqtida ul ganji husn erur g‘ofil
Ki, ishtiyoqi ne chog‘liq meni xarobdadur.

Manga vafo qilur ersang, shitob qil, ey umr,
Nedinki, umr degan bevafo shitobdadur.

Fasona har kishi ul husndin dedi, lekin
Jamoli shohidi maqsudning niqobdadur.

Hisob aylama umrungnikim, necha o‘tmish
Ki, umr g‘aflat ila o‘tsa, ne hisobdadur.

Pariyu yor Navoiyg‘a qildilar jilva,
Bu birga rog‘ibu ul birdin ijtinobdadur.

189

Kulbamg‘a, baski, gardun g‘am toshi yog‘durubtur,
Sabrim uyidek ul ham yemrulgali turubtur.

Ne loladur, ne jolakim, umr uyin buzarg‘a
Ko‘k ra‘dlar qazonin tog‘ ustidin qurubtur.

Furqat tuni emaskim, hijronda kuygan elning
Kuygan kulini davroni gardunga sovurubtur.

Men oh o‘qiyu gardun zulm o‘qi yog‘durur, vah
Kim, ul o‘qin urarni bu o‘qtin oshurubtur.

Gardun quyoshni o‘rtabkim, yerga ko‘mdi go‘yo
Kim, mehr jurmi birla bu nav’ yozg‘urubtur.

Soqiy, qadah suyidin shu‘lamni past qilkim,
Bu korgahda hayrat jonimni kuydurubtur.

Sing‘on safol aro may ichsam, ne tongki, davron
G‘am toshidin nishotim jomini sindurubtur.

Mug‘ dayriyu mayu but, xushvaqt o‘lki, ko‘nglin
Maydin chu mast o‘lubtur — bir butqa oldurubtur.

Dunyodin o‘t, Navoiy, osoyish istar ersang
Kim, shug‘l, har necha ko‘p yuz oncha g‘am turubtur.

190

Yo'lida kosh meni pora-pora qilg‘aylar
Ki, xalq holima bir-bir nazzora qilg‘aylar.

Bu holatimni ko‘rub bori ishq asirlari
Vafosiz elni sevardin kanora qilg‘aylar.

Vasiyatim buki, ko‘nglumni ko‘rgach-o‘q ahbob,
Tutub yuzini hamul lahza qora qilg‘aylar.

Bu dard ilaki o‘larmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu baloga ne chora qilg‘aylar.

Tamug‘ni ravza sog‘ing‘aylar ahli hashr ul kun
Ki, telba ko‘nglum o‘tin oshkora qilg‘aylar.

May ichki, anglamag‘aylar bu dayrdin ramze,
Gar ahli zuhd yuz il istixora qilg‘aylar.

Sabo, degilki, Navoiyg‘a tortsunlar xat,
Alarki ahli vafoni shumora qilg‘aylar.

191

Xoli hijronida ko‘nglum dardi beandozadur,
Dog‘din borg‘ach qora tashvishi aning tozadur.

Tushta Yusuf hay’ atin ko‘rdum habibim yodidin
Go‘yi ul qolip, bu ruhi mahz uchun andozadur.

Zaxmim og‘zi butmasidin uyqum o‘chmish, ey rafiq,
Go‘yilo bu o‘zga uyqu kelturur hamyozadur.

G‘amzası jallodida holin ko‘ngulning bilmadim,
Ey sabo, tengri uchun ko‘yida ne ovozadur.

La’li vasfin yozmisham jon safhasidin daftare,
Har taraf jon rishtasi birla anga sherozadur.

Zaxmidin qon ko‘p oqib yoxud junundindur bukim,
Ul pariy ko‘yida har dam telba ko‘nglim ozadur.

Itlari qut etsun o‘lturgach Navoiy qonini,
Barcha gar har qatra bir jannat guliga g‘ozadur.

Voqif o‘lkim, beshai jahl ichra jisming hujrasi
Nafs sayyodi havo saydin tutarg‘a kozadur.

Lolagun to'n ichra, yo rab, ul g'azoli Chin erur
Yo ko'zumning mardumi qon yosh ila rangin erur.

Bilmon oyokim shafaq ichra erur zarrin g'azol,
Lolagun to'n ichra yoxud ul g'azoli Chin erur.

Aylamish glandasta bandi sun' to'nu jismidin,
San'atekim arg'uvon bargi aro nasrin erur.

Qadmudur bu yo erur shingarf ila yozg'on alif,
Belmu yo torek, la'l ichra anga taskin erur.

Ko'nglum ichra soldi ul to'n aks yoxud bo'ldi qon,
Xalq ko'nglin qon etarga, vah, bu ne oyin erur.

Bir qadah gulgun may, ey soqiy, to'la tutkim, ko'ngul
Ul buti gulgun qabo bedodidin g'amgin erur.

Ey Navoiy, qatl uchun gar xud qizil to'n kiydi yor,
Basdur ul to'n rangi ne muhtoji qatlu kin erur.

Dema tog'u lola dahr ichra — ajal qaploni bil
Kim, kiyiklar qonidin boshtin ayog' rangin erur.

Bordi ulkim, sendin ayrilg'ay ko'ngul to joni bor,
Javringa qo'ydum ko'ngul, qil onchakim, imkoni bor.

Ey Masihim, men qatili ishqmen, turguz meni,
Bir nafas, dedim, qabul etkim, nafasning joni bor.

Novaking yetkach, iki nov ochti ashkim suyidin,
Go'yi ul novakning ikki novliq paykoni bor.

Xozini jannat senu uchmog' guli bastur manga,
Buki har yon tig'ining jismimda tomg'an qoni bor.

Yorsa ko'ksumni, fig'on zohir qilur jon rishtasi,
Ko'nglak o'lsa chok, uzulgan torning afg'oni bor.

Jon qushi uchqoch, tuzatti jism uyin sayli fano,
Ey humoyunfol, o'shul chug'ziki, bir vayroni bor.

Shayxu, bir bodomu qon yutmoqki, piri dayrning
Nuql ila maydin fano ahlig'a ko'p ehsoni bor.

Dahr sho‘xi makrig‘a berma ko‘ngul — yo‘l bargin et,
Sen kebi har go‘shada nevchunki bir mehmoni bor.

La’li hajrida Navoiy qoni qaynar demangiz,
Yangi maydek ruhidurkim, nolai pinhoni bor.

194

Otashin gul bargidin xil’atki jononimdadur,
Xil’at ermas, ul bir o‘tdurkim, mening jonimdadur.

Otashin la’lidururkim, anda muzmar bo‘ldi jon,
Otashin gulbargidan xil’atki jononimdadur.

Jon qushi xunobidin tutmish malohat naxli rang,
Yo libosi lolagun sarvi xiromonimdadur.

Qatl biymidur, tarahhumning dog‘i ummidi bor.
Bu libosi olkim ul nomusulmonimdadur.

Vasl shomi kuymagan parvona shoyad qolmag‘ay,
Bu shafaqgun hullakim sham‘i shabistonimdadur.

Tutmasun gul suhbatidin sarv o‘zin ko‘p sarfaroz,
Ey sabokim, ul to‘ni gulgun mening yonimdadur.

Soqiyo, gulrang may solib ketur paymonakim,
Zuhd biymidin xalal ishq ichra paymonimdadur.

Ey Navoiy, istama jon bulbulin har guldakim,
Ul to‘ni gulgun, labi gulbargi xandonimdadur.

195

Hayot bog‘ida to sarvu lola bo‘lg‘usidur,
Mening mummidi hayotim piyola bo‘lg‘usidur.

Surohi o‘lg‘usidur manga siymtan mahbub,
Boshida qil anga mushkin kulola bo‘lg‘usidur.

Hayot gulshani, mug‘ kulbasiyu, mug‘bachaning
Yuziyu qaddi manga sarvu lola bo‘lg‘usidur.

Ne ayb bazmim ichinda hazin fig‘onki, surud,
Angaki qon yutar, albatta, nola bo‘lg‘usidur.

Qadahki holima qon yig‘lar, emdi ohimdin

Sirishki qatrasi gulrang jola bo‘lg‘usidur.

Qachon may ichra yuzung aksi tushsa, ey soqiy,
Piyola davri o‘shul oyg‘a hola bo‘lg‘usidur.

Deding, fano nedurur, muxtasar deyin o‘lmak
Ki, sharhini tilasang, yuz risola bo‘lg‘usidur.

Navoiy, istama kavsar mayini zuhd bila
Ki, boda ichkuchi elga havola bo‘lg‘usidur.

196

Yuzi gulchehra soqiyning tarab hukmig‘a tug‘rodur,
Yuzinda may guli ul yorlig‘ uzra oli tamg‘odur.

Labi la’li halokimen agarchi jon fizolig‘da
Masiho birla ul go‘yo o‘luk birla Masihodur.

Damim dudi xirad ahlin qilur har lahza savdoi,
Dimog‘imda, ko‘rung, ul zulf mushkidin ne savdodur.

Sinonin ko‘ksuma to chekti ul chobuk, bu xam qaddim
Hamono g‘am sipohi qalbida ul o‘q uchun yodur.

Labing aksi ko‘zum sho‘robasi bahrida go‘yokim,
Chuchuk sudurki, atrofida aning talx daryodur.

Jahonni chun ko‘zumga hajr shomi aylamish tiyra,
Ne sud andin mangakim, vasl subhi olamorodur.

Boshim qush oshiyoni, tan junun torojidin uryon,
Ne tong, yoshlari yugurmak har tarafdrinkim, tamoshodur.

Fidosi naqd islomimki, mug‘ dayridagi soqiy
Ulus qonin to‘kardin vahm qilmas, garchi tarsodur.

Navoiy dayr piri go‘yiyokim shahr shayxig‘a
Fano jomin ichurdikim, xarobot ichra g‘avg‘odur.

197

Ko‘ngul uyiga g‘amu g‘ussa saylidin ne qusur
Ki, boda loyi bila qilmisham ani ma’mur,

Birovni mumkin emas tiyra aylamak qayg‘u
Ki, solmish o‘lg‘ay anga jomi boda lam’asi nur.

Xush ul mayeki, emastur safov u lavn ichra
Tamug' o'ti bila jannat suyg'a ul maqdur.

Desam bu o't kul etar g'ussa xirmanin, ne ajab,
Desam bu su tuzatur fikr qasrini, ne qusur.

Jahon g'amiyu uzum bodasi gumon qilmang
Ki, zohir ahlig'a bu ma'ni etti buyyla zuhur.

Va lek ahli haqiqatqa may erur vahdat,
G'am ushbu kasrat erurkim, qilur ko'ngulga xutur.

Ichilsa soqiyi tavfiq ilgidin ul may,
Ko'ngul bu g'amdin emas shubhakim, bo'lur mahjur.

Manga bu may bila bir jom keltur, ey soqiy
Ki, ko'nglum ul g'am aro bo'lmish asru ko'p ranjur.

Malomat ahliga, ey piri dayr, ayog' tuttsang,
Bu nav' qo'yma Navoiyni bir yo'li mastur.

198

Visol ahli, sizu, jomi murodu komronlig'lar,
Bizu g'am kunjiyu xunobi hajru notavonlig'lar.

Tanimda har taraf qonlig' yara, go'yoki qildi ishq
Qasosim hukminikim, tuttilar telegramni qonlig'lar.

Erur Farhodu Majnun xonumoni tog' ila vodiy,
Xalos etmish meni ul qayddin bexonumonlig'lar.

Base diqqat edi ko'nglumda qilg'ach ul pariy jilva,
Junun birla mubaddal bo'ldi barcha xurdadonlig'lar.

Asar yo'q ko'nglida ul sho'xning nomu nishonimdin,
Natija aks berdi bizga benomu nishonlig'lar.

Men o'ldum mehridin, yuz mendek o'lsa, yo'q aning rahmi,
Bo'lur ermish birovga muncha ham nomehribonlig'lar.

Ko'han pire yo'lingda o'ldi, bir ham boqmading, yo rab
Ki, o'tkay xayr birla bu g'ururi navjuvonlig'lar.

Yana zuhdum tariqin afv qil, ey piri dayr, oxir
Ki, sendin yaxshiliqdur, necha biz qilsaq yomonlig'lar.

Navoiyni deb ermishsenki, mendii o‘zgani sevmish,
Kam o‘lmas, Olloh-Oolloh, sendin ushbu badgumonlig‘lar.

ZYe HARFINING ZYeBOLARINING ZIYNATI «BADOYE» DIN

199

Zamona bog‘iki, gulbargidur nishotangez,
Ne bargi gulki, tutashmish tikanga shu’lai tez.

Taammul etkurubon rang-rang gullarni
Ki, ochti qatlig‘a bulbulning ushbu rangomez.

Chu no‘shi vasli aro zahri hajr ezilmishdur,
Aning bu sharbatidin avlo aylamak parhez.

Ne bargi gulki, anga shahd qildi og‘ushta,
Sanamlar erni kebi qildi ani sho‘rangez.

Zamona ahlig‘a o‘t solg‘ali erur har tun
Sipehrikim, qilur anjum sharoridin gulrez.

Agarchi tig‘i jafosi qatilidur Farhod,
Bu tig‘ qotilidin ham qutulmadi Parvez.

Fano yo‘lig‘a qadam qo‘y, boshingni ovuchlab
Ki, yo‘q bu yo‘lda kishiga bu nav’ dastovez.

Murodi subhi visolingni tiyra qilmoq erur
Ki, hajr shomin etar mushkposhu anbarbez.

Navoiy istasa tardoman eldin o‘lmoq fard,
Fig‘ondin o‘t sochibon barq yanglig‘ etkay xez.

200

Istaganlar bizni, sahroi baloda istangiz,
Vodiyi hijron ila dashti anoda istangiz.

Vomiqu Farhodu Majnundeklar ul vodiy aro
Bo‘lsalar paydo, meni ham ul aroda istangiz.

Yuz alarning ishqicha dardu balovu g‘ussag‘a
Tolib el boshig‘a kelgan mojaroda istangiz.

Eyki, istarsiz savodul vajh fiddorayindin,
Boxabar bo‘lmoq meni yuzi qoroda istangiz.

Qo'nglum ul zulf ichradur, zinhor ishqim sharhini
Istamang men telbada, ul mubtaloda istangiz.

Nuqta yanglig'kim, vafo uzra qilur kotib raqam,
Ishq o'tining dog'ini ahli vafoda istangiz.

Og'zi shavqidin Navoiy itti, ani istar el
Yo adam dashtida, yo mulki fanoda istangiz.

201

Jonima qasd aylaru bor uylakim jonim aziz,
Men anga xoru manga ul mohi Kan'onim aziz.

Qon yutarmen, la'li gulbargiga essa tong yeli,
Tong emas, ey do'stlar, bo'lsa menga jonim aziz.

Keldi ko'nglumga xayoli jonu ko'nglum naqdini,
Ayladim isorkim, bor erdi mehmonim aziz.

Ko'rgach-o'q ushshoq aro jonimg'a surdi tig'i qatl,
El aro bu xor qulni qildi sultonim aziz.

Garchi xor etting meni dayri fano ahli aro,
Bo'l musulmonlar aro, ey nomusulmonim, aziz.

Bodai la'ling uchun azmi xarobot etgali
Rindlar ichra erur qadrim biyik, shonim aziz.

Dema har soat Navoiyg'aki, tark et ishqini
Kim, menga behad erur ul ko'nglum olg'onim aziz.

202

Gar o'lmasam edi ul oyg'a oshno hargiz,
Boshimg'a yog'mas edi charxdin balo hargiz.

Tariqi ishq aro bee'tidol esam, yo'q ayb
Nedinki, tushmamish erdi bu ish mango hargiz.

Jafosidin, demakim, ishq tarkini tutqil,
Bu ish bo'lurmu vafo ahlidin ravo hargiz.

Baloi ishqig'a men mubtaloyu istamagay
Qutulmaq ila balodin bu mubtalo hargiz.

Davo chu mumkin emas ishq dardig'a, vahkim,
Iloj topmadi bu dardi bedavo hargiz.

Yoyildi Vomiqu Farhod ishqisi, yo‘q edi lek
Mening ishim kebi har yon bu mojaror hargiz.

Ko‘ngulni dahrin oshufta qilmakim, xushtur
Ki, tiyra bo‘lmasa jomi jahonnamo hargiz.

Sanga zamon elidin yetsa ko‘p jafo muni dey
Ki, kim ko‘rub edi bu xayldin vafo hargiz.

Ne kelsa, xush tut o‘zungniki, xalq ko‘ngli uchun
Raqam hak aylamadi kotibi qazo hargiz.

Desangki, xom tama’ birla bo‘lmayin ranjur,
Visol aylama ishq ichra muddao hargiz.

Navoiy, istama ko‘p ishq aro navo, negakim
Bu bog‘ bulbulig‘a yetmadi navo hargiz.

203

O‘ting, ishrat ahliki, biz zorlarbiz,
Tuman ming balog‘a giriftorlarbiz.

Ko‘ngulni qilib yuz yara ishq o‘qi,
Tarahhum qilingkim, dilafgorlarbiz.

Tilarbiz shifo bir Masiho nafasdin
Ki, bu ko‘hna dayr ichra bemorlarbiz.

Yorutqoy debon ko‘zni bir sa’d kavkab,
Har aqshom tong otquncha bedorlarbiz.

Sabukruh soqiy, fano jomi tutqil
Ki, o‘zluk yukidin garonborlarbiz,

Muyassar esa do‘stning vasli bir dam,
Berib ikki olam, xaridorlarbiz.

Navoiy kebi ichgali ishq jomin
Xarobot ko‘yida xummorlarbiz.

204

Maozalloh siz, ey ishqu muhabbat, ne balodursiz
Ki, ko‘nglumdin olib sabru shikeb, o‘tlar solodursiz.

Seni ko‘r aylab, ey ko‘z, ey ko‘ngul, solsam seni o‘tqa,

Muhiqmenkim, manga siz boisi dardu balodursiz.

Gar ahbob etsalar gulgash, ey jonu ko‘ngul, bormang,
Nedinkim, siz birav hajri g‘amig‘a mubtalodursiz.

Nasihat ahli, o‘lturmang damo-dam ishqu dard ahlin,
Demay bedardsiz, billahki, dardi bedavodursiz.

Ishingiz jonu din olmoqdur, ey mug‘ dayri atfoli,
Agar kuffori xaybarsiz va gar turki xitodursiz.

Meni bir jom ila o‘zluk xumoridin xalos aylang,
Guruhi rindlarkim, sokini dayri fanodursiz.

Tana’um ahliyu bazmi visol, ey dardi hajr ahli,
Navoiydin siz ayrilmangkn, zoru benavodursiz.

205

Ne ayb, ishqqa bu mo‘ri mubtalo ojiz
Ki, ishq agar budurur, bo‘lg‘ay ajdaho ojiz.

Rafiqlar boshima yig‘lashurlar, o‘ldi magar
Tabib qilg‘ali bu dardima davo ojiz.

Riyog‘a ajz ketursam tongirg‘ama, ey shayx,
Ul ishda chun yoratibdur meni xudo ojiz.

Nechaki tavsunu tund ersa xalq ko‘ngli bo‘lur,
Chu bo‘ldi ishqu muhabbatqa mubtalo ojiz.

Firoq ilgida ojizmen, ey ko‘ngul, ne ajab,
Kishini aylasa ming mehnatu balo ojiz.

Jamol mulkida sen husn shohi, men munslug‘,
Shah etsa rahm ne tong, chun erur gado ojiz.

Navoiy ar qila olmas gadolig‘, etkil rahm
Ki, bo‘ldi bir yo‘li ul zori benavo ojiz.

206

To‘kti qonimni — mening sari chu ochti yor ko‘z,
To‘kmayin qon naylasun ul qotili xunxor ko‘z.

Ko‘zu ko‘nglumdin balolarg‘a yo‘luqtum, koshki
Itsа besomon ko‘ngul, ko‘r o‘lsa yig‘lab zor ko‘z.

Hajr tig'i birla urma onchakim, ko'rsun seni,
Har ne qilsang qil, chu topti davlati diydor ko'z.

Vah, nelar bo'lg'ay yana tushsa ko'zum ul ko'zgakim
Ul biri xunrez ko'zdur, bu biri xunbor ko'z.

Ko'z uchidin va'dai vasl aylab imo oldi jon,
Go'yiyo bozi berib jon oldi ul ayyor ko'z.

Bir yuz ochib, chok etib ko'nglumni, ko'zung urdi nish,
Bo'ldi bu ishtin ko'ngul mammunu minnatdor ko'z.

Istasangkim, surmai maqsud ila ko'z yorug'ay,
Surma kun tunlarda hijron shomi tut bedor ko'z.

Ko'zu ko'nglungga desang ul yetkach ofat yetmasun,
Sa'y etib to'xtat ko'ngulni, asrag'il zinhor ko'z.

Ey Navoiy, to'tiyoyi vaslg'a qobil bo'lur,
G'am yema, gar bo'lsa hijron xoridin afgor ko'z.

207

Ishq jurmig'a meni, ey do'stlar, yozg'urmangiz,
Begunah men xud kuyarmen, siz dag'i kuydur mangiz.

Har zamon chun yog'durur bedod o'qin jonimg'a do'st,
Siz dag'i ta'nu malomat toshini yog'durmangiz.

Men chu o'ldum yoshurub ishqin, gar emdi so'rsa yor,
Holatimni siz ne bilganni dengiz, yoshurmangiz.

So'rmang, ey ushshoq, mendin nayloli deb ishq ora,
Gar qila olursiz, avvaldin ko'ngul oldurmangiz.

Ishq otashgohida kul bo'lmisham, ey do'stlar,
Ko'kka har soat kulumni siz dag'i sovurmangiz.

Chunki ishq oshubidin har dam ishim o'lmakdurur,
Siz ham, ey ahli nasihat, ta'n ila o'lturmangiz.

Ishq olamidin surub soldi Navoiydek meni,
Ko'yiga, ey ashk xayli, siz ham andin surmangiz.

208

Ko'ksumni tig'i mehnat ila yara aylangiz,
Tortib uzung ko'ngulniyu yuz pora aylangiz.

Har porasini kuydurubon kul qilib sochib,
Har zarrasini bir sori ovora aylangiz.

Ul kuldin aylabon falak ohim sharorasin,
Har jonibida kavkabi sayyora aylangiz.

Har nav' mumkin o'lsa, ani foniy aylabon,
Bedodidin bu sheftag'a chora aylangiz.

Ul sho'x ishqin istagan el, solmangiz nazar
Aning soriki, ko'ngluma nazzora aylangiz.

Charx o'ldi zoli hiylagar — aning tariqi makr,
Tajrid eli, taloqi bu makkora aylangiz.

Ovora ko'ngln kelsa Navoiyning ozibon,
Ey xayli dudi oq yuzin qora aylangiz.

209

Kishi ko'rmaydurur iqsh ichra zore men kebi hargiz,
G'ami hijronda besabru qarore men kebi hargiz.

Hadangi g'amzavu oshufta zulfungdin yo'q erkandur
Dil afgore, parishon ro'zgore men kebi hargiz.

Desang ushshoqning xoki tani uzra suray markab,
Ko'p istab topmog'ungdur xoksore men kebi hargiz.

Seningdek sust paymon dahr aro hargiz yo'q erkandek,
Vafog'a ham yo'q ermish ustuvore men kebi hargiz.

Jafogarlikda yo'q ermish seningdek, derga yo'q haddim,
Yo'q erkandur jafokashlikda bore men kebi hargiz.

Dedimkim: dahr bog'ida yo'q ermish men kebi bulbul,
Dedikim: bormu ermish gul uzore men kebi hargiz.

Magarkim yor soqiy bo'lsa, daf' o'lg'ayki, yetmaydur
Kishiga vasli jomidin xumore men kebi hargiz.

Firoqi javrida navmid ham yo'q men kebi, garchi
Yo'q erdi vasldin ummidvore men kebi hargiz.

Navoiy, demakim, hijronida sabr ixtiyor etgil,
Bu ishda yo'q emish beixtiyore men kebi hargiz.

210

Vasl ummididin boshimg'a yorni kelturdunguz,
Oqibat yuz hajr toshi boshima yog'durdunguz.

Sindi boshim kosasi andoqli ko'nglum shishasi,
Muhtasibdek ishratim asbobini sindurdunguz.

Yuz tamug'cha o't ne hojat erdi, ey hajru firoq
Kim, yoqarda emganib xasdek tanim kuydurdunguz.

Tinmag'ur ag'yor zohir aylabon ko'p iztirob,
Dajr aro qatlim uchun mendin ko'ngul tindurdunguz.

Mayg'a afyun solib, ey dardu balo soqiylari,
Turfa bukim, mast bo'l dung deb meni yozg'urdunguz.

Chun vafo yo'q dahr gulzorida, ey tong qushlari,
Sahvdurkim, besamar ashjorida o'lturdunguz.

Sizga ham, ey ishrat ahli, qolmag'ay jovidi vasl,
Buki zulm aylab, Navoiyni arodin surdunguz.

211

Yo'q hadim qo'ymoqqa aning raxshi tuynog'ig'a yuz,
Basdurur, gar surta olsam yo'li tufrog'ig'a yuz.

To'nungga yuz surta gar olmon, chamanda har shajar
O'xshasa qaddingg'a, surtay barcha yafrog'ig'a yuz.

Raxshining dog'ig'a mumkin bo'lmasa yuz surtarim,
Surtayin jismimda ishqil o'tining dog'ig'a yuz.

Ko'yiga yo'l topmasam, do'zax sari borg'ancha bor,
Komu osoyish uchun qo'ymoq Eram bog'ig'a yuz.

Do'stlar, qatlimg'a andoq keldi ul sultonini husn
Kim, salotin qo'ymag'aylar qatl uchun yog'ig'a yuz.

Ishqdin Farhod ila Majnuncha men qo'ymoq bila
Gah junun dashtig'a gomu gah balo tog'ig'a yuz.

Ey Navoiy, vasl oson erdiyu hijron qotig',
Ko'rki, osonliq tilab, qo'ydum qatiqrog'ig'a yuz.

212

Ko‘zu ko‘nglumga to bo‘ldi ayon ul zulf birlan yuz,
Ko‘zumdin uyqu uchti tun, ko‘nguldin sabr ham kunduz

Yugurmaktin sirishkim hajr shomi yuzda xatlardur,
Tulu’ etkach yugurmak odat ermish g‘am tuni yulduz.

Xayoling birla men to bodai ishqing bila sarxush,
Emasmen ishqing iqboldin, ey jon, bir nafas yolg‘uz.

Yangi oy botti, nargis itti, barbod o‘ldi sarvu gul,
Taololloh, ne qoshu ko‘z ekin, yo rab, ne qaddu yuz.

Tong ermas, soyadek ollingda sarvi rost bosh qo‘ysa,
Tushar chun har kishining qaddi tuzdur, soyasi ham tuz.

Chamanda sarvu gulning ishvashi ko‘nglumga yoqmaydur,
Fido jonim sanga, qaddingg‘a bergil jilva, yuz ko‘rguz.

Kelurmen xonaqahdin dayr sari, bazm tuz, ey mug‘,
Mug‘ona tut surud, ey mutribu ey mug‘bacha, may suz.

Chu mug‘ dayrida zikrim do‘st oti bo‘ldi, ey soqiyl,
Manga-o‘q tut qadahni, gar erur to‘qsonu gar to‘qquz.

Sanamlar husnidin maqsud yor o‘lmish Navoiyg‘a,
Agar barlos, agar tarxon, agar arlot, agar sulduz.

213

Qachon bo‘lg‘ay manga vaslida imkon tarab hargiz,
Xayolinda chu aylay olmadim tarki adab hargiz.

Agarchi xalq jon topmish labi obi hayotidin,
Manga juz hajr zaxmi bermadi ul no‘shlab hargiz.

Visol ahli sizu ishratkim, aning zavqini bilmas,
Biravkim ko‘rmadi umrida juz ranju taab hargiz.

Tabibo, qilsa ko‘nglum o‘tin afzun sharbating, tong yo‘q,
Su birla shu’la tab‘idin ketarmu tobu tob hargiz.

Chu Layli qildi Majnun ko‘nglining sarmanzilin xilvat,
Ne sud ar qo‘ymasa Hay girdida ani arab hargiz.

Yalinsam o‘lturur, qilsam niyoz, og‘oz i noz aylar,
Kishi ko‘rganmu erkin buyyla xo‘yi bul-ajab hargiz.

Qachon ravshan ko‘ngulni nafs o‘ti dudi qilur tiyra,
Nubuvvat sham’ini ne nav’ o‘churgay Bulahab hargiz.

Nechakim sa’y birla topmasa matlubini solik
Kerakkim, jonidin kam bo‘lmasa ranju talab hargiz.

Navoiydin kishi oshiqliq otin mahv eta olmas,
Qachon ketgay, kishi salb aylamak birla laqab hargiz.

214

Emdi g‘ami yo‘q, soldi chu ko‘nglum ar ming so‘z,
Ohim o‘tidin o‘chsa hamul sham’i dilafro‘z.

Ko‘nglum yarosin tiki va lekin o‘qi birla,
Jonimg‘a alifdek durur ul novaki dildo‘z.

Vasli aro, ko‘rdum, teng emish bo‘yiyu sochi,
Tun-kun teng ekan zohir o‘lur bo‘ldi chu navro‘z.

Ishq ayladi rasvo meni, emdi boshing ol, ket
Yuz xijlat ila, ey, xiradi maslahatomuz.

Jonim evida oncha g‘aming naqdini yig‘dim
Kim, bo‘ldi ko‘ngul mahzani bu joni g‘amando‘z.

Bir subh angakim tole’ o‘lur boda quyoshi,
Xush baxti humoyun bila xush tolei feruz.

Derlarki, Navoiymu ekin dashti fanoda,
Chun sarsari hijron sovurur bir soridin to‘z.

215

Ey yuzung bog‘i nasimida havoyi navro‘z,
La’li tojing bo‘lub ul bog‘da bo‘stonafro‘z.

Zulfu ruxsor ila komimg‘a meni yetkursang,
Har tunung qadr o‘lubon, har kunung o‘lsun navro‘z.

Ko‘nglum ul lu’bat iligida giriftor o‘lmish,
Qushni ul nav’iki la’b ahli qilur dastomuz.

Dardi hajringda kuyar ko‘nglumu o‘z holimg‘a
Kishisizlikdin o‘zumdurmen o‘zumga dilso‘z.

Dahr zolig‘a ko‘ngul bermaki, Rustamlarni
Makr ila ayladi ojiz bu sitamgora ajuz.

Ko'k jafosidin o'lur xobgahing bo'z tufrog',
Bo'lsa ostingda sipehr ashhabi yanglng' ko'k bo'z.

Ey Navoiy, senu Xusrav bila Jomiy tavri
San'atu rangni qo'y, so'zda kerak dard ila so'z.

216

Do'stlar, mahram deb elga roz ifsho qilmangiz,
Boshingizg'a yuz balo kuch birla paydo qilmangiz.

Fosh qilmang roz, chunkim asray olmay qildingiz
O'zgalardin asramoq bore tamanno qilmangiz.

Ishq asrorig'a til mahram emastur zinhor
Kim, ko'nguldin tilga ani oshkora qilmangiz.

Chun ko'nguldur qalbu til g'ammoz, maxfiy rozni
Jon harimidi bu ikkiga huvaydo qilmangiz.

Chun ko'ngul til birla mahram bo'lmadi, hojat emas
Aytmoqkim, elga andin nukta imlo qilmangiz.

Sahv etib, chun roz durrin sochtingiz, nozim bo'lub,
Ohning dudin sahobu ko'zni daryo qilmangiz.

Chok-chok aylab ko'ngulni, tilni aylab yuz tilim,
Tashlab itlarga alarning yodi qat'o qilmangiz.

Menda hijron dardiyu yo'q sabr, bori do'stlar,
Chorae gar qilsangiz, juz jomi sahbo qilmangiz.

Chun Navoiy ishq rozin asray olmay qildi fosh,
Otini roz ahli tumorinda injo qilmangiz.

217

Nozaninlar, benavolarg'a tarahhum aylangiz,
Lutf agar yo'qtur, g'azab birla takallum aylangiz.

Gah biyik, gah past giryon ko'rsangiz ushshoqni,
Fosh kulmassiz, nihon bore tabassum aylangiz.

Hajr zulmidin qotiq holimni, ey jonu ko'ngul,
Bildingiz, yor ollida borib tazallum aylangiz.

Ey balovu dard, o'tlar xud solibsiz jonima,

Lek siz ham gah-gah ul o'ttin tavahhum aylangiz.

Qon agar yutsam qarorib axtarim, ey xattu xol,
Siz mayi la'li bila bore tana'um aylangiz.

Biz fano tufrog'i bo'lduk dayr aro, ey ahli zuhd,
Xonaqah sahnida siz bahsi taqaddum aylangiz.

Ey mug'anniylar, Navoiy mast edi — kech uyg'onur,
Ani uyg'otmoqqa bir dilkash tarannum aylangiz.

218

Meni bir noma birla dilbarim yod etmadi hargiz,
Qulin qayg'udin ul xat birla ozod etmadi hargiz.

Sirishkim sayli yiqlay qo'ymadi xud sabr bunyodin,
Buzug' ko'nglumda tarhi vasl bunyod etmadi hargiz.

Balolar tog'ini hajrinda tirnog'im bila qozdim,
Men etkan ishni oshiqqliqda Farhod etmadi hargiz.

Chu naqdi sabr toroj aylading, ko'nglumga o't solding,
Bu nav' o'z kishvariga shoh bedod etmadi hargiz.

Firoq ayyomida ko'p naf' yetkurdi bukim, ko'nglum
O'zin ul sho'xning vaslig'a mu'tod etmadi hargiz.

Ne tong devona ko'nglum itlaringga ta'n qilmoqkim,
Yebon yuz dardu mehnat toshi, faryod etmadi hargiz.

Erur, ishq ollida jonim fido qilsam, hanuz ozkim,
Ul oydin o'zgani qatlimg'a jallod etmadi hargiz.

Ne tong, ey mug'bacha, ishqingda mast o'lsamki, piri dayr
Bu ikki ishdin o'zga bizga irshod etmadi hargiz.

Agar buzdi Navoiy ko'nglini ul bevafo, tong yo'q,
Vafo ahli uyin chun ishq obod etmadi hargiz.

219

Bor aningdekkim kerak ul ko'zu qoshu qaddu yuz,
Olloh-Oolloh, kim ko'rubtur husn bu yanglig' to'kuz.

Zulfung egrilik, qading tuzluktadurlar uylakim,
Sunbul ermas muncha egri, sarv ermas oncha tuz.

Sen erurseen husn shohi, mehri soyir tojiri
Kim, chekibtur ollinga aflok jinsidin to'quz.

Hajr za'fidinki jon bir rishtag'a bog'liqdurur,
Jong'a rahm et, ey ajal, bu rishtani ham tortib uz.

Necha ko'nglum kishvaridin sabr tarhin buzg'asen,
Bir dog'i bu xattidin zulmu sitam tarhini buz.

Ko'z ayog'ingg'a yetar ummid birlandur bukim,
Ollinga yuz qatla har soat qo'yarmen yerga yuz.

Soqiyo, davron ishida yo'qturur juz tiyralik,
Daf'ig'a anlarg'a doir davr ayog'in boda so'z.

Faqr ko'yi tufrog'ikim, uldur iksiri hayot,
Jon berib ko'z yoriturcha olsang — olmishsen uchuz.

Ey qalandarvash mug'anniy, gar Navoiy ko'nglini
Istasang har lahza behol aylamak, tuzgil qo'buz.

220

Ey mug'anniy, chun nihon rozim bilursen — soz tuz,
Tortibon munslug'navo sozing bila, ovoz tuz.

Navha ohangi tuzub, og'oz qil mahzun surud,
Ul surud ichra hazin ko'nglumga maxfiy roz tuz.

Tuzma og'oz aylabon Farhodu Majnun qissasin,
Desang el kuysun, mening dardim qilib og'oz tuz.

Istasangkim, nag'mang ichra ko'p xaloyiq o'lmagay,
Ul ikavdin ko'p, vale mendin tarona oz tuz.

Gar mening holim desang tuz barcha dostoni niyoz,
Dilbarimdin nag'masoz etsang, surudi noz tuz.

Chun bu gulshanda nishiman qilg'ali qo'ymas hazon,
Gul firoqi savtin, ey bulbul, qilib parvoz tuz.

Bazm aro o'rtar Navoiyni nihon munslug'surud,
Ey mug'anniy, chun nihon rozim bilursen — soz tuz.

221

Bormakim, bir dam o'zumni bila olmon sensiz,
Kelki, bir lahza tahammul qila olmon sensiz.

Chiqma ko'nglumdin, o'lar vaqtkim ul g'urbatda,
Jonu tan kishvaridin ayrila olmon sensiz.

Boda bazmida nishotim tilaseng, soqiy bo'l
Ki, mayi kavsar ichib, ochila olmon sensiz.

Mayi ishqing bila bexudmen, agar hush manga
Istasang, kel berikim, oyila olmon sensiz.

Gulu bulbuldek otim sensiz emas el tilida,
Shukrkim, so'zda dog'i aytila olmon sensiz.

Ne g'am ovoralig'im, jonim aro chun sensen,
Istagan elga dog'i topila olmon sensiz.

Chun Navoiy seni ko'rmay nafase bilmas o'zin,
Bormakim, bir dam o'zumni bila olmon sensiz.

222

Yigitliginda qilur qadni benavolar ko'j,
Magarki foqa yukidin bo'lur gadolar ko'j.

Ne rost qad bila mag'rursiz, yigitlarkim,
Sipehr aylar ul o'qlarni misli yolar ko'j.

Havas qorilig' etib, go'yiyoki aylarlar
Ko'ngul kamini uchun qadni dilrabolar ko'j.

Ne sho'x tuz qad ila jilva qildikim, qildi
G'amu balo yukidin qadni porsolar ko'j.

Aso tutub ne iloj aylagay gadoki, bo'lur
Chu vaqt yetti — falakqadr podsholar ko'j.

Alarki ko'j qadim birla hazl etarlar, hayf
Ki, bo'limg' umdurur ul damki, bo'lg'ayolar ko'j.

Navoiy itti yigitlik, magar vafosizlik
Qildilar qaribon qadni benavolar ko'j.

SIN HARFINING SIYMINBARLARINING SAVDOSI «BADOYE» DIN

223

Davron guliyu gulshani xorig'a arzimas,

Gulgun mayi baloyi xumorig‘a arzimas.

Ming yil kishi jahon eliga qilsa shohliq,
Bir dam alar ihonatu orig‘a arzimas.

Manqalda udu sandal agar aylasang o‘tun,
Bir lahza dud birla sharorig‘a arzimas.

Ofoq mulki fathi uchun tortmoq sipah
Bilkim, sipoh gardu g‘uborig‘a arzimas,

Yuz qari olam ahli aro aylamak nashot,
Bir dam alar nifoqu niqorig‘a arzimas.

Yillar habib vasli tuyassar esa, gahe
Mayli raqib jonibi borig‘a arzimas.

Kirgil fano yo‘lig‘a, Navoiyki, dahri dun
Bu umri besabotu madorig‘a arzimas.

224

Ey, quyoshdek olamoro husnunga hayron ulus,
Zarra yanglig‘ ul quyosh davrida sargardon ulus.

Uyla rasvomenki, borsam har taraf beixtiyor,
Tortar iynak, keldi ul devona deb, afg‘on ulus.

Jilvagohi husnida bir dam tamosho istaram,
Netti bir dam bo‘lsa olam dashtidin pinhon ulus.

Do‘zax o‘tidin ulus tengriga elturlar panoh,
Ne uchunikim, ko‘rmamishlar shu’lai hijron ulus.

Hajrdin yuz sa’b holat ichramen, ermas ajab,
Gar tamoshog‘a qilurlar boshima tug‘yon ulus.

Gar ulus izhori ishq aylarlar, ammo cheksa tig‘,
Men qolurmen tig‘ ostida, qochib har yon ulus.

Tiyr boronkim g‘aming qildi, tuganmas qarnlar,
Tersalar anda boshoq tergan kebi paykon ulus.

Chun falak javfin qazo qilmish havodis huqqasi,
Buyla yerda fitnadin qochmoq zihi nodon ulus.

Gar ulus ahdu vafosida Navoiy o‘ldi, lek
Yo‘qturur bu ahd aro qilmoq vafo imkon ulus.

Har niyoz etsam ayon, juz noz oyin aylamas,
Necha achchig‘ yig‘lasam, bir labni shirin aylamas.

Istasa har kimni o‘lturmak uchun jallodi dahr,
Vahki, mendin o‘zgani ul g‘amza ta‘yin aylamas.

Kimgakim bir orazu ruxsoru xattu zulfning
Shavqi bo‘lsa, xotiri mayli rayohin aylamas.

Jilvakim qonlig‘ ko‘ngulda aylar ul qad birla yuz,
Sohati gulzor aro shamshodu nasrin aylamas.

Ashk o‘tkuncha yuzumdin qahrabo rangi tutar,
Suni hargiz za‘faron bu nav’ rangin aylamas.

Vah, ne holatdurki, ul husn aylasa har kimni shod,
Ishq mendin o‘zgani bu ishda g‘amgin aylamas.

Ey Navoiy, so‘z dekim, davronni gardundek qazo
Juz bu durri kavkab oyin birla tazyin aylamas.

Yo‘q damekim, furqati jonimg‘a bedod aylamas,
G‘ayrni shod etkali ko‘nglumni noshod aylamas.

O‘lmakimni bilmayin go‘yo der ermisht ul pariy
Kim, necha tundurkim, ul devona faryod aylamas.

Ulcha bag‘rimg‘a qilur g‘am nishidin hijron g‘ami,
Tog‘ning bag‘rig‘a metin birla Farhod aylamas.

Soldi ko‘nglum o‘tig‘a paykonlarin hijron, ajab
Kim, maning qatlimg‘a boshtin tig‘i po‘lod aylamas.

Qaysi bir damdurki solmon sabr avroqig‘a ko‘z
Kim, borin ohim yeli bir damda barbod aylamas.

Bevafolar rag‘mig‘a sevdim parini, ey ko‘ngul
Kim, vafo izhori jinsi odamizod aylamas.

Oqibat chun ayruluqdur, ul kishi aylar g‘alat,
Kim visol ichra o‘zin hijrong‘a mu’tod aylamas.

Mug‘bacha qurban bo‘lsak yo‘q ajabkim, piri dayr
Bizga oyini fanodin o‘zga irshod aylamas.

Ey Navoiy, bo'lma aning yodidin g'ofil dame,
Sen kim o'ldung degalikim, ul meni yod aylamas.

227

Yo'q manga had aylamak boshingg'a evoulmak havas,
Itlariki boshig'a evrulmak tuyassar bo'lsa bas.

Chun haddim yo'q etkali javru jafosin iltimos,
Qayda mumknn aylamak mehru vafosin multamas.

Ey Masihim, chun o'larmen — bir vasiyat aylagum,
Xalqdin maxfiy quloq og'zimg'a qo'yg'il bir nafas.

Kechalar hajringda faryodim o'tar aflokdin,
Mahvashim, faryodkim, bo'lmas manga faryodras.

Gulmudur qo'yg'on qafas ustida, ey bulbul, sanga
Yoxud afg'oning o'tidinmu tutashibtur qafas.

Gulshani ishq ila oliyshon erurkim, anda bor
Sidra shoxi birla to'bi bir-iki xoshoku xas

Gar Navoiy yorning vaslin tamanno qilsa bor,
Uylakim, bo'lg'ay gado ko'nglida shoh o'lmoq havas.

228

Menga, sog'inmakim, ul dilrabo erur munis
Ki, dardi hajrida yuz ming balo erur munis.

Niyozu ajzidin ar o'lsa dam-badam, ne ajab,
Gadovasheki, anga podsho erur munis.

Chu ishq bodiyasi keldi dashti istig'no,
Shah o'ldi zor anga, gar gado erur munis.

Vafosiz anglasa o'z umri-o'q gumon qildik,
Angaki umrida bir bevafo erur munis.

Xayol bo'ldi tanim za'fdin tanosib uchun,
Bu damki yor xayoli manga erur munis.

Bu dashqat'ida hamroh erur qadam urmay,
Angaki sokini dayri fano erur munis.

Navoiy unski bulbul bila tutar, tong yo‘q,
Bu benavog‘a gar ul benavo erur munis.

229

Bir oyni tilab, xasta ko‘ngul zormu ermas,
Hajri g‘amidin yuz tuman afgormu ermas.

So‘rmastin anga qatl tilar, yo‘q esa ko‘nglum
Oshiqmu emas, bekasu bemormu ermas.

Ishqida sitamlar bila o‘lsam, ke ajab, yor
Qotilimu emas, sho‘xu sitamkormu ermas.

Dinim boshig‘a titrar esam, tong emas, ul ko‘z
Kofirmu emas, mastu dilozormu ermas.

Chun surdi samandin nega o‘ldung dema, ey sho‘x,
Sarxushmu emas, chobuku ayyormu ermas.

Gar dahr arusig‘a dedim berma ko‘ngul, boq:
Muxtolamu purhiylamu makkormu ermas.

Gar bo‘lsa xaroshida Navoiy uni, tong yo‘q
Bir gul g‘amidin ko‘nglida yuz xormu ermas.

230

Aylagan qaddu yuzung borinda sarvu gul havas,
Dahr bo‘stonida andoq bo‘limg‘ay bir bulhavas.

Nozanin qadding niholi birla ruxsoring gulin
Ko‘rgali ne sarv qildim orzu, ne gul havas.

Sarvinozim boshida to ko‘rdi mushkin kokilin,
Sham’ aylabtur muanbar dudidin kokil havas.

Ko‘rdi to sarv qadu guldek yuzungni bog‘bon,
Gulshan ichra qilmadi shamshod ila sunbul havas.

Kulliyu juzviy yo‘qu borim sanga bo‘ldi fido,
Sen kerak bo‘lsang, manga yo‘q emdi juzvu kul havas.

Shomi savm iftorig‘a, ey shayx, sharbatni netay,
Aylasam bir sho‘x ilgidin sabuhiy mul havas.

Ayladi bir xoli hindu ro‘zgorimni qora,
Ey Navoiy, tong yo‘q, etsam Hind ila Kobul havas.

Kimgakim bo'lsa nasib ul ofati jondek anis,
Bebaho bo'lg'ay qoshinda mohi Kan'ondek anis.

Qayda bu gulshanda uns o'lg'ay mangakim, istaram
Orazi gul, qomati sarvi xiromondek anis.

Kofirekim naqdi dinim oldiyu yoshurdi yuz,
Topmog'um yuz sa'y ila ul nomusulmondek anis.

Uns tutqoch, va'dai vasl ettiyu qildi xilof,
Hech kimga bo'lmasun ul ahdi yolg'ondek anis.

Ul pari men telba birla uns agar tutmas, ne tong,
Dasht aro Majnung'a bas g'uli biyobondek anis.

Ne ajab davron aro oshub tushmak har zamon,
Menki istar bo'lsam ul oshubi davrondek anis.

Qilg'ay insoniyat ar ko'z mardumig'a tutsa uns,
Ey Navoiy, yaxshidur insong'a insondek anis.

Qilsa bo'lg'ay mehrni nurinda yoshung'an qiyos,
Jilva qilg'an chog'da ul xurshidi kofuri libos.

Yo'q ko'ngul sultoni hifzig'akim, ul oy yo'lida
Uyqusiz ko'zlar tong otquncha tutar har kecha pos.

Ul quyosh chiqmay solur charx uzra yuz tarhi jafo,
Vah, bor ermiss shohi, ne balo oliv asos.

Poybo'sung va'dasig'a jon olib, dersen manga,
Hojatingni iltimos et, vah, ne hojat iltimos.

Kirpikimdin resh bo'lg'ay deb tahayyul ichra ham,
Ko'zni qilmon bargi gul yanglig' taboningg'a mumos.

Ey visol ahli, sizu iqbol tashrifiki, charx
Tikti qaddimg'a mening idbor toridin palos.

Xalqdin navmidlik yetkurdi rohat ko'ngluma,
Ey Navoiy, bildim ihdar-rohatayn erkanni ya's.

Men kimu mehru vafo — zulmu itob aylasa bas,
Javrini lutfcha jonimg'a hisob aylasa bas.

Qayda ul had mangakim, lutfidin obod o'lsam,
Zulm ila kishvari jonomni xarob aylasa bas.

Emon ul itki, rikobin tama' etsam o'pmoq,
Qatl uchun zulfini bo'ynumg'a tanob aylasa bas.

O'n quyoshcha yuzida nuru anga to'rt niqob,
Yetti garduncha jamolig'a niqob aylasa bas.

Ming balokashni qilib qatl gunah qozg'ondi,
Meni turguzgucha umrida savob aylasa bas.

Men kimu la'li umidiki, xayol ichra gado
Shah bila mayli nishoti mayi nob aylasa bas.

Charx zulm etsa, Navoiy tilamas dod andin,
Azm dargohi shahi arshi janob aylasa bas.

234

Uyla bo'lmish notavon ko'nglumga jonon birla uns
Kim, badang'a hargiz andoq bo'limg'ay jon birla uns.

Ko'ngluma kirgach anisim bo'ldi, tutqonmu ekin
Bir zamonda hech kim bu nav' mehmon birla uns.

Odamiylardin chu ko'p vahshatqa qoldim, istaram
Tutmoq elni tark etib, vahshi biyobon birla uns.

Ko'zdin uchqung, uns tut bir dam bu shaydo birlakim,
Yo'q ajab, tutmoq pariy majnuni hayron birla uns.

La'li jonbaxshingg'a ma'nus o'lsa ruxsoring, ne tong
Kim, Masihog'a bo'lur xurshidi raxshon birla uns.

Dayr aro bo'lmish anisim piri dayru mug'bacha,
Tutmisham holo bir-ikki nomusulmon birla uns.

Notavon ko'nglungga munis kimni istarsen, demang
Kim, meni shaydog'a yo'q juz ko'nglum olg'on birla uns.

Dahr bog'i gullarida yo'q vafo, ey andalib,
Ziyarak ersang, tutmag'il bu turfa bo'ston birla uns.

Chun itimen, itlari xayli bila xo'y etmisham,
Ey Navoiy, ne ajab hayvong'a hayvon birla uns.

235

Gar manga bor ersa ul dildori zebo birla uns,
Ul muhiqdur, tutmasa men zori shaydo birla uns.

Olam ahli muttafiqdurlar meni o'lturgali,
To tutubmen ul jamoli olamoro birla uns.

La'li ma'nusumdurur, o'ltursa o'ltursun ko'zi,
Ne g'ami jalloddin tutqay Masiho birla uns.

Men kimu ul xo'blar shohi bila ulfat, magar
Vahsh tutqay dasht aro Majnuni shaydo birla uns.

To'lg'anib zulfung bu majnung'a ne sarkashlik qilur,
Chunki savdo ahlig'a bor ahli savdo birla uns.

Ey musulmonlar, chu bir kofir asirimen, ne tong,
Bor esa ko'nglumga zunnoru chalipo birla uns.

Sarvi nozim kiygali sariq, qizil bo'lmish manga
Ham gul ra'no bila, ham sarvi zebo birla uns.

Gar desang dunyoda har dam yuz baliyat ko'rmayin,
Ey ko'ngul, zinhor tutma ahli dunyo birla uns.

Ey Navoiy, gar desang soqiylig' etsun mug'bacha,
Tut kirib mug' dayri ichra jomi sahbo birla uns.

236

Yo'q tama' ag'yordin, gar dushman zrmas yor, bas,
Yordin no'sh istamon, nish urmasa ag'yor bas.

Vasli bog'idin, demonkim, muddai gul termasun,
Tersa tersun, urmasa bag'rimg'a yuz ming xor bas.

Kimga qildim bir vafokim, ko'rmadim yuz ming jafo?!

Ey ko'ngul, gar xud havasdur ishq bu miqdor bas.

Bo'lmasa og'zimda may yoxud ko'z ul guldin qizil,
Ohi otashnok birla diydai xunbor bas.

Qasdima chekma haloking tig'ini ko'p, ey sipehr
Kim, ul oyning tig'i zulmidin ko'ngul afgor bas.

Dahr bo'stonida gulgun xona Qilsang orzu,
Bodai gulrang quyg'on kulbai xammor bas.

Ey Navoiy, so'zda ma'ni yo'qturur, ma'niyda so'z,
Durri ma'ni istar o'lsang, aylagil guftor bas.

237

G'amingdin, ey pariy, devoia bo'lmas,
Kishikim hush topqoch, yona bo'lmas.

Jamoling sham'ig'a ko'nglum qushidek
Maloyik xayli ham parvona bo'lmas.

Anga yo'q ishq birla oshnoliq
Ki, aqlu hushtin begona bo'lmas.

Kishiga vasl iqboli ne mumkin,
Agar hijron aro mardona bo'lmas.

Kerakmas may, agar xud jon bag'ishlar,
Manga soqiy agar jonona bo'lmas.

Xirad mug' dayri sari istamangkim,
Bu yo'lda oqilu farzona bo'lmas.

Navoiyg'a buzuq, bulbulg'a gulshan
Ki, huznu aysh eli hamxona bo'lmas.

238

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pnsand etmas

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrai andin tilarmen, bahramand etmas.

Netay huru pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a
Ayon ul zahr chashm aylab, nihon bu no'shxand etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husnu malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o'z chobuki qotilvashi majnun shiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.

Ko'ngul uz charxi zolidin, firibin yemakim, oxir

Ajal sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.

239

Labingdin ayru bag'ir laxt-laxt qonmu emas,
Bu qon nazar yo'lidin dam-badam ravonmu emas.

Yuzungni pardada desam, pariy, tongirg'omog'il,
Menimu qilmadi majnun, o'zi nihonmu emas.

Jahonu jon hazar etsa, ne ayb g'amzangdin,
Baloyi jonmu emas, ofati jahonmu emas.

Ko'ngulga ko'yung aro rahm nevchun aylamading,
G'arib telbam yo zori notavonmu emas.

Ne ayb, la'li labing hasratida jon bersam,
Hayot chashmasi yo umri jovidonmu emas.

Qadahni yaxshi to'la aylamaysen, ey soqiy,
Xumor mehnatidin holatim yomonmu emas.

Qadam Navoiy mahzun boshig'a qo'ymas yor,
G'ubori rahmu emas, xoki ostonmu emas.

240

Olam ichra manga ul huri malak snymo bas,
Ul qachon bo'lsa muyassar, qadahi sahbo bas.

Gar shabiston ichida hojat esa sham' ila nuql,
Ham o'shul mahjabinu labi shakkarxo bas.

Naqdi jon bersamu la'li labidin qut olsam,
Umr bozorida men xastag'a bu savdo bas.

Kimga bu dast beribturki, sanga bergay dast,
Ayla bu fikri muholotni, ey shaydo, bas.

Gar budur hodisai davr xarobot ichra,
Xirqai chok bila durdi qadahpolo bas.

Hashmat ahli xazu xoroda yoshunsunki, manga
Notavon jism fano gardida nopaydo bas.

Ey Navoiy, yetaring yorg'a ermas mumkin,
Qilmasang ko'nglung aro g'ayri xayolin to bas.

241

Birov aning labi jonbaxshidin nishon bermas
Ki, har kishiki qilur istimo', jon bermas.

Adam tariqig'a tushtum, tilab aning og'zin,
So'rub kishi manga ul rozdin nnshon bermas.

Abad hayoti kebi vaslig'a yetishkuncha,
Firoq mahlakasi ichra umr omon bermas.

Labingdin o'ldi tanim rishtae tabibi xirad
Ilojin etkali sharbat bag'ir qon bermas.

G'animat angla ko'zu ko'nglum ashk ila qonin
Ki, muncha injuyu la'l elga bahru kon bermas.

Zamona qildi meni goh mastu, gah maxmur
Ki, bir zamon may agar bersa, bir zamon bermas.

Navoiyo, g'ami jonom olurda sa'y etti,
Sog'indikim, tilagach ushbu notavon, bermas.

ShIN HARFINING ShO'XLARINING ShAMOILILI «BADOYE» DIN

242

Zihi oting bila xayli maloyik ichra xurush,
Falak senga yangi oy na'li birla halqabago'sh.

Gahiki fikrati zotingni aqli kul aylab,
Burung'i jomda hayrat ani qilib behush.

Sipehr jomida qahring haroratidin zahr,
Quyosh zamirida mehring haroratidin jo'sh.

Ham ettinofai mushkung qamarni mushki davoj,
Ham etti gulshani lutfung shafaqni gulgunpo'sh.

Ne qahring o'tidin emin faqiji soyimi dahr,
Ne rahmatidin novmid rindi durdno'sh.

Navoi hamdinga bulbul tili bo'lub go'yo
Va lek hayrati vasfingda g'uncha og'zi xamush.

Navoiy o'zni sotar qullug'ung bila, yuz shukr
Ki, xudfurush emastur, yo'q ersa zuhdfurush.

243

Kelki, hijroning meni mahzunni badhol aylamish,
Yuz tuman dardu balo xaylig'a pomol aylamish.

Orazingdin o'zga yuz ko'rmaktin aylab ko'zni ko'r,
Dardi ishqing elga ayturdin tilim lol aylamish.

Ham boshimni gard ila mankubi hijron aylabon,
Ham tanimni bosh ila majruhi atfol aylamish.

Sen guli ra'no firoqidin sarig' chehramni ashk —
Qatra-qatra qon ila tim-tim tomib ol aylamish.

Xotirim ozurda aylab yor ila ag'yordin,
Yoru ag'yorimni mendin forig'ulbul aylamish.

Firoqingdin o'lman bo'lsam, emas mendin gunah,
Charx ani komim ko'rub sa'yida ihmol aylamish.

Tushkanim Majnun bila Farhod ayog'ig'a ko'rub,
Gah tanimni nun qilib, gohe qadim dol aylamish.

Ey ko'ngul, din ahli zarqidin malul ersang, sipehr
Dayr pirin buyla mushkillarga hallol aylamish.

Hajr aro mast o'l, Navoiykim, farah kasbiga ishq
Mayni yoquti muzobu la'li sayyol aylamish.

244

Qaysi ishrat mevusi naxli hayotim qildi fosh
Kim, parivash tifllar yog'durg'ay ul yon muncha tosh.

Olam ichra ul quyosh zohir vale mendin nihon,
Ey ibodat ahli, qo'ysam, tong emas, olamg'a bosh.

Oq uqor o'tog'asi chobuksuvorim boshida,
Uylakim, xatti shioi aylagay zohir quyosh.

G'am tuni sargashta boshim, ham sipehredurmudir,
Anda kavkab zohir o'lg'on yuz uza har qatra yosh.

Ko'z ani ko'rgach, ko'ngul sevdi, bu ish bo'lg'an zamon
Ko'zlarim ko'ru ko'ngul nobud bo'lg'ay erdi kosh.

Gar desang qattiq balog‘a qolmag‘aysen charxdin,
Olam ahli birla yumshog‘lig‘ bila qilg‘il maosh.

Chun Navoiy o‘ldi, itlar dardparvar jismini
To‘ma qilmoq yo‘qli, rad aylarda aylarlar talosh

245

Avji husn uzra yuzung xurshidi farruhbol emish,
Xoling ul hindui muqbil, kavkabi iqbol emish.

Dedim: aytay husni vasfi birla ishqim hirqatin,
Bilmadimkim, til bular vasfin demakta lol emish,

Husn xattin par chiqarib uchmog‘i ermish sazo,
Ishq ila dard ahlidin xo‘beki forig‘bol emish.

Man‘i ishq aylar edim ko‘nglumga, ko‘rdum holini,
Shiddati shavq iztirobidin base badhol emish.

Ko‘z yumub ochquncha yuz qon aylar ermish g‘amzasi,
Men yomon baxtiga yetkanda ishi ihmol emish.

Ul parivash suvratin sizg‘ach musavvir, angladim
Kim, xiradni aylagan devona bu timsol emish.

Xonaqah shayxi qoshinda qoldi ko‘p mubham ishim,
Buyla mushkillarga piri maykada hallol emish.

Soqiyo, jomi visoling no‘shidin tirguz meni
Kim, xumori sog‘ari hijron ajab qattol emish.

Gar Navoiy pirlarg‘a murshid erdi, kirgali
Ishqu savdo ko‘yiga bozichai atfol emish.

246

Sham‘ uchini olmog‘ uchun, ey mahvashi farrosh,
Parvona qanotlaridin et sifrai minqosh.

Yo‘q-yo‘qli, yuzung sham‘ig‘a parvonadur anjum,
Kim, bir-bir alar shomi visolingda bo‘lar fosh.

Oy sham‘ig‘a minqosh munosib yangi oydur,
Andog‘ki, yuzung sham‘ig‘a minqoshdur ul qosh.

Boshimdur ayog‘ingg‘a fido, har ne kerak — qil,

To‘qmoqqa munosibdur, agar istar esang bosh.

Ul oy agar ilgiga supurgu olur, ey charx,
Xurshid shioi xatidin qilsang ani kosh.

Har tun chu falak borgahi vaz'i nigundur,
Gardun ko‘zi go‘yo bu jihatdin to‘kadur yosh.

Ko‘ngli uyidin sabr mato’ini supurdi
Bechora Navoiykim, erur dilbari farrosh.

247

Men gadog‘a har necha ko‘yi sari bormoqdur ish,
To‘ma solmoq itgayu darbong‘a yolbormoqdur ish.

Qon bo‘lub itgan ko‘ngulni istayu ul ravzada
G‘unchalar xaylini gulbunlarda axtarmoqdur ish.

Ul sari borurda jon birla ko‘ngulni rashkdin
Har birisin yuz bahona birla qaytarmoqdur ish.

Tiyra ko‘nglumda xayolig‘a malolat vahmidin
Notavon jismimni har yondin tutub yormoqdur ish.

Tushsa ilgimga iti, azbas niyozu mehrdin,
Ani men Majnun qo‘lidin elga qutqarmoqdur ish.

May tag‘orin tut desam, soqiy, tojonmakim, sanga
Ish ani tutmoq va lekin bizga sipqarmoqdur ish.

Telbarab har dam bo‘lur g‘oyib Navoin, nechakim,
Bizga ani aql ko‘yi sari boshqarmoqdur ish.

248

Ohkim, ul sho‘x erur ham mohvash, ham shohvash,
Balki ham quldur anga yuz shohvash, ming mohvash.

Gar quyosh ermas yuzung, nevchun nishotim mazrann
Tobidin aylab quruq, rangimni qildi kohvash.

Ko‘nglum olib budurur maqsud angakim o‘rtagay,
Bukim o‘zni dilsitonim ko‘rguzur dilxohvash.

Vasl aro o‘zni xayol aylab nishotim bordur,
Soyil andoqkim yasag‘ay o‘zni ahli johvash.

Ey quyosh, ohim ne tong olamg‘a solsa rustaxez,
Har damim gardung‘a chunkim shu’la tortar ohvash.

O‘zdin ogah ermon, ogohe kerak sarvaqtima,
To ul ogah davlatidin bo‘lg‘amen ogohvash.

Ey Navoiy, gar hidoyat yetsa yo‘lg‘a kirgamen,
Garchi mug‘ dayrida holo bor esam gumrohvash.

249

Bazmi vasl ichra manga tutti qadah ul mahvash.,
Boda xush, bazm xush — ul ikkisidin soqiy xush.

Bir-bir ofoq elin o‘lturdi, ne bir-bir — ming-ming,
Olloh-Oolloh, ne balo qotil emish ul mahvash.

La’li ko‘nglumni chekib, g‘amzası qonim ichti,
Nechakim bu biri xunxor erur, ul dilkash.

Tavsani charx uza go‘yoki quyoshdur soyir,
Shahsuvorim chu qilur jilva, minib ko‘k abrash.

Labi hayvon suyidin gar meni qildi forig‘,
Ne ajab, boda erur xoru qilur daf‘i atash.

Husn chun jilva qilur, oqu qorada no‘q farq,
Kishiga kelsa balo — xohi xito, xohi habash.

Sarvi nozim qoshida keldi Navoiy to‘bi
Lamskim, suvrati xatti o‘qidim ani lamash.

250

Qading niholiki bog‘i hayot tarfini tutmis,
Magarki Xizru Masiho suyu havosida butmis.

Ko‘ngulnn gavhari ishqingki ravshan ayladi, gardun
Magar bu upni durri shabcharog‘ birla yorutmish.

Ko‘ngulni qon yoshu gohi yuzum bila ovuturmen.
Sarig‘-qizil bila andoqki xalq tiflin ovutmish.

Dedingki, hajr aro ber ishq so‘zu tobig‘a taskin,
Kishi tamug‘da qachon ko‘nglining o‘tini sovutmish.

Ko‘ngulga har necha sabru qaror pandi berurmen,
Birini, voyki, bishqarmayin, birini unutmish.

Umnd naxlini ashkim bila ne toza qilaykim,
Samumi hajr ani kul aylamish demanki, qurutmish.

Navoiy, emgak ila dema tarki ishqim etibdur,
Qachon zamiri uyi girdig'a bu ishni yovutmish.

251

Nekim qilur, ko'runur ul buti sitamgar xush,
Chu nozu ishza bila bazmdin chiqar sarxush.

Yuzungda xush ko'runur jomi la'ling, ul yanglig'
Ki, toza gulshan aro la'lrang sog'ar xush.

Qamarning ikki yonida Suhaylu Zuhra kebi.
Ko'rundi iki qulog'inda durru gavhar xush.

Ko'zungki oraz uza yotti — xush ko'rundiki, bor
G'azola yotmoq uchun lola bargi bistar xush.

Ne nav' jinsi bashar suhbatini xush ko'rgay,
Biravga bo'lsa parizodi hur paykar xush.

Menu jamolin aning bir ko'rarga bermak jon,
Agar bu noxush erur ahli davr aro, gar xush.

Navoiyo, sanga gar yordin g'arazdur, yor
Jafovutlufini ko'rsang kerak barobar xush.

252

Yuzu engida muncha latofat bo'lur ermish,
Qoshu ko'zida muncha ham ofat bo'lur ermish.

Husnidin aning hur itib qochdi, pariy ham,
Bir odamida muncha latofat bo'lur ermish.

Mohim yuzini chunki quyosh ko'rdi — tutuldi,
Muncha falaki elda kasofat bo'lur ermish.

La'ling mayig'a chashmai hayvonni qilib zam,
Usrukra erur muncha sarofat bo'lur ermish.

Javr etganida o'lmas edim, gar anga so'ngra,
Bilsam edikim, lutfi izofat bo'lur ermish.

Kirganda balo dashtig'a fikr etkay edim gar,

Yuzdin biri, bilsamki, mahofat bo'lur ermish.

Debturki: Navoiy so'zining bandasidurmen,
Bu lutf ila ul shahda zarofat bo'lur ermish.

253

Ey musavvir, lutf etib sizg'il meni jonong'a to'sh,
Uylakim, tushkay yuzi bu diydai hayrong'a to'sh.

Yuzi bo'lsun yuzuma to'sh, qaddi ham to'sh qaddima,
Lek jonparvar labi la'lini tarh et jong'a to'sh.

Ro'baro' har uzvi har uzbumg'a to'shdek tushmagay,
Yuzi ko'zgusi vale bu dudlig' afg'ong'a to'sh.

Ko'ksini ko'ksumga to'sh sizg'il demonkim, tushmagay
Nozanin jismi aning bag'rimdag'i paykong'a to'sh.

Olloh-Oolloh, telbalik soldi xayoloti muhol
Ko'ngluma, yo'qsa ne loyikdur gado sultong'a to'sh.

Qaysi yonkim itlarin tarh aylagungdur bazm aro,
Siz meni tufroqqa yuz qo'yq'on vale ul yong'a to'sh.

Chekti chun har kimsani bir ishga to'sh kilki qazo,
Ohkim, bu telbani qildi raqam hijronga to'sh.

Aysh jomin tutmang, ey davri tarab soqiylari,
Bizgakim, charx etti bizni mehnati davrong'a to'sh.

Ey Navoiy, telba ko'nglum zor tang'a kelmadi,
Toki el majnunni bir ko'rsatsalar vayrong'a to'sh.

254

Chekib jon rishtasin chobuksuvorimkim, kamand et mish,
Ko'ngul saydin hamono ul kamandi birla band et mish.

Firoq ichra ajal zahrin tut, ey soqiysi, ishq andoq
Achig' sharbatni bu qotiq marazg'a sudmand et mish.

To'kulmak qoningiz ko'yida, ushshoq, orzu qilmang
Ki tig'i ishq bu davlatqa bizni arjumand et mish.

Bul ohimdin falakka yetsang oxir ishq Majnunkim,
Bu yel imdod ila ul shu'lani andoq baland et mish.

Bu ham xushturki, moni' bo'lg'ay el nazzora aylarga,
Bukim maydonida xoki tanim gardi samand etmish.

Anikim sevdimu yuz ming balog'a uchradim, yo'qkim
Manga yolg'uzki, yuz ming men kebi bedilg'a pand etmish.

Rizo berkim, qazog'a yo'q tafovut, kimsa yuz qatla
Ne kelsa ollig'a xursand yoxud bad pisand etmish.

Siyosat aylaram mujgon sinoni birla mundoqkim,
Ko'zum ul yuzga gustoxona boqib bahramand etmish.

Navoiy tarki zuhdu ilm qildi, toki dildori
Ichib may tunu kun xudroyliq birla lavand etmish.

255

Nechaknm qatl bila noz erur yorg'a ish,
O'l maka arzi niyoz o'ldi meni zorg'a ish.

Xasta ko'nglum tilasa vasli shifosin, ne ajab,
G'ayri sihhat ne havas bo'lg'usi bemorg'a ish.

Bandi zulfida tilar ko'nglum o'zin mahkamroq,
Garchi maxlas talabi bo'ldi giriftorg'a ish.

Qoni to'lg'an necha din ahlin asir etti ko'zi,
Bo'ldi paydo yana ul kofiri xunxorg'a ish.

Marham o'rning'a ko'ngul zaxmini tirmar ul sho'x,
Do'stlar, sa'b tushubtur bu dili afgorg'a ish.

O'l turur o'tkanu qolq'an boshog'i ko'nglumda,
Ey falak, qatlim erur sobitu sayyorg'a ish.

Juz zafo ahlig'a sargashtalik etmak oyin,
Go'yiyo qismat emas gunbadi davvorg'a ish.

Olam ahlida chu yo'q yorki, mehr o'lg'ay ishi,
Sen qiyos aylaki, ne bo'lg'usi ag'yorg'a ish.

Ey Navoiy, o'zungga olam ishin oson tut,
Gar desang tortmasun el buyyla dushvorg'a ish.

256

Ul oy gar ayni usrukluqtin uyqu maylig'a yotmis,
Vale bir ko'z yumub ochquncha yuz ming fitna uyg'otmis.

Visoling bay'ida sud etmish ul tojirki, Yusufdek
Agar ming bandasi bo'lsa, barin bu vajh uchun sotmish,

To'la gavhar aqiqing huqqasidin bahri ashkim ko'r
Ki, ko'k anjum bila durluq sadafdek qa'riga botmish.

Soching savdosidin xayli malak majnunvash o'lmish bil,
Magarkim olami arvohqa atrini butratmish.

Chamanda naqsh bandi nomiya ko'p sarvu gul naqshin
Chiqarmish, qaysi birni sarvi gulro'yumg'a o'xshatmish.

O'qidin par chiqarmishmenkim, ul turki xadang afgan,
Qayonkim g'amzasining novakin chekmish, manga otmish.

Qadahdin jon topibmen, go'yiyokim no'shlab soqiy
Ani mamzuj etarda obi hayvondnn anga qotmish.

Zamon ahli zamona rangi birla bevafodurlar,
Zamona ahlig'a go'yo zamon o'z fe'lin o'rgatmish.

Navoiy xastalig'din dam urarg'a quvvati yo'qtur,
Ani go'yo vafosizlar jafosi asru emgatmish.

257

Ey jamolningnnng xayoli xotiri vayronda naqsh,
Shamsadin qolg'an asar yanglig' buzug' ayvonda naqsh.

Tegdi bir novakki, sahmidin o'lub erdim, valek
Yangi jon toptim aning otin ko'rub pankonda naqsh.

Kecha ul gul furqatidin, kunduz atfol ilgidin
Xoru xora zahmini ko'r bu tani uryonda naqsh.

Orazing naqshiki chiqmas tiyra ko'nglumdin dame,
Qildilar go'yoki Yusuf suvratin zindonda naqsh.

Ey musavvir, sizmag'il Majnunu Layli suvratin,
Bas menu yorim hadisi safhai davronda naqsh.

Naqsh sudin chun bo'lur zoyil, ajabdurkim, erur
Yig'lag'an soyi xayoling diydai giryonda naqsh.

Dahr elidin gar vafo Qilding tama', ey soddadil,
Istading amreki, tutmas, haynizi imkonda naqsh.

Qildi ko‘p devonni el naqshi nigor, ammo emas
Uylakim, qildim nigorim vasfini devonda naqsh.

Bog‘lamas naqsh ulki bo‘lg‘ay sendin o‘zga yor uchun,
Bazmi dard ichra Navoiy bog‘lasa hijronda naqsh.

258

Shafaq jinsin quyosh zarrishtasidin chorqab qilmish,
Shafaqgun qilg‘ali mehr ahlining ashkin sabab qilmish.

Sanga taqlid qilmish gulki, osib ko‘za bo‘ynidin,
Tikan ustiga ani turg‘uzub gardun adab qilmish.

Falak javfi to‘la zahr o‘lsa, muncha qatl emas mumkin
Ki, anfosi Masih oyin bila ul no‘shab qilmish.

Zamonda bul-ajab oseblar solmish, falak tokim
Bu yanglig‘ ul zamon oshubi tavrin bul-ajab qilmish.

Ne umr o‘lg‘ay mangakim, mast bebokim meni nogah
Tirik ko‘rganda o‘lturmish va gar o‘lsam, g‘azab qilmish.

Jamol avroqida har nukta bor ul yuzda zohirdur,
Magar ul safhani davron boridin muntaxab qilmish.

Meni devonag‘a yuz shikva bor o‘z qavmu xaylimdin
Ki, Majnung‘a ne turlik zulmkim qilmish, arab qilmish.

Sen ani istamakdin tinmag‘il bir lahzakim, solik
Agar matlub topmis, andin ermishkim, talab qilmish.

Visol ahli, sizu ayshu farog‘atkim, Navoiyg‘a
Azal qassomi ro‘zi ishq aro ranju taab qilmish.

259

Menga nomehribon yor o‘zgalarga mehribon ermish,
Mening jonim olib, ag‘yorg‘a oromijon ermish.

Tan uzra emdi fahm ettim adadsiz toza dog‘imni
Ki, har bir-bir qorarg‘an shomi hajrimdin nishon ermish.

Buzulg‘an ko‘nglum atrofindag‘i zaxm ichra novaklar
Baliyat qushlariyu zaxm alarg‘a oshyon ermish.

Raqibi sindurub ko‘nglinu men yig‘lab anga, lekin

Su keltirmak hamonu ko'za sindurmoq hamon ermish.

Baliyat dashtida zore ko'rub Majnun sog'ing'aylar,
Ko'ngul otlig' bizing ovorai bexonumon ermish.

Xayoling xayli ko'nglum dashtida chun qildilar manzil,
Har o't yoqqan yer ul manzilda bir dog'i nihon ermish.

Zamon oshubidin ko'nglumga yuz shiddat yetar erdi,
Chu fahm ettim — munga bois ul oshubi zamon ermish.

Agarchi men yomonmen, yaxshidurkim mu'tarifdurmen,
O'zin yaxshi tasavvur aylagan mendin yomon ermish.

Navoiy nazmini ko'rdum quyosh lavhig'a sabt etkan,
Buyurg'an ani oliv qadr shohi xurdadon ermish.

260

Labing bu xastag'a nevchun takallum etmadi ish
Ki, bir sukjn bila hosil etsa yuz olqish.

Otar hamisha qoshi yosi birla g'amza o'qin,
Agarchi bo'lmas o'q otmoq, yo'q ersa yoda kerish.

Boshog'laringmu ekin bag'rim ichra yo qoldi
Iting chu tu'ma uchun anda mahkam ayladi tish.

Tariqi ishq aro komildurur ko'ngul, ne ajab,
Kamol topmoq etib ishni ishq ila varzish.

Zaif jismni to tig'i yordi — nolonmen,
Nechaki chiqmas uni, necha chok bo'lsa qamish.

Chekar gul ollida bulbul fig'on, magar bildi
Ki, o'tsa vasl bahori, xazoni furqat emish.

Navoiy, asra nihon ishq nuktasin zinhor
Ki, ishq piri manga yoshurun bu nukta demish.

261

Manga bor ul sanami ra'no xush,
Ko'runur o'zga sanamlar noxush.

Yolg'uz ani sevaramkim, manga bor
Ul xush, o'zga kishi yo'q aslo xush.

Xalq noxushlig‘idin qayda g‘amim,
Bor esa ul sanami zebo xush.

Yuzungga yuz qo‘yayin xat orakim,
Sabzada keldi guli ra’no xush.

Kecha hijronida may tortar edim,
Kirdi gul gulruxi mah siymo xush.

Menda yuz biymki, tutqach olibon,
Chekti ul sho‘xi qadahpaymo xush.

Dayr aro o‘zni, Navoiy, xush tut,
Chun kelibtur sanga ul tarso xush.

262

Nevchun yuzida qahr ila chin zohir aylamish,
Xurshid chashmasida kishi mavj ko‘rmamish.

Vasling so‘zin eshitkach etar ko‘nglum iztirob,
Sog‘inmag‘il aniki, firoqingda to‘xtamish.

La’lingni istamonki og‘izdin chiqarg‘amen,
Bir xastadekki, jonini og‘zinda asramish.

Bo‘ldim halok—chun beliga bog‘ladi kamar,
Qatlimg‘a go‘yiyo belin ul sho‘x bog‘lamish.

Bemorlig‘da jon itiga qilmisham nisor,
Ko‘yi sari kelibki so‘ngakimni sudramish.

Soqiy, ketur qadahki, chu g‘am aylamish hujum,
Bu yetmayin ko‘nguldin alar barcha butramish.

Yuz pora ko‘ngliniki Navoiy yig‘ib edi,
Ul sho‘x kirmishu yana borini qo‘zg‘amish.

263

Ne xam qoshlardururkim, hasrati qaddimni yo qilmish,
Ne kirpiklar o‘qikim, ro‘zgorimni qora qilmish.

Ne pechu tobi hadsiz domi zulf erkinkim, ochilg‘ach,
Demay ko‘nglum qushikim, uyla yuzni mubtalo qilmish.

Ne ko‘zlardurki, olmish ko‘z yumub ochquncha ko‘nglumni,
Qilib har go‘shada bemoru qismi yuz balo qilmish.

Ne oraz lolasidurkim, ko‘ngulni qon etib dardi,
Tugon qo‘yg‘an bila daf‘ig‘a ul qonning davo qilmish.

Ne nozuk xo‘y erurkim, aylamish o‘truda yuz dashnom,
Gadoekim aning zulfa ko‘zu qaddin duo qilmish.

Biravkim, jannatu do‘zax so‘zin sharx aylamish, go‘yo,
Kinoyat vajhi birla vaslu hijronni ado qilmish.

Ajab ko‘r ishq arokim, mo‘r etarga ajdaholarni,
Fusundin mo‘rxatlar qaydi zulfin ajdaho qilmish.

Qazodindur manga ishq o‘ynamoq, ey nosihi nodon,
Ko‘rubsenmu kishi hargizki, tag‘yiri qazo qilmish.

Navoiydek xalosim yo‘q edi ul g‘amza kufridin,
Xususan zulfi zunnor dog‘i bo‘ynumg‘a toqilmish.

264

Latofatda yuzung ham gul emish, ham gulsiton ermish,
Halovatda labing ham jonu ham oromijon ermish.

Bu ma’nidinki doim chun nihondur ul pariy ko‘zdin,
Ishi jonu ko‘ngulga o‘rtamak dog‘i nihon ermish.

Iti bag‘rimni yer chog‘da ayog‘i qong‘a bulg‘andi,
Ko‘zum bog‘ida gul aning tabonidin nishon ermish.

Shararlar birla ohim dudini sahroi ishq ichra
Kishi ko‘rsa, gumon qilg‘ay: ming o‘tlug‘ korvon ermish.

Chamanda har sari qildim guli ra’no gumon, ul xud
Sarig‘ gul jomida gulgun sirishkim birla qon ermish.

Sog‘indim ko‘yida har kecha itlar nolasi, lekin
Nachukkim telba it ushshoq ko‘nglidin fig‘on ermish.

To‘kub may muhtasib, men yig‘ladim, lekin ul usrukka
Su keltirmoq hamonu ko‘za sindurmoq hamon ermish.

Fano dayriki gardun hisnidin mahkamdurur, bildim
Ki, gardun zulmidin faqr ahlig‘a dorulamon ermish.

Navoiyni dedim ishq ichra somone topib erkin,
Vale ko‘rdum — hamul devonai bexonomon ermish.

Ishq ko'nglungga solib dard, ani qon et mish,
Ol kisvat bila kofirni musulmon et mish.

Ko'zlarin sho'xlug'idinki el erdi giryon,
Ani bir sho'x ko'zi ishvashi giryon et mish.

Emdi ahvolima shoyadki iching kuygaykim,
Sharari ko'nglung aro ishq o'ti pinhon et mish.

Bilgasen tig'i firoqing bila ko'nglum chokin,
Emdikim hajr sang a choki giribon et mish.

Xori hijron taniga chun tikilur anglag'asen,
Ulcha joning'a mening xanjari hijron et mish.

Sencha kimdur boqibon ko'zguga oshiqliq qil,
Ko'nglung ar choshni ishq ila tug'yon et mish.

Ey Navoiy, magar ohing ani tutmishki, kecha
Nechakim sen chekibon oh, ul afq'on et mish.

Septi tun mushkiga siymi sudadin kofur qish,
Aysh uchun oqu qorani ayladi masrur qish.

Garchi Hindistonda qor o'lmas, vale oq raxtini
Yoydi Hindiston kebi bu tunda nomaqdur qish.

Gar erur zang ahli zulmoni va lekin qor ila
Qildi tun zangisini ahli safovu nur qish.

Boda oq uy ichra ichmak rasm erur qish bo'lg'ali,
Haq yuzin oq aylasunkim, qo'ydi xush dastur qish.

Bazmni o'tdin qizitti, bazm ahlin bodadin,
Sahv emishkim, bo'ldi sovug'lug' bila mashhur qish.

Qish emish may boisi, zoti burudatdin birav
Zuhd etib sovuqqa gar to'ngsa, erur ma'zur qish.

Uyi vayronlarg'a qattig'dur, vale bil mug'tanam,
Bo'lsa kulbang may bila asbobidin ma'mur qish.

Mulki Jam istar esang, albatta chek jomi saboh,
Kechagi maydin seni subh aylasa maxmur qish.

Ey Navoiy, do'zax ermish gard ila issig' bulut,
Qoru muz birla sovug'din bor esa mahjur qish.

267

Hushi yo'q ko'nglum junun dashtida bir shaydo emish
Kim, aning qoshida Majnun asru-ko'p dono emish.

Tutti sarig' lolalar ruxsori ashkim birla rang,
Dema, ey ra'noi gulruxkim, guli ra'no emish.

Har bir ohim dudining maddu savodin ko'rgan el
Zulfi hajrinda, sog'ing'aylarki, bir yaldo emish.

Telba ko'nglum holini bilmak tamanno ayladim,
Yillar ermishkim, junun dashtida nopaydo emish.

Dedim: islay anbarin zulfungni ol, boshim evaz,
Dedikim: sen telba boshinda ajab savdo emish.

Ey g'aniy, ushshoqdin mustag'niy o'l dung, bilmading
Kim, fano ahlig'a sultonlig'din istig'no emish.

Anglamas erdim Navoiy holin ul oy ko'yida,
Har kecha to subh ishi faryodu vovaylo emish.

268

Javzo kundin dog'i ul chehra jamil ermish,
Yaldo tunidin dog'i ul zulf tavil ermish.

Har qatra ko'ngul qoni jon berdi o'luk tang'a,
Hosiyatini so'rduq— la'lingg'a qatil ermish.

Gulzor aro nilufar ochildi, gumon ettim —
Xol o'rnig'a har yuzda bir nuqtai nil ermish.

Hijron tuni daf' o'lg'ach, bildimki, yuz ochibsen,
Xurshid vujudig'a tong nuri dalil ermish.

Ovora ko'ngul istab jon tandin olur ishqing,
Ul telbagakim itmish go'yo bu kafil ermish.

Oyini qanoat tut, izzat tilar ersangkim,
Ermish tama' ahlidin har kimki zalil ermish.

Ko'nglini Navoiyning olsang, nazar aylab ko'r
Kim, dard ila dog' ichra joni ne qatil ermish.

269

Suvratingdur uyla ko'nglum baytulehsonida naqsh,
Kim, pariy timsoli shahning qasri ayvonida naqsh.

Anga yondoshmoq mening haddim yo'q, ey suvrat nigor,
Cheksang aning naqshini, qilma meni yonida naqsh.

Go'y qilg'anda boshimni yuqtı har yonig'a qon,
Layliyu shingarf ila sog'inma chavgonida naqsh.

Jismi uryonimki, ko'p tolpindi tog'u dasht aro,
Xoru xorodin, tamoshlo ayla, har yonida naqsh.

Zor ko'nglum yo musavvir bo'ldi, yo suvratparast,
Har tarafkim suvratingni qildi vayronida naqsh.

Zuhd aro yo'q juz malolat, negakim, kilki qazo
Aysh tarhin qildi jomi boda davronida naqsh.

Ul pariymim, hajridin o'ldi Navoiy, ey rafiq,
Suvratin qildurg'asen zinhor devonida naqsh.

270

Sarvi ra'no qaddidin ra'no qading cholok emish,
Otashin guldin guli ruxsoring otashnok emish.

Ulki aytur ko'nglaking ul gul g'amidin chok emas,
Anglamaydur beg'ami g'ofilki, ko'ksum chok emish.

Bazmdin usruk chiqib to'kti ulusning qonini,
Ahli din, qochingkim, ul kofir ajab bebok emish.

Ishqim o'tin shoxai to'bi urub past istagan,
Bilmading, ul shox bu o't ollida xoshok emish.

Tushta Majnunni hazinu zor ko'rdum, angladim
Kim, bir oy hajridin ul ham men kebi g'amnok emish.

Bir quyosh hajri meni holimg'a qo'ymas zarrae,
Demangiz bu ishga bois anjumu aflok emish.

Voiz aytur hur ummidi birla ul oy tarkin et,
Ey Navoiy, ko'rki, ul purgo'yi beidrok emish.

SOD HARFINING SANAMLARINING SIYTI «BADOYE»»DIN

271

Bir kishi o‘zni qilur ahli fano bazmida xos
Kim, qilur o‘zluki birla o‘zidin o‘zni xalos.

Dardu g‘am xoslardinmenu o‘lmakdur ishim,
Bo‘lur ermish g‘am ila dardg‘a bu nav’ xavos.

Bo‘lmayin g‘arqi fano, istamag‘il gavhari vasl,
Dur topilmas, kishi to bahrda bo‘lmas g‘avvos.

Qilmay ul Zuhra jabin bazmda bir davri simo’,
Ne uchun bo‘ldi ekin shefta ko‘nglum raqqos.

Menki ko‘z qonin oqizdim, oqizur hajr dog‘i,
Qonim ul qon uchun iynak qilib izhor qasos.

Fath tolibg‘a yetishmas, agar ermas muxlis
Kim, o‘shul fotihaning lozimasidur ixlos.

Fayzi om istar esang, ayla Navoiy o‘zni
Bu fano dayri aro mug‘bachalar bazmig‘a xos.

272

Ey ko‘ngul, zohir etib ishqing o‘ti dog‘ig‘a hirs,
Bulbul ul nav’ki gulshan guli yafrog‘ig‘a hirs.

Uylakim, ko‘r gado kuhli basirat tilagay,
Ko‘zuma raxshing ayog‘i izi tufrog‘ig‘a hirs.

Bo‘ldi Farhod ila Majnuncha ko‘ngul mundoqkim,
Ko‘rguzur dashti junun birla balo tog‘ig‘a hirs.

Yor bedillarig‘a qayda ko‘ngul bersunkim,
Ish anga bo‘ldi ulustin ko‘ngul olmog‘ig‘a hirs.

Gar haris o‘lsam aning ko‘yi tavofig‘a ne ayb,
Bo‘lur el tab’ida firdavsi jinon bog‘ig‘a hirs.

Dahr aro mast ila hushyor tama’ zoridurur,
Negakim g‘olib erur usruk ila sog‘ig‘a hirs.

Qullug‘i dog‘idin ozodalig‘ iqibili yetar,
Ne ajab, bo‘lsa Navoiyda g‘aming dog‘ig‘a hirs.

Gar etti ishqini ahli jahon uchun taxsis
Valek hajrini bu notavon uchun taxsis.

Visol ayshini maxsuslarg'a qildi raqam,
Nechukki, hajr g'amin men yomon uchun taxsis.

Demangki, qatlig'a maxsusmenki, aylabdur
Qilichi kesmakida imtihon uchun taxsis.

Chu bog' erur vataning, shodmon bo'l, ey bulbul
Ki, g'amg'adur meni bexonomon uchun taxsis.

Boshimni tufrog' et, ey muddaiyu tashlamag'il
Ki, ani qilmisham ul oston uchun taxsis.

Agarchi dahr elida mehr yo'q, sipehr etmish
Bu ishni ul mahi nomehribon uchun taxsis.

Xush ulki, yor Navoiyni qilmayin mazkur
Dedi, jafoni qilibmen falon uchun taxsis.

Ey dog'i mehnatingg'a meni mubtalog'a hirs,
Ul nav'kim, diram sari bo'lg'ay gadog'a hirs.

Hajrida vaslin istabon aylarmen iztirob,
Ko'rguzgan el kebi maraz ichra davog'a hirs.

Men davri ro'zgor qoralig'in istaram,
Qatlimg'a tong yo'q ul ko'zi qoshi qorog'a hirs.

Mahrummen visolidin, ushbu emish asar,
Har kimki zohir aylasa bir muddaog'a hirs.

Atfol g'uncha uzgali oncha haris emas
Kim, bor ko'ngullar olg'ali ul dilrabog'a hirs.

Men chekkali jafosini hirs aylaram ayon,
Ne tong, agar ul aylasa zohir jafog'a hirs.

Solikka hech mazhab aro hirs xo'b emas,
Illo bu eski dayrda jomi fanog'a hirs.

Mahrumluq harisqa oyin erur valek
Vasli ishida kirmayin o'tmas arog'a hirs.

Dardu g‘amin ko‘p istayu bo‘ldi Navoiyg‘a
Muncha kerakmas erdi bizing benavog‘a hirs.

275

Erur ishqing meni mahzung‘a maxsus
Ki, Layli dardidur Majnung‘a maxsus.

Qo‘yung, ey sarvu savsan, jilvakim, bor
Bu ish ul qomati mavzung‘a maxsus.

Ko‘rub mast aylamak lofin qo‘y, ey may
Ki, bu bor ul labi maygung‘a maxsus.

Qo‘y, ey oy, tunni yorutmog‘nikim, bor
Bu ish ul husni ro‘zafzung‘a maxsus.

Ko‘zum girdobi jismimni cho‘murdi,
Emas bu Dajlavu Jayxung‘a maxsus.

Manga bemehr sensen ham, falak ham,
Bu ish bor oy ila gardung‘a maxsus.

Navoiy, otashin gul g‘unchasidek
Erur kuymak seni dilxung‘a maxsus.

ZOD HARFINING ZAMIRON BO‘YLARINING ZIYOSI «BADOYE»DIN

276

Fayz taqvida chu no‘q bil kim erur, ey murtoz,
Mabdai fayz ko‘pu maykada piri fayyoz.

Botinu zohiring ahvolini ko‘r kim qilmish
Zoyi’ ul birni xavotir, bu birisin ag‘roz.

Pir nutqi ketarur ujbu riyo birla hasad,
Iso o‘ldi chu muolij, netar etmay amroz.

Fard bo‘l diniyu uqbodin, agar vasl kerak,
Istagan yorni kavnayidin etsun e’roz.

Kirg‘ovul qorda yoshung‘an kebidur ayblaring,
Elga bas zohir, agarchi sen etarsen ig‘moz.

Ko‘zung ollida xating mushki chu kofur o‘ldi,
Ko‘r ani, gar ko‘zunga kirmadi ersa bu bayoz.

Kimki illalloh ila ko‘ngliga istar payvand,
Naf’i losidurur eldin kesilurga miqroz.

Qilma ko‘nglungni savol ahli kadu kajkuli,
Solma bir zarfqa yuz nav’ muxolif ag‘roz.

Do‘st yodi tirik asrar chu Navoiy ko‘nglin
G‘ayr zikri bila doim nega bo‘lg‘ay hamroz.

277

Baslig‘a jon istar ul huri malaksiymo evaz,
Muncha bilmaskim, emas yuz jon anga aslo evaz.

Ul pariy pobo‘sin aylar va’da, vahkim, topmag‘um
Bo‘lsa yuz ming jon meni devonai shaydo evaz.

Jon labig‘a berdimu yetkursa basdur qatrae,
La’li tekkan maydin ul sho‘xi qadah paymo evaz.

To‘biyu kavsar sanga, ey voizu bo‘lsun, manga
Ul labi go‘yo bila ul qomati ra’no evaz.

Rishtai dinimni uzdi, lek basdur qilsa lutf,
Rishtai zunnoridin ul mahvashi tarso evaz.

G‘ofil o‘lma yordinkim, bir nafasliq yodig‘a,
Solik ollinda emas dunyoyu mofixo evaz.

Yo‘lida o‘lsang, Navoiy, yetkura olur sanga
Yuz tuman jon raxshi gardidin bizing mirzo evaz.

278

Qilg‘an ermisht notavon sarviravonimni maraz,
Zor o‘larmenkim, qilibtur zor jonomni maraz.

Chu topar ozor jononim marazdin, yo‘q ajab,
Aylasa ozurda joni notavonimni maraz.

Gar marazning lozimi dard o‘ldi, bilmon, ey ko‘ngul,
Dardmand etgaymu, oyo dilsitonimni maraz.

Sadqasi aylang meni mardudni, ey do‘stlar
Kim, zaif etmish ulustin tonlag‘onimni maraz.

Dardlig‘ ko‘nglum halokin istaramkim ko‘yida,

Yiqmish ul ovorai bexonumonimni maraz.

Yuz tuman mendek kuhan pir o'lsa aning sadqasi,
Qilmasun ozurda, yo rab, navjuvonimni maraz.

To mariz o'l mish nigorim — qon to'kar giryon ko'zum,
Ey Navoiy, dey olurmen — to'kti qonimni maraz.

279

Ey, quyosh vasfin demaktin, mohi ruxsoring g'araz,
Obi hayvon zikridin la'li shakarboring g'araz.

Ulki, debturlar badan bo'stonida ruhu ravon,
Ahli ma'ni ollida qad birla raftoring g'araz.

Jilvagar kavsar zulolida quyoshning lam'asi,
Ko'zgu ichra chehra aksidin namudoring g'araz.

Sayl mavjidin raqibi xona pardozing murod,
Abr sayridin samandi barqirdoring g'araz.

Ey ko'ngul, Farhod tog'i birla metin zaxmidin
Dardu mehnat shiddatidin jismi afgoring g'araz.

Ul quyoshqa, ey falak, har zarrani zor etmaking,
Zarrai maqsud yo'q juz bizga ozoring g'araz.

Ey Navoiy, umr bobida vafosizliq so'zi
Kim, bo'lur mazkur, erur sho'xi jafokoring g'araz.

TYe HARFINING TANNOZLARINING TAROVATI «BADOYE»»DIN

280

Dayr piri xidmatida qilsa har xammor shart,
Kim belin rust aylagay, avval erur zunnor shart.

Shart qildimkim, vafosizlarni emdi sevmayin,
Ishq zo'r etkach vale botil bo'lur bisyor shart.

Tavba qilmoq istar ersang, qilma da'vo oshkor,
Tengriga topshur o'zungni, qilmag'il izhor shart.

Ishqni jabborlar fahm aylamaslar, negakim,
Bordur anda jon reshu xotiri afgor shart.

Bo'l mag'il ozurdavu ozurda qilma kimsani,

Faqr oyinida nevchunkim emas ozor shart.

Shart ila da'vo fano ichra emas sharti adab,
Beadablig'dindur, etsa shayxi da'vivor shart.

Solik ersang, ishga mashg'ul o'l, vale dam urmag'il,
Kim, bu yo'lda shart erur kirdor, emas guftor shart.

Istar ersang tengrini, butlarni sindurkim, erur
Ushbu yo'lda diniyu uqbodin istig'for shart.

Ey Navoiy, charxdin juz egrilik ko'z tutmakim,
Hojat ermas qilmoq ani charxi kashraftor shart.

281

Gul uza anbar yoyildi, zohir etkach yor xat,
Orazi gulnor uza kim ko'rdi anbarbor xat.

Xattini ko'rdik lab uzra, gar zumurrat xat kishi
Ko'rmadi la'l uzra yo shingarf uza zangor xat.

Demakim, xat yozmading hajrimdakim, eltur kishi
Yo'qturur, lekin yotur hujramda yuz tumor xat.

Ul pariy qasrida xomam no'gidin, oh, o'q kelur,
Oh o'qi birla yozar holatda majnunvor xat.

Qonima hijron agar xat olmamish, ne vajhdin
Ashki gulgundin ayon qilmish sarig' ruxsor xat.

Ul quyoshtin ayru sarig' chehram usturlobdek,
Ko'rguzur tirkog' ila behad raqam, bisyor xat.

Jomi Jam davrida shavkat ahlining tarixidur
Kim, ayon aylabturur ul sog'ari zarkor xat.

Davri gardun sayridin tuzluk tavaqqu' qilmakim,
Mumkin ermas mustaqim etmak raqam pargor xat.

Yor xattidin Navoiy xasta ko'ngli za'f etar,
Za'fqa mujib bo'lur, chun ko'p o'qur bemor xat.

282

Xat chiqarding, qilma husnu noz aro emdi g'alat
Kim, yana bedod qilman deb yuzung ko'rguzdi xat.

Qo'yki, moviy yog'lig'ingni yuzdin olmay bir zamon,
Ne uchunkim, xush ko'runur zarvaraq uzra shamat.

Boqmadi holimg'a ayni nozdin usruk ko'zung,
Nechakim ollinda yolbordim, boqardim har namat.

Xomadek garchi qurubmen qatl uchun shaq qilg'ali,
Ko'ksum ul sho'x istamaydur tig'kim, istar miqat.

Asru beandom erur to'biyu shamshod asru past,
Qomatingdur mu'tadil, men tolibi haddi vasat.

Shomi hijrimg'a agar yo'q subh, xushtur intiqom
Kim, falak bo'ldi firoqim tog'i ollinda saqat.

Ey Navoiy, ul paridin odamilig' ko'rmading,
Ulki sog'inding parini odami qilding g'alat.

283

Yuzu la'lingdin topar har lahza ko'nglum inbisot,
Uylakim, xotirg'a yuzlangay gulu muldin nishot.

Orazingni oy desam yo'q ayb, chun ko'rguzmading,
Ey quyosh, chehrangni ochkim, yaxshi aylay ehtiyyot.

Aylasam zohir aning mehrin mahalli rashk emas,
Zarrag'a ne bo'lg'usi xurshid birla ixtilot.

Dilbaro, bazming bisoti notavon ushshoqdin
Chun to'lubtur, g'ofil o'lmakim, emas xoli bisot.

Hajrdin yetmak visol ichra ne mumkin sabrsiz
Kim, tamug'dnn o'tti uchmog' sari qat' etmay sirot.

Bog'lama ko'nglungni bu manzilg'a, nevchunkim, erur
Bir yangi mehmon yeri har lahza bu eski rabot.

Ey Navoiy, dahr aro ne kelsa, bo'lg'il munbasit,
Garchi lazzatsiz bo'lur kuch birla qilmoq inbisot.

ZYE HARFINING ZARIFLARINING ZUHURI «BADOYE» DIN

284

Uyla qildim daftari ishqingda har dastonni hifz
Kim, qilur atfol sura-surai qur'oni hifz.

Telbalikdin garchi yo‘qtur xotirimda hech harf,
Lek bas xo‘b etmisham afsonai hijronni hifz.

Orazu ko‘yungni vasf aylarni qilg‘an orzu,
Aylamak avlo bahoriston bilan bo‘stonni hifz.

Yuz balog‘a uchrasa jonim g‘amidin, g‘am yemon,
Har baliyatdin kerak haq aylasa jononni hifz.

Yor derlar aylamish kulbamg‘a kelmak ixtiyor,
Vahki, aylay olmog‘um beixtiyor afg‘onni hifz.

Shomi zulfi qaydiyu mehri uzorin ko‘rgali
Aylamishmen surai vallaylu val-rahmonni hifz.

Ey Navoiy, ishq atvorini hifz aylay degan,
Barcha ishni tark etib, qilsun bizing devonni hifz.

285

Ey, o‘lukni turguzur chog‘da surub durbor lafz,
Dam-badam zohir qilib lutfung Masih osor lafz,

Qadding ul naxliki, bori gavhari alfoz erur,
Olloh-Oolloh, ne qad ra’novu gavharbor lafz.

La’li har lafzida ma’ni ko‘pturur, yo‘q tifldek,
Bir adoe ma’ni aylarda degay bisyor lafz.

Orazing vasfida ko‘p so‘rsam quyosh lafzin, ne tong,
Ajz esa ma’ni adosida topar takror lafz.

Hajr aro andoq topibdur noladin bo‘g‘zum xirosh
Kim, bo‘lur dardi dilim aytur zamon afgor lafz.

Bemalohat xo‘bkim debo kiyor bor uylakim,
Ma’ni o‘lg‘ay choshnisizlik anga pargor lafz.

Ey Navoiy, ko‘nglungga bersang safo, yor ollida
Fosh o‘lur sirring, ne hojat aylamak izhor lafz.

286

Tong emastur, tobi ishqingdin ko‘ngul gar topsa haz,
Ne ajab, o‘t shu’lasi birla samandar topsa haz.

Xasta ko‘nglum bir labing qandidin, ey obi hayot,
Topti haz, sharbat ichib netti mukarrar topsa haz.

Jomi la'lingdin ko'ngul mahzuz bo'ldi, vah, ne tong,
Tushsa maxmur ilgiga bu nav' sog'ar, topsa haz.

Tun-kun ul bebok may ichkandin ar g'amgin esam,
Bok yo'q, maydin kerakkim ul sitamgar topsa haz.

Men yutub qon yig'laram, la'ling ichib sog'ar kular,
Teng qadah ichkan kerak erdi barobar topsa haz.

Ishqi komil ko'rki, yuz ming zuhd birla bodadin,
Go'yiyo men haz toparmen, ul samanbar topsa haz.

Ne ajab, ahli xirad xushdil Navoiy nazmidin,
Javhari topqanda, tong yo'q, yaxshi gavhar topsa haz.

287

Ko'ngulki ishqini jon ichra ayladi mahfuz,
Guharni naqdi nihon ichra ayladi mahfuz.

Ko'ngulki ko'yida erdi g'arib, dardu g'amin
Ne bas, g'aribi makon ichra ayladi mahfuz.

Nachukki ruhu ravon tandadur nihon, ishqin
Ko'ringki, ruhu ravon ichra ayladi mahfuz.

Yuziyu og'zida asrab ko'ngul bila jonni,
Yaqinda dog'i gumon ichra ayladi mahfuz.

Yoshurdi dog'ini qonlig' ko'ngulda, vah, ko'rkim,
Tugonni lolasiton ichra ayladi mahfuz.

Labida asradi jonioymi, ishqqi jon farsoy
Qurutti qoninu qon ichra ayladi mahfuz.

Navoiy o'ldi fig'ondin, bu turfaroqki, aning
Chu jonin oldi, fig'on ichra ayladi mahfuz.

AYN HARFINING IYORLARINING ALOMATI «BADOYE» DIN

288

Haqdin azizliq tilasang, eldin uz tama',
Kim xalqning aazzi dedi azza manqana'.

Mazmumdur qanoatidin qone' etsa faxr,
Tome' xisolidin kishi ne aylagay tama'.

Kim to‘ma topmas etkali iftoru ro‘zadur,
Ermas vara’ bir ochqa g‘izo bazlidur vara’.

Motam o‘zungga tutki, o‘larsen gunoh ila,
Be jurm tifling o‘lganiga nedurur jaza’.

Bir dardmand ko‘nglida ko‘rsang vaja’, anga
Gar ko‘ngling og‘rimas, ul emas, budurur vaja’.

Nafs o‘lsa tobi‘ing kishisen, yo‘qsa bo‘limg‘ung
Hargiz kishi, bo‘lub sanga yuz ming kishi taba’.

Qoqqil, Navoiy, ushbu eshikni lajor ila
Kim, sobit o‘ldi faqrda mazmuni manqana’.

289

Ulki, aylarmen g‘ami hajrinda jon birlan vido’,
Qosh jondek aylasa bu notavon birlan vido’.

Gar jahonu jon ila qilmoq vido’ oson erur,
Lek bas mushkuldu ul jonu jahon birlan vido’.

Gar vido’ etsam zamonu yuz ming oshubi bila,
Naylab etkaymen ul oshubi zamon birlan vido’.

Xonumonimg‘a vido’ ettim g‘amidin, vah, anga
Kim, dey olg‘aykim, qil ul bexonumon birlan vido’.

Men o‘lub ul yaxshilar sultonining hijronida,
Ul topib jon aylaganda men yomon birlan vido’.

Ayladim ko‘p mehribon birla vidoyu o‘lmadim,
Vah, o‘larmen, qilsam ul nomehribon birlan vido’.

Dahr bo‘stonig‘a mag‘rur o‘lma ko‘p, ey bog‘bon,
Oxir etkung, chun gulu sarvi ravon birlan vido’.

Gar vido’ing vaqtı o‘lsam borib o‘zdin, ne ajab
Kim, erur ko‘p sa‘b sendek dilsiton birlan vido’.

Ey Navoiy, xayrbodi vaqtı xilvat istakim,
Aylagung oshubu faryodu fig‘on birlan vido’.

290

Qilur qayg‘u ko‘nglumga ul nozanin jam’,

Jarohatqa andoqki bo‘lg‘ay chibin jam’.

Labingda halovat bo‘lur mufrift andoq
Ki, gul yafrug‘ida bo‘lur angubin jam’.

Yig‘ar qatl uchun elni ul kofir, ammo
Duosig‘a aning bo‘lur ahli din jam’.

Ishi dasht uza g‘ayri rasvolig‘ ermas,
Necha bo‘lsa ko‘yungda xilvatnishin jam’.

Taningcha emas, ko‘nglaking ichra qilsa
Kishi hulla ichra gulu yosmin jam’.

Yuzing davrida zulfu mashshotalar ko‘r
Ki, gul xirmanida erur xo‘shachin jam’.

Giriftorlar uyladur zulfung ichra
Ki, hijron tuni bo‘lsa xayli hazin jam’.

So‘zung nomabarqush yig‘ar aylagandek
Nabi nuktasin Jabraili amin jam’.

Navoiy xayoli ne maxzanki, yo‘qtur
Base bahr aro oncha durri samin jam’.

291

Ming javr ila biravki qilur ishqdin ruju’,
Qilmoq ruju’dur ish aro qilmayin shuru’.

Berganda piri dayr may ilgimga deb edi,
Ollimg‘a har ne mug‘bachalardin topar vuqu’.

Qutqarg‘ay erdi kufrdin o‘lsa haq ollida,
But sajdasida munchaki men ayladim xushu’.

Ishq er mish asli ilm fano darsgohida,
Ahli usul har neki der sar-basar furu’.

Aylar xumor shomida yuz tiyralishi daf’,
Sog‘ar quyoshi qildi chu ko‘p charxidin tulu’.

Ishq ichra surxro‘ bo‘la olmang, chu sepmasang
Ruxsori za‘faroni uza lolagun dumu’.

Gar ishqdin ruju’ Navoiy qilur edi,
Emdi ruju’ qilg‘anidin ayladi ruju’.

Ul pariy har dam qilur majnunlarin shod o‘zga nav’,
Lek etar men telbaga har lahza bedod o‘zga vav’.

Yorni men ko‘rmay o‘ldum, ul ko‘rub ham o‘lmadi,
Ishq aro men bormen o‘zga nav’u Farhod o‘zga nav’.

Zikr etar bazm ichra lutfu mehr ila oshiqlarin,
Lek men badro‘z rasvoni qilur yod o‘zga nav’.

Ishq aro o‘zni manga o‘xshatma, ey bulbulki, bor
Lahnu ohang o‘zga nav’u ohu faryod o‘zga nav’.

Shayxu talqini riyokim, soliki dayri fano
Bizga qilmish dardu ishq oyinin irshod o‘zga nav’.

Siz cheking no‘shi visol, ey ahli ayshu nozkim,
Biz bo‘lubbiz zahri hajr ichmakka mu’tod o‘zga nav’.

Ko‘nglidek so‘rma Navoiyniki, qilmag‘lig‘ erur
Qushni ozod o‘zga nav’u qulni ozod o‘zga nav’.

Ul quyoshtin topti bu aqshom bizing koshona sham’,
Qilmasun bu uyni dudidin qorong‘u yona sham’.

Band ayog‘ida lagandin, boshida soch dudidin,
Ul pariy hajrinda mendekdur magar devona sham’.

Yo‘l shabiston ichra topmas, har kecha kelturmasa,
Ul quyosh devoni husnidin necha parvona sham’.

Ista gohi bizni dog‘i, ey mahi xirgahnishin
Kim, bo‘lur fonus aro parvonag‘a hamxona sham’.

Nola qilmas til chekibkim, uyqu istab yorg‘a,
Sarguzashtidin kecha der go‘yiyo afsona sham’.

Netti bir kun yorusa sendin yiqilg‘an kulbamiz,
Chun topar oy partavidin doimo vayrona sham’.

Tong emastur, har biri gar bo‘lsa durri shabcharog‘,
Orazing hajrida to‘ksa ashkidin har dona sham’.

Bu shabiston ichra keldi farqig‘a tig‘ uzra tig‘,
Boshi uzra chunki qo‘ydi toji zar shohona sham’.

Ey Navoiy, o'rtagil jonu ko'ngul parvonasin
Kim, bu aqshom orazidin ayladi jonona sham'.

294

Istamassen xotiri ushshoqi hayroningni jam',
Yo'qsa nevchun qilmading zulfi parishoningni jam'.

Ishqing o'tig'a ko'ngul ichra dedim taskin beray,
Buki qildim zor jismim ichra paykoningni jam'.

Asramoqqa yer iki ko'zdin munosib topmadim,
Oritib yuzniki, qildim gardi maydoningni jam'.

Yaxshi erdi, ey ko'ngul, qatling xud aning tig'idin,
Itlariga bersalar kosh, aylabon qoningni jam'.

Ul pariy majnunlarig'a sad'yak o'lg'ay, ey quyosh,
Chunki qilsang zarrai behaddu poyoningni jam'.

Gar tabassum vaqtida ko'rsang labin, ey bog'bon,
Yelga bergaysen, qilib gulbargi xandoningni jam'.

Ey Navoiy, nazming el ko'nglin parishon ayladi,
Qilding el ko'ngli uchun go'yoki devoningni jam'.

G'AYN HARFINING G'AZOLALARINING G'AVG'OSI «BADOYE»DIN

295

Ul oy ravshan qilur ko'zlarni mehri xovari yanglig',
Netib devona bo'lmaykim, qochar mendin pariy yanglig'.

Saodatlig' biravkim, g'am tuni naxsiyati daf'in
Qilurg'a chiqsa ollidin jamoling Mushtariy yanglig'.

Nechuk takrorida to subh bulbuldek navo chekmay,
Yuzungkim, sabzai xatdin erur gul daftari yanglig'.

Jabiningdurmukim, ikki muambar toqi kenidin
Chiqibdur yarimi subhi saodat axtari yanglig'.

Ne yanglig' turfa qushsen, vahki, tovusu tazarv ermas
Jamolingcha, nachuk jilvangni dey kabki dari yanglig'.

Ul o'tlug' chehra davrinda muanbar zulf erur har yon,
Tajallli barqidin kuygan maloyik shahpari yanglig'.

Xusho, dayri fanokim, mug‘bacha atrofidin chiqqay,
Qilurg‘a naqdi din toroj Xaybar kofiri yanglig‘.

Kishi hijronda o‘lman vasl otin tutmoq erur andoq
Ki, g‘ofil ravza tush ko‘rgay riyo tanparvari yanglig‘.

Navoiy, aysh uchun dayru riyozat chekkali Ka’ba
Gar istarsen, bu ikki ishga yo‘qtur yer Hiri yanglig‘.

296

Keldi yoru bo‘lmas ollinda tuyassar foshlig‘,
Ul quyoshtin toptuq oxir mansabi xuffoshlig‘.

Anglamas bulbul ichim paykonlarinkim, gul emas,
Novakoso tez mujgonlig‘, muqavvas qoshlig‘.

Ko‘zdur ul tifl o‘rniyu istar yugurmak ashk ila,
Go‘yiyokim bor anga bois, bu ishga yoshlig‘.

Ishq dashtida yog‘ar ovoralar boshig‘a tosh,
Bu jihatdin bo‘lmish ul sahro hamono toshlig‘.

Orazing naqshida Chin suvratgari bo‘ldi zabun,
Chin budurkim, kilki sun’ etmish ani naqqoshlig‘.

Sho‘x mayno‘shimg‘a Qorun ganji to‘ksam qadri yo‘q,
Bizni mayxona gadoyi qildi ul qallosshlig‘.

Boshlaridin kechtilar ishq ahli hijron dashtida,
Vomiqu Farhod ila Majnun Navoiy boshlig‘.

297

Yaraqondin manga gar bor esa ruxsor sarig‘,
Turfa ko‘ngilki, erur diydai xunbor sarig‘.

Ko‘zki, qon yosh oqibon bo‘lmasa sarig‘lig‘i daf‘,
Rangi go‘yoki sarig‘ lola kebi bor sarig‘.

Xil’atin dema sarig‘ rangki, ruxsoru ko‘zum
Ayladi oyinagun to‘nida izhor sarig‘.

Yaraqon daf‘i sarig‘ jins qilur, turfa ko‘rung
Kim, bo‘lur tegsa yuzum to‘nig‘a bisyor sarig‘.

O‘zga sufrat manga yuz qo‘ydi, yo‘q ersa tong emas,

Za'faron rangicha o'n bor esa bemor sarig'.

Men kebi subhu quyosh oshiqing o'l mish, negakim
Sidqu mehr ahli yuzi qildi namudor sarig'.

Xas kebi bo'lsa Navoiyg'a sarig' yuz, kulma,
Ko'rguzur gulni dog'i bog'da gulzor sarig'.

298

Oncha yor altofidin har kun yetar sharmandalig'
Kim, erur kam, har biriga yuz yil etsam bandalig'.

Ham junun, ham xastalig' ko'yungda chun niqti meni,
Sarbaland o'lmoqdin ortuqdur manga afkandalig'.

Zulmung idbori aro tufrog' ila tong bo'lg'ananim
Yaxshiroqkim, o'zgalarning lutfidin farxundalig'.

Qaddu og'zing hajrida gulshang'a mayl etmonki, yo'q
Sarv dilkash jilvalig' yo g'uncha shakkarxandalig'.

Ne farishta poklikda husnunga keldi shabih,
Ne pariyg'a odamilig'da sanga monandalig'.

Ishq ko'yining gadoyimenkim, anda tengdurur
Shoh esa zarbaftlig' yo soyil o'lsa jandalig'.

Dema mensiz o'l mading, vaslimda ko'p yer o'pmagil
Kim, quyi solmish Navoiy boshin — ul sharmandalig'.

299

Bil ani dayrda masti mudom men yanglig'
Ki, may gadolig' etar subhu shom men yanglig'.

Biravni rindi xarobot anglakim, bo'lg'ay
Bir ilgida kaduyu birda jom men yanglig'.

Anga halol mayu ishq dayr aro bilkim,
O'ziga zuhdni qilmish harom men yanglig'.

Banaqdi jannat aro no'sh etar mayi kavsar,
Angaki, maykada bo'l mish maqom men yanglig'.

Hayot sofini nokomdin birav ichkay
Ki, dayr durdi bila topsa kom men yanglig'.

Abiri jannat isin aylamas pisand ulkim,
Muattar aylasa maydin mashom men yanglig‘.

Yomon emas edi Majnunda ishq tavri valek
Sumursa may bo‘lur erdi tamom, men yanglig‘.

Biravki jon berib, eldin vafo tama’ tutti,
Pishurdi ko‘nglida savdoi xom men yanglig‘.

Navoiy o‘zlukidin tindi, ulki dayr ichra
Ushatti shishai nomusu nom men yanglig‘.

300

Sho‘xi charog‘chi yoqibon husnidin charog‘,
Mash’al fatilasi bila ko‘ksumga qo‘ydi dog‘.

Bazm ahlin o‘rtamakka yoqar kecha zulm o‘tin,
El bazmini yorutg‘ali ermastur ul charog‘.

Ko‘nglumdurur fatila emas mash’al ichrakim,
Ul sho‘x o‘t solib, quyar aning o‘tig‘a yog‘.

Bo‘ldi quruq yog‘och kebi jismu boshimda o‘t,
To bo‘lg‘ay anga mash’alaning xarjidin farog‘.

Mash’alni kosh tutmasa, o‘tluq yuzi yetar,
Gar sayr etarga qo‘ysa shabiston sari ayog‘.

Ne tong, ko‘zinki sham’i hidoyat yorutmasa,
Xabt o‘lg‘an elga mash’ala dudi bila dimog‘.

Ushshoq bazmi mash’ali bas oh shu’lasi,
G‘am shomi qilma mash’alachi har sari so‘rog‘.

301

Ko‘zungki, kufr ila yuz ding‘a soldi vayronlig‘,
Xudoy uchun tiy ani — yo‘qmudur musulmonlig‘.

Qadingki jilva uza jilva ko‘rguzur har dam,
Ajab emas manga hayronlig‘ uzra hayronlig‘.

Labingni so‘rsam, emas tongki, to‘kti qonimni,
So‘rarlar aniki, bo‘lg‘ay birav bila qonlig‘.

Demishsen o‘lturayin ishq ahlin aylab jam’,
Magar bilibsen alar ichra ko‘p parishonlig‘.

Ne hukm aylar esang, ayla husn mulkidakim,
Sanga musallam erur xo‘blarg‘a sultonlig‘.

Jununni tark etibon oqil o‘l, dedi zohid,
Bo‘lur emish bani odamg‘a muncha nodonlig‘.

Deding, Navoiy agar vasl topsa, o‘lturayin,
Firoqing ichra gumon aylading ani jonlig‘.

302

Ey labing xosiyati chashmai hayvon yanglig‘,
Quyiyu yuqorig‘i xoli bila jon yanglig‘.

Ayog‘imning qalami za’fdin andoqli qalam,
Qotaqolg‘an teri davrida qalamdon yanglig‘.

Nuni tanvin kebi xam hajrida nobud tanim,
Dog‘i pinhonim anga nuqtai pinhon yanglig‘.

Qaddi javshan aro ko‘nglumda aningdekkim o‘q,
Charkasi dulug‘a ul o‘q uza paykon yanglig‘.

Odam o‘rnig‘a pariy oshiqi bo‘ldumkim, ul
Odamisizlig‘ aro bo‘limg‘ay inson yanglig‘.

Yuzi nazzorasi hayronlig‘i o‘lturdi meni,
Bir nazardin kim o‘lubtur meni hayron yanglig‘.

Qo‘yma bu manzilu maskanga ko‘ngulkim zinhor,
Angla yo‘l o‘tkuchidek o‘zniyu mehmon yanglig‘.

Johning zebig‘akim husn tilab, bildikkim,
Ziynati kelmadi joh ahlig‘a ehson yanglig‘.

Shayx der ishqni tark et, sanga aql o‘rgatayin,
Ey Navoiy, kishi bo‘lg‘aymu bu nodon yanglig‘!

FYe HARFINING FITNALARINING FUSUNI «BADOYE»DIN

303

Dashti fanoki mo‘rcha yo‘q sherlarga saf,
Garchi maxuf yo‘ldurur, et azmu lotaxaf.

Gar sherdurki, mo‘rcha yo‘qtur hisob anga,
Kim topmadi ko‘zi bu yobon gardidin sharaf.

O‘zni ko‘ngul sahifasidin mahv qilmag‘an
Topmas vuquf nuktai asrori man’araf.

Tab’ingg‘a faqr nuktasi gar zoda bo‘lmasa,
Bo‘lg‘an nedur xalifai davron sangal xalaf.

Gar sochsa ul xalifa so‘zidin duri samin,
Dur har necha samin esa, beqadrdur sadaf.

Bahri fanoda g‘o‘ta sadafvor urmasang,
Sendin yetishmagay duri maqsud har taraf.

Soqiy, xarobi jomi xaroboti ishqmen,
Tutqil qadah, mug‘anniy etib soz changu daf.

To nash’ a yetsa ko‘ngluma ul boda zavqidin,
Ganji xayoldin sochayin har taraf tuhaf.

Shoyad Navoiy aylagay ul tuhfalar bila
Tartib nazm manqabati shaxxatun najaf.

304

Hajrdin har dam qilur bu xotiri afgor xavf,
Zohir etkandek o‘lumdin har zamon bemor xavf.

Eyki, koming do‘st vaslidin erur topmoq hayot,
Qatl tig‘i sursa dushman, qilmag‘il zinhor xavf.

Vasl bo‘stonida gar emin emasmen, ey rafiq,
Naylayinkim, xori hijrondin ichimda bor xavf.

Hajr shomidur maxufu qotil, ey mahvash, ne tong,
Uyla muhlik tiyra tunda aylasam izhor xavf.

Nechakim do‘zaxdin o‘lsa xavf mahshar ahlig‘a,
Menda hajring shu’lasidindur yuz ul miqdor xavf.

Solmay o‘zluk naqdin o‘zdin tutmag‘il dashti fano
Kim, og‘ir yuklukka bu yo‘lda yetar bisyor xavf.

Ey Navoiy, hushung o‘lsa, ko‘zlaridin xavf erur
Ul sifatkim, mastlardin aylagay hushyor xavf.

305

Ohkim, ko‘nglum buzuldi topmayin jonon vuquf,

Mulk vayron bo‘ldi, hosil qilmayin sulton vuquf.

Jonni komimdur adam kunjida pinhon aylamak,
Og‘zi ramzig‘aki hosil qilmisham pinhon vuquf.

Vasl aro hijron yoshurdi ishq ko‘nglum qatlig‘a,
Mezbok zahr ezdi sug‘a, topmayin mehmon vuquf.

Telba ko‘nglum g‘ofil andinkim ulusqa vasl erur,
Layli etti ayshu Majnun topmadi chandon vuquf.

Og‘zi ramzig‘a agar yo‘l topmadim, ermas ajab,
G‘ayb sirrig‘a ne tong el topmamaq oson vuquf.

Ishqim ahvolig‘a mutlaq voqif ermastur xirad,
Qayda topqay ahli ma’ni holidin nodon vuquf.

La’li hushum zoyil etti, topmadi ko‘nglum xabar,
Vahki, may ahvoidin usrukka ne imkon vuquf.

Vasl ummidi birla hajrin qilmish erdim ixtiyor,
Qatldin ko‘nglumga avval bermadi hijron vuquf.

Ey Navoiy, buki davrondin yuz ofatdur sanga,
Ermas erkin topmayin ul ofati davron vuquf.

306

Ishq tobidin o‘lubmen meni bemor zaif,
Tob ko‘p ko‘rsa aningdekki bo‘lur tor zaif.

Vaslida evrulubon boshig‘a dermenki o‘lay,
Vahki, bo‘lmishmen annng hajrida bisyor zaif.

Za’f aro zorlig‘ ozurda qilur ko‘nglumni,
Topar ozor, bale, chunki bo‘lur zor zaif.

Xastalig‘ tortsa yillar kishi, ma’lum ermas,
Men kebi ko‘rguza olg‘aymu namudor zaif.

Bo‘lmish o‘n yilg‘i o‘luktin manga za’f afzunroq,
Vahki, jonliq kishi kim ko‘rdi bu miqdor zaif.

Za’fdin shayx qutulg‘ung dedi, tark etsang ishq,
Piri dayr ollida bu qavli aning bor zaif.

Za’f aro qilma Navoiyg‘a sitam, ey oykim,
Buyla aylabtur ani charxi sitamkor zaif.

Qotil ko‘zung atrofida mujgon chekibdur uyla saf
Kim, qatl etar hangomada qilg‘ay hujum el har taraf.

Oy, kun ato birla ano, farzand sen bo‘lsang ne tong
Kim, sen samindursen, valek ul ikki andoqkim sadaf.

G‘am zulmatida istayu la’li labing o‘ldum, valek
Hayvon suyi topsam «e g‘am, gar bo‘lsa ham umrum talaf.

Vaslingg‘a muhlik hajrdin dedim musharraf bo‘lg‘amen,
Lekin sening ishqing aro o‘lsam, erur ul ham sharaf.

Jon naqdini ovuchlabon kelmish edim vasling tilay,
Muhlik firoq ul naqdni oldi, urub ilgimga kaf.

Gar bebasarliq aynidin nargis ko‘zungdin lof urar,
Ahli nazar anglarkim, ul ham ko‘r erur, ham bad alaf.

Ey mutribi Zuhrajabin, bu nag‘makim, chekting hazin
KAMDUR jalojil gar nujum o‘lsa, sanga xurshid — daf.

Bo‘lmas niqob ochsang dog‘i chun halli sirri lavkashaf,
Tolibg‘a nedur aylamak tahsili ganji man’araf.

Ul novakafkan qilmasa ko‘ksin Navoiyning nishon,
Tong yo‘q, chu aylabtur anga xurshidni gardun hadaf.

Gar tanimda zohir o‘lmish dog‘i hijron har taraf,
Jonda xud yuz oncha bordur dog‘i pinhon har taraf.

Ishq sahrosida menmen soyir andoqkim quyun,
Dema sargardon kezar Majnuni hayron har taraf.

Ko‘yiga pinhon borib, zaxmim ne yanglig‘ yoshuray
Kim, qayon borsam yaralardin borur qon har taraf.

Ko‘ksum ichra tushti bir xori xasak, ya’ni ko‘ngul
Toki andin chiqqali bir no‘gi paykon har taraf.

Hinduedur bul-ajab bozigar ul ko‘z davrida,
Hind eli ahli tamoshlo xayli mujgon har taraf.

Toza bo‘lsun ul bahori husnkim, onsiz ko‘zum
Durfishon o‘lmish nachukkim abri nayson har taraf.

Har taraf maydon aro yuz fitna tushti, rahm etib,
Tavsanningi chopmag‘il qilg‘anda javlon har taraf.

Dayr ichinda netti turguzsang meni, ey mug‘bacha,
Jomi davringdin tomar chun obi hayvon har taraf.

Chun Navoiydek havoiy bo‘ldum ul oy hajridin,
Ne ajab, yeldek yuz ursam, tortib afg‘on har taraf.

QOF HARFINING KIYMATLARINING QIRONI «BADOYE» DIN

309

Charx dard ahlig‘a har dam yog‘durur gardi firoq,
O‘t raxonroqkim, xatarliqdur, base, bu eski toq.

Ajdaredur halqa urg‘an pesa kavkab xolidin,
Juz ajal zahrini kom andin topa olmas mazoq.

Hazm etar fikrin ham etgil, farz etay noning uchun,
Qildi charx anjumni dona, oyu kunni yorg‘uchchoq.

Charx bir evdur, ishi bo‘lmoq aning har dam nigun,
Tushmagan yaxshi iqomat mundoq uyda ittifoq.

Sun’ bahridin hubobe anglag‘il ko‘k gunbadin,
Siymgun gunbad deb o‘lmas aylamak ani visoq.

Istasang besh kun farog‘at, garchi kobin umr erur,
Dahr zolin to‘rt mazhab birla qilg‘il uch taloq.

El nifoqin ko‘rmayin desang, Navoiy, fony bo‘l,
Chunki sen chiqsang arodin, kimga qilg‘aylar nifoq.

310

Yor kelsa bas mahaldurkim, ichim qon etti shavq,
Sabru oromim berib barbod, tug‘yon etti shavq.

Ozu ko‘p har ne dedi qosid visoling mujdasin,
Sabrim ozu iztirobimni farovon etti shavq.

Shavq hijrondin batar oshub soldi ko‘ngluma,
Ko‘nglum oshubini qo‘ykim, g‘orati jon etti shavq.

Ne ajab kechrak tuyassar bo‘lsa — o‘lsam, ey rafiq,
Buylakim, ummidvori vasli jonon etti shavq.

Hajr bo‘lsun yo visol ummidi chun muhlikdurur,
Bas hayotu qatlini ko‘ksumga yakson etti shavq.

Gar jununumning hadu poyoni yo‘qtur, yo‘q ajab
Kim ko‘ngul bexudlug‘in behaddu poyon etti shavq.

Ey Navoiy, hajr zulmin yod qilsam, qilma ayb
Kim, manga bedodi nomaqduru imkon etti shavq.

311

Har kun o‘tkan kechadin oshufta ko‘nglum zorroq,
Har tun o‘tkan kundin ashkafshon ko‘zum xunborroq.

O‘lmakimni qilg‘il osonroq visolingdinki, bor
Furqatingdin lahza-lahza holatim dushvorroq.

Shiddati holimdur andoqkim, ajaldin jon erur
Har necha boshimg‘a botroq kelsa minnatdorroq.

G‘am tuni tulu savodin ko‘z bila ko‘nglum bilur
Kim, alardin yo‘q edi muztarroqu bedorroq.

Hajr dashtin sayli ashkim oncha qozdi har taraf
Kim, bu sahro tog‘lardin bo‘ldi nohamvorroq.

Men aning husnini ko‘rsam yuz quyosh miqdoricha,
Zarradin men ollida yuz qatla bemiqdorroq.

Necha laylivashroq ul oy jilva ko‘rguzdi manga,
Ko‘rdi men shaydoni ham ishqida majnunvorroq.

Ka‘ba shayxiyu riyodur, dayr piriyu fano,
Ey Navoiy, dema mundin ani fayzosorroq.

Durdakashlar ichra mendin forig‘i gar yo‘q, ne tong,
Chun xarobot ichra yo‘q mendin kishi xummorroq.

312

El dardi yordin kam o‘lur, menda yor yo‘q,
Ko‘nglumda yuz tuman g‘amu bir g‘amgusor yo‘q.

Jon rishtasini chirmadim o‘qungg‘a, voykim,
Tig‘ing bag‘irni yordiyu tikmakka tor yo‘q.

Demang g‘amida yig‘lama ko‘p ixtiyorsiz,

Beixtiyorliqda manga ixtiyor yo‘q.

Tutsa qaror bir nafas ollimda, vah, ne sud
Kim, ul nafas ramida ko‘ngulga qaror yo‘q.

Desamki, tarki ishqing etay butma, ey pariy
Kim, telbalar hadisig‘a ko‘p e’tibor yo‘q.

Chiq ro‘zgor ahlidin osoyish istasang
Kim, munda g‘ayri tafriqai ro‘zgor yo‘q.

O‘zni Navoiy aylama usruk bu bazm aro
Kim, dahr ayshi bodasida juz xumor yo‘q.

313

O‘qlaringdinkim ko‘zum ham ravshan o‘lmish, ham ochuq,
Mash’aledurkim, bo‘lubtur kavlamoq birla yoruq.

Eyki, bo‘ynumg‘a yozuq deb qatl tig‘in surmading,
Sen ne qilsang qil, mening bo‘ynumg‘a bo‘lsun ul yozuq.

Manglayimdin keltururmen ko‘zga sajdam gardini,
Ko‘rgan ul butni gumon aylarki, aylarmen tobuq.

Da’voi mehrimga mendin ikki tonuq istama,
Xalqdin chun yoshurubmen, yo‘q manga juz bir tonuq.

Garmrav ashku sovug‘ oh ettilar ojiz meni,
Vahki, ishqingdin yuzumga keldi ko‘p issiq-sovuq.

Eyki, azm etting haram matlub hamrahdur sanga,
Sen yiroqsen andin, ammo ul sanga behad yovuq.

Dayrg‘a kirdi Navoiy kufri ne pinhon, ne fosh,
Tavba chun sindi — icharga ne surohi, ne yotuq.

314

Ey, jamolu nozu ishvang bir-biridan xo‘broq,
Qomating marg‘ubu andin paykaring marg‘ubroq.

Menda bo‘lsa ming hunar, chun yorning mardudimen,
Olam ahli ichra yo‘q mendin kishi ma‘yubroq.

Ishq aro Farhodu Majnun dog‘i bexud erdilar,
Kimsa mendin g‘olibo bu ishda yo‘q mag‘lubroq.

Har ne qilsang, notavon ko‘nglum sevar jondin seni,
Haq yaratmaydur ekan sendin kishi mahbubroq.

Tolib ersang qatlima, jono, sanga jonim fido,
Ne sanga matlubroq, uldur manga matlubroq.

Kim tilar dayri fano azmini uslub aylagan,
O‘zlukidin ish kerakmas ko‘ngliga maslubroq.

Gar Navoiy bor edi maqbulung, etkil rahmkim,
Andim emdi yo‘qturur ushshoq aro mankubroq.

315

Meni aylapturur bir qotili paymonshikan oshiq
Ki, tig‘i zulmidin o‘lmish meningdek yuz tuman oshiq

So‘rarkim, oshiqim senmu, muqir bo‘lsam, halok aylar,
Erur bu turfakim, yolg‘on deyolmonkim, eman oshiq.

Agar ishq etti vayron xonumonim, bok emas, nevchun
Ki, chun azmi fano ko‘yigadur, naylor vatan oshiq.

Gar o‘lsam ishq tog‘i tig‘i zaxmidin yalang, g‘am yo‘q
Ki, bas ham lolalardin aylasa qonlig‘ kafan oshiq.

Qozib g‘am tog‘i tosh ostida o‘lmak ne edi mendek,
Gar ermas erdi bir Shirin sanamg‘a Ko‘hkan oshiq.

Visol imkon emas to bo‘lsa o‘zluktin sarimo‘e,
Bas o‘lg‘ay farzkin, qilg‘ay fano tavrini fan oshiq.

Navoiy, shodsenkim, o‘lturur ushshoqin, ammo ko‘r
Ki, sendeklarni dermu bore ul siyminbadan oshiq.

316

Solur dinim uyiga kofire har lahza vayronliq,
Musulmonlar, bu shahr ichra magar yo‘qtur musulmonliq.

Jamoli jilva qilg‘ach, naylab idrok aylayin husnin,
Chu hayronliq uza ortar manga har lahza hayronliq.

Labi la’ling erur og‘ishta qonimdin, ajab ermas,
Ani tutsamkim, ul mayxoradur bu dam manga qonliq.

Ko‘ngul to ayladi zulfung savodi a’zamin maskan,
Qorarib ro‘zgori, ko‘rdi yuz turluk parishonliq.

Yoshurdum dog'i ishqing, hajr o'ti jismimni kuydurdi,
Ko'ngulni dog'i chok et, qolmadi chun anda pinhonliq.

Labingdur jomi Jamshidu yuzung mir'oti Iskandar,
Musallamdur sanga husnu jamol ahlig'a sultonliq.

Agar yo'q odamiliq mendayu yorimda, tong ermas
Ki, majnunda kishilik yo parida bo'lmas insonliq.

Jahon bazmida mehmansen, iki-uch sog'ar ichkach, qo'p
Ki, munjar bo'limg'ay nogah malolatqa bu mehmonliq.

Bori dushvorliqlarni o'zungga aylasang oson,
Bori dushvorliqlar dog'i bo'lg'ay shoyad osonliq.

Kel, ey soqiy, meni bir jom ila qil masti loyaqil
Ki, dahr ichra erur g'ofil tirilmak mahzi nodonliq.

Navoy, chunki mug' dayrida tutti mug'bacha sog'ar,
Ichib may, kofiri ishq o'lmasang, ko'rgung pushaymonliq.

317

Bog' ichra sanga sochti gul oqu qizil yafroq,
Shah boshig'a andoqkim el oqu qizil yormoq.

Ne yorlig' o'lg'aykim, har kecha tong otquncha
Sen aysh ila uyquda, men ranj bila uyg'oq.

Ko'z mardumi ko'yungning gardin tilabon bordi,
Qoniki oqar, ani qon tortti yo tufroq.

Ko'rgach ani hayratdin ilgimniki tishlabmen,
Barmoqqa botibtur tish, tilni kesibon tirnoq.

Jon naqdin ajal birla hajring iki bo'l mishlar,
Andoqli, topib sude ayirg'ay ikki o'rtoq.

Ko'yung kerak, uchmoq yo'qkim, uchmoqu ko'yungda,
Ul nav' tafovutdurkim, tomug' ila uchmoq.

Ham dahr baqosizdur, ham umr vafosizdur,
Xushtur nafase o'zi ahbob ila xush tutmoq.

Yetmaklik erur mushkil maqsadg'a, nedinkim bor
Ko'z xiravu tun tiyra, ot oqsog'u yo'l burtoq.

Debsenki, Navoiyni kelgum dog'i o'lturgum,
Ul o'ldi bu hasratdin, kel tengri uchun botroq.

318

Binafshaning nega bo'lmish dimog'i muncha uluq
Ki, ul sening xatinsa hinduyidurur mayruq.

Malohat og'zinga gar pista sotsa kim olsun
Ki, borg'usiduru sho'ra pushtu og'zi ochuq.

Qading qoshinda nechuk sarf o'zin degay ozod
Ki, sabz rang qulingdur, aning ayog'i yoruq.

Erur chamanda yuzungning gadoyi oq gulkim,
Ko'rundi barcha yamog'liq chaponi uzra momuq.

Taningg'a maskavu qaddingg'a naxl o'xshashmas
Ki, budur asru semiz, lek uldur asru oruq.

Sen abrash uzra vale gul yog'och uza dasta,
Yo'l o'z ayog'i bila borg'ay, ulki mindi suruq.

Xiromi lofida har mokiyonni deyki ne yer,
Ne nav' jilvagar o'lg'ay tazarv birla tovuq.

May ichsang o'lmag'il oqsumki, piri dayr dedi
Ki, bu ish o'ldi bizing dayr aro kamina yozuq.

Xush ulki, bazmda onlar teparda arg'ushtak,
Shah anda tambura cholib, Navoiy desa qo'shuq.

319

Solsa partav tom uza chiqqanda ruxsori ochuq,
Bir quyoshdur, tushsa har uy ichra tunglukdin yoruq.

Sovug' ohekim chekarmen, garm o'lur oqmoqqa ashk,
Chashmalarda su bo'lur issig', havo bo'lg'ach sovuq.

Tengri ollinda tonuqdemaki o'tkar kimsani,
Mencha sevmassen, bu ishga xud erur tengri tonuq.

Lablaringkim uchuq tutmis hamul hay'at bila,
Og'zing andoq g'unchadurkim, tushmamish andin qobuq.

Dog' o'rtarga chaponim ichu toshi qolmadi,
Bog'ladim marham chapondin, qoldi gar eski momuq.

Gar yozuqsiz o'lturursen, g'am yemon, lekin g'amim
Munchadurkim, bo'limg'ay nogah sanga andin yozuq.

Yor dilxohin chu topting, tengdurur vaslu firoq,
Haq rizosin chunki qozg'anding, ne uchmoq, ne tomuq.

Soqiyo, may tutqali qo'pmoq base taklif erur,
Qo'y takallufniyu qo'p, lekin manga o'ltur yovuq.

Za'fi ko'pluktin Navoiyning kam o'lmas nolasi,
Ne munofidur fig'on bulbulg'a bo'lmg'liq oruq.

320

Ko'nglum bo'lur g'aming tuni har lahza qayg'uluq,
Chun shom bo'ldi, har nafas ortar qorong'uluq.

Ul ko'zki olam ahlidin olmishdur uyquni,
Baxtim kebi, ne ayb, agar bo'lsa uyquluq.

Sabru qaroru hushni olmog'lig'ing nedur,
Ey jonlar ofati, sanga jonimdur olg'uluq.

Dashti firoq ichra tirik yo'q chu vahshu tayr,
Go'yo yeli samumu giyohidur og'uluq.

Mug' ko'yi azmidin meni man' etma, ey rafiq,
Bu yo'l erur chu ahli malomatqa borg'uluq.

Andin falakni ilmas ekan ko'zgu piri dayr
Kim, bu erur haqiru janobi aning uluq.

To g'amdadur Navoiy, anga dahr tiyradur,
Shod anglamas ulusni, birav bo'lsa qayg'uluq.

321

Har kishikim g'ayri ishqing harfi yozg'ay bir varaq,
Ilgini aylab qalam, boshin qalamdek ayla shaq.

Parda yopqach yuzga, tutti qon yoshim ofoqni,
Mehr uyoqqanda, ufuq sari yoyilg'andek shafaq.

Go'yiyo xurshid har sari yogurtur kavkabe,
Chunki sur'at vaqt ul yuzdin tomor har yon araq.

Vahki, ashkim jolasidin topti ofat bir necha,

Sabr tuxmin mazra'i jon ichrakim qildim nasaq.

Bir-bir ustida qo'yubmen furqatingdin necha dog'
Ishq xoni ichra qo'yg'andek tabaq uzra tabaq.

No'sh etarmen boda to la'ling xayoli birla men
Qon yutarmen, toki bo'lg'ay tanda jonioqin ramaq,

Shayx kavsar sharbati — men talx may madhin dedim,
Ochchig'i kelsa ne tong, nevchunki ochchig' keldi haq.

Boda vasfin dars agar der ersa piri mayfurush,
Jomi xatti davridin olmoq munosibdur sabaq.

Istama kavsar, Navoiy, top farog'at bodadin
Kim, erur ul muxtalif, lekin bu birdur muttafiq.

KOF HARFINING KOFIRLARINING KAMOLI «BADOYE»DIN

322

Desangki, dashti fano ahlig'a bo'lay hamtak,
Ne do'st g'ayri esa, barchasig'a silk etak.

Qil o'zlukung kesagin poymol birla g'ubor,
Yo'q ersa balchig' o'lur fisq suyi birla kesak.

Chu ruh xaylig'a nafs istar o'lsa ortug'luq,
Yetur ilojig'a taqvo sipohi birla ko'mak.

Yurakni sol demagil ishq ko'yining itiga,
Muni anga desa bo'lg'ayki, anda bo'lsa yurak.

Xush ulki, ishq gulistonu bog'ida yiqilib,
O'larda ostida xorovu xor bo'lsa to'shak.

Balo g'ubori vafo ahlig'a yog'ar go'yo,
Sipehr chanbari parvez nedin o'ldi elak.

Gadovu xirqada kuymak nachukki parvona,
Yo'q ulki, hulla aro shohid uylakim ko'palak.

Anga bu dayri fano ichra tutti mug'bacha may
Ki, tishni bag'rig'a berkitmakini qildi gazak.

Navoiy o'lsa, ne tong bazm ichinda botroq mast
Ki, g'uissa jomin davron anga tutar ko'prak.

Bu kecha ohim erur davronni barham urg‘udek,
Charx gulzoridin anjum gullarin Sovurg‘udek.

So‘rg‘ali keldi evurung boshig‘a qo‘ldob meni
Kim, emastur lahzae boshim uza o‘lturg‘udek.

Ey ko‘ngul, dersenki, yoshu ishqini, ne yoshyuray
Kim, erur jismim fano tufrog‘ida yoshurg‘udek.

Sinsa ko‘nglum, ne ajabkim, sangi boroni firoq
Bo‘ldi xamliq jism uyin har saridin sindurg‘udek.

Hajr zulmig‘a chidarmen, o‘lgali yo‘q, anglasam
Kim, erur qatlimg‘a ul jonu jahon qayg‘urg‘udek.

Aysh vaqtini bil g‘animatkim, erur dam ushbu dam,
Charx ermas favt bo‘lg‘an vaqt ni yondurg‘udek.

Sen ko‘ngul bersang Navoiyg‘a gahe ming javr ila,
Ermas ul har dilrabog‘a ko‘nglini oldurg‘udek.

Falak zarfi to‘la may bo‘lsayu topsam ani xumdek,
Chekaykim, qatralar ham qolmag‘ay javfida anjumdek.

Havoiy ishq barqi garchi muhriqdur, vale ermas
Bu ishda otashin la‘ling ayon qilg‘an tabassumdek.

Quvonurmen iting eski safoli ichra may ichsam
Ki, Jam’ qilg‘an emastur jomi birla ul tana’umdek.

Halok o‘lg‘anda qilg‘an navha gar ta’sir etar, lekin
Eshit nolamnikim, muhlik emastur bu tarannumdek.

Masiho nuktasi gar jon berur erdi, vale bilgil
Ki, jon olmoqqa ermas erdi ul shirin takallumdek.

Chiqib qatlimg‘a o‘zga sari surdi raxshin ul qotil,
Manga yuzlanmamish umrumda vahme ul tavaqhumdek.

Ajal hajringda jonim oldi shafqat aylabon zohir,
Kishi rahm ahlidin ko‘rmaydur erkin bu tarahhumdek.

May ichra chunki soqiy aksi muhlikdur, bu sog‘arni
Kishikim ichsa, ummidi hayotidin ko‘zin yumdek.

Navoiy hajr dashtidin tana'um bistari topqay,
Bu vodiyda irik qum chun yonida bo'ldi qoqumdek.

325

Tig'i ishqingdin ko'ngul har yon og'izdek bo'ldi chok,
Bu og'izlardin ne tong cheksa fig'oni dardnok.

Sharbati hijron bila qatl aylading ahbobni,
Kimsa hargiz do'stlarni zahr ila qilmas halok.

Jon qushi o'rtanmasun deb yopma o'tluq chehrakim,
Sham' o'tin ko'rgach kuyardin aylamas parvona bok.

Mehrdek yor evrulur, boshig'a har sargashtakim,
Zarradek qilsa havoiy ishqichra o'zni pok.

Orazingdin, yo'q ajab, tushsa ko'ngul zaxmig'a o't,
Mehrdin ko'proq bo'lur mahrur, har yerkim mag'ok.

Istasang yetkach fano yeli sanga, bo'lg'ay uruj,
Faqr ko'yida burun qilmoq kerak sen o'zni xok.

Ey Navoiy, yor agar ko'nglumga kirmak istadi,
Zaxmima marhamcha bordur qilg'ani ko'ksumni chok.

326

Og'zikim so'zda Masihodek qilur elni tirik,
Bas ulug' so'zlukdurur, garchi erur asru kichik.

Qaddi qo'pqoch, sarv agar tushsa ayog'in o'pkali,
Yo'q ajabkim, past o'lur soya, quyosh bo'lg'ach biyik.

Ham o'shul tufrog'din sochib qurutung nomani,
Yozsangiz ul oyg'a jismim tufrog' o'lg'andin bitik.

Tig'i zaxmin bog'lasa ahbob, g'am yo'q, ey ko'ngul,
Bir eshik bog'lansa ishq ichra, ochilg'ay yuz eshik.

Hajr toshin boshima, mehnat palosin jismima,
Qayda bilgay ishq anga ko'rguzmagan qotig' irik.

Uchqil, ey bulbul, bu gulshandin, nedinkim har necha
Gul vafoda kund erur, javr ichradur xori itik.

Gar Navoiy qatlig 'a kelmaydur ul usruk, nega
Bas etak sanchib, qilich tortib shimolibdur ilik.

327

Xoni vaslingdin agar bo 'lmas tuyassar bar yemak,
Ham g 'animatdur talashmoq itlaring birla so 'ngak.

Ne libosi ofiyat kiymak meni majnung 'akim,
Anglamon, gar bo 'ynuma tushsa yaqo yanglig ' etak.

Ishq «aqdi kisasining hifzig 'a bodoma muhr
Gar tilar bo 'lsang, munosibdur bu chok o 'lg 'an yurak.

Zulfdur yoxud uzori o 'tig 'a chirmashti dud,
Yo banogo 'shig 'a to 'sh, bo 'rkiga sonchibtur gajak.

Surkandek ko 'zini sarpanjasi naqshig 'a yuz,
Ko 'z yorutsam ilgidin, panjamda bo 'lsa ul bilak.

Ishq agar bo 'lsa havoyi nafsdin pok, ey ko 'ngul,
Yo 'q tafovut, dilbaring gar beka bo 'lsun, gar mirak.

Qoshi mehrobida vaslin istab aylarmen duo,
Ey Navoiy, tong yo 'q, andoq qiblada mundoq tilak.

328

Baski, ko 'ksum choki tikkan ignadin bo 'ldi teshuk,
Ko 'nglakim chokidek o 'lmishdur vale andin churuk.

Jonfizo la 'ling bnla qotil ko 'zung hijronida,
Uyla holim borkim, bilmon, tirikmen yo o 'luk.

Xotami la 'ling agar og 'zimg 'a yetkach, tishlagum,
Muhr etarda mo 'm yopishqon kebi bosqach uzuk.

Furqatingdin loladekdur chok-chok o 'lg 'an ko 'ngul,
Negakim, ham qon aro bo 'lmish bo 'yog 'liq, ham kuyuk.

Otashin la 'ling agar jonimni o 'rtar, tong emas
Kim, erur asru isig ' , nekim erur asru chuchuk.

Dema, dashti ishq aro ming xayli ishq ahli qoni
Itti bu poyoni yo 'q sahroda har yon bir suruk.

Ey Navoiy, faqr yo 'lida burun o 'zlukni sol
Kim, bu yo 'lda po 'yag 'a mone 'dur ul ortuksi yuk.

329

Ey tani xoki xadangingga nishon bo‘lg‘an kesak,
Ham bu ma’nig‘a qurug‘ boshim kesak uzra so‘ngak

Bir yaqoni qo‘ymading qilmay etakka tegru chok,
Raxsh to surdung yoqongni sindurub, sanchib etak.

Zohir aylarda yadibayzo qilursen elni qatl,
Tig‘ urarda yeng shimolibkim, ayon etsang bilak.

Gul bila nomardum el andoqki uzgay g‘unchani,
Yeb iting yuz pora bag‘rimni, tama’ qildi yurak.

Rishtai jon yanglig‘ asray tushsa ilgimga dame,
Kim, xilol o‘rnig‘a shirin la’linga yetkay ipak.

Hajr shomi dardu g‘amni boshima yog‘durg‘ali
Bo‘ldi anjum birla charxi chambari go‘yo elak.

Ul pariy ishqida chun o‘ldi Navoiy anglangiz
Kim, mujannindur Iso, qabrig‘a butsa har chechak.

330

O‘t urdi jonima, chun ochti la’li otashnok,
Hayot chashmasidin, vahki, jonio o‘ldi halok.

Zaif jismim o‘tidin jahonni kuydurdung,
Ulug‘ o‘t urmoq uchun o‘rtading magar xoshok.

Deding — ko‘ngul o‘ti dudin chiqarma oh bila,
Agar chin ersa so‘zung, nega ko‘ksum etting chok!

Nazzora hoilidur dudi ohu qatrali ashk,
Fig‘onki, moni’ komimdur anjumu aflok.

Ko‘ngul shikofi dema, anda sabr dafni uchun
Ki, hajr qotili o‘lturdi, qozdi ishqil mag‘ok.

Chu mast o‘ldum esa, may bila yungiz badanim,
Tonging usholg‘an na’shim beliga rishtai tok.

Navoiy istasa lo‘livashe, ajab ermas,
Bu vajh ilaki, vafo tarki ettilar atrok.

331

Meniki mug‘bacha dayr ichra aylagay usruk,
Ne tong, ko‘zumga quyosh bo‘lsa zarradin o‘ksuk.

So‘zumni yor eshitmay yuzumni churkadi oh,
Bu vajhdindur ul oy ollida yuzum churkuk.

Firoqi o‘qidin o‘lmish teshuk-teshuk bag‘rim,
Bu turfaroqki, bir o‘qdindurur har ikki teshuk.

G‘amida turluk-turluk balog‘a uchrabmen
Ki, har birisi meni kuydurur necha turluk.

Tanimda raglar uzuldi firoq shiddatidin,
Nachukki, rishta chubo‘lg‘ay, ipak to‘n o‘lsa churuk.

Tutay jahonda Sulaymon seni va yo Jamshid,
Ne munga jom vafo ayladi, ne anga uzuk.

Navoiy, o‘rtadi shirin hadising el ko‘nglin,
Nachukki kuydurur ichni, chu sharbat o‘ldi chuchuk.

332

Gulshan ichra yo‘qtur oromim—diloromim kerak,
Sarvu gulni naylayin, sarvi gulandomim kerak.

Gar pariylar qush kebi ram qilsalar men telbadin,
G‘am yo‘q, ul sho‘xi pariy paykar mening romim kerak.

Ofiyat ko‘yida mahvashlarga yo‘qtur nisbatim,
Ul muqammir sheva sho‘xi bodaoshomim kerak.

Ka'bada nokom ila din ahlig‘a yo‘q juz nifoq,
Dayr ichinda kofiri bebok xud komim kerak.

Gul bila savsan kerakmastur manga, ey bog‘bon,
Zulfi sunbul atrliq ruxsori gulfomim kerak.

Ey xarobot ahli, rasvo ko‘nglum it mish bu taraf,
Kelmisham topib surog‘ — ul rindi badnomim kerak.

Ey Navoiy, xonaqahda topmadim juz tafriqa,
Xum kebi mayxonaning kunjida oromim kerak.

333

Aytmonkim, la’li jonbaxshing erur jondin chuchuk

Kim, erur har neki yo‘q andin chuchuk, andin chuchuk.

Nechakim bo‘lsun chuchuk shirin takallumlar so‘zi,
Lekin ermas ul kalomi shakkafshondin chuchuk.

No‘shi la’lingdin manga chun zahri hajr o‘ldi nasib,
Ne osig‘, gar bo‘lsa ul ortug‘roq imkondin chuchuk.

Nay o‘qung behad chuchuktur jong‘a, go‘yo chiqmamish
Bir qamish mundoq shakar butkan nayistondin chuchuk.

Novaking uzra boshoq go‘yo erur habbi nabot,
Kim, ko‘nglum komi bo‘lur ul shakli paykondin chuchuk.

Soqiyo, jomimda ezgil zahrkim, har necha ul
Bo‘lsa ochchig‘, bo‘lg‘usidur zahri hijrondin chuchuk.

Ey Navoiy, jonfizo nazming labi vasfida bor,
Shirai jordin ezelgan obi hayvondin chuchuk.

334

Sarvning soyasida bodai gulfom kerak,
Bo‘ldi chun ikkisi bir, sarvi gulandom kerak.

Kimgakim bo‘ldi bular kofir erur desa manga,
Huru to‘bi bila kavsar mayidin kom kerak.

Garchi ruxsori erur subhi dilafro‘z, valek
Vasl ayyomi qora zulfi kebi shom kerak.

Ulki Jamshid degay o‘zini xurshid kebi,
Soqiy ilgidin aning bazmi aro jom kerak.

Ko‘zlarim donayu suyig‘a kelur vasl qushi,
Lek tutmoqqa ul oy turrasidin dom kerak.

Ka’ba tavfida base tafriqadur bilki, o‘zin
Jam’ istarga fano dayrida orom kerak.

Dayr pirig‘a murid o‘ldi Navoiy, negakim,
Shayxul-islom degan kimsaga islom kerak.

335

Pili gavharkashdurur har yon sahobi pilrang,
Boshida changak hilolu yonida xurshid zang.

Asru izhori tajammul qildi sultoni bahor
Kim, bu yanglig‘ pil yuz ming jilva aylar bedbarang.

Ayladi nayson zuloli yer yuzin oyinagun,
Anjumu ko‘k aksidur anda rayohinu o‘lang.

Daf’ a-daf’ a bir-biri uzra bulut ofoq uza,
Go‘iyokim tojire terdi ruxutin tang-tang.

Chang uni birla may ich, ko‘rguzdi chun qavsi quzah,
Davr ila andomi changu lavn aro avtori chang.

Buyla mavsumda keraktur aysh bazmin tuzgali
Ham zumurrad rang yer, ham bodai yoqut rang.

Bu bori bir yonu ul bir yonki, ichmak boisi,
Soqiyo, bo‘lg‘ay bu davr ichra bag‘oyat sho‘xu shang.

Ham nigitlik, ham bahor ayyomini tut mug‘tanam,
Bodavu soqiy uchun qilmaqqa tarki nomu nang.

Ey Navoiy, dam bu damdir — tut g‘animat, boda ich,
O‘zga bir damga yetar-etmaska chun voqif emang.

336

Aylasa mug‘bacha dayr ichra meni masti malang,
Ushatay sog‘ari nomus bila shishai nang.

Ey xush ulkim, qilibon zuhd tunidin uryon,
Dayr aro tifllar o‘ynatsa ani mast yalang.

Ishq bazmig‘a netib bormag‘amen, chunki meni
Tortadur ul sari yuz tor bila nag‘mayu chang.

Manga, zohid, yana may tarkini qil deb taklif
Qilmag‘aysen, ko‘zunga uchrasa ul soqiyi shang.

Sof may lam’asiyu soqiyi mahvash husni,
Tiyra zohidqa asar qilmadikim, bor edi dang.

Ishqi bebok uza kim zuhd xayolin qilsa,
Erur andoqki, yegay bodai nob ustida bang.

Maykada ahlig‘a yuz toqu tarab, ey soqiy,
Xonaqahda bo‘la olg‘aymu Navoiyg‘a darang.

337

Rahmsiz bo‘lg‘ay ko‘ngul kuffori Xaybar ko‘nglidek,
Mumkin ermas bo‘lmoq ul sho‘xi sitamgar ko‘nglidek.

Kesti atfol g‘aming ko‘nglum uza na’l uzra na’l,
Onchakim bo‘ldi hazin ko‘nglum sanubar ko‘nglidek.

Ko‘nglum ul xat shavqidin yuz zaxmliq jism ichra bor
O‘t ichinda anbar etkan dudi mijmar ko‘nglidek.

Necha zaxm etsang qiziq ko‘nglumni, o‘tdur — qon emas,
Humratikim anda zohir bo‘lsa axgar ko‘nglidek.

Garchi Layli mahmildin nola ko‘p chekkay daroy,
Savti muhlik bo‘lmaq‘ay Majnuni muztar ko‘nglidek

Mujda dayr ahliki, soqiy aksi ermish jilvagar,
Har kishi bersa safo ko‘ngliga sog‘ar ko‘nglidek.

Hajr tig‘idin Navoiy qonu zaxmin ko‘rki, bor
Ko‘ngli mamlu jismidek, jismi sarosar ko‘nglidek.

338

Dardu mehnat toshin, ey mahzun ko‘ngul, jonimg‘a o‘k,
Har ne afzun kelsa andin, jismi vayronimg‘a o‘k.

Chun base ko‘pdur chiqib jon, jism uyi yemrulgali
Yetsa, xirman-xirman ul toshlarni har yonimg‘a o‘k,

Ishq o‘ti axgarlari taskin berur chun dardima,
Yoqqali marhamdek ani dog‘i pinhonimg‘a o‘k.

Huznu mehnat yuklari ko‘nglum uyin qilmish to‘la,
Ey falak, emdi alarni baytul-ehzonimg‘a o‘q.

Yuzu zulfi yodidin majlis tuzarman, ey rafiq,
Bog‘din gullar terib, har yon shabistonimg‘a o‘k.

Xonaqahda tiyramen, dayri fano tufrog‘ini
Ham supur kirpik bila, ham chashmi giryonimg‘a o‘k.

G‘am bila anduh g‘izosidin bo‘lubmen mumtali,
Ey Navoiy, go‘shalarda ani zindonimg‘a o‘k.

339

Subhi iqbolu saodat keldi ul farxunda eng,

Tong boshida muhtariq kavkabdek ul eng uzra meng

Sarvkim, teng tutmas o‘z qaddi bila har naxlni,
E’tidol ichra emastur sarvi qadding birla teng.

To meni sargashta chiqtim, dashtdin har yon quyun
Po‘ya aylar tinmayin, nevchunki topmish yerni keng.

Ko‘nglak o‘rpig‘a yelak kiyding hamono, ey quyosh
Kim, yadi bayzog‘a mone’ bo‘lmag‘ay har sari yeng.

G‘orati islomu din yolg‘uz qilursen go‘yiyo,
Buyla yag‘molarda yo‘q hojatki, bo‘lg‘ay kimsa heng.

Boda istab zuhd tarki ayladim, olg‘aymusiz,
Xirqavu sajjoda rahn etsam, xarobot ahli deng.

Dog‘u qon birla Navoiy ko‘ngli bo‘ldi lolakim,
Bu taqozo aylar ul mushkin mengu gulrang eng.

340

Ey, jafo peshangu bedod ishing, javr faning,
Har biri marhami rohat kebi ko‘nglumga mening.

Ko‘pdurur ko‘nglum aro nish magar qildi nishon,
Varzish aylarda ani g‘amzai novakfikaning.

Xo‘blar xatlaridin tiyradurur chehralari,
Sensen ul gulki, yuzung gulshanida yo‘q tikaning.

Lutf ko‘rkim, suda gul aksi masallik ko‘runur,
Hulla nozukligidin har sari nozuk badaning.

Ey ko‘ngul, g‘am yuzining ko‘zgusidursen go‘yo,
Ko‘zguning ikki yuzi yongg‘iyu eski tuganing.

Mendek, ey lola, seni qilmadi gar ishq shahid,
Nega g‘am dog‘i ayon ayladi qonlig‘ kafaning.

Davr anduhi meni qildi halok, ey soqiy,
Shisha sofiy yo‘q esa, yo‘qmu ekan durdining.

Yo‘qturur ahli zamon qasrida juz naqshi jafo,
Chiqma, gar xud yiqilur boshinga baytul-hazaning.

Ey, Navoiy, chu falak toqidin ofat yog‘adur,
Chiqmakim, bo‘lsa kerak maykada bog‘u chamaning.

Birovki, qo'ndi kecha o'zga yerga yori aning,
Ko'zidin uyqu o'charg'a ne ixtiyori aning.

Kishiki, dilbari ag'yor birla tutti qaror,
Ajab emastur, agar bo'lmasa qarori aning.

Zamona xo'blarin vafo tama' tutqan,
O't istagayki, su qilg'ay ayon sharori aning.

Vafog'a chunki jafodur evaz, xush ul forig'
Ki, ishq kishvarig'a tushmamish guzori aning.

Ko'ngul havosi meni buzdi, shukrdur angakim,
Tuzuldi ofiyat avjida ro'zgori aning.

Hayot gulshanidin qayda bar yegay ko'nglum
Ki, g'am hazonig'a bo'lmish badal bahori aning.

Zamona bog'ida naxli vafo emas sarsabz
Ki, javri jolasidin tushti bargu bori aning.

Quvonma davlati husnungg'a, ey parivashkim,
Zamona davlatidek yo'qtur e'tibori aning.

Navoiy etsa fig'on, xo'blar, toriqmangkim,
Ne qolg'usidur o'zi, ne fig'oni zori aning.

Oshiq o'ldum, pand bermang — choram asbobin tuzung,
Ishq zor etganga zulm etmang — tarahhum ko'rguzung.

Eyki, dersiz ishq aro sabring uyin obod qil,
Mundoq etguncha hayotim qasri bunyodin buzung.

Sarvinozimkim borur ko'z bog'idin, qilmon qabul,
Gar aning o'mida to'bi naxlini o'Iturg'uzung.

Onsizin, ey do'stlar, ne zahru ne obi hayot
Kim, musovidur manga gar o'Iturung, gar tirkuzung.

Gar ajal turg'uzmadi jismimni ul oy ko'yida,
Do'stlar, na'shimni bore anda bir dam turg'uzung.

Durd kelturdung debon yozg'urmangiz, ey ahli ishq,
Bok yo'q, zuhdum ridosi kunjiga solib suzung.

Chun Navoiy ko‘nglini qildi girih bir tori zulf,
Do‘stlar, sarrishtai ummidni andin uzung.

343

Chun latofat ko‘zgusi bo‘lmish safo ichra ul eng,
Yo rab, ohim dudi zohir qilmasun ul engda meng.

Ilgin o‘tin daf’ etar yeng suyi, baskim, elturam
Oh man’ig‘a ilik yo ashkning daf’ ig‘a yeng.

Qomating birla latofatda o‘zin teng tutsa sarv,
Bordur ul yanglig‘ki, bo‘lg‘ay sarv birla soya teng.

Men balo chohidavu Majnun farog‘at dashtida
Lofi ishq ursa, ajab yo‘qkim, topibdur yerni keng.

Sudrabon eltur qazo ilgi meni mayxonag‘a,
Mast bo‘lmay chora bormu, ey nasihat ahli, deng.

Turktoz aylab ko‘ngul olding ajaldin burna jon,
Hissa oyirma anga, nevchunki ermas erdi cheng.

Ey Navoiy, gar ko‘ngul ketti, malolat ko‘rma ko‘p,
Sen chu bedillikka qoyilsen, erur ul telba teng.

344

Quyundek vasl dashtidin gar, ey Layli, meni surdung,
Degach sargashta Majnunum, boshimni ko‘kka yetkurdung.

Sotarlar dasht uza men telbani kim tutsa hindu deb,
Tanimni hajr dudu shu’lasig‘a baski kuydurdung.

Tegib tufroqqa andin sekregan toshlar halok etti,
Necha boshimg‘a qolqon tutqung, ar g‘am toshi yog‘durdung.

Hazin ko‘nglum qushining parlari churkandi, ul kunkim,
Buzug‘ tan oshyonin shu’lai hajringg‘a kuydurdung.

Netib naxli umidimdin guli vasl orzu aylay
Ki, hajring ilgidin ani qo‘ng‘arding, yo‘qli sindurdung.

Boshimg‘a keldi g‘am tig‘i, balo toshi, ajal zaxmi,
Ko‘r, ey hijroni zolimkim, nelar boshimg‘a kelturdung.

Yasa, ey dayr piri, bodakim, kelgum kaforatg‘a,

Eshittimkim, meni aylabturur deb tavba yozg'urdung.

Bu gulshan gullarining chun vafosi no'qtur, ey bulbul,
Ne ochilg'ay tutaykim, sen fig'oning ko'ktin oshurdung.

Navoiy, yo'l yiroq, maqsud nipaydo, qadam urg'il
Ki, qolding korvondin, gar tinarg'a bir nafas turdung.

345

Zihi quti hayotim hajr muhlik dardida yoding,
Agar lutfungg'a loyiq bo'imasam, yo'qturmu bedoding.

Manga lazzat sening zikring, manga quvvat sening fikring,
Manga ishrat sening vasling, manga toat sening yoding.

Agar xurshidi raxshon orzu qilsam guli ro'yung,
Va gar to'biyu rizvon mayl etsam sarvi ozoding.

Bag'ir qonin labolab aylagan oshom iki la'ling,
Ko'ngul saydin damo-dam bismil etgan ikki sayyoding.

Ulusni tirgizur qatl aylamakin obi hayvoning
Va lekin o'lturur qatl aylamastin bizni jalloding.

Muhiqdur, ey ko'ngul, bukim ul oy faryodinga yetmas
Ki, yolqibdur, nedinkim, yetti ko'p ul oyg'a faryoding.

Demon devona, balkim dev o'lubmen ul pariruxdin,
Ne tong, ey shayx, aks etsam taxayyul barcha irshoding.

Ulusqa sofiyi ishrat tutub, ey soqiysi davron,
Hamono zahri mehnatni mening jonimg'a asroding.

Navoiy Ka'bai maqsud sari gar qadam qo'ysang,
Tajarrud basdurur hamrohingu beto'shalig' zoding.

346

Rahm etib, ey do'stlar, majruh ko'ksumni yoring,
Qo'l yolang aylab solib, har yon ichimni axtoring.

Uchrasa yuzi qora ko'nglum tutub, tortib, uzub,
O'tqa solib o'rtabon, jonimni andin qutqoring.

Ketgan ersa choklik ko'ksum tikib, voqif bo'lub,
Kelsa bu jonib, sinonlar birla sanchib qaytoring.

Chun o'larmen — yorni istang, boshimg'a kelmasa,
Bosh yolang aylab, qo'yub tufrog' uza yuz, yolboring.

Kelsa ayturda oshuqmangkim, farahdin o'lmayin,
Nuktadonlig' birla ul so'zni qoshimda o'tkoring.

Boshima yetsa, chu o'lgumdur necha faryod etib,
Bir nafas tengri uchun har qaysingiz bir yon boring.

Gar tuyassar bo'lmasa bu ish, Navoiy xastani,
Qo'ldabon yo sudrabon mayxona sari boshqoring.

347

Hajrdin ko'zumga olamni qorong'u aylading,
Umrdin ko'z yumg'anim ul tunda uyqu aylading.

Jonu ko'nglum muddate sargashtadur ko'yung aro,
Boshlarin aylandururg'a buyla jodu aylading.

Holima qolur taajjubdin el og'zi ochilib,
Yo'qsa ahvolim jahon ahlig'a kulgu aylading.

Ashk siymobimudur hajringda, yo ko'z oqini
Hal qilib, ko'zdin ravon ul nav'kim su ayladnng.

Qoldi mahmizingdin oy yuzinda, ey chobuk, nishon,
Go'yiyo javlon kuni ani tepingu aylading.

Shohidi davrong'a go'yo, ey tarab mashshotasi,
Bodadin gulgunavu sog'arni ko'zgu aylading.

Buki aytursen zamon ahlnig'a yo'q ermish vafo,
Ani ma'lum, ey Navoiy, bu zamonmu aylading.

348

Nil tortib, orazing oroyishin fan aylading,
Shu'lai ko'kurd birla sham' ravshan aylading.

Sarvdin zohir yo'q erdi juz niyoz, ey sarvnoz,
To xiromon jilva birla azmi gulshan aylading.

Hazl birla do'stluq izhori aylab, ohkim,
Jumlai olam elin jonimg'a dushman aylading.

Dud solmish boshima hajr, ey balo toshi, magar
Jism unining gunbadi boshini ravzan aylading.

Juz sharar ne dona hosil aylagaymen, chunki sen
Mazrai jonim aro o't birla hirman anlading.

Chun qadah berding labi xandon bila, ey mug'bacha,
Jong'a la'li otashinni shu'laafkan aylading.

Ey Navoiy, xirqa zaylidin aritting durdi xum,
Bizni bu dayri fanoda pokdoman aylading.

349

Ayril, ey za'f, emdi mohi notavonimdin mening,
Kam qil anduh o'tini ozurda jonimdin mening.

Chok ko'ksumdek tiking og'zimni hamkim, kechalar
Har zamon seskanmagay bexud fig'onimdin mening.

Sadqa vojib bo'lsa, ey ko'zu ko'ngul, aylang nisor,
Dur bila la'l ollig'a bu bahru konimdin mening.

Ey falak, jilvang uchun aylay ravonimni fido,
Jilvagar lek olmag'il sarvi ravonimdin mening.

Jism aro har dam harorat fahm qilsang, ey quyosh,
G'ofil o'lma jon dog'i ruhi ravonimdin mening.

Soqyo, gar la'lgun may tutsa bo'lmas yorg'a,
Itlarin serob qilg'il bori qonimdin mening.

Xurdai jonim nisoring, ey Navoiy, gar desang
Sihhat oyin nukta shohi xurdadonimdin mening.

350

Ne biymi hajrdururkim, nihoyati yo'q aning,
Visol umidi kebi haddu g'oyati yo'q aning.

Ne sud xorani gar qilsa dudi ohim mo'm
Ki, ko'ngli ichra shararcha siroyati yo'q aning.

Agarchi shahduru ushshoq aning ranyatidur.
Vale ranyati sari riroyati yo'q aning.

Ne zulmdur buki, hajr etsa qasdi jon nogah,
Anga madadduru bizga himoyati yo'q aning.

Jafovu javri damo-damdur, ey ko'ngul, demakim,

Asiru shiftalarg'a inoyati yo'q aning.

Bu dayr aro birav osudadurki, mug'bachadin
Ne kelsa, shukr etar, ammo shikoyati yo'q aning.

Navoiy ilgida ne sabru ne umidi visol,
Kishiki bo'lmasa naqdi, kifoyati yo'q aning.

351

Qilsa ko'ksum chok tig'i zahrparvardi aning,
Qo'ymangiz marhamki, o'ltursun meni dardi aning.

Ko'yi tufrog'i aro o'lдум, dam urma, ey Masih
Kim, hayot istab yuzumdin uchmasun gardi aning.

Gul yuzungdin ayru bog'edur ko'ngulkim, ochilur
Hajr o'ti uchqunlaridin otashin vardi aning.

Ohim andoqdurki, la'ling shavqidin bir qatra qon
To'ksa ko'z, yoqutdek bag'landurur bardi aning.

Buylakim soldi samandin po'yag'a, vah, ne ajab,
Olam ichra solsa o't barqi jahongardi aning.

Sotma, ey gul, noz ko'p, boqqil xazon bog'ig'akim,
Bor emish gulrang bir kun chehrai zardi aning.

Ber Navoiy komini yo jonin ol, ey umrkim,
Zulmni elga fig'oni haddin o'tkardi aning.

352

Ne ajab, sarvi sihiga inmasa boshing sening
Kim, emastur qaddu ra'noliqda bo'ydoshing sening.

Gar nihoni fitna ta'lim aylamas, bas ne uchun
Boshini chekmish banogo'shunbg'acha qoshing sening?

Sangboroni g'ammingdin bosh ne yanglig' yosuray
Kim, saodat gavharidur boshima toshing sening.

Obi hayvon birla go'yo qildi la'li rang hal,
Suvrat ichra chun labingga'a yetti naqqoshing sening.

O'ta olmas xonaqaxi quds eli, ey mug'bacha,
Dayr eshikinda chu tuzgay bazm avboshing sening.

Dema, ey nosihki, qilmaysen so‘zum birla amal,
Xotirimda qayda qolmish muncha qolmoshing sening.

Ey Navoiy, bo‘ldi qonlig‘ dushmaningkim, yoshurur
Yordin sarig‘ yuzung rangini qon yoshing sening.

353

Yuzung oq, ey g‘amki, ashkim rangini ol aylading,
Jon fidong, ey dardkim, jismimni pomol aylading.

Holatim xalq anglamas, yo rab, sen-o‘q rahm aylagil,
Chun g‘ame berdingki, ayturdin tilim lol aylading.

Sen tarahhum qil, xudoyo, bu qotig‘ holatdakim,
Meni zoru dilbarimni forig‘ulbol aylading.

Safhai ruxsor uza xatkim chiqarding — fitnadur,
Fitna uzra nuqtalardurkim, otin xol aylading.

Sharhi ishqing yozg‘ali jismim quruttung xomadek,
Har taraf jon rishtasin ul xomag‘a nol aylading.

Vah, ne hol erdiki, majlis ichra la’ling jomidin
Elni xushhol etting, ammo bizni behol aylading.

Elga javlon ichra solding tig‘, yuz ming voykim,
Har qachon yetting Navoiy sari, ihmol ayladnng.

354

Ichmading may — to burunroq bizni rasvo qilmading,
Chunki rasvo qilding — andin so‘ngra parvo qilmading.

Mayni zahri hajr sog‘inding magarkim, totqali
Bir fidoyi men kebi davronda paydo qilmading.

May ichardin qasding ermish bizni rasvo aylamak,
Aysh fikrin mundin o‘zga ishga go‘yo qilmading.

Shahr badnomi meni aylab, o‘zung ishrat aro
Vahki, bu badnomni bir yod qat'o qilmading.

Shoh bazmi ichra chun loyiq emas ermish gado,
Ey xirad, nevchun burunroq bizga imo qilmading?!

Ey ko‘ngul, rahmat senga, har nechakim ko‘rdung jafo,
Olam ahlidin vafo hargiz tamanno qilmading.

Ey Navoiy, shukrkim, garchi seni shahr ichra yor
Shuhra qildi, sen aning sIRRINI ifsho qilmading.

355

Orazing guldur, gul uzra sunbuli tar kokulung,
Olloh-Olloh, gul yuzin qilmish muanbar kokulung.

Qomatingdur sham'u ruxsoringdur aning shu'lasi,
Shu'laning dudidur, ey sho'xi sitamgar, kokulung.

Ochqaningda nega har tori arodur yuz girih,
Gar ko'ngullar band qilmaydur sarosar kokulung.

Ne ajab, husn ahlining sultoni bo'lsang xossakim,
Mushkdin qo'ydi quyosh boshig'a afsar kokulung.

Sunbuledurkim, sarosar chirmashibdur sarv ila,
Naxli qadding birlakim bo'lmish barobar kokulung.

Istasangkim, bo'lmag'ay oshuftayu darham, degil,
Qilmasun bizni parishonholu abtar kokulung.

Gar Navoiyg'a dimog' oshufta bo'lsa, tong emas,
Chun separ har dam yuzung o'tig'a anbar kokulung.

356

Ishq o'tidin qismatim dardu balomu qilmading,
Dudi birla xonumonimni qaromu qilmading.

Kuymakimga barqi ofat qilmadingmu ohni,
O'lmakimga ashkni sayli balomu qilmading.

Zulm tig'idin tanimni qilmadingmu band-band,
Furqatingdin band-bandimni judomu qilmading.

Dema, ey ko'zkin, ne qildim, gar seni ko'r istasam,
Bir boqib, yuz ming balog'a mubtalomu qilmading.

Ey ko'ngul, holimi qilding arzu afzun qildi zulm,
Bilmadingmu yo bilib yaxshi adomu qilmading.

Shikva qilsak sendin, ey gardun, ravo ermas dema,
Bizni bekom aylab, el komin ravomu qilmading.

Bahri ishq ichra, Navoiy, oshnolig‘ topmading,
To bu bir ko‘zni Aras, ul birni Omu qilmading.

357

Ne bo‘ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang,
Vafog‘a va‘da qilib, va‘dag‘a vafo qilsang.

Tanimni qurb fizosida xoki rah etting,
Boshimni vasl eshikiga oshno qilsang.

Sunub qo‘lumni yuzungga, murod etib hosil,
Ochib yuzungni, ko‘zum hojatin ravo qilsang.

Visol avji biyik, ey ko‘ngul qushi, sen past,
Yetishmak anda ne mumkin, agar havo qilsang.

Jahon g‘amin chu olur, ber qadahni, ey soqiy,
Olurmen, ikki jahon mulkiga baho qilsang.

Zamona ahli jafosin tag‘oful aylarsen,
Alar tag‘oful etib, kosh sen jafo qilsang.

Agarchi ahli navodur vale ul oy boqmas,
Navoiyo, necha bulbul kebi navo qilsang.

358

Otashin ruxsora ochib, xonumonim o‘rtading,
Xonumonim xud ne bo‘lg‘ay, jismu jonim o‘rtading.

Dema, ne qildim, ne qildim, jonu ko‘nglungni olib,
O‘rtading, ey qotili nomehribonim, o‘rtading!

Dilraboliq birla chun yoqting jamoling shu’lasin,
Xasta ko‘nglum olg‘ach-o‘q, ey dilsitonim, o‘rtading.

To‘lg‘anib kuysam, ajab yo‘q, o‘tqa tushkan rishtadek,
Chun firoq o‘tig‘a jismi notavonim o‘rtading.

O‘tqa soldnng sabru aqlu jonu ko‘nglum barchasin,
Yo‘qu borim kuydurub, yaxshi-yomonim o‘rtading.

Sog‘aring jonu jahondin ortug‘ ermish, soqiyo,
Lekin ul o‘t birla-o‘q jonu jahonim o‘rtading.

To Navoiydek belu og‘zing xayoli birlamen,
Ushbu yo‘q savdoda paydovu nihonim o‘rtading.

Elga ishqidin g‘araz mehru vafosidur aning,
Gar meni o‘ltursa, maqsudim rizosidur aning.

Bo‘lmas ul begonavash chun oshno, bo‘l, ey ko‘ngul,
Bir kishiga oshnokim, oshnosidur aning.

Novaki zaxmin ko‘zumdin chiqmasun deb, zaxmini
Kiyr ila tuttum, sog‘inmangkim, qorasidur aning.

O‘qi sufori ko‘ngulda gar qizardi, ne ajab
Kim, bag‘ir pargolasi har dam g‘izosidur aning.

Sabr xaylin ko‘nglum o‘z girdinda qo‘ymas, go‘yiyo
Kirpiku qoshing xayoli o‘qu yosidur aning.

Dahr bo‘stonida bukim chok erur gul ko‘nglaki,
Bulbul ahvolig‘a go‘yokim azosidur aning.

Shod o‘lubtur faqr ko‘yida Navoiy, uylakim,
Saltanat farshi gadolig‘ bo‘ryosidur aning.

Zulfikim, bog‘liqdurur har jong‘a bir tori aning,
Tandin el jonin, ajab yo‘q, cheksa raftori aning.

Tig‘i zaxminkim tikarmen, sihhatim ermas g‘araz,
Chiqmasun dermen hazin ko‘nglumdin ozori aning.

Dona-dona xol ila g‘unchangni istab, ko‘rki bor
Toza-toza dog‘ ila ko‘nglum namudori aning.

Lablaring shavqida o‘lgan xalqdin ko‘yungda zog‘
To“ma aylabduri, bo‘lmish la‘l minqori aning.

Mumkin ermas ul pariy majnunig‘a hush, ey hakim
Kim, junun xattidurur bo‘ynida tumorri aning.

Ey musulmonlar, fig‘onkim, kofire ko‘nglumdadur
Kim, emas jon rishtasidin o‘zga zunnorri aning.

Tashnamen, soqiy, shafaqgun may to‘la tut sog‘are
Kim, falakni nuqta qilg‘ay davr pargori aning.

To quyub og‘zimg‘a andoq sipqaray ul maynikim,
Qolmasun ul nav’ sog‘ar ichra osori aning.

Ayta olmon, asray olmon ishq sirrin, ohkim,
Sa'b erur ixfosiyu mushkildur izhori aning.

Ey Navoiy, fard bo'l, vasl istasangkim, xalqdin
Har kishikim yorlig' uzgay, xudo yori aning.

Mujda, ey tolibki, yerdin olmag'i mumkin emas,
Bir qadam matlub boshqarmay talabgori aning.

361

Ohimni sarsar aylabon, ashkimni to'fon aylading,
Bu sarsaru to'fon bila olamni vayron aylading.

Bir dam yuzin ko'rgan zamon mahrum etarga vaslidin,
Ey yig'lamoq, zo'r aylabon, ey ashk, tug'yon aylading.

Ey hajr, ashkim qonidin yer go'yin etting la'lgun,
Bu go'y shaklin uylakim bir qatrai qon aylading.

Har qatra ashkim qonidin xirqamni aylab dog'-dog',
Jismimda har yerdin nishon bir dog'i hijron aylading.

Gardun baliyat o'qlarin otqanda, ey gul, go'yijo
Purxori hajring dashtidin har birga paykon aylading.

Chun jonu ko'nglum xirmanin kul aylading, ey barqi ishq
Asrarg'a hajr o'tin magar ul kulda pinhon aylading.

Ey mug', zuloli hajr edi jomi Jam ichra dayr aro,
Sing'an safol ichra solib, durdiga ehson aylading.

Davr ahlidin, eykim, vafo mumkin emas, deding, sanga
Tuttuq musallam, har nechakim man' imkon aylading.

Ey ko'nglum, irshodim bilakim tuttung oyini fano,
Kavnayn ranjidin xalos o'ldung, ne nuqson aylading.

362

Ko'rgan el bedodi hijrondin meni yer birla teng,
Ko'rsangiz ishq ahlini, menden o'pub yer, ishq deng.

Sarv teng tutsa o'zin qadding bila, ul nav'dur
Kim, giyoh o'lg'ay qad ichra sarvi ra'no birla teng.

G'uncha ichra jola lof ursa tishing birla ne tong,

Bu adam kunjiga qolib, ul topibdur yerni keng.

Turfadurkim, kufr shomi raf' o'lub, qilg'ay tulu'
Subhi imon zulfin ochib, oshkor etsa ul eng.

Turfaroq bukim, saodat subhida chiqmish degay
Tiyra baxtim axtarikim, ko'rsa ul eng uzra meng.

Aql vasvosi xarob etmish meni hujjat bila,
Soqiyo, bir aysh jomi tut mangavu ani yeng.

Ey Navoiy, yengda pinhon etma ul oy ruq'asin,
Chun sanga uldur hamisha ashk oritmog' birla yeng.

363

Mening firoqimu aning visoli tun bila tong,
Bu nav' dahrda yo'q ehtimole tun bila tong.

G'arib zulfa yuz ermasmukim, jahon eliga
Ko'runmamish bu ikining misoli tun bilan tong.

Tongim yorug'u tunum tiyradurki, chirmashadur
Ko'ngul aro yuzu zulfung xayoli tun bila tong.

Ne tunda aysh nasimi, ne tongda mehr, magar
Ki, bo'ldi zulfa yuzung poymoli tun bila tong.

Tunung xujasta, tonging qutlug' o'lsun, ey mahvash
Ki, ikki banda sanga bo'ldi xoli tun bila tong.

Biravki, tongu tunin boda birla o'tkargay,
Yaqinki, bo'limg'ay aning maloli tun bila tong.

Navoiy etmadi zulfa yuzung visolin kashf,
Valek erur g'amining ittisoli tun bila tong.

LOM HARFINING LU'BATLARINING LATOYIFI «BADOYE» DIN

364

Ey ko'ngul, bir nav' o'lubmen ahli davrondin malul
Kim, erurmen kimki andii yaxshi yo'q, andin malul.

Hajr agar budur, netay men jonni, jon netsun meni
Kim, erur har lahza mendin jonu men jondin malul.

Tengri xalq etmish meni go'yo malolat chekkali

Kim, dame yo'qkim, emasmen xalqi nodondin malul.

Necha dinim uzra titray dilrabolar ko'yida,
Ey, musulmonlar, bo'lubmen kofiristondin malul.

Istasang maqsad, qadam qo'y, ta'n toshidin ne bok,
Ka'ba topti bo'limg'ay xori mug'ilondin malul.

Ey ko'ngul, fikringni qilkim, do'stu dushmanlar yuzun
Ko'rmas erdi, bo'lmasa sen zori hayrondin malul.

Ey mug'anniy, tut «Iroq» ohangiyu ko'rguz «Hijoz»
Kim, Navoiy xotiri bo'lmish Xurosordin malul.

365

Ey ko'ngul, men tarki ishq ettim vale fosh etmagil,
Men senga sirrim dedim, sen elni sirdosh etmagil.

Ey ko'z, emdi ayladim har chehradin qat'i nazar,
Qil tahammul dog'i atrofimni qon yosh etmagil.

Soqiyo, qo'ydum ayog'ingg'a sirishkim la'lini,
Lutf etib, bu mayg'a jomi hajr podosh etmagil.

Rishtai mehr uzdum, ey mashshota, zulfi qissasin
Ko'p uzatib, notavon ko'nglumga chirmosh etmagil.

Gar desang qadding bo'lub xam, qolmag'aysan fitnag'a,
Ko'z solib husnig'a, mayli ul ko'zu qosh etmagil.

Hajr toshin yog'durubkim qavdi, o'lsam, ey rafiq,
Qabrim ustida to'kar toshing juz ul tosh etmagil.

Ey Navoiy, faqr yo'linda yer o'pkil har qadam,
Ya'ni ul yo'lda qadam sayr ichra juz bosh egmagil.

366

Qosido, ollinda ahvoli xarobimni degil,
Mufrat anduh birla muhlik iztirobimni degil.

Ishqi ichra za'flig' jismim shikanji sharhin et,
Toru zulfidek o't uzra pechu tobimni degil.

Ko'yi sayrida ko'rub ani muloyim g'ayr ila,
Ravzai jannat aro do'zax azobimni degil.

Tan tiriklarning hisobi topmag‘anni dog‘i ayt,
Jonda ham dardu baloyi behisobimni degil.

Hajr dardidin vujud uyida bir dam to‘xtamay,
Har zamon mulki adam sari shitobimni degil.

So‘rsakim, g‘am bazmida mensiz tuzarmu bazmi aysh,
Qon yoshimdin boda, bag‘rimdin kabobimni degil.

Ey Navoiy, g‘am bila bexudlug‘umdin nukta so‘r,
Yor hajrinda bu yanglig‘ xo‘rdu xobimni degil.

367

Eyki, ishq oshubida holim so‘rarsen, so‘rmag‘il,
Ko‘zlarimda su ko‘rub, ko‘nglum aro o‘t anglag‘il.

Ey pariy devona deb ko‘nglumni qavma har zamon,
Da‘voysi dildorlig‘ qilsang, ko‘ngulni asrag‘il.

Ey, bahori husn, barqi vasl ila kul qil meni,
Notavon ko‘nglumga lekin dog‘i hijron qo‘ymag‘il.

Sho‘xluqtin buki bog‘ ichra tilarsen o‘ynamoq,
Ko‘zlarimning bog‘i serobinda bir ham o‘ynag‘il.

Telba ko‘nglumni hamisha qilma majruh, ey pariy,
Tig‘i kin yuz qatlakim sursang, biror ham aldag‘il.

Kirdi ishq ahli fano dashtig‘a, ey majnun ko‘ngul,
Istasang yo‘l ozmag‘aysen, korvondin qolmag‘il.

Ey Navoiy, dayr aro bo‘lsang gadolig‘ birla mast,
Bosh qo‘yar bo‘lsang, safolingni boshingg‘a yostag‘il.

368

Ne atovu ne o‘g‘ul, sen shah yigit, men qori qul,
Hech ato ko‘rmaydur erkin sen kebi badmehr o‘g‘ul.

Ishqing otashgohip‘a har nechakim qildim nazar,
Shu’lasi o‘tluq nafasdur, axgari qonlig‘ ko‘ngul.

Ro‘zgorim hajr dashtida qorarg‘an, ayb emas
Kim, aning mushkin nasimi dud erur, tufrog‘i kul.

Domi ishqingdin gar ozod aylasang ko‘nglum qushin,
O‘zga yon qilsa havo, sing‘an paru bolini yul.

Necha qilg‘ay dardi dil har dam sanga jon, ey ajal,
Rahm etib, andin meni qutqar, o‘zung dog‘i qutul.

Istasang maxlas qora qayg‘udek anduh shomidin,
Subhdek ollingg‘a davrondin nekim yuz bersa kul.

Ey Navoiy, sa’y ila chun vasl hosil bo‘lmadi,
Yor lutfig‘a tikil emdiyu g‘ayridin to‘ngul.

369

Gah-gah, ey sho‘x, meni boshing uchun yod etgil,
Yo boshingdin evurub bir yo‘li ozod etgil.

Biymi hijroning ila necha qilursen g‘amnok,
Netti bir mujdai vasling bila ham shod etgil.

Bordingu uzr bukim tuzmadi bedodimng‘a,
Kel dog‘i onchaki mumkin esa, bedod etgil.

Noladin ishqki ko‘nglumni yitib, yetti firoq,
Emdi, ey telba, fig‘on chekkilu faryod etgil.

Bazmdin surdingu ketmakka erur moni’ za’f,
Soqiyo, bir-ikki sog‘ar bila immod etgil.

Faqr dashtida desang forig‘u ozoda boray,
Kir tavakkal bilayu vahmni barbod etgil.

Ey Navoiy, tilasang ishqda emganmagasen,
O‘zni hijron g‘amiyu dardi bila mu’tod etgil.

370

Qoshlaringdinkim erur qonlig‘ ko‘ngul ichra xayol,
Ul qizil kog‘azda nundur, bu shafaq ichra hilol.

Tutmayin ko‘nglumda taskin qaddi vaslin istamon,
Qayda payvand etsalar, tutqay o‘zi, tutmay nihol.

Sarvning seni kebi boshinda dastor uzra chin,
Nargis uzra nuqta monandi ko‘zung ustida xol.

Za’flig‘ jismimdadur har yon bo‘g‘inlardin girih,
Nol torig‘a erur garchi tugun tugmak mahol.

Lolagun may tobidin ul oy qizarmish yo magar

Sho‘xluqtin lolazor ustida ag‘naptur g‘izol.

Davr elida gar vafo yo‘q, sen vafo qilg‘il, valek
Kimni xushhol etsang, andin tut o‘zungga yuz malol.

To Navoiy zulfi yanglig‘ poybo‘sin istadi,
Gah parishonhol erur ul zulfdek, gah poymol.

371

Do‘sstar, ul sarvqad hajrinda chun bo‘ldum qatil,
Sarv eking, gar qo‘ymoq istarsiz mazorim uzra mil.

Ko‘hi hajr egnimda istarmen ani sur’at bilan,
Shavqdin xasdek tanimg‘a ermas andoq yuk saqil.

Za’f aro sunbulni gar zulfung dedim, tong yo‘qki, bor
Xastag‘a javzo tuni yaldo tuni yanglig‘ tavil.

Rashkdin bir-birga qiymas mehrini jonu ko‘ngul,
Rost andoqkim hasud el molig‘a bo‘lg‘ay baxil.

Buki hijron tig‘idin ko‘ksumni yuz chok aylading,
Yuz dalilim bor, agar har chok bo‘lsa bir dalil.

Dayr jannat, huri ayndur xo‘bluqtin mug‘bacha,
May zuloli birla ko‘p aynan tusammo salsabil.

Gar yuzung istab Navoiy ko‘zlaringga xordur,
Ne ajab, din ahli kuffor ollida bo‘lmoq zalil.

372

Hajring kunin bir yilchavu har soatin bir oycha bil,
Hayrat mahalli bo‘limg‘ay o‘n ikki oy gar bo‘lsa yil.

Ul ishvagar chun ochti yuz — ko‘zga nazar yo‘q, tilga so‘z
Kim, ashkdin bog‘landi ko‘z, hayratdin ul yanglig‘ki til.

Chun shahsuvorim otlanur, andin falak la‘b o‘rganur,
Ishqida jismim to‘lg‘anur, ul nav’kim o‘t uzra qil.

To chiqmas ul gul bog‘din, bo‘lmish bu dardu dog‘din,
Dardim og‘irroq tog‘dnn, xoshokdin jismim yengil.

Ey husn aro soxib g‘ino, xurshid otangdur, oy ano,
Istar esang nisbat yana, ham sarv og‘o, ham gul singil.

Ko‘k mehridin ayyorroq, Bahromdin xunxorroq,

Sen yo falak g‘addirroq, ey mehri yo‘q mohim, degil.

Ko‘rdi Navoiy jon aro g‘am shu’lasi hirmon aro,
Ko‘z mardumidek qon aro, ko‘rgach libosingni qizil.

373

Ul guli ra’nog‘a nomam xo‘b emas yakson qizil,
Safhasi bo‘lsa kerak bir yon sarig‘, bir yon qizil.

Hajr o‘tidin qoni ko‘nglumning qurubtur, gar ul o‘t
Zor ko‘nglumni qizitmaydur, nedur paykon qizil.

Sarvg‘a gulnor bargidin libos etkan kebi,
Chekti gulgun hulla naxli qaddig‘a jonon qizil.

Besutun Farhod qabridur qizarg‘an loladin,
Yo aning qonidin o‘lmish tufrog‘i har yon qizil.

Orimas ashkim bila ko‘zning qizarg‘an raglari,
Bahr mavjidin oqarg‘udek emas marjon qizil.

Qon yoshim serob qildi bog‘ni, mundin nari
Anda tong ermas ko‘karmak sabzavu rayhon qizil.

Gar ko‘zung zaxmin ko‘ngullar qonin etmaydur g‘izo,
Bas, nedin qon to‘kkali bo‘lmish nachukkim qon qizil.

Charx bahridin bu yanglig‘ bo‘lsa qon yutmoq mudom,
Yo‘q ajab, emdi sadaf bermak durri g‘alton qizil.

La’li shavqidin sarosar lolagundur ko‘z yoshim,
Ey Navoiy, kim ko‘rubtur bahri bepoyon qizil.

374

Yor hijronida sarvaqtimg‘a yetting, ey ajal,
Jon fidong etsam hanuz ozdurki, kelding darmahal.

Jon talashmog‘liqqa qo‘yma la’li hajridin meni,
Chun erur ta’xir aro ofat, ko‘p qilma hayal.

Jonni bot olmoq sanga mushkul esa, jon chekma ko‘p,
Qo‘yki, bu mushkulni bot aylar aning hijroni hal.

Hajridin o‘lmay visoli no‘shidin topsam umid,
Aylagumdur sa’y o‘lmaktin tirilmak filmasal.

Hajr bemorig‘a qotil zahr erur hayvon suyi,
Ey Masih, asra nafas bu nuktada, qilma jadal.

So‘ngg‘i kundin xalq tarson, men burun kundin vahim,
Elga g‘am shomi abad keldi, manga subhi azal.

Ich Navoiy, g‘ussa tahlilig‘a gulgun bodakim,
Bir piyola la’li mahlul o‘lmadi andin badal.

375

Jong‘a zulmungni nechakim ko‘nglung istar, oncha
Qil, Men cheka olg‘ancha demon, sen qila olg‘ancha qil.

Qo‘zg‘adi ko‘nglumni bedod aylabon xayli g‘aming,
Gar rioyat aylasang, ul mulk qo‘zg‘olg‘ancha qil.

Jonima ming dard solding, ayla mingdin birni daf’,
Aytmon anda davo ham dardni solg‘ancha qil.

G‘am yuki ostida tavshaldurdi hijroning meni,
Iltifot etsang dog‘i men zor tavsholg‘ancha qil.

Javru bedoding tuganmay qolg‘an ersa jonima,
Charxdin ham untuj olsang, ol demon, qolg‘ancha qil.

Va’dai mehrin manga yuz qatla yolg‘on etti charx,
Sen dog‘i bemehrlik qilsang, yuz ul yolg‘ancha qil.

Ey Navoiy, navha ohangida ko‘p qilding fig‘on,
Emdi majlis mutribi bu nag‘mani cholg‘ancha qil.

376

Bu ne qomat, bu ne raftoru na shaklu na shamoyil
Kim, etar aqlni madhush, dog‘i hushni zoysk

Yuzi kuydurmakima o‘t, sochi yig‘latmog‘ima dud,
Ko‘zi torojima soiy, qoshi xunrezima qotil.

Jonfizo husni niqob ichra, dog‘i el talashib jon,
Qolmag‘ay erdi tirik bir kishi, ul bo‘lmasa hoyil.

Tig‘in egnimga tushurmakni hamoyil tilayolmon,
Qayda ul baxtki, bo‘lg‘ay qo‘li bo‘ynumg‘a hamoyil.

Ey habib, etma Masih ollida izhori fasohat,
Chun erur dam ura olmasqa labing ollida qoyil.

Aqlu hushu xiradu jonne aning yo'lida qo'ydum
Topmadim vasl muhayyo qilibon muncha vasoyil.

Chunki ushshoq uni yoqmas emish ul gul qulog'ig'a,
Ey Navoiy, necha bulbul kebi bu na'rai hoyil.

377

Ey musavvir, orazin ko'r, mehri raxshon chekmagil,
Jondin ortiqdur labi, zinhorkim jon chekmagil.

Keldi ul mir'oti husnu uchmoq istar jon qushi,
Ey ko'ngul, bir lahza urma ohu afg'on chekmagil.

Novakidin jon topib erdimki chekting, ey rafiq,
Emdi bore zaxmidin bir lahza paykon chekmagil.

Eyki, bo'ynum bog'lading ko'yida jurmi ishq ila,
Asra gardanbasta qulni, lek har yon chekmagil.

G'amza tig'idinki ko'nglumni qovorsen oshkor,
Chin esa qullob, zulfung birla pinhon chekmagil.

Mumkin ermas qismat o'lg'an rizqning afzunlig'i,
Bas xaloyiq minnatin, to bo'lg'ay imkon, chekmagil.

Ey Navoiy, xonaqah shayxi ko'p etkay zarqu makr,
Yo'qluq asbobini mug' dayridin oson chekmagil.

378

Nachukki dard qirog'i ayog'ing ostida dol,
Uzor nuqtasi yanglig' uzoring ustida xol.

Alif kebi qading ul ikki lomi zulf ichra
Ko'rungach, o'ldum alar vasfin aylamaktin lol.

Taningki moviyi behol hulladin ko'runur,
Tanimni su kebi, tong yo'q, gar aylasa behol.

G'arib holim agar yor so'rmasa, ne ajab
Ki, og'zi yo'qlug' idin yo'qturur mahalli savol.

Malolat etti meni gard, lek qo'rqarmen
Ki, yetkay, ani desam, xotiringg'a gardi malol.

Bu bog' gullari chun bevafodur, ey bulbul,

Xush ul qusheki, taalluqdin o'ldi forig'bol.

Navoiy, istasa dilbar seni firoq ichra,
Murod topma, agar xud muroding o'lsa visol.

379

Iki ko'z manziling, ey mohi mahmil,
Ko'ngulga azm qil manzil-bamanzil.

Ko'zung qotildur, ammo zahr chashming
Erur o'lturmakimga zahri qotil.

Eshikingda yozarmen ohlar, lek
Bo'lur, bir oh cheksam, barcha zoyil.

Meni majnun dedi laylivashim, voy
Ki, bu devonani sog'indi oqil.

Ko'zung chun nimxob erdi, ne tong, gar
Ko'ngul saydini qildi nim bismil.

Erur bir xol birla mabdal fayz,
Sanga gar yetmas, ayla o'zni qobil.

Navoiy, o'zlukung raf' etkim, ul but
Erur maqsud ruxsorig'a hoyil.

380

Yoqing o't bergali, ey ishq, hayotimg'a xalal,
Dog'i hajr o'rtagucha o'rtasa nodog'i ajal.

Deb emishsenki, firoqimdag'i ushshoq ichra
Nechasin aylagum oxir, meni bori avval.

Nomai hajrim aro safhai taqvim kebi
Ashk qoni bila har sari chekilmish jadval.

Barqi tig'ingki vujudum xasini kuydurdı,
Dudidin tiyra gar o'lsa, kulidin ber sayqal.

Boshima shu'lai hijron tutashibdur, ne osig'
Kim, yorutmas qora hajrim kechasin bu mash'al.

Zohido, boda gunah bo'lsavu lekin ne gunah
Bizga bu ishni nasib etti chu qassomi azal.

Ishqdin ko‘p gala nazm etti Navoiy, bilmon,
Naylagay, turfa g‘azolig‘a yetushsa bu g‘azal.

381

Go‘yo labu xattingni tarh etkanda naqqoshi azal,
Shingarfu zangor o‘rnig‘a la’lu zumurrad qildi hal.

Fosh etti gohi riqqati ko‘z qoni tomg‘an hay’ati
Kim, ko‘z qorasin furqati qon birla aylabtur badal.

Dog‘i firoq, ey dilrabo, andoq ko‘zum qildi qora
Kim, ko‘z qorasidek manga matlub erur dog‘i ajal.

Sen furqat istab kin ila, men yer o‘pub tamkin ila,
Qatl ahliga taskin ila qilmoq namoz erur hiyal.

Hajring o‘tidin har zamon andoq kuyar ozurda jon
Kim, sog‘inur bog‘i jinon do‘zaxqa kirsa filmasal.

Yuz yilg‘a umr o‘lsun qarin bir dam ko‘rar ahli yaqin,
Bas nedur, ey xilvatnishin, muncha sanga tuli amal.

Vaslu zamoni bul-ajab, soqiy, qadah tut lab-balab,
Mutrib, tuzat savtu tarab, o‘tkar, Navoiy, bir g‘azal.

382

Ishqing o‘tidin tanim kul bo‘ldi, ey badmehr, bil,
Mehr uyi qilsang bino, ul kul bila tarh aylagil.

Gar buzuqta chug‘z nolon ko‘rmamishsen, zaxmi ko‘p
Tan aro afg‘on chekar ko‘nglum qushin nazzora qil.

Keldi chun ohimdin o‘t olmoqqa Majnuni zaif,
To‘lg‘anib churkandi ul o‘t ichra ul yanglig‘ki qil.

G‘am tuni za’f ettim andoqkim sahar ul ko‘ydin
Subh anfosi uchurg‘udek tanim bo‘lmish yengil.

Ko‘nglaki gulgun behol o‘ldi chun jismin quchar,
Naylasun behol bo‘lmay, en ko‘ngul, oxir degil.

Umrg‘a hech e’timode yo‘qtur, ey g‘ofil ko‘ngul,
Oyu yilni necha mast o‘tkargasen, bir ham oyil.

Necha ul kirpik sinonig‘a Navoiy ko‘nglini,
Har zamon ilg‘aysen, ey badmehr, ani bir ko‘zga il.

Kim dedi mehringni ul mahvashqa ravshan aylagil,
Kuch bila joningg'a jononingni dushman aylagil.

Ul pariy chun bordi, xohi telbalardek dasht tut,
Xoh zuhdu ofiyat kunjini maskan aylagil.

Chun bo'lur ul turfa qush ko'prak ramida, ne osig',
Har zamon yuz qatla gar faryodu shevan aylagil.

Ey quyosh, ishqingda gar sargashta bo'ldi zarrae,
Garm o'lub kuydurma, balkim mehr anga fan aylagil.

Bo'lmasa ul sarvi gulrux, ey ko'ngul, do'zaxcha bor,
Xohi azmi dasht qil, gar mayli gulshan aylagil.

Har ne davrondin kelur, taslim xushtur, ey rafiq,
Naf' chun yo'q, o'zni gar yuz qatla tavsan aylagil.

G'am sipohi qatlig'a mayxonadur dorul-omon,
Ey Navoiy, zinhor ul uyni ma'man aylagil.

Ey pariy, yuz yoraliq ko'nglum sari nazzora
Qil, Yorasiz har qaydakim topsang, ani ham yora qil.

Pora-pora aylagach bir-bir aning ajzosini,
Yuzlarin borining ohim dudi birla qora qil.

Xayli hindudekki, dushman ilgida bo'lg'ay asir,
Har birisin olam ichra bir taraf ovora qil.

Chun alar ovora bo'ldi, ko'zlarimni ham o'yub,
O'tqa tashlab, uylarin ham tosh bila yuz pora qil.

Ul ikavdin boshima kelgan balovu g'ussani
Aylabon mundoq uqubatlar zamone chora qil.

Ko'zu ko'nglum bo'lmasa netkung agarchi, ey sipehr,
Xo'blarg'a sarvdin qad, mehrdin ruxsora qil.

Ey Navoiy, o'ynag'ung yo'q ishq to yuz ko'rmagung,
Uzr aytib, yer o'pu so'z tarkini yakbora qil.

Ey ko‘ngul, hijron kunidur, tortib afg‘on yig‘lag‘il,
Vay ko‘z, ayrulg‘ungdur ul gulchehradin, qon yig‘lag‘il.

Ko‘z tutarmen, ey bulutkim, o‘tsang ul gulshan sari,
Chun sog‘insang bizni, un tortib, farovon yig‘lag‘il.

Rostliq haqqi uchun, ey sham’, bir tun bazmida
Chiqsa so‘z mendin, kuyub behaddu poyon yig‘lag‘il.

Ey qadah, qon yutmag‘imni majlisinda sog‘inib,
Cheksa gulgun boda ul gulbargi xandon, yig‘lag‘il.

Ko‘nglum olg‘an chog‘da, ey ko‘z, man’i ashk ettim, valek
Qasdi jon ham qildi chun ul ko‘nglum olg‘on, yig‘lag‘il.

Yo‘l qotiq, maqsud mubham, ya’s g‘olib, ey ko‘ngul,
Un chekib bu holinga, to bordur imkon, yig‘lag‘il.

Ey Navoiy, belu og‘zidin sanga yo‘qtur nasib,
Xoh paydo nola chekkil, xoh pinhon yig‘lag‘il.

386

Hajr o‘qidin, ey ko‘ngul, har yon qanotlar soz qil,
Ul pariy vasli havosin istabon parvoz qil.

Istasang bir qissa, ey roviyki, el ko‘p yig‘lag‘ay,
Ishq aro ko‘rganlarimning sharhidin og‘oz qil.

Biz niyoz ahliyu sen noz ahlisen, rahm et gahe,
Qo‘y niyoz etmakka bizni goh, o‘zung ham noz qil.

Gar desang qatlim so‘zinkim yo‘q degum yo‘q, ey Masih,
O‘lgum armon birla, bir dam ham meni hamroz qil.

Rahm ozu javr ko‘p qilmoq sanamlar da’bidur,
Gar qila olsang ani ko‘prak, bu birni oz qil.

Berma, ey zohid, taayundin o‘zungga imtiyoz,
O‘zni eldin betaayunluq bila mumtoz qil.

Gar begonamassen Navoiyning nihoniy dardini,
Yona, ey ishq, ohi birla ashkini g‘ammoz qil.

387

Tig‘i hijroning bila ko‘nglumni yuz parkand bil,

Har birin yuz yoraliq bag‘rimg‘a bir payvand bil.

Dema har torida zulfining nedindur yuz girih,
Har birin ul torlardin yuz ko‘ngulga band bil.

Oyu kun gar validayi o‘lsa ul afzun husn aro,
Ayb emas, ikki sadafqa dur kebi farzand bil.

Yolg‘on ahli ishq yanglig‘ qatlim etma, chehra och,
Bir ko‘rub ishq ichra o‘lmakka meni xursand bil.

Husnig‘a o‘xshatting, ey gardun, quyoshingni, valek
On anga monanddek, ani munga monand bil.

Eyki shahsen, lek qilmaysen ravo el hojatin,
O‘zni ham o‘zdin ulug‘roq shahg‘a hojatmand bil.

Ey Navoiy, pand eshitmay telba ko‘nglung bo‘ldi gum,
Desang andoq bo‘lmay, ahvolin o‘zungga pand bil.

388

Hullasin ul sarv qildi naxli ra’nodek yashil,
Lek ohim dudidin vahm aylab osrodek yashil.

Evrulur boshig‘a bulbullar kebi parvonalar,
Qilg‘ali ul sham’ kisvat sarvi ra’nodek yashil.

Rangi la’li gar durur qonlig‘ mujam, tokim erur
Vusma birla qoshi mino tusluq yodek yashil.

Istamas bo‘lsa qora el ro‘zgorin ul quyosh,
Hullasin bas nevchun etmis charxi xazrodek yashil.

Gar muallim lavhi mino javrin o‘rgatmas, nedin
Lavhai ta’limin etti lavhi minodek yashil.

Revu rang ahli muridi bo‘lmag‘ilkim, Xizr emas,
Xirqasin har ahmaq etsa baqli hamqodek yashil.

Ey Navoiy, yuz gul ochti joninga ul sarvinoz,
To libos etti bahori olamorodek yashil.

389

Yuziga, anglamadimkim, niqob erur hoyil,
Quyosh jamolig‘a yoxud sahab erur hoyil.

Uzori ustida kokilmu bo'ldi oshufta,
Yo'q ersa gul yuziga mushki nob erur hoyil.

O'qung ko'runmas esa pora-pora ko'nglum aro,
Ne tongki, six ko'rarga kabob erur hoyil.

Buzug' ko'ngul aro ul ganji husndur, yuz shukr
Ki, el ko'zidin anga bu xarob erur hoyil.

Fig'onki, turfa mug'anniy uni bila xushmen,
Vale netayki, yuziga kitob erur hoyil.

Ko'rarsen ani, gar o'zluk hijobin etsang raf',
Agarchi ko'rgali yuz ming hijob erur hoyil.

Navoiy, aylama ko'rmak xayol ul gulni
Ki, bargdin yuziga behisob erur hoyil.

390

Orazingni bog' aro chun ko'rdi, hayron bo'ldi gul,
Bargsiz qoldi, nedinkim, bas parishon bo'ldi gul.

Bodadin gul-gul ko'rub ul yuzni, aning hajridin,
Chok-chok o'lg'an ko'nguldek tah-batah qon bo'ldi gul.

Guluzorim kishvari husn ichra bo'ldi podshoh,
Rost andoqkim, chaman mulkida sulton bo'ldi gul.

Sayri bog' aylarda davron chashmi zaxmi daf'ig'a,
Har taraftin chobukum davrida qalqon bo'ldi gul.

La'li komimdur, qoshimda kelsa ul gul xirmani,
May tilar ko'nglum, chu bazmimda farovon bo'ldi gul.

Kecha-kunduz qilma gulbongingni bas, ey andalib
Kim, sanga besh kun bu gulshan ichra mehmon bo'ldi gul.

Gul chog'i yori safar aylab, Navoiy jonig'a
Har biri bir toza qonlig' dog'i hijron bo'ldi gul.

391

Otashnn gul g'unchasidur o'tlug'u qonliq ko'ngul,
Zor bulbul tumshug'i chokidin afg'onliq ko'ngul.

Bo'stonafro'z erur har yon nihon tuxmi aning,
Hajr xunobi aro yuz dog'i pinhonliq ko'ngul.

Xasta jonning so‘gida devonaedur motami,
Ko‘kragimning zaxmidin choki giribonliq ko‘ngul.

To bo‘lub yuz pora, har bir pora zulfung toridin
Birga bog‘landi, base topti parishonlig‘ ko‘ngul.

Birki hayron bo‘ldi ul orazg‘a, ko‘rdi xalqdin
Har nafas yuz qatla o‘z holig‘a hayronlig‘ ko‘ngul.

G‘unchalar ermas tikonlar ichrakim, ushshoqdek
Charxdin ko‘rguzdi ul ham necha laykonlig‘ ko‘ngul.

Ey Navoiy, ko‘nglung oldurma, yo‘q ersa sen o‘lub,
Ne osig‘, yuz qatla gar qilsa pushaymonlig‘ ko‘ngul.

392

Yuzini ko‘rdi badan chokidin xarob ko‘ngul,
Uzuldi, baski ayon qildi iztirob ko‘ngul.

Chu bo‘ldi jilvagar ul ganji husn hasratidin,
Xaroblig‘ qiladur har zamon xarob ko‘ngul.

Magar shikanjai zulfungg‘a qoldikim, urdi
O‘ziga g‘uncha kebi muncha pechu tob ko‘ngul.

Balodurur g‘ami ishqing sening vale yuz voy
Kim, ul balodin eta olmas ijinob ko‘ngul.

Sharori oh masallik ul oy havosida ko‘r
Ki, pora-pora qilur ko‘k sari shitob ko‘ngul.

Riroyat ayla sudek sof xalq ko‘nglinikim,
Sinar nafas bila ul nav’kim hubob ko‘ngul.

Navoiy oncha labingdin dediki, bo‘ldi anga
Teshilmaki bila qon ichra la’li nob ko‘ngul.

MIM HARFINING MAHBUBLARINING MALOHATI «BADOYE» DIN

393

Bormu ul ikki o‘rulgong gesuyi anbar shamim,
Yo etak solmish Muhammadda yozilg‘an ikki «mim».

Hamd vajhida biri sarchashmai obi hayot,
Haddi lutf ichra biri sarxalqai ahli na’im.

Ul biridin ruhparvar topti anfosi Masih,
Bu birisidin asosin ajdaho ko‘rdi kalim.

Jahl aro o‘lgan ko‘ngullarga dami Iso bo‘lub,
Chun esib tanlar quburig‘a riyozingdin nasim.

Ko‘rmagan bo‘lsang ato, ma’ni anga bu bo‘ldikim,
Sen kebi chiqmay nubuvvat bahridin durri yatim.

Turfa bukim, bul bashar keldi atolarg‘a ato,
Lek Bulqosim dedi farzand ani bevahmu biym.

Qidmat ichra barchadin bo‘ldung muqaddamroq, valek
Ulki sendindur muqaddamroq, erur hayyi qadim.

Yo nabiilloh salomatdin bo‘lub men munharif,
Bir inoyat birla ahvolimni qilg‘il mustaqim.

Tong emastur, gar navo bo‘stonida topqay maqom,
Chun Navoiy o‘zni na’ting ko‘yida qildi muqim.

394

Necha hijrondin buzug‘ ko‘nglumda bo‘lg‘ay dam-badam
G‘am uza g‘am, dard uza dardu alam uzra alam.

Yor hijroni, vatan tarkiyu g‘urbat shiddati,
Charx bedodiyu davron mehnati, el javri ham.

Sabr ozidin azob, anduh ko‘pidin iztirob,
Ashkdin sayli balo, oh o‘tidin har dam alam.

Subhu shom emgak ko‘pidin ko‘ngluma yuz ming balo,
Shom to subh uyqu yo‘qtin jonima yuz ming sitam.

Barcha bir sari, mangavu yor za’fi bir sari,
Kosh anga sihat bo‘lub, bo‘lg‘ay manga yuz muncha g‘am.

Sadqa aylarga anga loyiq, manga yo‘q tuhfae,
Xasta jonim naqdi bordur elt, ey payki haram.

Ey Navoiy, sharhi holimni dedim irsol etay,
So‘zidin ham safhag‘a o‘t tushti, ham kuydi qalam.

395

Subhidam gul yoqtı sham'u lola zohir qildi jom,

Ya'ni yoqib sham', ol jomi sabuhiy birla kom.

Jomi gulgun xushturur bir sarvqad sho'x ilgidin,
Ul nafaskim, tong yelidin gulga sarv aylar salom.

Subhkim bulbul maqomi «rost» tuzgay sarv uza,
Bazm uchun tut sen dog'i bir sarv ayog'inda maqom.

Subh nevchun umrdin may birla kome topmag'ay,
Kimsakim, umrig'a yo'qtur e'timod o'lg'uncha shom.

Soqie xushtur sabohatlig' sabuhi vaqtida,
Lek andin xushroq uldurkim, bu aysh o'lg'ay mudom.

Gul arusig'a berur ziynat chaman mashshotasi,
Su bila har subh to bo'l mish zilol oyinafom.

Sen dog'i bir gul isi birla dimog'ingni qizit,
Vasl savdosin pishur, garchi erur savdoi xom.

Men xud ul sarvi xiromonni dedim, umri aziz,
Vahkim, ul sarvi xiromon bas itik aylar xirom.

Ey Navoiy, umr ishida xud ko'p ihmol aylading,
Qilmasang dunyo ishiga ham bo'lur ko'p ihtmom.

396

Xoli xatting uza, ey turfa sanam,
Aylading nuqta xat ustida raqam.

Tushti ko'z zulf ila og'zingg'a, ne tong,
Aylasa ishq vujudumni adam.

O't solib boshima ishqu tan aro,
Sham'ning rishtasidek pech ila xam.

O'qi zaxmi uza kuydurdum dog',
Qorasi zaxm uza bo'ldi marham.

O'ziga qilmag'an o'zlukni harom,
Harami ishq aro bo'lmas mahram,

Soqiyo, oyinagun jom bila
Bir dam etgil meni Iskandaru Jam

Ki, na Jam qoldiyu ne Iskandar,
Itti ul jom ila ul ko'zgu ham.

Shod bo'lkim, ikki olam komi
Arzimaskim, yegasen bir dam g'am.

Ey Navoiy, sanga sa'b o'lsa xirad,
Telbalik silsilasin tut mahkam.

397

Yorg'a yetkach alam, tutti ko'ngul xaylini g'am,
Shahg'a chun ranje yetar, ranjur o'lur mulk ahli ham.

Yor uydin chiqmasa, olam ko'zumga tiyradur,
Chun quyosh chiqmas, jahondin murtafi' bo'lmas zulam.

Ne haroratdур sangakim, kuydi andin olame,
Uylakim o'rtar jahonni mehr o'ti urg'ach alam.

Ne araqdurkim, ichinda g'arqadur nozuk taning,
Bargi guldekkim, gulob ichra cho'mar sar to qadam.

Sarvg'a bog' ichra har yon jilva qilmoq xushturur,
Soyadek nevchun yotibdur sarvi gulzori Eram.

Sensiz ichmak uyladurkim marg jomi ichra zahr,
Obi hayvon birla gar bo'lsa labolab jomi Jam.

Ey Navoiy, sadqasi bo'lg'il alam daf'i uchun,
Men o'lub, gar ul salomat bo'lsa, hech ermas alam.

398

Yer uzra tim-tim qon yoshim go'yoki tommas dam-badam
Kim, naqdi vasling bay'ig'a ko'zlar sanar bir-bir
diram.

Ishqingda bo'lg'ach xoki rah, bo'ldum balokashlарg'a shah,
G'am xaylidin tortib sipah, oh o'tidin chektim alam.

Bir qatla ko'rsang ani, bas, ta'n etmagay erding havas,
Ishqig'a, eykim, har nafas bizni qilursen muttaham.

Ey sarv qaddi mahliqo, tengri qachon ko'rgay ravo
Medin vafo uzra vafo, sendin sitam uzra sitam.

Yo'q fikri bu devonaning, titrar ichi hamxonaning
Kim, saqfi bu vayronaning ashkim suyidin bo'ldi nam.

Mutrib, navoe kom tut, mug‘ dayrida orom tut,
Soqiy, labolab jom tutkim, qasdi jonim qildi g‘am.

Berganga g‘am dahri dani mayxona basdur maskani
Kim, boda daf‘ aylar ani, yetsa kishiga har alam.

Dayru haramda sar-basar, ul yuzdin istarlar xabar,
Ko‘p ham nizo‘ etma agar ul der samad, bu der sanam.

Deding topib jonon isi, toptim labidin jon isi,
Kelur bu so‘zdin qon isi, tinma, Navoiy, asra dam.

399

Tutqali bodai gulgun qadi savsan mohim,
Savsani xonadurur har kecha manzilgohim.

Vahki, vasfida tilim loldurur sabsandek,
Savsani to‘n ila to jilvagar o‘lmish mohim.

Ko‘rgali qaddini savsan sari tuz boqmaymen,
Ushbu so‘z tuzlugiga tengri erur ogohim.

Manga dilxoh aning qaddu yuzidur, garchi
Savsanu gul sari ko‘p mayl qilur dilxohim.

Qomating xijlatidin savsan o‘lubtur necha rang,
Yo bu nav‘ etmish ani shu‘lavu dudi ohim.

Bu chaman savsanu sarvig‘a baqo chun yo‘qtur,
Bo‘lsa gul gashtidin aning, ne ajab, ikrohim.

Ey Navoiy, netayin sarv ila sabsanki, erur
Savsani to‘n bila ul sarvi ravon hamrohim.

400

Qachon ko‘rsam ul oyni, kuydurur jonimni afg‘onim,
Agar ko‘rmak muyassar bo‘lmasa, miskin mening jonim.

Ko‘zum yoshi tanim zaxmi bila ko‘yung yo‘lin tuttum
Ki, bir sari borur ashkim, yana sari borur qonim.

Tanimda buki pinhon dog‘lardur, aylagay pinhon
Tanimni, har tarafdin bo‘lsa paydo dog‘i pinhonim.

Quyundek dasht uza sargashtadur xoki tanim, yoxud
Libos etmish quyunning pardasidin jismi uryonim.

Tanimg‘a kelmadi ovora ko‘nglum ko‘yidin, go‘yo
Unutmish xonumonin ul aloxonu alomonim.

Yonimg‘a keldi ul mahvash, dam urmon, lek naylaykim,
Ko‘ngulning iztirobidin teshilgudekdurur yonim.

Ayoqchi mahvashu may dilkashu ahli tarab sarkush,
Qadah kelturki, qilmoq porsoliq yo‘qtur imkonim.

Zamon ashobining hajri qoshimda vaslidin xushroq
Ki, xushroqdur visolimdin alar ollida hijronim.

Navoiy ishq aro zunnor bog‘lab kirdi dayr ichra,
Mug‘ona bir qadah bermas hanuz ul nomusulmonim.

401

Ne g‘am, ko‘rguzsa ko‘ksum yorasin choki giribonim,
Ko‘runmas bo‘lsa ko‘nglum yorasidin dog‘i pinhonim.

Bag‘irdin o‘zga yo‘qtur to“ma, ko‘ksum chokidin yerga
Ichimga boshini solib iting gar bo‘lsa mehmonim.

Bo‘lubtur za’fim ul yanglig‘ki, bossam mo‘rni o‘lmas,
Vale ul jismim uzra chiqsa, dardidin chiqar jonim.

Tanimg‘a muncha za’f o‘ldiki, rangin ashk ifroti,
Ne tong za’fim, chu ikki zaxmdin turmay borur qonim.

Sabohi vasl ul oy istab meni tufrog‘ aro topmas
Ki, shomi hajr ko‘p gardi fano yog‘durdi vayronim.

Chamandin yel ravanoso kelur har dam, ajab ermas
Ki, gulgashti chaman aylar bugun sarvi xiromonim.

Tiyarmen ohu ashkimni ulus bedodidin, yo‘qsa
Olur dodim alardin ushbu sarsar birla to‘fonim.

Meni maqsuddin mahrum etibsen, ey ko‘ngul, har dam
Jafo dog‘i bila kuydurmakim, bas dog‘i hirmonim.

Qilibtur va’dai vasl, ey Navoiy, vah, ne xush bo‘lg‘ay,
So‘zin bir qatla gar chin aylasa ul ahdi yolg‘onim.

402

Sahar ko‘rdum yuzin — aqshomg‘acha kuydi hazin jonim,

Bu erdi subhi vaslim to ne bo'lg'ay shomi hijronim.

Quyosh kulbamg'a ingandin manga yuz qatla xushroqdur
Qora shomimni ravshan aylagan sham'i shabistonim.

Ne yanglig' yoshuray hijron g'aminkim, fosh etar har dam
Og'izdin shu'laliq ohim, nazardin ashksiz qonim.

Ajabtur toiri vasl istamak kulbamg'a qo'nmoqkim,
Yaqindur nasri voqi'ni uchurg'ay ko'ktin afg'onim.

Qading naxli xayoli ko'zdadur, ey navbahori husn,
Maozolloh, agar ani qo'ngarg'ay sayli mujgonim.

Dedim, so'zon ko'nguldin chekmagil bir dam xadangingni,
Dedikim, qolsa bir dam su bo'lur ul o'tda paykonim.

Baliyat toshi yog'durg'an kebi vayronima gardun,
Mazallat gardi har dam yog'durur boshimg'a vayronim.

Qadah davrin evur, ey dayr piri, toki mumkindur
Ki, davron ranjini tortarg'a emdi yo'qtur imkonim.

Dema jomi fano ichra ezilmishtur ajal zahri,
Navoiy, jon berib, ul jomni chekmakdur armonim.

403

Suda ko'rmaq yuzung dushvor edi, ey husn aro mohim,
Xususankim, anga tahrik bergay sarsari ohim.

Ne yanglig' ul quyosh ko'yiga yolg'uz azm qilg'aymen
Ki, bo'lmoq istamon ul yon borurg'a soya hamrohim.

Ko'ngulni istadi ul, ani ko'nglum istadi, yuz shukr
Ki, holo dast bermish har nekim bor erdi dilxohim.

Biravni ko'z ko'rub, ko'nglum asir o'lg'anni yoshursam,
Gah ashkim imtidodi fosh etar, gah ohi nogohim.

Gar o'lsam itlari hamkosasi, ahbob, ta'n etmang,
Alar ikrohi gar yo'qtur, mening xud qayda ikrohim.

Necha dog' istaram ko'nglum aro, tengri uchun o'rta
Ki, soyilmen, bu ikki-uch diramdur shayalillohim.

Mavokib gardi ul yondin, bu yondin xalq nazzora,
Magar yo'linda men o'lgan, tamoshog'a kelur shohim.

Ajab yo‘q pirlarning nuktasidin bo‘lmog‘im ogah,
Fano yo‘li suluki ichra bo‘lsa piri ogohim.

Tanimni, ey Navoiy, har taraf ko‘yida oh eltur,
Tilab ul xirmani gulni, uchar har yon pari kohim.

404

Junundin uyla tufrog‘ o‘ldi jismi ranjparvardim
Ki, har tosh ursalar atfol jismimg‘a, chiqar gardim.

Necha hajrinda o‘lsam ohu ashkimdin solib to‘fon,
Vale qo‘ymang, ko‘rarga kelsa sarvi nozparvardim.

Yo‘lida baski qo‘ydum chehra sanchilg‘an xasu xoshok,
Somonlar bilki chekmish kahrabodek chehrai zardim.

Payopay ne ekin abri bahordin choqin tushmak,
Bulut uzra bir uchqun soldi go‘yo shu’lai dardim.

Quyundek gar talab dashtida yo‘q men yetmagan vodiy
Ne g‘am, sargashtalikda uchrasa mohi jahongardim.

Vafot bo‘stonin ashkim birla serob ayladim, umre
Erur g‘am novaki-sarvimi, bag‘ir pargolasi vardim.

Muhiqdur, ey Navoiy, ul pariy mendin malul o‘lmoq,
Nedinkim, ko‘yida devonalig‘ni haddin o‘tkardim.

405

Ey, yuzu qadding oshiqi gulu sarvi ravon ham,
Munung ichida o‘qdur, aning bag‘rida qon ham.

Ko‘yung erur ul ravzaki, xijlat topib andin,
Gum bo‘ldi gulistonni Eram, bog‘i jinon ham.

Og‘zing bila la’lingni tilar jonu ko‘ngulkim,
G‘unchangg‘a ko‘ngul sadqa, fido la’linga jon ham.

Ko‘nglum kebidur g‘uncha, ekan lolaki bordur,
Paydo toshida qon, ichida dog‘i nihon ham.

Gah bul-ajab ahvolima, gah dardima bo‘lmish
Ul ko‘yida har kechaki g‘avg‘ovu fig‘on ham.

Men telbaki ko‘rgach ani faryod etib o‘ldum,

Gar yaxshi emas erdi, emas erdi yomon ham.

G‘am xayli hujum etsa, yugur maykada sari,
Nevchunkn, erur hisni hasin dori omon ham.

Tut mug‘tanam, o‘ldung esa xushhol zamone,
Nevchunki, zamon hosid erur, ahli zamon ham.

Har yon borur ul sho‘xu Navoiyg‘a ham ummid
Kim, sahv ila shoyad qilg‘ay mayl bu yon ham.

406

Ishq o‘tidin tanda andoq sa’b o‘lubtur kuymakim
Kim, shararlar toridin go‘yo to‘qilmish ko‘nglakim.

Bag‘rimu ko‘nglum itiga to“maliq dushvor edi,
Shukrkim, chok o‘ldi ishqqing tig‘i birla ko‘kragim.

Za’fdin ko‘yungga bordim surganib atfoldek,
Rahm qilg‘ilkim, bu yo‘lda haddin oshdi emgakim.

Dema uyqusiz ko‘zung hajrim tuni ochilmadi,
Ne qila olg‘ay ajal uyqusi birla sergakim.

Bir qadam vayronima qo‘ykim, g‘amingdin tunu kun
Yuzga ilgimdur sutun, tufroqqa botib tirsakim.

Dard ko‘rkim, dev siyratlar bilandur ul pariy,
Garchi bor andin malak xaylig‘a dog‘i tergakim.

Ey Navoiy, hajridin yillar quyub, ul bevafo
Demadikim, naylar ul ushshoq ichinda ertakim.

407

Hajringda qonu g‘ussadur ichmak-emaklarim,
Ishrat surudi nolai zor aylamaklarim.

Maxfiy g‘aming yozarda yig‘ilg‘an bitikcha bor
Darding nihon tutardin oqarg‘an so‘ngaklarim.

Jonu ko‘ngul firoq hujumida ittilar,
Medin zabunu zorroq ermish ko‘maklarim.

O‘pmak izingni yo‘q haddim, ammo xayol ila
La’lingni yolqitur mutaoqib muchaklarim.

Gardi balo boshimg‘a yog‘ar onchakim, magar
Chambarlaridin ayladi gardun elaklarim.

Yuz pora bag‘rima tish urar men yutarda qon,
Bu bo‘lsa may, ne tong, alar o‘lmoq gazaklarim.

Og‘zing gumoni erdi Navoiyda, shukrkim,
Nutqung yaqing‘a qildi badal barcha shaklarim.

408

Yig‘larimni, eyki, ko‘p man’ aylading, yo‘qtur shakim,
Ashking o‘lmoqda sadim gar bo‘lsa darding sad’yakim.

Ul quyosh vaslin tilarda po‘yam ul g‘oyatdadur
Kim, emas mumkinki, bir kun soya bo‘lg‘ay hamtakim.

Jon berib, vaslingni bay’ etkanni yozdim ko‘ngluma,
Dardu ishq ikki guvohim, choklik ko‘nglum chakim.

Shomi hajr uyg‘oqmen behad kelurdin ko‘zga yosh,
Uyqug‘a qo‘ymas yugurmakdin bu xayli go‘dakim.

Ko‘ngluma juzv o‘ldi paykoningki, chiqmas tortibon
Juzv-juzv o‘lsa ko‘ngul, ul juzv erur loyanfakim.

Soqiyo, mir’oti idrokimni maydin ravshan et
Kim, emas bu korgahda bir sarimo‘ mudrakim.

Ey Navoiy, og‘zidin ko‘nglumda gar bor erdi shak,
Qatlima chun demadi so‘z, bartaraf bo‘ldi shakim.

409

Kishi ham ermas emish ishq sirrig‘a mahram,
Taxayyulig‘a ko‘ngul ham, hadisig‘a til ham.

Nasime g‘uncha ichidin chu yoydi gul atrin,
Dimog‘larg‘a yetardin ne chora, ey hamdam.

Yoshurdi odam agar tengri sirrini, ko‘runguz
Ki, xalq sirrini tutmas nihon bani odam.

Taashshuqum so‘zini, ey rafiq, ko‘p so‘rma
Ki, bu fasonaning avlodur o‘limg‘i mubham.

Agar gunohim esa dardu ishq izhori,
Bu so‘zda yaxshi yomonning qoshida men mulzam.

Hayot bo'lsa qililg‘ay talofiyi mofot,
Fig‘onki, umr binosi emasturur mahkam.

Xush ulki, mast o‘lub o‘lg‘ay xalos olamdin
Ki, keldi olami behushluq ajab olam.

Men o‘lmadim esa g‘amsiz dame, g‘am ermastur
Ki, g‘am hujum etar, o‘lg‘an zamon dame xurram.

Ne tong, Navoiy ulustin gar o‘ldi ozurda
Ki, ko‘rdi ko‘p alam uzra alam, g‘am ustida g‘am.

410

Furqati za’fida qon yosh ichra yotmisht paykarim,
Guluzorimdek qizil atlastin o‘lmish bistaram.

Yuz bila ashkim oritti yor, shod o‘lsam ne tong
Kim, tulu’ etti saodat matla’idin axtarim.

Otashin la’ling g‘ami qonlig‘ tanimg‘a soldi o‘t,
Uchqunum gulbarg o‘lub, la’l o‘lg‘usidur axgarim.

Oh shoyad ko‘yi sari eltgay deb shodmen,
Garchi gard o‘ldi yo‘linda jismi mehnatparvarim.

Uyla hijron birla xo‘y ettimki, gar derlar birav
Yori birla vasl topmishtur, emastur bovarim.

Itlaring sing‘an safoli ichra bo‘ldum durdkash,
Bo‘lmasun hargiz tihi ul bodadin bu sog‘arim.

Ey Navoiy, hajr o‘qidin par chiqarmog‘ ne osig‘,
Chun pariy ro‘yung‘a yetmakka yaramas bu parim.

411

Ko‘nglumu jonim fido og‘zig‘a, guftorig‘a ham,
Kufrimu dinim dog‘i zulfig‘a, ruxsorig‘a ham.

Itti qonlig‘ ko‘nglum, uzgil g‘unchalarni, ey sabo
Kim, anga ko‘z solmayin, balkim namudorig‘a ham.

Zor ko‘nglumga agar boqib ani zor aylading,
Joni bemorimg‘a ham boq, jismi afgorimg‘a xam.

Borg‘ach ul sarvi ravon, jismimda jon qolg‘aymukim:

Qaddig‘a jon rishtasi bog‘landi, raftorig‘a ham.

Men kimu din, ey musulmonlarki, bir kofir ko‘rub,
Jon fido qildim chaliposig‘a, zunnorig‘a ham.

Dahr bog‘ining guli o‘tdur, biyik ashjori dud,
Yelga ber ul gulni ham, o‘t solg‘il ashjorig‘a ham.

Ey Navoiy, dahr yo‘qu bori tinmaslig‘durur,
Ting‘asen, gar qilmasang parvo yo‘qu borig‘a ham.

412

Emas junundin, agar tog‘larda bo‘lsa qarorim
Ki, qoldi bahri sirishkim tubida mulku diyormi.

Jamoling oyinasin xat chu tiyra ayladi — o‘ldum,
Ne ayb, qilsa quyosh ko‘zgusini tiyra g‘uborim.

Chu itlaring yaladi qonlarimni zaxmlaridin,
G‘arib marham edi buki topti jismi afgorim.

Sirishk qoni chu naqsh ayladim, nigor yetishti,
Bihisht qildi buzug‘ manzilimni naqshu nigorim.

Halokim ul qadu yuzdin chu bo‘ldi, tufrog‘im uzra
Bo‘lur, chu sarv uza gul egilsa, sham‘i mazorim.

Qadah olib labi jon baxshinga, quy og‘zima, soqiy
Ki, jonni aylagudekdur halok ranji xumorim.

Navoiyo, su agar qilsa toshni, ne osig‘dur,
Nigor ko‘ngliga qilmas asar chu nolai zorim.

413

Ne rafiqekim, davosiz dardi holimni desam,
Ne shafiqekim, nihoyatsiz malolimni desam.

Yetti charx avroqi to‘lg‘ay, yetti bahr o‘lsa midod,
Ul quyosh vaslig‘a bir damliq xayolimni desam.

Istimo’ o‘lsa xirad savdoi o‘lg‘ay shammae,
Zulfi zanjirida savdoi muholimni desam.

Chunki kozibdur munajjim o‘ksa mehrin ordur,
O‘truda ul axtari farxunda folimni desam.

Dema to‘bidinkim, ul eski daraxt o‘trusida
Nomunosibdur, agar navras niholimni desam.

Rind emasmen dayr aro, gar jomi Jamdin o‘tsa so‘z,
May gadolig‘ qilg‘ali sing‘an safolimni desam.

Ey Navoiy, xo‘blar ichra mening mohimdadur
Tab’i mavzunni desam yo zihni solimni desam.

414

Firoq o‘tidin aningdek qizibturur badanim
Kim, ani sokin etar jonni o‘rtagan tuganim.

G‘amingdin uyla o‘luklar hisobi bo‘lmishmen
Ki, hujra madfanu idbor gardidur kafanim.

Sirishk bahri aro uyla xo‘y qilmishmen
Ki, su kishisidek o‘lmish tengiz aro vatanim.

Farishtalig‘ tilamon, istaram iting bo‘lsam,
Agar bo‘lur esa zulfung kamandidin rasanim.

Agarchi yuz tikan ul g‘amza tiki bag‘rimg‘a,
Yuz ochsang, ochg‘usi yuz gul bag‘irda har tikanim.

Xush ulki, yig‘lar edim zor-zor dayrda mast,
Sanam g‘amidin o‘lub chok-chok pirahanim.

Navoiyo, qani ul fayz xonaqoh ichra
Azimat etki, erur xushroq anda-o‘q ekanim.

415

Ishq tarkin qildimu chiqtı ko‘nguldin yodi ham,
Sizga vaslining nishoti, hajrining bedodi ham.

Ishq buzsun deb ko‘ngul mulkini obod ayladim,
Yer quyi emdi aning vayroni ham, obodi ham.

Zor edimkim, shod emas ishq ichra ko‘nglum xotiri,
Emdi ko‘nglum qolmadi, ul xotiri noshodi ham.

Ko‘rsa Layli birla Shirin ruhi javrin, rahm etib,
Kuygay aning xasta Majnuni, munung Farhodi ham.

Dahr bog‘idin, ko‘ngul, naf‘i vafo ko‘z tutmakim,
Besamardur sarv ham, sarkashdurur shamshodi ham.

Men vafo kimdin topay, bu shevani chun topmadi
Ofarinishda pariy jinsi, bashar avlodи ham.

Yorsizlig‘din Navoiyni yana qo‘rqutmangiz
Kim, bu sa‘b ishga yurak bosti ko‘ngul to‘qtodi ham.

416

Keldi turguzgali za’fim ko‘rub ul Iso dam,
Kelgani ham o‘z ishin qildi, vale ketgani ham.

Kelmaki jon beribon qayturi o‘lturdi yana,
Go‘yiyo qaytg‘ali boshima yetkurdi qadam.

Borib o‘lturmadi jon naqd nisor etti ko‘ngul,
Uylakim, xalq sochar, shoh ayog‘ig‘a diram.

Shomi hijroniki, g‘oyatsiz erur tiyraligi,
Adam iqlimig‘a ul keldi savodi a’zam.

Ko‘zni surtub, gar itingning tobonin resh ettim,
Hal qilib ko‘z qorayu oqini aylay marham.

Vah, ne yanglig‘ bu xarobot aro hushyor bo‘lay
Ki, daqoyiqdur anga bir-birisidin mubham.

Men kimu vasl, ani xoslaringg‘a yetkur
Kim, Navoiyg‘a yetar hajr aro bedodu sitam.

417

Hajr qonim to‘kkudekdur, buylakim zor o‘lmisham,
Bot qutulg‘um garchi bas qottig‘ giriftor o‘lmisham.

Uylakim, uryon tanimg‘a yog‘di tosh hijronida,
Ey Masih, asra dampingkim, behad afgor o‘lmisham.

Kecha tegrang aylanib, kunduz yuzum devor uza,
Uydagi parvonadin go‘yo namudor o‘lmisham.

Mumkin ermas men qori soyilg‘a ko‘yung furqati
Xossakim, ishq ofatidin sa‘b bemor o‘lmisham.

Ko‘yi devorig‘a orqam yopishib, men volihi
Suvrati nazzorasida naqshi devor o‘lmisham.

Gar ko‘runmas ul pariy, istab anga yakranglik,

Za'fdin men telba ham emdi parivor o'lmisham.

Ey sabuh ahli, meni bir jom birla turguzung
Kim, o'lum holi xumor ilgida bedor o'lmisham.

To mulozim piri dayr o'ldi, murodim mug'bacha,
Sokini dayru muqimi ko'yi xammor o'lmisham.

Ey Navoiy, sarv birla gulni naylay, chunki men
Volai bir gul uzori sarv raftor o'lmisham.

418

Qarig'an chog'da bir mahwash yigitga mutbalo bo'ldum,
O'zum o'z jonima bedod qilmoqtin balo bo'ldum.

Manga ham oshno begona ham begona xasm o'ldi,
Ham ul chog'dinkim, ul begonavashqa oshno bo'ldum.

Junun sahosida demang qachondin bo'ldung ovora,
Aning ishqida tokim aql mulkidin jalo bo'ldum.

Yuzumga charxdin yuz koju ul oy ollida mardud,
Qorarg'an ro'zgorimdek ajab yuzi qora bo'ldum.

Hino yoqg'an kebi jismimg'a marhamni suvadiklar
Ki, boshtin to oyoq hajr o'qlari birla yaro bo'ldum.

Manga dorul-qazoyi ishq aro qon davo etti shavq,
Anga xunrez ko'z birla bu davog'a guvo bo'ldum.

Mug'ona nag'ma birla mug'bacha may tutti ollimda,
Chu bir irshodi birla sokini dayri fano bo'ldum.

Muraqqa' bas manga yuz dog'liq tan, chunki dayr ichra,
Safol ilgimda durdi boda istardin gado bo'ldum.

Navoiy barcha el bir yonu sen bir yon, yomon ermas
Gar ahli ishq toptilar navo, men benavo bo'ldum.

419

Ko'ngul jarohatig'a vaslidin davo ko'rsam,
Nazar murodin aning husnidin ravo ko'rsam.

Bu nomurod yuzin bir nazar ko'rub har dam,
Murodim ushbudururkim, ani yono ko'rsam.

Ne nav' el ko'zi ollida ko'rmakiga chiday,
Erur chu mardumidin rashk ko'z aro ko'rsam.

Qora ko'rub, ne balo qo'zg'alurlar el manga ham,
Ne aybu ham xatidin qora balo ko'rsam.

Ulus jafosidin etmon shikoyat ulcha kelur,
Ne shikva, ul ulus oshubidin jafo ko'rsam.

Qoshimda jomi Jamu sultanatcha bor o'rni,
Safol alimda xarobot aro gado ko'rsam.

Bu korgahda xato kelmadi chu bir sarimo'y,
Xato mening nazarimandurur, xato ko'rsam.

Qachong'acha bo'lay o'zluk muziyqi ichra batang,
Xush ulki, jilvagahim vodiyi fano ko'rsam.

Navoiyo, meni gar yor benavo qilsa,
Ko'p ortug' andinkim, g'ayrdin navo ko'rsam.

420

Jong'a ko'ksum chokidin jononni mehmon ayladim,
Gavhare tooptim, ani ko'nglumda pinhon ayladim.

Kavkab ermas, paxtalar tiqmis qulog'ig'a sipehr,
Ul quyosh hajrida tunlar, baski, afg'on ayladim.

Jong'a, ey gul, xori g'am ko'p urdung, et vahm emdikim,
Har birin bir novaki ohimg'a paykon ayladim.

Ko'ksum uzra har ne marham erdi, ashk oqizdi, voy
Kim, salomat tarhin ul su birla vayron ayladim.

Fitna toshi yo salomat sohili tengdur manga
Kim, hubobi ashkdin boshimg'a qolqon ayladim.

Boisi maqsud— zohid zuhd qildi, men — fano
Faqr iqboldin ul mushkulni oson ayladim.

Ey Navoiy, bog'lab erdi Ka'ba ehromin ko'ngul,
Ko'yidin bir nukta sharh aylab, pushaymon ayladim.

421

Bodadin jon isi kasb etti mashom,
Go'yiyo la'linga yetmish edi jom.

Ko‘rmagan Xizr suyining borishin,
Kelu ko‘r obi hayotimg‘a xirom.

To‘lin oyni nedin el vasf qilur
Ki, mushobihdurur ul yuzga tamom.

Mehri gardun chamani vardidurur
Kim, erur ko‘zga yuzungdek gulfom.

Qadam, ey ruxi ravon, boshima qo‘y,
Negakim, ruh biyik topti maqom.

Xolu zulfig‘a ko‘ngul bermangkim,
Qushni bandur etar ul donau dom.

Og‘zi vasfida Navoiy so‘z der
Muxtasar, chunki erur xayr kalom.

422

Lahza-lahza kunduz aning zulmini yod aylaram,
Kecha o‘z jonimg‘a bedod uzra bedod aylaram.

Aql yod aylab, yana hijronida bo‘lsam xamush,
Chun junun tug‘yon qilur, bexost faryod aylaram.

Bo‘yni bog‘liq qul qilur, ko‘rgach agarchi hajrida,
O‘zni yuz ta’kid ila ishqidin ozod aylaram.

Ishq sayli chun o‘tar, topmon tilab osorini,
Har necha ko‘nglumga tarxi sabr bunyod aylaram.

Qush qochar sayyod domidin, ajab qushmenki, men
Zulfin istab orzui domi sayyod aylaram.

Aqlu xush, avroqu ajzasin junun ohi bila
Devbod o‘tkan kebi borini barbod aylaram.

Soqiyo, muhlikdurur qayg‘um ushul ummid ila
Kim, mayi jonbaxsh tutqung, xotirim shod aylaram.

Faqrdin yuz yilchiliq yo‘l men yiroq, avval dalil
Buki, faqr oyinini o‘zumga isnod aylaram.

Ey Navoiy, zulmkim, nomehribon mohim qilur,
Mehribon shohimni ko‘rgach, qichqirib dod aylaram.

423

Dardoki, lahma-lahma fuzundur malolatim,
Hijron malolatidin erur sa'b holatim.

Boshimki, tig'i kasrati yetkach, tushar quyi,
Altofi o'trusida bu erkan xijolatim.

Desamki, ey jamol elining shohi, qilma zulm,
Der, shohliq tariqidadur buadolatim.

Menda maqol quvvati no'q za'fdin, valek
Har anjuman orasida yo'q juz maqolatim.

Ko'nglum o'tinki sharh qilurmen, bo'lur samum,
Ul gulga tong nasimi gar etsa risolatim.

Dashti junung'a kirmangiz, ey ahli ishqkim,
Gum aylar anda xalqni dudi zalolatim.

Yor etmay iltifot Navoiyg'a bo'lsa ya's,
Ne g'am, chu qatl va'dasi bor istimolatim.

424

Bo'lg'anda hajr tunlari behushlug' ishim,
Ko'z mardumidurur yuzuma su urar kishim.

Demangki, yor ochsa uzor, ayla jon nisor,
Ne hojat aytmoq, ul erur xud mening ishim.

Hajrida uyla telba bo'lubmenki, telbarar
Har itni yor ko'yidakim zaxm etar tishim.

Ko'p surdi tig'i qatl firoq, emdi sen dog'i
Bir qatl tig'i sur, yetishibdur chu varzishim.

Jonon murodi qatlim o'lub, qilsa jon ibo,
Jonimg'a qarg'ishimduru jonong'a olqishim.

Ul gul harimi gulshanida bir giyoh edim,
Nav'e qo'ngardi hajrki, qolmadi qirtishim.

Demang, Navoiy asru tirik qoldi hajr aro,
Vasli ummidi birladurur muncha qolmishim.

425

Kuyar hajringda jismi notavonim,

Ne jismi notavonkim, xasta jonim.

Gar o‘ltursang meni, qil tig‘ ila qatl
Ki, bo‘lsun ko‘yunga og‘ushta qonim.

Firoqing so‘zidin bir shu’ladurmen,
O‘ti ul shu’laning so‘zon fig‘onim.

Meni qovma eshikdin, chun itingmen,
Ajab yo‘q, gar erur ko‘yung makonim.

Yorib ko‘ksum, seni jonimg‘a tortay,
Tarahhum qil, ko‘rub dog‘i nihonim.

Amon bermas edi davron jafosi,
Xarobot o‘lmasa dorul-amonim.

Aning ko‘yida qil qabrim, Navoiy,
Der ersangkim, yetushsun yerga yonim.

426

Firoq dashtida tufroq bo‘lub edi boshim,
Ko‘tarmasa edi tufrog‘din ani yoshim.

Boshimni go‘y qilibmen yo‘lungda, ey chobuk,
Oting ayog‘i qayon bo‘lsa, andadur boshim.

Yo‘l uyla qat’ etaram ul quyosh havosinda
Ki, soya qilg‘udek ermas o‘zini yo‘ldoshim.

Hayot naqdini naylayki, mayfurush olmas,
Ushancha mayg‘aki ochqay xumor qalloshim.

Yuzung xayolida ohim sharar sochar har yon,
Samumi hajrdurur bu nasimi gulposhim.

Ketur piyolaki, har nechakim vafo qildim,
Jafodin o‘zga ulustin yo‘q erdi podoshim.

Navoiyo, agar ikkinchi Odam ermasmen,
Nedin jahon yuzini tutti sar-basar yoshim.

427

Qorig‘an vaqtda bir tiflg‘a shaydo bo‘ldum
Kim, g‘amidin qoriyu tifl aro rasvo bo‘ldum.

Xayli atfol aro tosh yog‘durubon qovlarlar,
Har qayondinkim aning ko‘yida paydo bo‘ldum.

Qaysi Majnun sog‘olur, ko‘rsa meni telba bo‘lur,
Telbalar xaylig‘a sarmoyayi savdo bo‘ldum.

Itlari silsilasida kechalar nola chekib,
Xayli ahbobqa sarhalqayi g‘avg‘o bo‘ldum.

Gohi eng uzra, gah tim-tim ko‘runur ko‘z yoshim,
Ishq bog‘i aro shohi guli ra’no bo‘ldum.

Demakim, tavbayu taqvoni qachon tark etting,
Soqiyi gulrux dame shiftasi to bo‘ldum.

Labi vasfida Navoiy dami tirkuzdi o‘luk,
Fayzi quds chu madad qildi — Masiho bo‘ldum.

428

Ey pariy, rahm etki, ko‘nglum zor erur, bechora ham,
Ishqu savdo dashtida Majnun erur ovora ham.

Tandag‘i paykonlaru ashkim yorutmas uynikim,
Dudi ohimdin qorarmish sobitu sayyora ham.

Zaxmi ko‘p bag‘rimni tikmak mumkin ermas, ey rafiq
Kim, erur goz poravu majruh erur har pora ham.

Vasli iqboliyu men, hayhotkim, ruxsorini
Toqatim yo‘qtur yiroqtin qilg‘ali nazzora ham.

Uyla su qildi balo ko‘hsorini ohim o‘ti
Kim, olib ko‘ksumga urg‘uncha topilmas xora ham.

Charx makru fitnasidin g‘ofil o‘lmang zinhor,
Chunki bu shohid base fatton erur, makkora ham.

Telbarab ittim Navoiydek junun sahrosida,
Qilmadi yodimni hargiz bir pariy ruxsora ham.

429

Hajr arokim, o‘zni may birla fasona aylaram,
Yig‘lamoqqa boda ichmakni bahona aylaram.

La’lgun har mayki ichtim ul mayi lab hajridin,
Ko‘zdin ashki la’lgun yanglig‘ ravona aylaram.

To icharmen may, qadahdek yig‘laram bexud bo‘lub,
Topmasam bir dam, fig‘oni bexudona aylaram.

Zavraqi may bo‘lmasa, bilkim, o‘larmen, ey rafiq,
G‘ussa bahridin aning birla karona aylaram.

To to‘la tutsun debon soqiy manga yetkach qadah,
Toshqi davri xattini aning nishona aylaram.

Soqiyo, tut bodakim, ko‘prak meni mabhut etar,
Nechakim andishai bu korxona aylaram.

Ne osig‘, chun yor ko‘ngli aylamas bu yon kashish,
Ey Navoiy, nechakim dilkash tarona aylaram.

430

Xirqai zuhd o‘rtamak ko‘nglum shiori ayladim,
Subha torin uzdumu ko‘kurd tori ayladim.

Chun tutashti o‘t, bir ovuch donasin tasbihning
Ustiga sochmoq bila ul o‘t sharori ayladim.

Daftaru sajjodavu na’layinni ham dam-badam
Tashlamoq birla ravon ul shu’la sari ayladim.

Zuhdu taqvo, balki chun o‘zluk nishoni qolmadi,
Rasm sayr aylab, fano dayri guzori ayladim.

Ichmayin bir jur‘a andoq jilva qildi mug‘bacha
Kim, qoshinda sajda qilmoq ixtiyori ayladim.

Muncha davlat kasbikim aylab ekin olam aro
Kim, fano iqboldin men xasta bore ayladim.

Ey Navoiy, menda bir jon naqdi qolmish erdi bas,
Shukr, ani ham mayu mutrib nisori ayladim.

431

Ey, hilolingga‘a nigun qad bila payvastalig‘im,
Dilkusho g‘unchai xandoningga dilbastalig‘im.

Tushkali jonima bemor ko‘zung hijroni,
O‘lgudekmenki, base sa‘bdurur xastalig‘im.

Chun fano ahlig‘a qayd o‘ldi soching silsilasi,

Qilmadi naf' tajarrud bila vorastalig‘im.

Yuz shikast o‘ldi junun toshlaridin jismim aro,
Garchi ko‘nglumda erur oncha yuz ishkastalig‘im.

Ishq sahrosidakim po‘ya urub sekrermen,
Bu ekin zumrai ushshoq aro barjastalig‘im.

Istiqomat chu zamon tab’ida yo‘qtur, ne ajab,
Bir zamon tezligim, bir nafas ohistalig‘im.

Yuz baliyatqa Navoiydek o‘lub shoyista,
Ne balodurki, anga bo‘lmadi shoyistalig‘im.

432

Noma yozdim yor uchun, lekin javobe topmadim,
Jismima ul nomadek juz pechu tobe topmadim.

Har kishiga jon berib, qildim tama’ mehru vafo,
Bu gunah podoshi juz nozu itobe topmadim.

Dardi keldi qasdima, it mish edi vayron ko‘ngul,
Qo‘yg‘ali bu ganjni, vahkim, xarobe topmadim.

Chirmadim jon rishtasin novaklaringg‘a nay kebi,
Uyla qushlar qaydig‘a mundoq tanobe topmadim.

Chun xayoling ko‘zda mehmon o‘ldi, may qon yosh o‘lub,
Bag‘lag‘an kirpikda qonlardek kabobe topmadim.

Nechakim matlub ruxsorin dedim aylay nazar,
O‘zlugumdin o‘zga ul yuzga hijobe topmadim.

Ey Navoiy, hajr aro qil ishq birla mashvarat
Kim, men istab aqldin royi savobe topmadim.

433

Xilvate topib, seni jismim aro jon aylasam,
Balki jon xilvatsaroyi ichra mehmon aylasam.

Xilvat eldin yoshurun, xilvat aro tan yoshurun
Tanda jon yanglig‘ seni jon ichra pinhon aylasam.

Anda ham jon pardasin har sari osib satr uchun,
Vasling ixfosin nechakim, bo‘lg‘ay imkon, aylasam.

Chun bu xilvat ichra ne o'zluk erur mahram, ne men,
Har ne nomahram durur, o'zdin parishon aylasam.

Daf' o'lub ag'yor, topsam bor ul xilvat aro,
Bezabonlig' birla sharhi dardi hijron aylasam.

Umri boqiy topqamen, bir lahza ushbu hol aro
O'zni bexud, ko'zni ruxsoringg'a hayron aylasam.

Ey Navoiy, dema iqror ayla ishq tarkini
Kim, inong'ay, gar o'zumga buyla bo'hton aylasam.

434

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim?!
Ko'rguzub yuz mehr, ming dardu balosin ko'rmadim?!

Kimga boshimni fido qildimki, boshim qasdig'a
Har tarafdin yuz tuman tig'i jafosin ko'rmadim?!

Kimga ko'nglum ayladi mehru muhabbat foshkim,
Har vafoga yuz jafo aning jazosin ko'rmadim?!

Kimga jonimni asir ettimki, jonim qatlig'a,
G'ayr sari xulqu lutfi jon fizosin ko'rmadim?!

Kimga soldim ko'z qoravu oqini ishq ichrakim,
Qon aro pinhon ko'zum oqu qorosin ko'rmadim?!

Sen vafo husn ahlidin qilma tavaqqu', ey rafiq
Kim, men ushbu xaylning husni vafosin ko'rmadim.

Ey Navoiy, tavba andin qilmadim shayx ollida
Kim, bu ishda dayr pirining rizosin ko'rmadim.

435

Soching savodig'a hargiz nazora aydamadim
Ki, dudi oh ila olamni qora aylamadim.

Yo'lungda kimsa boshin ko'rmadimki, g'ayratdin
Boshimni yerga urib, pora-pora aylamadim.

Bag'irni choklar etkandin aylama inkor,
Men ani tig' ila xud muncha pora aylamadim.

Manga g'amming aro bechoralig'durur chora,
Ne g'am, agar meni bechora chora aylamadim.

Yorang hisobini kasratdin anglamon, ey ishq,
Sanab tuganmadi, yo'qkim, shumora aylamadim.

Tavakkul aylayu kir ishq yo'lig'a, ey shayx
Ki, men qilurda bu azm istixora aylamadim.

Navoiy ohni ifshoi ishq uchun yozg'ur
Ki, ko'nglum o'tini men oshkora aylamadim.

436

Orzu tuxmig'a bar hirmon ekanni bilmadim,
Vasl naxlig'a samar hijron ekanni bilmadim.

Hajr vodiysig'a kirgan chog'da bildim to'li bor,
Lek muncha behadu poyon ekanni bilmadim.

Angladimkim, sa'b emish bemori furqat ranji, lek
Sharbati zahru g'izosi qon ekanni bilmadim.

Bistari hijronda bildim sanchilur xori firoq,
Har sarimo' tanda bir paykon ekanni bilmadim.

Charx afsun berdikim, bot o'lg'usi hajringg'a vasl,
Muncha aning va'dasi yolg'on ekanni bilmadim.

G'am tuni bildim bo'lur oshiqning ohu ashki, lek
Ul biri sarsar, bu bir to'fon ekanni bilmadim.

Ey Navoiy, vasl agar topsang, g'animat bilki, men
Ro'zgori vasl xush davron ekanni bilmadim.

437

Shomi vaslingni ko'rub, subhi dilafro'z dedim,
Subhi hajringg'a yetib, shomi jigarso'z dedim.

Teng ko'rundi ko'zuma vasl aro qadu zulfung,
Kecha kunduzni ko'rub teng, ani navro'z dedim.

Ishqidin tondi ko'ngul, soldi qora kunga firoq,
Ajab ermas, gar ani qalbi siyahro'z dedim.

Chini zulfung g'ami muhlik dedim, o'Iturma meni,
Chin dedim, har neki men zori g'amando'z dedim.

Yangi o'rgandi ko'ngul bulbuli ul gul yuziga,

Tong emastur, agar ul qushni nav'omuz dedim.

Tikti pand ignasidin dahr eli ko'nglum yarasin,
Xalq nishini bu ma'ni bila dildo'z dedim.

Ey Navoiy, yorudi shomim ul oy partavidin,
Ne taajjub, gar ani mohi shabafro'z dedim.

NUN HARFINING NOZANINLARINING NOZI «BADOYE»DIN

438

Ey, kelib minbaring uch poya bila sidrag'asen,
Sen chu anda tutub orom, bo'lub sidranishin.

Ul safar ichraki sen sidra sari aylab azm,
Markabing ruhi ravon, payking o'lub ruhul-amin.

Sidrani minbar etib, nukta desang erdi, rusul
Jam'i bo'lg'an edi eshitkali oyoti mubin.

Uylakim, sidra kebi minbar uza gohi hadis,
Yig'ilur har sari ashobi risolat oyin.

Dargahing arshdurur, anda maloyik, ne ajab,
Zikru tasbih debon surtsa har sari jabin.

Sen chu arsh uzra chiqib, charx nisoringg'a yasab
Bu to'quz xon ichida anjum ila durri samin.

Jurmu isyon ko'pidin bo'ldi Navoiy bexud,
Bir nazar ayla aning sariki, bor asru hazin.

439

Bizga ul oy hajridin bir yilchadur har tiyra tun,
Kunduzin angla bu tundin ham qorong'u, ham uzun.

Balki yo'qtur bu tunu kunda tafovut, lek bor
Har birida bir g'ami muhlik bu mahzun jon uchun.

Gar o'tar yuz ming suubat birla kunduz mehnati,
Voyu yuz ming voy, men bekasga bo'lg'ach kechqurun.

Gar butun ermas yoqam, ey do'st, hayrat qilmakim,
Tosh urardin ko'ksum ichra bir so'ngak ermas butun.

Hajridin o'rtansa jismimda so'ngaklar, tong emas

Kim, erur o't asru itik, dog'i bas qoqshol o'tun.

Ishq naxlining bari hijron emish, ey do'stlar,
Bu nasihatdin yengiz bar oshiq o'lmaстin burun.

Necha tun hijron aro oldi Navoiy jonini,
Kimga yetsa vasl, tutsin mug'tanam bir necha kun.

440

Ishq dashtin hech g'urbatkash musofir ko'rmasun,
Men g'arib ul dasht aro ko'rganni kofir ko'rmasun.

Yormangiz Farhodu Majnun ollida ko'ksumnikim,
Botinimning dardu dog'in ahli zohir ko'rmasun.

Dahrni qil tiyra, yo rabkim, aning tufrog'idin
Har ne ko'z mumkin esa bo'lmoqqa nozir, ko'rmasun.

Har boqishda qatli om aylar ko'zungkim, dahr eli
Hech kimni sen kebi bu fanda mohir ko'rmasun.

Voizo ko'p vasf qilding somirining sehrini,
Hozir o'lg'ilkim, seni ul ko'zi sohir ko'rmasun.

Kimki oshiqlik asiridur, taxayyul birla ham
Ishq ko'yida o'zin osuda xotir ko'rmasun.

Kim, Navoiydek fano vodiysida istar huzur,
Kechsun o'zdin, balki xud o'zlukni hozir ko'rmasun.

441

Subh chun borg'ung, kelib kulbamg'a pinhon kechqurun,
Hajr o'qin jonimg'a sen otma tong otmasdin burun.

Necha el mendin yoshurg'aylar seni, vah, bir kecha
Netti kulbam sari kelsang, barcha eldin yoshurun.

Jon magar chiqqay va yoxud sayli ashkim ko'yidin
Chiqqudekmen, bori ul ko'y ichra tutmay men o'run.

Jilva qilg'anda ko'runmaslar ko'zumga sho'xlar,
Ey pari, sen bori bu devonag'a gohi ko'run.

Nolam andoq bo'ldi, bag'rin yorasi islangu'ali
Kim, yonimdan o'tmas, el tutmay quloq birla burun.

Chirmabon berkit surohi og‘zini, ey piri dayr,
Qayda ko‘rsangkim, uzulmish choki xirqamdin burun.

Ey Navoiy, tifllar qovg‘on zamon majnun debon,
Bu bahona birla o‘z laylivashing sari urun.

442

Bog‘ladim afg‘ong‘a bel naydek, seni ko‘rgan zamon,,
Za’fdin qilding meni oxir beli bog‘liq somon.

Emdi ruhung toza et ul otashin ruxsordin
Kim, meni mahjur ani ko‘rmak hamon, kuymak hamon.

Ko‘z yumulmish hajrdin, ul yuzga ochmoq istaram,
Lek hijron ko‘z yumub ochquncha ham bermas omon.

Dasht aro derlar meni Majnun, ani men ko‘rgan el,
Charx zoli bizni go‘yokim ketirmish tav’amon.

Yaxshilardin yaxshidur yorim, ne nav’ aylay tama’
Vaslin aning, menki bordurmen yomonlardin yomon.

Qil zuloli vasl ila bulbulni, ey gul, shodkim,
Bu chamanda doimo shodobliq yo‘qtur gumon.

Azm etib ermis Navoiyni so‘rarg‘a ul Masih,
Ey ajal, joning uchun jonimg‘a rahm et bir zamon.

443

Mahvashekim chehra davrinda qiron etmish ayon,
Davrning mahvashlarida uldurur sohibqiron.

Ne qiyig‘ erkin ul oy to‘nidakim, tikkan chog‘i
Mehr anga zarrishta yetkurmish, farisa osmon.

Tugma gulgundeklayida la’l paykoni emas,
Gulga bog‘labtur ko‘ngul bulbullar, ammo barcha qon.

Titraguch ermas murassa’kim, quyosh boshi uza
Xo‘shai parvin shioi xat aro qilg‘il makon.

Vo‘smayu gulgundadin ul orazi zebo erur,
Sabzayu guldin nachukkim zeb topqay bo‘ston.

Olloh-Oolloh, anglamonkim, hursen yoxud pariy,
Odami bu shakl ila hargiz kishi qilmas gumon.

Ey Navoiy, yaxshi ermas erdi ul yon borg‘aning,
Chun borib o‘tluq yuzin qilding tamosho, emdi yon.

444

G‘unchai xandon uza xolimgudur, ey mahjabin,
Yo magar shahd istay ul gulbarg uza qo‘nmish chibin.

Dasht uza Majnun kebi sargashtadurmen, to erur
Ul musofir mahvashim Layli kebi sahronishin.

Chin-bachin zulfung tushar el bo‘ynig‘a, yuz voykim,
Bizni chun ko‘rdung — tushar qoshing uza chin uzra chin.

Korvoni mushk erur zulfa bapogo‘shingda xol,
Nofai mushk o‘g‘risi bir go‘shada qilg‘an kamin.

Yuzung uzra zulfa zulfung halqasidin yuz erur,
Kishvari din ichra kufru halqai kufr ichra din.

Yuz o‘tidin o‘rtading bulbul kebi ko‘nglumnn, lek
Gar to‘kulmas, xushtur ul gulkim ochilmish otashin.

Uyla mahzundur Navoiy yor hijronidakim,
Gar chekar ishrat surudi xalqni aylar hazin.

445

Dog‘i ko‘p tanniki xirqam yopmishu ey siyminbadan,
Angla har tevruk yurun ostida bir tevruk tugan.

Ey quyosh, oncha shahiding bordururkim, yetmagay
Pardai afloktin gar qilsalar yirtib kafan.

Buki ruhulloh quyosh charxig‘a ruhum ko‘yiga
Bo‘ldilar moyil, ne tong, har kim qilur mayli vatan.

Yuzu zulfung hajridin har tun sirishkim kavkabi
Charx yanglig‘ ko‘rguzur sunbul uza bargi suman.

Ashk ila kirpikni ko‘p yurmenki, bo‘lg‘ay nisbati,
Tutsa bir kun nogahon ul pok etakni bu tikan.

Xonaqah ichra riyoiy zuhddin bo‘lsang malul,
Ey ko‘ngul, shod o‘lki, yo‘qlug‘dur fano dayrida fan.

Har qayon azm aylasang, qolmas Navoiy, negakim
Tori zulfungdin aning bo‘ynig‘a bog‘liqdur rasan.

446

Labingda nilgun xolingdur, ey jon,
Nachukkim sharbat ichra tuxmi rayhon.

Qizil raglar ko‘zumda hajr o‘tidin
Balo bahrida butkan shohi marjon.

Yuzungkim, maydin o‘lmish gul uza gul,
Ko‘ngul bog‘lan mish andin qon uza qon.

Seni barmog‘ bila ko‘rsatmas elkim,
Bilib o‘lmakni arz aylarlar imon.

Ko‘ngul saydi ko‘zungdin chun qutulmas,
Ne mundu tuzdilar ul xayli mujgon.

Vafo ahli esang, ich davr ayog‘i
Kim, asru bevafodur ahli davron.

Senu gulbong, ey bulbulki, tortar
Navoiy gulruxidin ayru afg‘on.

447

Xizrvash xat birla chun husnung samandin surgasen,
Yuz Skandarni sug‘a eltib, susiz kelturgasen.

O‘rtanurmen, g‘ayr ila har kecha ichsang, vah, necha
Sham‘i bazmingni yorutmaqqa meni kuydurgasen.

Bo‘ynuma yetkurding ilgin tig‘ urarg‘a, ey sipehr,
Men xud ul ermanni, ilgim bo‘ynig‘a yetkurgasen.

Yo‘qli ko‘rmaydur, ko‘rib umdo nazar solmas pari,
Bir boqish ummididin, ey ko‘z, necha telmurgasen.

Ul jamol avjida sen munglug‘ ne mumkin, ey ko‘ngul
Kim, fusun birla quyoshni charxdin indurgasen.

Ashk ila ko‘nglum o‘ti o‘chmas, qadah tut, soqiyo
Kim, bu su birla magar ul shu’lani so‘ndurgasen.

Telbalik aylar Navoiy, ey sabo, holin magar
Ul pariyg‘a hazl taqrifi bila bildurgasen.

Vah, necha tortay ul oy dardu g‘amin,
Yo g‘amu dardi yo‘q elning sitamin.

Manga ortuqsidur ag‘yor alami,
Torta olsam bas erur yor alamin.

Xalq ko‘nglini parishon qildi,
Tong yeli tarqatib ul turra xamin.

Ishq yorutti tamug‘ hiymasini,
Yetkurub ohim o‘tining alamin.

Ey falak, bu kecha ul oy bilamen,
Subhning bir nafase asra damin.

Adam istar chu vujudumni sipehr,
Teng ko‘ray emdi vujudu adamin.

Piri dayr ollida kam xidmat esam,
Tengri bor aylasun aning karamin.

Istagan Ka’bai maqsad vasli,
Olmasun faqr yo‘lidin qadamin.

Qil Navoiy kebi timmog‘ni harom,
Istasang yor harimi haramin.

G‘amingda buzdi ko‘ngul xonumonini hijron,
Tarahhum aylamading xonumoning obodon.

Ko‘ngul shikofi emaskim, yaqosin ayladi chok,
Yaqoda tugmalar o‘rnida har taraf paykon.

Ne ayb, ohim o‘ti ko‘nglung ichra qilsa asar
Ki, barq toshqa ham tegsa, qolur anda nishon.

Qiliching elga tegib, rashkdin men o‘rtandim,
Ne la‘b erurki, su ichra qilibsen o‘t pinhon.

Firoq za‘fida sihhat manga ne mumkinkim,
G‘izo yerida bag‘ir bo‘ldi sharbat o‘rnida qon.

May ichki, mug‘bachalar suhbati g‘animatduri,
Bir-ikki kunki bu dayri fanoda sen mehmon.

Navoiyo, neki olam ishida mushkildur,
Desangki qilg‘asen oson, o‘zungga tut oson.

450

Qani ulkim, ko‘zum ko‘rgay jamoli olamoroyin,
Qo‘zumni surtmak qilsam havas, sung‘ay kafi poyin.

Meni mundoqki zahri hajri aning talxkom et mish,
Emas insof, o‘pmak istasam la’li shakarxoyin.

Mening vaslim kunin chun xajri shomi ayladi tiyra,
Ne sud ar yor orazdin olur zulfi sumansoyin.

Tarab sham’i, ajabkim, nur zohir aylagay bu nav’
Ki, men ko‘rdum qorang‘u hajr shomi mehnatafzoyin.

Kelur chun rizq isi, rozi emasturmen, agar zohid
Rido birla olishsa dayr piri bodapoloyin.

Bukim andishavu g‘am yomg‘uri mayxonadin o‘tmas,
Suvar go‘yoki piri dayr tomi uzra ko‘p loyin.

Navoiyg‘a deding hijronda bir o‘q yodgor otqum,
Tirik qolsam, alifdek ani jonim ichra asroyin.

451

Qizil yoxud qora yo ko‘k to‘nung har bir erur mavzun,
Nechukkim oy libosi ham shafaq, ham kecha, ham gardun.

Chu men ko‘rgach seni behush o‘lub, shafqat bila eltib,
Kirib ikki qo‘lumg‘a yig‘layu Farhod ila Majnun.

G‘amim xayli tuz etti tog‘ni, tog‘ etti sahroni,
Bu homun birla tog‘ erdiki, bo‘lmish tog‘ ila homun.

Yuzung shavqida ohimdin bulutlarg‘a tutashmish o‘t,
Sahob ermas quyoshning partavidin har taraf gulgun.

Gar ermas nassi qoti’ qatl uchun har ko‘z bila qoshing,
Nachuk bas zohir et mish har biri sod ustida bir nun.

To‘lub, la’ling xayoli oqizur ko‘z shishasidin qon
Aningdekkim, to‘kulgay boda bo‘lsa zarfdin afzun.

Eshit mayxona ichra dayr piridin haq asrori

Ki, voiz xonaqahda goh der afsona, gah afsun.

Sog'inma bodag'a mash'ufmen, ey mug'bacha, billah
Ki, usruk ko'zlarining fitnasi qilmish meni maftun.

Navoiy, olam ahli gar vafosiz keldi, may ichgil,
Anga chun chora yo'q, bore o'zungni tutmag'il mahzun.

452

Erur sargashta xoki tan aro majnun ko'ygul har yon,
To'n etkandek quyundin jismig'a Majnuni sargardon.

Yolang jismim ko'rub oncha balo tig'ini yondurdung
Ki, zaxmim bog'lamoqtin emdi ermastur tanim uryon.

Jununum hayratig'a vahsh davrumg'a urub halqa,
Musha'bid la'big'a hangoma ahlidek bo'lub hayron.

Meningdek toza dog'i zaxmidin qon g'arqidur lola,
Magarkim dog'ini bag'rig'a qo'ydi shu'lai hijron.

Tuzaldi Nuhning to'fonidin so'ng dahru ashkimdin
Qiyomat oshkorbo bo'ldi ul to'fonu bu to'fon.

Ichib garduncha sog'ar, kosh andoq bexud o'lsamkim,
Ikinchi surdin ham bo'limg'ay uyg'onmag'im imkon.

Jahon osoyishin ollingda mushkil qilmakim, bordur
Tutay mushkil desang — mushkil va gar oson desang — oson.

Ko'p, ey gul, urma bulbul jonig'a bedod xorinkim,
Senu mendek gulu bulbulni ko'p o'tkardi bu bo'ston.

Navoiy, qilma ayb afg'onu faryodimki, davrondin
Ne bir faryodu o'n afg'onki, yuz faryodu ming afg'on.

453

Ishqing o'tig'a quruq jismim o'tun,
Ko'ngul axgardur anga, oh-tutun.

Tig' ila yordimu ko'ksungni, demang,
Aylamas tig' ila xud ani butun.

Ro'zgorim qorarib zulfungdin,
Tori umrumg'a tugun uzra tugun.

Vasl aro debsen olurmen jonin,
Hajring olmaymudurur angla burun.

Va'dai vaslin etar tongla netay,
Intizori meni o'ltursa bukun.

Boda zarfi boshig'a tiqmaq uchun,
Soqiyo, qolmadi xirqamda yurun.

O'ynab o'lturdi Navoiyni, ko'ring,
Chini ne erkin, agar budur o'yung.

454

Ko'yida itlar meni gah tirmabon, gah tishlabon,
Za'fdin o'lganda bir-birdin uzarlar sudrabon.

Men kimu qilmaq havas aning qo'lidin muttako
Ko'yida bas yotsam ilgimni boshimg'a yostabon.

Ne junundur, vah, bukim yirtuq yaqoni chok etib,
Ashkim oqqanda kulub, turg'an zamoni yig'labon.

Elni g'ofil aylabon o'zni solurmen ko'yiga,
Har tarafdin ursalar tosh, it masallik qavlabon.

Tifli maktabdek qochib borur yana ul oy sari,
Telba ko'nglumni necha topib ketursam albadon.

Umr o'tub bir uchrabon holimni so'rsa, voykim,
Ayta olmasmen javob, oshufta ko'nglum to'xtabon.

Hazl ko'nglum bila ul sho'xu ko'nglum tortar oh,
Tifldekkim, dud etar o't birla har dam o'ylabon.

Aql uchub bexudlug' aylarmen, yo'luqsang nogahon,
Kimsadekkim, telbalik qilg'ay pariyg'a uchrabon.

Soqiyo, muhlik xumorim uzrig'a solma qulqoq,
Bir qadahni og'zima quyg'il qulog'im to'lg'abon.

Umr torin chun kesar davron jafo tig'i bila,
Jazm bilgilkim, anga bo'lmas ko'ngulni bog'labon.

Ey Navoiy, chun zamon ahlig'a aslo yo'q vafo,
Topmag'ung hargiz vafo ahli, alarni tanlabon.

455

Jilvai qadding ko‘rub, sarvi ravondin kim desun?
Javhari la’ling borinda naqdi jondin kim desun?

Do‘st ko‘yunda vatan chun tuttilar ahli visol,
Men kebi ovorai bexonumondin kim desun?

Ko‘p dema voizki, ul qaddu labu yuz ollida,
To‘biyu kavsar bila huri jinondin kim desun?

Og‘zi vasfida deyilgay xurdadonlar, ey ko‘ngul,
Sen kebi ma’dum, benomu nishondin kim desun?

Bordurur ani yuzungdakim, quyoshta oncha yo‘q,
Sen borinda xud quyoshkim bo‘lg‘ay andin kim desun?

Yorg‘a holin demakka oncha yaxshi yori bor,
Ey ko‘ngulkim, yaxshi boqsang, men yomondin kim desun?

Shayx anda juz fano yo‘q har qayondin kim desun?

Gah zamondin shikva, gah ali zamon javrin dema,
Boda ich, ahli zamon birla zamondin kim desun.

Gar Navoiy desa ul yuz gulshanidin qilma ayb,
Demayin bulbul hikoyat gulsitondin kim desun?

456

Buki zulfung domig‘a ko‘nglum qushi urmish o‘zin,
Ko‘rmaking erdi murodi, tikmagil bore ko‘zin.

To seni ko‘rdum, ko‘zumdin o‘zlugum bo‘ldi nihon
Kim, seni ko‘rsa, yana ko‘rmas emish hargiz o‘zin.

Yo‘qli oshiqlik, so‘zumdin fahm o‘lur ma’shuqluq,
Baski, dermen o‘z-o‘zum birla aning bir-bir so‘zin.

Subhi davlat tal’ati boshida durri shabcharog‘,
Tong boshida ko‘r tulu’ etkan saodat yulduzin.

Xoni husni ichra sabzi xatti sabzu tuz labi,
Sen ne ogah ul naimi ravzadin, totmay tuzin.

Bahra xo‘rdu xobdin ul topti, bu davrondakim,
Qildi ehyo kechasin, soyim kechurdi kunduzin.

Ko'nglini istay Navoiy bu sababdin ittikim,
O'z bila qilg'ay ikavlon ul g'aribi yolg'uzin.

457

Manga har nechakim yo'q zahra dam urmoq visolingdin
Va lekin kom olurmen ulcha mumkindur xayolingdin.

Vafo bog'ida tufrog' o'lдум, ammo, voykim, tushmas
Gahe bir gul bu tufrog' ustiga sarkash niholingdin.

Visolingdin ko'ngul navmid esa, darding chekar nevchun
Ki, andin dog'i ko'p navmidrokdur chun misolingdin.

Iki zulfung ko'ngul domi, ne yanglig' asray ul qushni,
Ani tutmoqqa jidd ma'lum o'lur chun «jim»u «dol»ingdin.

Nachukkim bo'lsa dil lafzig'a nuqta «zul», bo'lur hosil
Mazallat ikki ayrilg'on ko'ngulga yetti xolingdin.

Latofat suyi ul yuz, «jim» ila «lom» ikki yondin zulf,,
Bu so'zni fahm aylar bahravar bo'lg'on jamolingdin.

Tama' eldin vafo qilg'on, sudin o't istading chiqmoq,
Agar topsang, dog'i kuygung bu savdoi maholingdin.

Durust mehr zarfida to'la hayvon suyi ichmak
Emas ichkancha durd, ey mug'bacha, sing'an safolingdin.

Navoiy, gar boshing go'y etsa ul chobuk, yomon ermas,
Yomon budurki, ermas voqif ul sargashta holingdin.

458

Qo'ngulki, har sari chok o'ldi tig'i hijrondin,
Bir uydururki, topibdur shikast har yondin.

Sirishkim ayladi aflok javfini mamlu,
Kishi ne so'z degay aning qoshida to'fondin.

Yaqosi chokini Majnunning asru ko'p o'kma,
Uyal bu ko'ksi uza chok jismi uryondin.

Xayoli ko'nglum aro sokinu parishonmen
Ki, g'ayri gardi fano yog'mas ushbu vayrondin.

Balo o'qi ko'zi yog'durdi, ey musulmonlar,
Nelar kelur manga ul ikki nomusulmondin.

Yetur ko‘ngulga necha davr ayog‘i birla nishot,
Necha malol sanga yetsa ahli davrondin.

Navoiy, aytma, gar jon keraktur, andin o‘t,
Nedinki o‘tsam yuz jondin, o‘tmagum andin.

459

Hajr shomi baski sayli ashk oqizdim qayg‘udin,
Ko‘zdin o‘ldum noumid ul nav’kim, ko‘z uyqudin.

Uz ko‘zung birla o‘zungni garchi ko‘rdung ko‘zguda,
Ko‘zgu aksidek va lekin muztaribmen ko‘zgudin.

Chok etib yonimki, ko‘rguzdung so‘ngak dandonasin,
Bul-ajab holimg‘a qildi za’f jismim kulgudin.

Ko‘yunga borurda gohi vahm, gah rashk o‘lturur,
Soya tebransa keyindin, mehr chiqsa o‘trudin.

Qon yoshim sayliki tutmisht dasht birla tog‘ni,
Arg‘uvonu loladin o‘zga ne butkay ul sudin.

Charx mino sog‘aridin istama no‘shi hayot,
Ne uchunikim, bodasi mamzuj o‘lubtur og‘udin.

Masti ishq o‘lmish Navoiy, bermagil pand, ey hakim
Kim, magar soqiy ayildurg‘ay bu mayning bexudin.

460

Charxdin jonimg‘adur yuz tig‘i qotil har zamon,
Davrdin jomimda ming zahri halohil har zamon.

Asru mushkildurki, yuz mushkil g‘amimdin birni charx
Qilmayin hal, yetkurur yuz oncha mushkil har zamon.

Umrida Farhodu Majnun hosil etkancha balo,
Ishqdin bordur meni mahzung‘a hosil har zamon.

Har zamon ko‘nglumga ishq afsonasin yozmoq ne sud,
Chayqalib daryoyi g‘am aylar chu zoyil har zamon.

Jannati vasl istamang, ahbobkim, sahrosida
Bir tomug‘ ermish safar ahlig‘a manzil har zamon.

Sihhatim tutmoq vujud imkoni yo‘qtur, ey tabib

Kim, erur jonio adam ko'yiga vosil har zamon.

Demang osoyish hadisinkim, bo'lur aflokdin
Yuz baliyat oyati sha'nimg'a nozil har zamon.

Dahr aro yo'q no'shu yuz ming nish har dam, ey rafiq,
Yetmagay yo'q no'sh uchun yuz nish oqil har zamon.

Bo'lsa yuz jonio berib o'lmakni olsam, muft erur,
Jong'a mundoqkim yetar yuz tig'i qotil har zamon.

To abad bo'lsun jahon mulki aning farmonida,
Yuz jahoncha mulk bu mulkiga dohil har zamon.

Ey Navoiy, nazm mulki chun seningdur aylagil,
Shoh G'oziy vasfi ichra tilni qoyil har zamon.

461

Dema gulgundur libosim ashkning xunobidin,
Shu'ladurkim, o'rtanurmen hajr o'tining tobidin.

Ko'zlarin kofir desam yo'q, ey musulmonlar, ajab
Kim, ikovlon yuz evurmishlar qoshi mehrobidin.

G'unchai serobi hayvon chashmasidur go'yiyo,
Anda su inmish oqib har yon guli serobidin.

Qush solib sayd etmagilkim, maxlasi yo'q berkishib,
Jon qushi boshingg'a sanchilg'an gajak qullobidin.

Xo'blar oshiqlarig'a mehrin etkan chog'da arz,
Lofdur, har neki sen dersen muhabbat bobidin.

Bodai sofu, harifi sodayu mushfiq rafiq,
Gar tuyassar bo'lsa bas, olamda aysh asbobidin.

Uyqudin ko'z ochmading, go'yo ani baxtim kebi
Aylading yag'mo Navoiy didayi bexobidin.

462

Har qatra qonki tomdi ko'ngul toza dog'idin,
Bir toza lola ochti g'amming hajr tog'idin.

Demon, ichinda xurda nihon qildi g'unchakim,
La'ling g'amida o't chiqar aning dimog'idin.

Tengdur shahu gado xatikim, duda birdurur
Shah bazmi sham'idin, dog'i gulxan charog'idin.

Ermas uchuq, shakarga yopishti chibin pari,
Ikki labim bila ani olsam dudog'idin.

Mast uyqu ichra topsamu bir kecha olmasam
Ikki ko'zumni tongg'acha aning ayog'idin.

Gulda vafo yo'qin qayu bir qushki angladi,
Hargiz vafo guli tilamas dahr bog'idin.

Doim yuzung xayoli Navoiy ko'zindadur,
G'oyib emasturur pari aning bulog'idin.

463

Sirishkim la'li otashnoku xatti mushkboridin,
Chiqardi dud jonning o't tutashqan ro'zgoridin.

Yel eltur xorniyu sel xoroni bil, ey bulbul
Ki, g'am yo'q dashtu tog' ahlig'a Majnun rahguzoridin.

Sarig' kog'azda jadval mashqidur shingarf ila yoxud
Yuzumda chekti xatlar ishq gulgún ashk toridin.

Tanimda dog' ila qonmu ekin yoxud bu Majnunni
Vuhush o'tkardi sudrab ishq dashti lolazoridin.

Dema kun tushkacha uyqug'a qolmishkim, ocha olmas
Ko'zin yo nozdin yoxud sabuhi may xumoridin.

Maloyik ishqisiz gar erdi sen bor ulki hajringda,
Tutashti barchag'a o't shu'lai ishqim sharoridin.

Ayoq izzat bila bos yergakim, har sabzavu lola
Nishon bir yuz gulidin ayturu bir xat g'uboridin.

Ajab yo'q, dasht aro Majnun quyundek sadqasi bo'lmoq,
Qayon bir noqa ko'rsa sog'inib Layli qatoridin.

Navoiy istagan yor ixtiyorri birla maqsudin,
Magarkim kechkay o'z maqsudi birla ixtiyoridin.

464

Vafo yo'linda, eykim, topmading istab asar mendin,
Degaysen bilganing ul bevafo so'rsa xabar mendin.

Tanimda qaddingu la'ling firoqi tiyri boronin
Kishi ko'rsa, gumon qilg'ayki, butmish nayshakar mendin.

Jigargun bo'ldi qasring toshi la'ling hajrida baskim,
Sirishk o'rnig'a hajr oqizdi qon bo'lg'an jigar mendin.

Aningdek soldi ishqing shu'la jonim ichrakim, shaksiz,
Maloyik barcha kuygay, ko'kka tushsa bir sharar mendin.

Bo'lubmen ul parivash furqatidin telba it yanglig',
Qayon yuzlansam, ey ahli saloh, aylang hazar mendin.

Kilib Farhodu Majnun ishqo o'tin sharh, ey roviy,
Bo'lub garmi takallum forig' o'lmishsen magar mendin.

Ne tong, siymob yanglig' oqsa ko'zdin siymgun ashkim
Ki, siymob aylamish hushu xirad bir siymbar mendin.

Amal sarrishtasin qilma mutavval, kelganin xush ko'r,
Tutung ahbob, yod ushbu kalomi muxtasar mendin.

Jahonu jonne tark aylab, aning ko'yiga azm ettim,
Navoiy, bas munosib erdi bu yanglig' safar mendin.

465

Yo'qturur majlisda ayshe furqating bedodidin
Yuz fig'on, gar bo'lmasam xursand vasling yodidin.

Nechakim tushsam yiroq bu maslahatqa, yaxshikim,
Ting'asen har kecha ko'nglum nolavu faryodidin.

Zulfu qadding furqatidin necha qilsam gashti bog',
Ovuna olmon chamanning sunbulu shamshodidin.

Pand ila sabrim uyin, ey aql, ma'mur istama
Kim, qo'ngarmish ko'z yoshim sayli ani bunyodidin.

Deb eding jononsiz o'lsang, joning olg'um, ey ajal,
Jon fidong, ar va'dani o'tkarmasang miyodidin.

Savmdin ko'nglum qushi mayl etti suyu donag'a,
Lekin og'zin bog'ladim, qo'rqib ajal sayyodidin.

Ey Navoiy, kimdurur bu dayr aro ahli najot,
Ulki chiqmas dayr piri amriyu irshodidin...

Ko‘zgu har dam sudur ul ruxsori olamso‘zdin,
Muz aningdekkim erir mehri jahonafro‘zdin.

Yuz ochib, bildirdi qad birla sochi teng erkanin,
Zohir o‘lg‘ondek tunu kun tengligi navro‘zdin.

Istasangkim, tikkasen yuz pora ko‘nglum chokini,
Yaxshiroq hech igna yo‘q ul novaki dildo‘zdin.

Ishq gard etkan tanimdin hajr o‘ti uchqunlari,
Tir har yon lam‘a ko‘rguzgan kebidur to‘zdin.

Ovlading ko‘nglum, chu soid ko‘rguzub qovmaq nedur,
Javr ila ketmak chu kelmas saydi dastomuzdin.

Soqiyo, davron g‘amidin ranjamen, ko‘nglum aro
Past qil anduh o‘tin jomi nishot anduzdin.

Kech, Navoiy, jonu ko‘nglungdinki, yo‘qtur ishq aro
Chora ohi jongudozu nolai dilso‘zdin.

Ey musulmonlar, fig‘on ul kofiri xudkomdin
Kim, chiqardi ko‘kka afg‘on lashkari islomdin.

La’li ruhafzosidin bir bo‘sa payg‘om ayladi,
Garchi yolg‘on erdi, men jon toptim ul payg‘omdin.

Zulfu ruxsoringdin ayru garchi yo‘q shomimg‘a subh,
Sham‘dek har kecha to subh o‘rtanurmen shomdin.

Zulfidin ko‘nglumki maxlas topti, bor ul telbakim,
Banddin qochmish vayo qushkim qutulmish domdin.

Furqat ayyomidakim yod etmas ul mahvash meni,
Vasl topsam, men dog‘i yod etmay ul ayyomdin.

Jomi mayda bo‘ldi chun ul but jamoli jilvagar,
Kofiri ishq o‘lg‘amen, gar bosh ko‘tarsam jomdin.

Dayr aro, eykim, Navoiydin tilarsen nomu nang,
Bilkim, ul bu yerga qochib keldi nangu nomdin.

Vasl etti yor va'da labi jonfizosidin,
Go'yo bu so'zni aytti jonim arosidin.

Gar ko'rmading shafaq uza xurshid, ey ko'ngul,
Ehsos qil ani yuzu gulgun qabosidin.

Munglug' ko'ngulning ohidin etmas raqib vahm,
Yo'q itka bok ishq gadoyi asosidin.

Ishq ichra o'lдум, ohki, qutqarmadi meni,
Davr ofati ul ofati davron jafosidin.

Olamni hajr zulmati tutqay,sovursa yel
Kuygan fatilani yangi dog'im qorosidin.

Charx danida bodai g'am to'lmish, ey rafiq,
Juz hajr zahri qilma tama' davr kosidin.

Sabt o'lmasa, Navoiy, ani nazmi zaylida,
Fahm aylar ahli dard kalomi adosidin.

469

Yana ne chehrag'a o't soldi mayki, hayronmen,
Yana ne turrani yel ochtikim, parishonmen.

Uchurki, ey quyun, ul oy boshig'a evrulayin,
Bu damki yo'lida tufroq birla yaksonmen.

Biri fusunu biri simyog'a haml etarlar el,
Chu za'fdin kelibon ko'zlariga pinhonmen.

Vuhush aro meni dasht ichra ko'rди chun Majnun,
Tasavvur ettikim, ul xaylg'a nigahbonmen.

Chu xalqdin qochibon dayr sari yuzlandim,
Rafiqlar, bilingiz, vahshiyi biyobonmen.

Chu bilmay elga vafo ayladim — jafo ko'rdum
Ne sud emdi, agar nechakim pushaymonmen.

Navoiy emdi qilurmen Hijoz ohangi,
Sog'inmag'il yanakim azimi Xurosonmen.

470

Shahru kishvardin ilik yub, xonumondin kechkamen,

Xonumondin kim desun, ikki jahondin kechkamen.

Har zamon boshimg'a yuz tig'i balo aylab qabul,
Umrdin tortib etak, billahki, jondin kechkamen.

Shahru kishvar, xonumon, ikki jahonu, umru jon,
Xud ne bo'lg'ay, muncha yuz kom o'lsa, andin kechkamen.

Gar Skandar mulki birla Xizr umri bersalar,
Uyla mulku buyla umri jovidondin kechkamen.

Mumkin ermastur valek, ey mehribonlarkim, dame
Qilsa yuz bedod, ul nomehribondin kechkamen.

Voizo, aylab yengillik, nechakim kavsar mayin
Maqtasang, hoshoki men ratli garondin kechkamen.

Ey Navoiy, qon yoshim bahr o'ldi bu dam istasam
Kim, yetay ul qotilimg'a, emdi qondin kechkamen.

471

Har tarafkim borur ag'yor ila jonon talashurmen,
Chun ajal qasd qilur o'lma kima, jon talashurmen.

Hajr tig' ursa, taloshimni o'lum xavfi sog'inma
Kim, shahiding bo'layin deb meni hayron talashurmen.

Boshoq ustida talashqon kebi mazra'da gadolar,
Dashti ishqing aro ushshoq ila paykon talashurmen.

Ey pariy, chun kiyik o'xshar iki ko'zunga biaynih,
Bu jihatdin meni devona biyobon talashurmen.

Garchi ag'yordin olmog'lig' emastur seni mumkin,
Tur mog'umdur boqibon, onchaki imkon, talashurmen.

Achchig'im kelgali kavsarni achig' bodag'a tarjih,
Xirad ahli chu qilurlar meni nodon, talashurmen.

Qo'l solib hajr o'tida ul kishi yanglig'ki su urgay,
Ey Navoiy, chu oshar shu'lai hijron, talashurmen.

472

Orazing naqshin ko'ngul lavhida tasvir etkamen,
Bo'lmasa taqdir ani ko'rma k, ne tadbir etkamen.

Ey qora ko‘z, bo‘lmas ul yuz shavqidin yuzdin biri,
Ko‘z qorasidin agar yuz noma tahrir etkamen.

Yoshurun qolg‘aymu ishqim, buylakim ul sho‘xdin
Chiqsa bir so‘z bexabar, yuz qatla taqrir etkamen.

Ne junundur buki, har tun ul parivash vaslig‘a,
Yuz xayol aylab, yana borig‘a tag‘yir etkamen.

Eyki, dersen vasl koming bo‘lsa, jon qilg‘il fido,
Ul tuyassar gar bo‘lur, men xud ne taqsir etkamen.

Ishq azaldindur nasibim, nosiho, man’ etmagil,
Man’ qilsang ham, netib men man’i taqdir etkamen.

Ey Navoiy, naqdi jon bergil deding savdosig‘a,
Buyla savdo gar tuyassar bo‘lsa, tavfir etkamen.

473

Bazm ichinda andoq ul mahvash xayoli birlamen
Kim, xayol andoq qilurmenkim, visoli birlamen.

So‘zlashurda o‘z-o‘zum birla junun ahli kebi,
Ul parivash belu og‘zi, qilu qoli birlamen.

Gah kulub, gohiki yig‘larmen xayol aylab ani,
Vasli ummidiyu hijroni maloli birlamen.

Demagil maydin yuzum rangin, qulog‘imdur qiziq
Kim, bu yanglig‘ hajr koju go‘shmoli birlamen.

Og‘ziyu zulfi g‘amidinkim erur nolamda mad,
Buyla mad tortarda aning «mimu» «doli» birlamen.

Soqiyo, bir jomi may birla meni devona qil
Kim, mushavvash aql savdoysi muholi birlamen.

Ey Navoiy, aql sari emdi bo‘lma rahnamun
Kim, bo‘lub devona, ishqil louboli birlamen.

474

Bir yuzi o‘tluq sharori ishqidin mahrurmen,
Do‘stlar, o‘rtansam, etmang aybkim, ma’zurmen.

Ishqini ne sud pinhon tut demaktin, ey rafiq,
Emdikim ishq ichra rasvoliq bila mashhurmen.

Men kimu uyqug'a ko'z yummoq, chu yo'qtur toqatim,
Orazidin ko'z yumub ochquncha gar mahjurmen.

Ne ajab Farhodu Majnun zikrikim, bo'lmish unut,
Kim, men el ichra jununu ishq ila mazkurmen.

Obi hayvon ichmagaymen istabon daf'i xumor,
Menkim ul maygun labi jonbaxshdin maxmurmen.

Kimsaga chun yo'qturur bu korgahda ixtiyor,
Yo'q manga aybu hunar, gar mast, agar masturmen.

Ey Navoiy, vasl umidin yoqmog'il to'hmat manga
Kim, men ul mahvashni bir ko'rmak bila masrurmen.

475

Azimat aylama, ey sho'xi bexabar, har yon,
Meni firoqing aro qilma darbadar har yon.

Firoq shomida anjum emaski, ohimning
O'ti shafaq bo'lub, o'ldi judo sharar har yon.

Dema tanimda yangi dog'larki, ishqing o'ti
Chu tushti ko'nglum aro, ayladi asar har yon.

Yuzungda xollar ermas, ko'zung g'azolidur
Ki, tushti nofasidin qatra mushki tar har yon.

Ko'rung zaif tanim tegrasida javri toshin,
Yag'och tubida sochilg'on kebi samar har yon.

Qadamni faqr tariqida har taraf urma,
Tuz uyla qat'ki, bordur base xatar har yon.

Navoiy uchqali shavqungda tig'i hajringdin,
Aliflar anglama jismida, chiqti par har yon.

476

Soqiyo, ochting chu may tutmaqqa jomi Jam yuzin,
Yuz g'amim daf' ayladingkim, ko'rmagaysen g'am yuzin.

Uyla ruhafzo labing anfosidin toptim hayot
Kim, gar o'lsam, ko'rmagaymen Isoyu Mar'yam yuzin.

Yor mehmon bo'lmoq ermish, boring, ey jonu ko'ngul,

Istaramkim ko‘rmagay, albatta, nomahram yuzin.

Gar vafo ahlig‘a olam zulm qilmas, bas nedur,
Dudi ohimkim qora aylabturur olam yuzin.

Tun emas, baskim, falak jonimg‘a qo‘ymish dog‘i zulm,
Ul tugonlar dudi tutmisnilgun toram yuzin.

Eyki, ko‘nglung choki butti vasldin, shukr aylagil
Kim, mening zaxmimdur ulkim ko‘rmamish marham yuzin.

Oncha yuzsizlik ulustin ko‘rmisham, gar bersa dast,
Istaramkim, ko‘rmasam hargiz bani odam yuzin.

Baski, ko‘rmishmen quyosh yuzluk ulustin tiyralik,
Dermen ohim tiyra qilsa nayiri a’zam yuzin.

Ey Navoiy, tushsa mast ilgingga bir kun, o‘pkasen
Ham qabog‘in, ham saqog‘in, ham dudog‘in, ham yuzin.

477

Ming o‘tum bor, aylay olmasmen ayon mingdin birin,
Dahr kuygay, zohir etsam nogahon mingdin birin.

Ming tugon jismimda ko‘rsang, ko‘p taajjub qilmakim,
Ichdagidin zohir aylabmen ayon mingdin birin.

Dema dardingni nihon tutqilki, yuz ming dardni
Maxfi etsam, qilmish o‘lg‘aymen nihon mingdin birin.

Uyla yuz ming pora ko‘nglumni parishon etti hajr
Kim, topa olmon tilab men notavon mingdin birin.

Garchi qildi hajr o‘ti o‘rtanmakimni birga ming,
Olam o‘rtangay, agar qilsam bayon mingdin birin.

Ohkim, ahbobdin har kimga aylab ming vafo,
Topmadim yaxshi o‘zumga men yomon mingdin birin.

Ey Navoiy, dahr eli gar mingu gar bir tonima
Kim, vafolig‘ aylay olmasmen gumon mingdin birin.

478

Labing mayi havasidin mudom yig‘larmen,
Piyoladek bo‘lubon talxkom yig‘larmen.

G‘aming tunida kuyub sham’dek saharg‘a degin,
O‘zumga uyquni aylab harom, yig‘larmen.

O‘zumni har nimaga kunduz aylaram mashg‘ul,
G‘arib holima, chun bo‘ldi shom, yig‘larmen.

Toriqtı charx yig‘imdin, magarki bilmas edi
Ki, dardi hajr zamonin tamom, yig‘larmen.

Xayol ila anga deb, dam-badam salomimni
Berib o‘z-o‘zuma, andin payom yig‘larmen.

Bo‘lub ichim to‘la qon davr eli nifoqidin,
Sarig‘ uzor ila andoqki jom yig‘larmen.

Navoiyo, yana bir lolarux firoqinda,
Ko‘zum yoshin qilibon lolafom, yig‘larmen.

479

Gar desa ko‘z birla ruxsorin tamosho qilmayin,
Vaslini naylab ko‘ngul birla tamanno qilmayin,

Gavhari ishqig‘a ko‘nglumni netib qilmay sadaf,
Muncha baskim ko‘zni ifshosig‘a daryo qilmayin,

Oh o‘tiyu ashk saylidin bo‘lur yer-ko‘k to‘la,
Necha dermen ishq asrorin huvaydo qilmayin.

O‘t tushub ko‘nglumdavu ko‘ksumda ravzan zaxmidin,
Dudini aning ne yanglig‘ oshkor qilmayin.

Ul pariy har jilvasida aqli kul shaydo bo‘lur,
Telbalikdindur, desam ko‘nglumni shaydo qilmayin.

Qilmag‘il, ey shayx, usruklar unidin shikvakim,
Mast o‘lub mayxonada bo‘lmas alolo qilmayin.

Soqiyo, andoq to‘la tut bodakim, bexud bo‘lay,
Toki davr oshubig‘a bir lahza parvo qilmayin.

Qildi ul ko‘z yodidin ko‘nglum kiyiklar sari mayl,
Necha men Majnun dedimkim, azmi sahro qilmayin.

Ey Navoiy, olamoro husn nevchun ochti yor,
Bo‘lmas emdi o‘zni olam ichra rasvo qilmayin.

480

Qil bu yon javlonki, jonni xoksoring aylayin,
Boshinga evrulgali qo‘pqon g‘uboring aylayin.

Bu bahona birla chunkim jonni sadqang ayladim,
Aqlu hushu sabr naqdin ham nisoring aylayin.

Yuz agar ochsang, nazarning qushlarin sayding qilay,
O‘q agar otsang, ko‘ngul saydin shikoring aylayin.

Qochib el nazzorasidin gar kirarsen aksdek,
Ko‘zgudek ko‘nglumni temurdin hisoring aylayin.

Sen labingdin jon berib, vaslingdin elning ko‘nglin ol,
Men hazin jonusi ko‘ngulni xoru zoring aylayin.

Xonaqahda, eyki, o‘zluk jomidin maxmursen.
Kir fano dayrig‘akim, daf‘i xumoring aylayin.

To‘lsa paymoning, Navoiy, dayr aro may birla yub,
Boshining xum kirpichin xishti mazoring aylayin.

481

Ohu vovayloki, olam ahlining badholimen,
Har nafas bir dardu mehnat xaylining pomolimen.

Ko‘zdin oqqon tiyra qonim zorzismimni bo‘yab
Kim, qurubtur xoma yanglig‘durmen aning nolimen.

Toki ko‘nglum ittiyu forig‘ bo‘lubmen dardidin,
Ishq aro ko‘nglin iturgan xayli forig‘bolimen.

Baski bedoding yukin tortib qadim bo‘lmish nigun,
Go‘yi ul bedodning ostida qolq‘on dolimen.

Ruhi Majnunning magar jismim aro qilmish xulul,
Buylakim, za’fu junun birla aning timsolimen.

Ishq aro vasl istamon, qonimni to qildim halol,
Har nekim ishq ahlig‘a mushkuldurur, hallolimen.

Yor ila ushshoqu men mahjur holim so‘rmakim,
Ey Navoiy, bu jamoatning xarob ahvolimen.

482

Jong‘a har dam ishqidin yuz ming balo kam istamon,

O‘zgaga ming yil o‘tub, yuzdin birin ham istamon.

Yor chun istarki, g‘amnok o‘lg‘amen hijronidin,
Ne ajab gar vaslidin ko‘nglumni xurram istamon.

Tig‘i ishqing zaxmidin jonim bir osoyishdadur
Kim, agar yuz qatla o‘lsam, dog‘i marham istamon.

Dev siyratlar bila ko‘rsam ne hol o‘lg‘ay manga,
Ul pariyg‘a chun malak xaylini hamdam istamon.

Ne tahammul, gar yuziga tushsa nomahram ko‘zi
O‘z ko‘zumni ayni g‘ayratdin chu mahram istamon.

Oncha el javrin ko‘rub menkim tilarmen fardliq,
Bo‘lsa yore ham vafoliq, jinsi odam istamon.

Ey Navoiy, ishq agar olamg‘a rasvo qilmasa,
Men xud o‘zni kuch bila rasvoyi olam istamon.

483

O‘lturur ko‘yida ishq ahlin alolosi uchun,
Shoh qatl etkan kebi itlarni g‘avg‘osi uchun.

Tiyra zulfidin ko‘ngul ruxsorin aylar orzu,
Go‘yiyo ravshan su istar daf‘i savdosi uchun.

Chun bo‘lur har tun shabiston ichra sham‘i anjuman,
Xayli anjum evrulur ul oy tamoshosi uchun.

Qaddida gulgun libos ermaksi, ustodi azal
Bargi guldin hulla qilmish sarvi ra’nosи uchun.

Zulfi zanjirig‘a haddim yo‘q, iti zanjiri ham
Yaxshidur, qayd etsa bu majnuni shaydosi uchun.

To tirikdursen, qadah davrin g‘animat tutki, charx,
Evrulur tegrangga naqdi umr yag‘mosi uchun.

Ey Navoiy, tarki dunyo ayla, izzat istasang
Kim, mazallat keldi sa’y aning tamannosi uchun.

484

Maskanim hijronda bo‘lsa erdi Marvi shohjon,
Bergay erdi hajrdin o‘lsam, tanimg‘a shoh jon.

Rashkdin jonu ko‘ngul bir-birga dushman bo‘ldikim,
Goh vaslingni ko‘ngul aylar tamanno, goh jon.

Noma sabt aylarda chiqtı jon, vale kuydi ko‘ngul
Kim, qoshingg‘a noma birla bormag‘ay hamroh jon.

Jon bila ko‘nglumni asrarmen fido aylay debon,
Yo‘qsa ermas ham ko‘ngul matlubu ham dilxoh jon.

G‘ayrdin xoli visolingni tilarmen, ohkim,
Ko‘rmagay ko‘z, bo‘lmag‘ay voqif ko‘ngul, ogoh jon.

Furqatingda boda qo‘ymas o‘lgalikim, qaytarur,
Chiqqali og‘zim sari mayl aylasa nogoh jon.

Ey Navoiy, uyla jon og‘zimga yetmishkim, chiqar,
Furqatida har necha ohista cheksam oh, jon.

485

Yo‘q damekim, ul quyosh yodida faryod aylamon,
Aylamon faryodkim, gardunni barbod aylamon.

Nola qilmonkim, xaloyiq ko‘nglini qilmon hazin,
Navha chekmon el arokim, elni noshod aylamon.

Orazu qaddi xayoli bas menga, ey bog‘bon,
Gul sari qilmon tamosho, mayli shamshod aylamon.

Qo‘yma yuz huru pariy vasfig‘a, ey roviyki, men,
Qiblai jon g‘ayri ul huri parizod aylamon.

Aylamon ma’mur aqlu sabr ila ko‘nglum uyin,
Chun meni buzdi, men ul vayronni obod aylamon.

Har necha qildim vafo, ko‘rguzdilar javr, ey ko‘ngul,
Ayb qilma, gar zamon abnosidin yod aylamon.

Ey Navoiy, tarki ishq etkim, qutulsam men dog‘i,
Kimsaga ko‘nglumni mundin nari mu’tod aylamon.

486

Ko‘z bila qoshing aro ul xoli mushki nobdin,
Nuqta kofir uzra tushmish yo quyi mehrobdin.

Ul og‘iz ollidakim har la’lidur obi hayot,
Nomunosibdur demak so‘z g‘unchai serobdin.

Uylakim, zulfung g‘amin olamg‘a tarqatmisn nasim,
Ne ajab, sudralsa yuz jon bo‘yni har qullobdin.

Nuqtai mavhum erur og‘zing, netib kom istayin
Kim, tamattu’ kasb qildi javhari noyobdin.

Hajr tobu pechidin qisqardi umrum rishtasi
Tor ul yanglig‘ki bo‘lg‘ay qisqa pechu tobdin.

Olam asbobidin o‘t, gar istasang ko‘nglungni jam’
Kim, parishonlig‘din o‘zga yetmas ul asbobdin.

Ey Navoiy, yor ko‘yida qora tufroq aro
Qolibon ortuq ko‘rarmen bistari sinjobdin.

487

Necha g‘amim o‘tin ahli zamong‘a yetkurayin,
Sharoru dudidin aning osmong‘a yetkurayin.

Qadam boshimdin etib kuyi azmi qildimkim,
Bu makr ila ani ul ostong‘a yetkurayin.

Labingg‘a may bila no‘shi hayot yetkandek,
Aning xayolini men dog‘i jong‘a yetkurayin.

Ko‘ngul chu ko‘yida gum bo‘ldi, ne ko‘ngul birla
O‘zumni kom tilay gulsitong‘a yetkurayin.

Ko‘ngulni istayu vayron badang‘a elturmen
Ki, xonumonini bexonumong‘a yetkurayin.

Jahonda fitnadur aylab surog‘ mayxona,
O‘zumni sa’y ila dorul-among‘a yetkurayin.

Navoiy ohi sanga za’fdin chu yetmas, kel
Ki, vasldin madad ul notavong‘a yetkurayin.

488

Ishq ichra qani men kebi zeru zabar o‘lg‘an
Har kimki yo‘q andin batar, andin batar o‘lg‘an.

Chun dilbari kirpiklar o‘qi har sari otqan,
A’zosi aro har sarimo‘ nishtar o‘lg‘an.

Menmen labi jonbaxshing uchun la'l masallik,

Bag‘ri teshilib, g‘arqai xuni jigar o‘lg‘an.

Dehqon deki, mendek yana davron chamanida
Kim ko‘rdi vafo naxlig‘a hijron samar o‘lg‘an.

Jismi sharar ayrilmoq ila bilki tugandi,
Ko‘nglida muhabbat shararidin asar o‘lg‘an.

Mast ulki, jahon mehnatidin topti farog‘at,
Davrong‘a kelib ketkanidin bexabar o‘lg‘an.

Faqr ichra, ne tong, o‘zlukidin kechsa Navoiy,
Fard o‘ldi fano shevasidin bahravar o‘lg‘an.

489

Oy botti munfail bo‘lubon ul jamoldin,
Shoyadki, chiqmag‘ay yana bu infioldin.

Zulfung xayoli ko‘nglum uyi ichra to‘lg‘ali
Xoli emasturur nafase ul xayoldin.

Kim ko‘rdi husn bog‘ida sarve qading kebi
Hargiz tajovuz aylamagan e’tidoldin.

Sabrim uyini yiqla qading naxli, tong emas,
Hargiz sutunkim ayladi navras niholdin?

Dardoki, o‘ldumu anga dardimni demadim,
Ko‘nglin mukaddar aylamayin deb maloldin.

Yuz jon berib, vafo bani odamda topmading,
Kech emdi, ey ko‘ngul, bu xayoli maholdin.

Xursandliq Navoiyg‘adur bu umid ila
Kim, vasli toshqori xud emas ehtimoldin.

490

Raxshingki, xirom ichra o‘tar kabki daridin,
Istarmen aning na’lini tovus paridin.

O‘tgan yo‘lida na’lidin o‘t jonima tushti,
Jonimg‘a nelar keldi aning rahguzaridin.

Gulgunmudurur yo julini ayladi ul nav’,
Xayyoti falak san’ati gulbargi taridin.

Gulruxlar aro chunki so'rarsen, xabar aytur
Eskan gulu sarv uzra nasimi saharidin.

Otinki, pariy chehra deding, sendadur ul ot,
Anglar kishikim, ori emas tab' asaridin.

Nehojat edi sur'at anga, munchaki oshiq
Ko'zni yumubon ochqucha o'tkay nazaridin.

Mujgon bila istar qashig'ay surtub anga ko'z,
Fahm o'lsa Navoiyg'a rizo siymbardin.

491

Kuydum g'ami ishqimni ayon aylamakimdin,
Chekkay edilar kosh tilimni ko'makimdin.

Bir loladururkim, ichida dog'i nihondur,
Har qonki tomar dog'i nihoni yurakimdin.

Dasht ichra junun ahlig'a bo'ldi alami ishq,
Har xor uza pargolaki qoldi etakimdin.

Ishq ichra tiriklikda parishonlig'im anglar,
Ko'rgan kishi sahroda yoyilg'on so'ngakimdin.

Majnundek elarmen etakim birla chu tufroq,
Go'yoki fano gardi yog'ar ul elakimdin.

Hasrat ilikin tishlab icharmen g'amidin qon,
Ayshimni xayol et bu mayyu ul gazagimdin.

Hajrida Navoiy kebi matlubum emas umr,
Har kimni tilarmen chu yiroqmen mirakimdin.

492

Kishi oyirsa bir bedilni yori dilpaziridin,
Umid ulkim, ayirg'ay tengri ani noguziridin.

Agarchi men asiri bo'ldum ul badmehrning, yo rab,
Judo qilma asirin andinu ani asiridin.

Deb ermishkim, zamirimda anga zulm aylamak yo'qtur,
Chiqarg'il, yo rab, ushbu zulmni aning zamiridin.

Dimog'im topmasun maqsud isi, gar ko'ni tufrog'in
Topib, ani muattar istasam jannat abiridin.

Menu, qon yutmog‘u mayxona tufrog‘i, demang zinhor
Manga Jamshid jomi birla Afridun sariridin.

Ochildi chun eshiklar dayrg‘a, may ichmay o‘ldum mast,
Nechukkim ahli rahmat jannat abvobi sariridin.

Navoiy shodmondur barcha, gar o‘lturgali ul shah
Qilibtur yod ahli ishq aro ushbu faqiridin.

493

Kelsa bir kun, necha kun kelmasligidin lolmen,
Bir kun o‘z holimda bo‘lsam, necha kun beholmen.

Necha kunkim kelmasa, aylar o‘lum holi meni,
Kelsa bir kun o‘lturur, bu ishvalardin lolmen.

Yo‘lida tufrog‘ agar bo‘ldum, g‘araz pobo‘sidur,
Bo‘lsa bu komim ravo, g‘am yo‘q agar pomolmen.

Dilbarim Shirin bila Laylig‘a gar aqron esa,
Men dog‘i Majnun birla Farhodg‘a amsolmen.

Hindu o‘ldum, hajr etkach ro‘zgorimni qora,
Yo balog‘a nuqta, yo anduh yuziga xolmen.

Soqiyo, hijron g‘ami tug‘yondadur, lutf aylakim,
Dam-badam oshuftai bir jomi molomolmen.

Ey Navoiy, boshima ko‘rkim nelar kelturdi ishq,
Piri aql erdim, bu dam bozichai atfolmen.

494

Ul pariy mahjub bo‘lg‘ay deb meni devonadin,
Chug‘zdek chiqmon tunu kun go‘shai vayronadin.

Oshnolar ta’ni ishqida halok aylar meni,
Muncha shiddatliq emas, nekim kelur begonadin.

Aytsamkim, sadqang o‘ldum, nega kuydurding meni?
Derki, bu mushkulni fahm et sham’ ila parvonadin.

Yor mehmon bo‘lsa, bermasmen rizo, chun bir nafas
Mehnatu g‘am xayli chiqmaslar bizing koshonadin.

Chunki yoyildi havodis fitnasi har go‘shada,

Maslahat ermaksi chiqsam go'shai mayxonadin.

Men ichib mayxonada may, jannatu kavsar so'zin
Voiz aytib, bo'lmadi ko'ngli malul afsonadin.

Bir pariydin gar sanga bandi junun tushti, ne tong,
Ey Navoiy, qochmag'ay devonalar zulonadin,

495

Necha ko'rgan soyi ajzim javr og'oz etkasen,
Anglag'an soyi niyozim shiddatin noz etkasen.

Mumkin ermas chun quyosh vasli kecha xuffoshqa,
Ey ko'ngul, ul yon necha hijronda parvoz etkasen.

Bo'lsa haddim, der edim ollingda ko'nglum rozini,
G'ayrni rag'mimg'a garchi mahrami roz etkasen.

La'li ul kofirning elga jon bag'ishlar, ey Masih,
Necha anfosing bila da'voyu e'joz etkasen.

Dam-badam shavqum sanga ko'prakdur, ammo sabrim oz,
Garchi sen bedodni ko'p, mehrni oz etkasen.

Ey falak, zulmu sitam ichra o'z ovozing uchun,
Necha bizga har zamon bir ish sarovoz etkasen.

Ey mug'anniy, baski yig'latg'aysen elni bazm aro,
Gar Navoiy ohi birla nag'mani soz etkasen.

496

Qorig'an chog'da bir mahvash yigit shaydosi bo'lmishmen
Ki, ishqidin qari birla yigit rasvosi bo'lmishmen.

Quyundek po'yada maydon manga gah tog' erur, gah dasht,
Magar Majnun bila Farhodning hamposi bo'lmishmen.

Bag'irdin itlariga to“ma qon yoshimni may qildim,
Junun bazmi aro ul xayli bazmi orosi bo'lmishmen.

Meni ko'rgach bo'lur ishq ahli majnun, berma pand ey aql,
Chu men devonlarning moyayi savdosi bo'lmishmen.

Bo'lur ishq ahli ta'lim olsalar devonalig' mendin,
Nedinkim, men bu nodon xayilning donosi bo'lmishmen.

Demang ahli xirad ishqu junun savdosidin chiqkim,
Meni bexonumon bu dashtning nasnosi bo‘lmishmen.

Navoiydek qorig‘anda yigit bo‘lsam tong ermaskim,
Qorig‘an chog‘da bir mahvash yigit shaydosi bo‘lmishmen.

497

Kecha asru muztar erdim, vahki, shaydomen bukun,
Tun xud o‘tti, lek onsiz noshikibomen bukun.

Ne so‘zumni fahm etarlar el, ne men elning so‘zin,
Bilmon elniyu o‘zumni — asru rasvomen bukun.

Ro‘zgorim zulfu, xolu xattidin bo‘lmish qora,
Ey xirad ahli, bilingkim, mahz savdomen bukun.

Elga jon bermakka chiqti, go‘yiyokim rashkdin,
O‘lmagay ollida aning kimsa illoh men bukun.

Multafitdur elga, men mahrum, bu damkim chekib
Tig‘, istar bir kishi qatlin, men ovlimen bukun.

Ey ko‘ngul, sen onsiz ermassen dame, bu damki men
Vaslig‘a yettim, sen o‘lg‘ung ollida yo men bukun.

Yo‘qturur Farhod ila Majnun magarkim bildilar,
Tog‘cha anduhi birla dashtpaymomen bukun.

Ul pariy ishqida o‘zluk tarki tuttim, soqiyo,
Bodakim, devona bo‘lmoqqa muhayyomen bukun.

Do‘sstar, qoching Navoiydinki, zulmi hajr aro,
Dardi dil ayturdin elga mehnatafzomen bukun.

498

Tugun bir-bir demon, yuz-yuz musalsal zulfi toridin,
Nishondurlar sarosar mo‘r xaylining qatoridin.

Yuzi gul, zulfi sunbul, og‘zi g‘uncha, qomati savsan,
Nazohatda uyatlig‘dur behisht aning bahoridin.

Havodis shomi solsa ro‘zgor ichra parishonlig‘,
Nishon bil zulfida ko‘nglum parishon ro‘zgoridin.

Ani ko‘rgach necha ishqim yoshursam, xalq anglarlar
Ko‘ngulning iztirobidin, badanning iztiroridin.

Men onsiz tufrog‘ o‘ldum, ey sabo, sen rahm etib bore,
Qotishtur ko‘yining tufrog‘ig‘a jismim g‘uboridin.

Meni ishq ila rasvo qildikim, emas mening sari,
Nasime kelsa nogah ofiyat mulku diyordin.

Bu dayr ichra fano rasmin biravkim ixtiyor etkay,
Kushod imkon yo‘qtur kechmayin ul ixtiyoridin.

Mayi vasl, eyki, no‘sh aylab, o‘zungni aylading sarxush,
Guvoro bo‘lsun, ar biym o‘lmasa bu may xumoridin.

Navoiy sabru ishqidin ul oy forig‘durur, ya’ni
Xabar yo‘qtur anga bu benavoning yo‘qu boridin.

499

Ko‘rsa ne fikri tanim zaxmiyu ko‘nglum kuyganin,
Ulki na’lu dog‘din hayf etmas o‘z nozuk tanin.

Qayda ko‘rsun, ko‘rsa ne qilsun yoqam choki asar,
Mastlig‘din ulki har dam chok etar pirohanin.

Xirmani sabrim kuyardin ne g‘am ul kofirg‘akim,
O‘t solibtur bodadin, ko‘rgil jamoli hirmanin.

Garchi ranjim sa’b erur, vah, qayda parvo aylasun,
Qotilekim, ko‘rdi turguzmakcha o‘lturmak fanin.

Anglag‘ach qatl aylar erdi, shukrkim, bilmas kishi
Bazmi g‘avg‘osi aro ahli musibat shevanin.

Necha tavsanliq sukun andin burunroq ko‘zlakim,
Olmag‘ay kome, necha sursang yigitlik taysanin.

Gulshani ishratqa siz azm aylangiz, ey ahli aysh
Kim, Navoiy bas og‘ir olmish mazallat gulxanin.

500

Kirpikimdur ashk qoni birla shohi arg‘uvon,
Rahm qil, ey arg‘uvoni rang to‘nluq navjuvon.

Ul iki ko‘zdurmdu yo ishqingda ayni za’fdin
Go‘shai gulzor aro yotmishlar ikki notavon.

Dudi ohimni shararlar birla ko‘rgan sog‘inur

Kim, yetishti dard mulkidin yuz o'tlug' korvon.

To labing naqshi ko'zumda la'lgun ashkim kebi
Tutti yer, hayvon zuloli yuz sari qildim ravon.

Shod edim husn ahli onidin, qani ul ahli husn,
Ey ko'ngul, men g'ofilu ermish g'animat ul avon.

Ey visol ahli, sizu izzat bisoti uzra aysh
Kim, yetibdur bizga qismat ishqdin hajru havon.

Ey Navoiy, yor agar zulm etsa, shahg'a qil duo
Kim, anga tobi'durur adl ichra yuz No'shiravon.

501

Yozarda ishqing o'tin sekrir ohimdin sharar har yon,
Varaqda nuqtalar iynak shararlardin asar har yon.

Raqib ilgi jafo toshi ko'p otsa, bois ohimdur,
Aningdekkim, itik yel shoxidin sochqay samar har yon.

Dam urmassen, labing shirinlig'in vasf aylasam, go'yo
Iki la'lingni bir-birga yopishturdi shakar har yon.

Ko'kargan dog'idur g'am toshlarining xasta jismimda,
Qurug' shox uzra chirmashib ochilg'ay nilufar har yon.

Suda gul barglar oqqon masallik la'li hajrinda,
Oqar ashkim aro har qatra qon bo'lg'an jigar har yon.

Ko'ngulda o'hlaringdin bar yesam bir kun, ajab ermas,
Munungdekkim bu bog' atrofida ekting shajara har yon.

Beling sarrishtasig'a mubtalo bo'lg'on ko'ngul saydi,
Kiyikdekdurki, mahkam aylamish yo'lin kamar har yon.

Ne muhlik vodiy ermish Ka'bai maqsad biyoboni
Ki, adno mo'rdin bor ajdaholarg'a xatar har yon.

Navoiy rishtai zuhdi uzulsa, qilmangiz hayrat.
Munungdekkim ani usruk chekar bir siymba har yon.

502

Ichimdag'i yoshurun g'amki, ayta olmasmen,
Bir o't solur manga har damki, ayta olmasmen.

G'amiki, o'lsam emas ayta olmag'i mumkin.
Agarchi o'lturur ul hamki, ayta olmasmen.

Desamki, dardini dey, ishqqi ilgi bo'g'zumni
Tutar aning kebi mahkamki, ayta olmasmen.

Ne nukta ishqdin aytay desam, meni ul sho'x
Qilur aning kebi mulzamki, ayta olmasmen.

G'aming nihon meni o'lturdi zulm tig'i bila,
Erur bukun manga motamki, ayta olmasmen.

Ketur piyolaki, ish sirlini hakimi azal
Aningdek ayladi mubhamki, ayta olmasmen.

Navoiy aytsun o'z dardiniki, dard meni
Qilibtur ul sifat abkamki, ayta olmasmen.

503

Ko'ngul toshlar qorasin dog'larkim, qo'ydi g'am har yong
Junun ifrotidin devona sochqondek diram har yon.

Men ashk ichra cho'mub, har tun qilib hamsoyalar oshub,
Mening holimg'a yo'q o'tkan uchun uylarga nam har yon.

Erur har sari ushshoq ohidin, mendin emas bukim,
Bo'lur naxli qadig'a jilva aylar chog'da xam har yon.

Bulutqa humrat ermas mehrdin, balkim tutoshibdur,
Momuqdek baski chiqtı ohim o'tidin alam har yon.

Bo'lur qon mushki, ishqinq mushkini qon ettikim, bo'lmish
Qora shanjarf, holim yozg'ali qo'ysam qalam har yon.

Itibtur telba ko'nglum har taraf, ey ishqu dard, istang,
So'rayin ul parivash ko'yida men xasta ham har yon.

Ne vodiy qat'i qilmoqdur, fano dayrida sokin bo'l
Ki, qay ravzang'a qo'ysang ko'z bo'lur mar'iy haram har yon.

Dame o'ksutmagil, yo rab, xarobot ahli g'avg'osin
Ki, ul undin kudurat qushlarig'a bo'ldi ram har yon.

Navoiydek qadam mayxonada berkit sutun yanglig',
Desang ollingga'yuz g'am kelmagay, qo'ysang qadamhar yon.

504

Ahd qildim, ishq lafzin tilga mazkur etmayin,
Til nekim, xomam tilidin dog'i mastur etmayin.

Barcha elga fitna bo'lg'an ko'zga maftun bo'lmayin,
Har kishi nazzora aylar yuzni manzur etmayin.

Ishq kufri birla taqvo xonaqohin buzmayin,
But xayolidnn ko'ngul dayrini ma'mur etmayin.

Har kecha bir lab mayi vaslidin etmay jonni mast,
Har kun aning hajrida ko'nglumni maxmur etmayin.

Gar chiday olmay ko'ngul bersam birovga nogahon,
Bori el ichra chiday olg'anacha mashhur etmayin.

Ishqu may anjomi chun hajr o'ldi, qo'y, ey shayxkim,
O'zni bu iqboldin kuch birla mahjur etmayin.

Zulm ila el jonig'a o't yoqma, eykim, shohsen,
Gar desang do'zax o'tig'a jonni mahrur etmayin.

Garchi ma'zur o'ldi ma'mur, ey Navoiy, o'zni men
Do'st ma'mur aylagan xidmatda ma'zur etmayin.

505

Muzayyan qilma marmar toshi birla tufrog'im boshin
Ki, ko'nglum dudi Mashhad toshi aylar mashhadim toshin.

Bulut birla yog'in ermaski, ul oy hajrida har dam
Tiya olmon damim dudin, yig'a olmon ko'zum yoshin.

Azal naqqoshikim chekti yangi oy naqshini, go'yo
Qalam sof aylar erdi sizg'ali ul dirlrabo qoshin.

Quvondi shayx zikri halqasidin naylasun miskin,
Alolo ichra ko'rmaydur malomat ko'yi avboshin.

Xaloyiq o'lganimni baxtim uyqusi sog'innishlar,
Nechukkim tonimaslar tav'amonning ko'rsa qardoshin.

Soching fikriga to tushtum, musalsal bo'ldi ul savdo,
Qachon bildim men ul sarrishtaning bu nav' chirmoshin.

Jahonni kuydurur, ey mug'bacha, paymonai la'ling,
Magar ko'nglum o'ti birla qizitmishlar aning doshin.

Ajab mehru shafaq ermasmudurkim, topmadi hargiz
Xirad bu toq me'morin, nazar ul shamsa naqqoshin.

Navoiy, xonaqahda xirqavu sajjodang o'lmish qayd,
Bulardin maxlas istarsen, fano dayri sari yoshin.

VOV HARFINING VILOYAT AFZOYLARINING VAQOYEYI «BADOYE»DIN

506

Sujud etar quyosh ollinda uylakim hindu,
Yuzung qoshinda quyosh lo iloha illohu.

Quyosh yuziga boqardin nazar erur ojiz,
Yuzungdin etti magar aks zohir ul ko'zgu.

Yuzung nishonig'a har zarra gar emas tolib,
Quyosh jamolig'a zarrot nevchun etti g'ulu.

Magar tajalliy husnungg'a mazhar o'ldi quyosh
Ki, zohir ayladi oncha jilo bila yog'du.

Yuzung xijolatidin mehr ila sarg'ormish
Ki, subh aylar aning za'faronidin kulgu.

Yuzungni tushta ko'rар mumkin o'lsa, istarmen
Aningdek uyquki, andin so'ng o'limg'ay uyqu.

Navoiy, ista visolin, bihisht istamagil,
Kishi bihisht borinda tamug'ni istarmu?

507

Ne ajab, gar qilmasam gul rangu bo'yin orzu
Kim, erur andin dimog'im ichra o't, ko'zumda — su.

Sarvni ham istamonkim, ko'zga andin o'qdurur,
Kimsa bir o'qni ko'ziga qayda qilg'ay orzu.

Guljabinlik sarvqad mohim kerak, yo'q sarvu gul,
Ul yuzu qadsiz manga ne ul keraklikdur, ne bu.

Qomatu ruxsori komimdur, yo'q ersa bog' aro
Har taraf ko'p saf tuzatgay sarvu gul qilg'ay g'ulu.

Sarvqadlar birla gul ruxsorini ko'p istadim,
Ul qadu yuzdin yiroq ko'nglumga taskin bo'ldimu?

Azmi dayr etsang, qilib g‘usli tariqat, gom qo‘y,
Lekin avval din ila islomdin ilgingni yu.

Ey Navoiy, dahr bo‘stonida ko‘ptur lavnu atr,
Lek yo‘q mehru vafodin anda mutlaq rangu bo‘.

508

Yuzunga oshufta qoshlar bo‘lmasa oshiq nag‘u,
Bo‘ldilar har qaysi bir devonai jo‘lida mo‘.

Bo‘lmasa devona, bas, ne vajhdin zanjir etib,
Kelturubtursen ayog‘i sari zulfi mushkbo‘.

Ul araqnok otashin ruxsoringa mayl ettilar,
Telbalar moyil bo‘lurlar, ko‘rsalar o‘t birla su.

Telba ermas, balki ikki hindui sohirdurur,
Bosh qo‘shib afsun uchun go‘yo qilurlar guftugo‘.

Yo tamoshq qilg‘ali, yo sehr ta’lim olg‘ali,
Zulfining hindulari har saridin qilmish g‘ulu.

Sho‘xlarning qoshlarig‘a, ey ko‘ngul, mayl etmakim,
Ofiyat ko‘yiga hojiblardur ikki ro‘baro‘.

Qoshig‘a tushkan girihsar birla ko‘nglung bog‘lamish,
Ey Navoiy, ishqini tark ayladim deb bo‘ldimu?

509

Ro‘zada lab tashnalig‘din qildi za’f ul mohro‘,
Jon berurmen la’lig‘a to bo‘lg‘usi jonimda su.

La’lig‘a su orzu bo‘lmish susizlig‘ tobidin
Kim, ko‘rubtur chashmayi hayvon su qilmoq orzu.

Istaram ul gulni serobu bukim beob erur,
Xasta ko‘nglum g‘unchadek qon bog‘lanibdur to‘bato‘.

Men solay ohim bila olamg‘a zulmat, ey Xizr,
Sen su kinicha yugur chashmang sari olib sabu.

Za’fdin har dam quyoshim hushidin g‘oyib bo‘lur,
Ko‘z soling tengri uchun xurshid g‘oyib bo‘ldimu.

Rindlig‘din zohid hushk o‘ldi ul oy ro‘zada,
Garchi zuhd ahlin xarobat ichra qildi ko‘bako‘.

Ey Navoiy, har dam ul oy za'fdin behol erur,
Hech bilmon kim ne qilg‘aymen ajab hol o‘ldi bu.

510

Xating ermas, gul uzra sabzai bog‘i Eramdur bu,
Ne sabza, kun yuzida tun savodidin raqamdur bu.

Gar ohim shu’lasi o‘tti quyoshtin, tong yo‘q, ey mahvash,
Sen ahli husn aro shahlig‘ uchun chekkan alamdur bu.

Latofat suyidin to‘lmish zanaxdoning chahi go‘yo,
Tarashshux aylagan kun chashmasidin barcha namdur bu.

Jafo dog‘in qo‘yibkim jonim olding, asrasam, tong yo‘q,
Nihon ko‘ksum arokim, jon berib topqan diramdur bu.

Ilojimdin bo‘lub ojiz dedilar hikmat ahlikim,
G‘aribu xasta yo‘qkim, oshiqu devona hamdur bu.

Butekim kuch bila chekti boshimni sajdag‘a emdi,
Vafodin bosh chekar, ko‘rgilki, ne sarkash sanamdur bu.

Olib din naqdi piri dayrkim, qildi meni sarxush,
Ko‘rung, oxir ne kamlik o‘trusida ne karamdur bu.

Qadah davrini xush tut, charx javrin boqma, ey soqiy
Ki, ul tutqoch vujud, albatta, bilkim kal’adamdur bu.

Navoiy, g‘ofil o‘lma, ul sanamning qasrin aylansang,
Samad zikrini mazkur aylakim, tavfi haramdur bu.

511

Ko‘p qochar yor, ani ko‘p qilsam meni zor orzu,
Anda bisyor ijtinobu menda bisyor orzu.

Kufri zulfi orzusidin berurmen naqdi din,
Kim ko‘rubtur, ey musulmonlar, bu miqdor orzu.

To ko‘zung ayni tanosibdin manga qilg‘ay nazar,
Kechayu kunduz qilurmen o‘zni bemor orzu.

Chun erur har tori zulfung rishtai jon, bas ne tong,
Jon qushin ul dom aro qilsam giriftor orzu.

Jannat o‘lsa maskanim ko‘yung tilarmen uylakim,

Do'zax ahli aylagay jannatqa izhor orzu.

Bog' tavfidin g'araz andoqki bo'lg'ay sarvu gul,
Bizga ko'yung ichra bor ul qaddu ruxsor orzu.

Soqiyo, aylar xumorim qasdi jon, qilsam ne ayb,
Xasta jonimni muqim ko'yi xammor orzu.

Kundai do'zaxdurur bu ravzada bir bargi shox,
Aylaram savsan kebi o'zni sabukbor orzu.

Andin o'ldum ozimi dayri fano, ey mug'bacha
Kim, qilibmen halqai zulfungni zunnor orzu.

Zohido, boshtin ayog'ing zarq erur, qo'y pandkim,
Besarupolarg'a bo'lmas kafshu dastor orzu.

Orzu aylar Navoiy ko'yung ichra orazing,
Zor bulbul aylagandek bog'u gulzor orzu.

512

Gul sochar yel bog' aro, sarvi ravanim keldimu,
Jon isi guldin kelur, oromi jonim keldimu.

Bexud erdim aytiali ko'nglum, chu keldim holima,
Ayting: ul ovorai bexonumonim keldimu.

Qolmish erdi xasta jon, kirganda men mayxonag'a,
Anglamonkim, ul zaifi notavonim keldimu.

Demangizkim, keldi mahvashlar seni o'lturgali,
Muni dengkim, qotili nomehribonim keldimu.

Hajridin o'ldum demangkim, boshima kelmish
Masih, Ayting, ul osoyishi ruxu ravanim keldimu.

Ko'yunga ushshoq kelgandin xabar tuttung valek
Demading ul zori benomu nishonim keldimu.

Zuhd ko'yiga ko'ngul birla dedingkim, kelmading
Ey Navoiy, necha aytib ul yomonim keldimu.

513

Vah, bu ne husnu, jamolu ne latofatdur bu,
Dema ishq ahliki, din ahlig'a ofatdur bu.

Shisha yanglig‘ ko‘runub boda o‘tar bo‘g‘zingdin,
Xilqating javharida, vah, ne latofatdur bu.

Mehrning orazini buki kusuf etti qora,
Qullug‘ung aylamasa, ayni kasofatdur bu.

Manga tig‘ ursa rizo berdimu ag‘yorg‘a, yo‘q
Men turub o‘lturur ani, ne zarofatdur bu.

Ul pariy hoziru ko‘zlardin erur g‘oyib hur,
Shayx ani vasf qilur, ko‘r, ne xurofatdur bu.

Yorning manzili jon ichrayu sen ani tilab,
Azimi Ka’ba, ajab qat’i masofatdur bu.

Demakim, bo‘ldi junun dashtida jo‘lida soching
Ul quyoshtin boshima soyai rofatdur bu.

514

To tushta yuzin ko‘rdumu bo‘lmish manga kom uyqu,
Lekin g‘amidin bo‘lmish ko‘zumga harom uyqu.

Ko‘nglum ne uchun yetkach zulfungg‘a bo‘lur bexud,
Ma’hud emas elga chun avvali shom uyqu.

El ko‘zlaridin ul ko‘z uyquni tamom olmish,
Bu ishtin ekin oxirkim, bo‘ldi tamom uyqu.

Yo tushta ko‘ray ani, yo g‘ayrni ko‘rmay deb,
Ko‘z ochmayin istarmen hajrinda mudom uyqu.

Bu marhalada solik ko‘z yumsa, qolur yo‘ldin,
Yo‘l ahli qachon aylar aylarda xarom uyqu.

Chun sayli sirishkimdin ko‘zning qorasi bormish,
Ne nav’ tuta olg‘ay ul yerda maqom uyqu.

Uyqusi Navoiyning gar o‘chti, ajab ermas,
To dona sirishk o‘lmas, bo‘lmas anga rom uyqu.

515

Tig‘ tortib chu kelur qatlama jonon o‘tru,
Har dam og‘zimg‘a yetar chiqmog‘ uchun jon o‘tru.

Ko‘ngluma kelsa xayoling, chiqar o‘trusig‘a jon,
El chiqar, uyga kirar vaqtida mehmon o‘tru.

Istabon vasl qachon ko'yiga ozim bo'lsam,
Kelmas ollimg'a bajuz novaki hijron o'tru.

Ul quyosh hajrida otsam kechalar novaki oh,
Holadin charx tatar daf'ig'a qalqon o'tru.

Dasht devonasig'a men qiluram istiqbol,
Chiqsa Majnung'a, ne tong, g'uli biyobon o'tru.

Mayda soqiy yuzi chun jilvagar o'lmish, ne ajab,
Tutsam ul ko'zguni ollimg'a farovon o'tru.

Keladur erdi habibim, meni ko'rgach yondi,
Ey Navoiy, nega chiqtim meni nodon o'tru.

516

Soching rangi anbarmudur, mushki Chinmu,
Labing ta'mi shakkarmudur, angabinmu.

Soching bo'lmadi kufr eligamu zunnor,
Bo'yun tavqig'a qo'ymadi ahli dinmu.

Kuyarga ko'ngul la'ling ermasmu o'tluq,
Gulungni qadah qilmamish otashinmu.

Ko'ngul ganjig'a qufl emasmu boshog'ing,
Yangi dog' emas anda naqshi niginmu.

Deding, mastu oshiqni qatl aylamishmen,
Degil, qoldi bir shayxi xnlvatnishinmu.

Meni bog' gulgashtig'a chekma, dehqon,
Vafolig', degil, gulmudur yo saminmu.

Navoiy, aning ko'ngliga kor qilmas,
Fig'on tortmon, yo'qsa ohi hazinmu.

517

Ne bilgay ulki qilur xudi uzra jilva yalov,
Mening o'tumniki, boshim uza yonar lov-lov.

Balo aro chu men o'ldum, balo qilichlarini,
Ne tong ititkali lavhi mazorim o'lsa bilov.

Qo'lumda bandi junun tasmasi, ne fikr etkay

Parivasheki, minib dev, qo‘lg‘a olsa jilov.

Firoq o‘tida qorordim, magarki bu o‘tni
Yorutg‘ali meni davron iligi qildi ko‘sov.

Soqoli shayxi riyoiyg‘a garchi keldi harom,
Vale kularga eshak bo‘iniga kerak g‘ujg‘ov.

Yuz uzra xay, gul uza shabnamin havas qilma,
Bayozi shayb ila chun yog‘di boshing uzra qirov

Navoiy aylab edi garchi raz qizini taloq,
Halola bo‘lsa ham ul qizni olg‘usi bu kuyov.

518

Jonona tushubtur meni bemordin ayru,
Jon uylaki tushkay badani zordin ayru.

Ko‘z olma ko‘zumdinki, o‘larmen, agar o‘lsang
Bir ko‘z yumub ochquncha bu bemordin ayru.

Gul rashki pariy ko‘yida boshimg‘a yog‘ar tosh,
Atfoldin ayrudurur devordin ayru.

Jon kimsada qolg‘aymu bu yanglig‘ki olursen,
Guftordin ayru, qadu raftordin ayru.

Zulmungni kam etkilki, vafo ahli topilmas,
Ul zulfi xamida bu giriftordin ayru.

Matlubdin ayru gila qilma talabingdin,
Matlubni kim ko‘rdi talabgordin ayru.

Ranjurdur ul ko‘yi firoqida Navoiy,
Bulbul ne ajab g‘amzada gulzordin ayru.

519

Pok ishq ahli nechuk vasl aylagaylar orzu,
Nomunosibdur balokashlarg‘a bo‘lmoq komjo‘.

Lolagun ruxsoru mushkin zulfidin kom istagan
Ishq oyinida go‘yo bilmadi juz rangu bo‘.

Ko‘ngli pok el gar malomat rangida qilsa suluk,
Bok emastur, boda bo‘lmas rang qilg‘on birla su.

Pok oshiq o‘rtanib parvonadek dam urmag‘an
Bo‘lg‘anidin yaxshiroq bulbul kebi bisyor go‘.

Ishq tavrida ko‘ngul birla tilin zabit aylagan,
O‘tu suni jam’ etar, kimga tuyassar bo‘ldi bu.

Rutba lekin bo‘lsa pok elga bulut yanglig‘ biyik,
Barq o‘tun yomg‘ir aro asrar zehn pokiza xo‘.

Ey Navoiy, ishq da’vosinda ko‘p lof urmakim,
Fannida sohibkamol el bir taraf qilmas g‘ulu.

520

Dema yuzkim, Xo‘tan gulzoridur bu,
Dema xat — nofai totoridur bu.

Ko‘zi o‘ltursa, la’li jon bag‘ishlar,
Ajoyib muddao izhоридур бу.

Desam zulfungmu ko‘nglum ayladi band,
Der, ey miskin, aning bir toridur bu.

So‘zi gar asru shirindur, tong ermas,
Hadisi la’li shakkarboridur bu.

O‘g‘urlar jon zanaxdoning aro xol
Ki, Bobul chohining ayyoridur bu.

Ko‘ngul o‘zlukni bir sog‘arg‘a sotti,
Magar dayri fano xammoridur bu.

Navoiyg‘a,— desam,— qil, ey yigit, rahm,
Kulub der, ne hayosiz qaridur bu.

**XYe HARFINING HUMOYuNVAShLARINING HALOQANGYeZLIG‘LARI
«BADOYE»DIN**

521

Bu nav’ o‘ldum jamoling mushafining sirridin ogah,
Ki, fihristida keldi ikki qoshing ikki bismillah.

Jamoling buki mushafdur, hadising haq kalomi ham,
Dey olur mushafi notiq seni har kim erur ogah.

Hodisi poku nutqi jonfizoingdin topib Iso
Ki, anfosi qilib ibro, agar abras gar akmah.

Gar o'lsa taxti johing arshu farsh uzra rusul xayli,
Tong ermaskim, alar bori mulozim keldilar, sen shah.

Hazizi arz agar bo'ldi makoning, faqr edi bois.
Agarchi lomakon avji edi raxshingg'a javlongah.

Rusuldin hech rahrav hamrahing bo'lmoq emas mumkin,
Maloyiktin chu sayringda ne rahrav keldi, ne hamrah.

Qoshingg'a «qoba qavsayn» oyatidin yo'q nima alyaq,
Sochingg'a yo'q savodi laylatul me'rojdin ashbah.

Zanaxdon chohiyu gesu kamandi gar bu yanglig'dur,
Erur vasfig'a bersam tul Yusuf qissasi ko'tah.

Sening ishqing Navoiyg'a iki olam aro bastur,
Habibullog'a oshiqliq anga garchi had ermas, vah.

522

Yuzun ko'r, qilmag'il mujgonu xattu xolidin nola
Ki, bo'lmas xorsiz gul, dudsiz o't, dog'siz lola.

Chu men dur tishlaring hajridin o'ldum, ne osig' gar charx
Nujum ashkini yog'dursa boshimg'a uylakim jola.

Emas bir-bir sirishkim qonikim, ko'z mardumi solur
Iting ollida bag'rimni uzub pargola-pargola.

Labing obi hayotin Xizri xatting no'sh etar soat,
Hubob o'lmish ushoq bir-ikki, ani dema tabxola.

Yuzungdur uyla davri chatr aro, ey xo'blar shohi
Ki, bo'lmaydur qamar davrida hargiz uyla bir hola.

Yuziga, ey falak, ne zeb ber, ne husn sotqilkim,
Quyosh husnig'a ne mashshota hojatdur, ne dallola.

Piyola birla may og'zimg'a kuptin quyma, ey soqiy
Ki, ul javharg'a go'yokim munosib kayl erur kola.

Base mushtoqing erduk dayr aro, kech kelding, ey mutrib
Ki, sozing tarkidin bizga yangi oy bo'ldi har tola.

Bu bazm ahlig'a, bilkim, ofiyat juz bevafolig' yo'q,
Navoiy xoh lahni aysh tuz, xoh aylagil nola.

Yana shu'laliq ko'ngulni g'amming etti pora-pora,
Buki butrashur, erur poralari, emas sharora.

Ulus ichra orazingdin nazar oncha asradimkim,
Ola olmog'um ko'z, o'lguncha gar aylasam nazzora.

Badalu safar erur chorasi ishqning demishlar,
Badaling yo'qu safardin g'amim ortadur, ne chora.

Meni telba birla Farhod orasida farq ko'ptur,
Anga xora qazmoq ish, vahki, yog'ib boshimg'a xora.

Dema bo'lg'ay o'qlarimdin taning ichra necha paykon,
Qatarotini yog'inning kim etibdurur shumora.

Bu chaman aro gahi ovla hazor ko'nglin, ey gul
Ki, teshkusi xazon chopquni uylakim hazora.

Buki dayrdin Navoiyni haramg'a shayx istar,
Netayinki, yo'l ko'runmas, necha qilsam istixora.

Ko'nglakim qon ila har dog'ki bo'lmish toza,
Toza dog'im bila qonidin erur andoza.

Hajrdin kuymish edim, yana deding hajr so'zin,
Eski dog'imni yangi dog' ila qilding toza.

Derki, ishqimni yoshur, vah, netibon yoshurayin,
Emdikim tutti bari dahrni bu ovoza.

La'li avsofini gul barglari uzra yozay,
Aylayin hifzig'a jon rishtasidin sheroza.

Zeb uchun yuzunga gul bargi emastur hojat,
Hojat ul nav'iki, gul bargiga ermas g'oza.

Oqibat qabr eshiksiz uyiga chun kirkung,
Emdi giryosenga ne sud, ochuq darvoza.

Ul pariy suvratini cheksa Navoiy, ne ajab,
Qalami topsa maloyik yungidin parg'oza.

Orazing xoli nedin qildi meni devona,
Qushni sayd etmadi chun suda ko'rungan dona.

Kiribon oq uy aro jon qushini kuydurdung,
Garchi fonusda sham' o'rtamadi parvona.

Tiyri boroni g'amming buzdi ko'ngul maskanini,
Bizing o'y bo'ldi yog'in kasratidin vayrona.

Hajr za'fidin o'lubmen tashshasdek, ne ajab,
Oshnolar manga bo'ldilar esa begona.

Buzdi ul sho'xi qadahno'sh salohim uyini,
Manga mundin nari manzil bas erur mayxona.

Soqiyo, to'lg'ucha paymona yerim maykadadur,
Meni mast etkali ko'p yaxshidurur paymona.

Jurm esa yor boshim uzra yetib o'limganim,
Ey Navoiy, meni o'lturmak erur jurmona.

526

But ollida chu sujud aylagum ichib boda,
Diram yo'q ersa, garav xirqa birla sajjoda.

Uchurdi aqlim o'tin, balki yiqti dinim uyin,
Ne angladimki, ne sayli balo emish boda.

Agarchi dayrda usruk yiqildim, ammo shukr
Ki, bore mug'bacha ko'yida bo'ldum aftoda.

Yetishmagay mayi vahdat furug'i bo'limg'ucha,
Zamir shishasi soqiy uzoridek soda.

Chu zuhd keldi riyoyu yo'q odamida vafo,
Ne bo'ldi tutsa manga boda bir pariyzoda.

Qilur mubolag'a ko'p ishqu boda tarkida shayx,
Meni ham istar o'zi yanglig' aylagay loda.

Navoiy, o'lg'il ikki kun maylidin ozod
Ki, do'st g'ayrig'a bo'lmas muqayyad ozoda.

527

Baski qon bordi alamlar yuzlanib har dog'ima,

Za'f ifroti yaqinlashturdi borur chog'imma.

Bazm aro yodim bila tufroqqa gohi may to'kung
Kim, erur ul ham yaqinkim, to'kkasiz tufrog'imma.

Bu maraz hijrondin o'lmish berma sharbat, ey tabib
Kim, zuloli xizr yetsa, zahr o'lur qursog'imma.

Jism za'fidin teri qolmish so'ngak uzra yana,
Hajr o'qi parron o'tar, chun yetsa bu yarg'og'imma.

Belga men zunnor bog'labmen, vale xayli ajal,
Vahki, sudrarlar, iliklar berkitib belbog'imma.

Ma'rifat bog'ida ul qushmenki, hayrat aylagay,
Toiri quds aylasa bir dam nishiman bog'imma.

Ey Navoiy, dard tog'inda sog'ing'ay lolazor,
Boqqan el ham toza qonliq, ham qoralig' dog'imma.

528

Xating savodig'a sun' ilgi yo'ndi chun xoma,
Hamul raqam bila qildi meni siyahnama.

Yig'ildi, vahki, xating xayli davrasig'ayu bas,
Necha qizitti jamoling quyoshi hangoma.

Ko'zung xayoli ko'ngul maxzanin tasarruf etib,
Magarki hifzi uchun bosti muhri bodoma.

Ko'ngul xarobasida soldi tarxi mehring ishq
Ki, uy havolig' o'lur bo'ldi chun duoshoma.

Mening kebi kechar el ko'ngli komidin nokom,
Biravki, sendek erur yori mastu xudkoma.

Maoli ilmida mendin ham erdi johilroq,
Qayuki tutti o'zin olam ichra alloma.

Navoiy o'lsa kerak piri dayr bazmida xos,
Ne desa desun ani va'z ichindagi oma.

529

Ko'ngulni qildi ming qotilcha yora, .
Jafo tig'idin ul sho'xi hazora.

Samandi o't chaqilg'ondek chu sekrir,
Ul o'ttin sekretur na'li sharora.

Itingga tu'maliqqa bo'ldi oson,
Bukim bag'rimni qilding pora-pora.

Ko'rungach ko'zga ul yuz, xasta bo'ldum,
O'larmen, yaxshi gar qilsam nazora.

Ne istar chora dardi ishq uchun el,
Chu yo'q bechoralig'din o'zga chora.

Ko'ngul olam uyiga bog'lama ko'p
Ki, baytidur sanga ul istiora.

Fano yo'li, Navoiy, bas qotiqdur,
Magar osonroq o'lg'ay bora-bora.

530

Choklik ko'nglum nishoni g'unchai xandonida,
Munda toza dog' yanglig' xoli aning yonida.

Yo'qturur itlarga son ko'yidayu ko'rgil meni
Kim ul oy ko'yida men ham yo'qmen itlar sonida.

Qon bo'lub bag'rim oqar ko'zdin, tilasang, topilur
Lola ichra sabzadek paykon sirishkim qonida.

Uyladur ra'no g'azolim lojuvardi toq aro
Kim, emas andoq g'azoli zar sipehr ayvonida.

Asru nofarmondur ul gulkim, libosidur binafsh,
Garchi gulruxlar erur bori aning farmonida.

Hajrida barcha azob oyatlari sha'nimdadur,
Barcha rahmat oyatidek nozil aning shonida.

Davr ayog'idin vafo ahlin unutma, soqiyo.
Kim, vafo yo'q juz unutmog'liq falak davronida.

Donish ahli kaffasida kelturur nodonni charx,
Fikri yo'qkim, rost kelmas bu xirad mezonida.

Gar Navoiy bulbule erdi, xush ilhon, ko'rki, hajr
Navha rangi ko'rguzur har dam aning ilhonida.

531

Sen qora par boshing uzra, ko‘rguzub men dudi oh,
Bu mening o‘tumdin, ul sarkashligingdindur guvoh.

Xo‘blar anjum, sen ul xayl ichra mehri anjuman,
Mehrni sulton desam yo‘q aybu anjumni — sipoh.

Egma qad birla tutub ko‘ksum shikofin kelmisham,
Xanjari ishqing bila darding yukiga uzrxoh.

O‘lgum erdi gah-gahi yodingdin o‘lsam erdi mahv,
Emdi jon aylab fido, yodingg‘a kirmon goh-goh.

Baski brshimg‘a yog‘ar atfol toshi, ey pariy,
Qilg‘ali qasdim junun xayli ul-o‘qdur shohroh,

Xonaqahda o‘zluk ahvoli yetibdur jonima,
Yo‘q ajab, gar istasam dayri fano sari panoh.

Dayr piri soqiyu may birla tirkuzdi meni,
Huru kavsar hasratidin o‘ldi shayxi xonaqoh.

Bo‘ynuma zunnor bog‘lab kelmisham, ey mug‘bacha,
Gar riyozi subhadin bo‘ynumda bor erdi gunoh.

En Navoiy, hasrat ohi birla o‘lgum hajr aro,
Yor vasli yetmasa faryodima, vo hasratoh.

532

Tig‘idin zaxm yedim, yetkach ul oy qoshinda,
Har ne boshimda edi, bordim aning boshinda.

La’li serobinga to ko‘z o‘zini oldurmish,
La’l rangidin asarlardur aning yoshinda.

Uyla qonlig‘ ko‘ngul ichra tigan o‘rtabsenkim,
Lolaning g‘unchasidek bilguradur toshinda.

Charx toqi girihidin ko‘p etar javr, base,
Ulki bedodim uchun soldi girih qoshinda.

Naqshi ul oyning ulus ollida behol aylar,
Vah, ne hol erdi ekan xomai naqqoshinda.

Ne tajarrud uyidur dayrki, o‘zluk ham yo‘q,
Qilg‘ali mayg‘a garav zumrai avboshinda.

Gar Navoiy tani chirmashsayu to‘lg‘onsa, ne tong,
Qoldi chun sunbulining chirmashuv to‘lg‘oshinda.

533

Rangsiz xoling erur ul orazi diljo‘ uza,
Zang ul yanglig‘ki ko‘rguzgay asar ko‘zgu uza,

Nash‘a yoquti mufarrihdin gar ermas dam-badam,
Durji la’lingda nedin kulgudurur kulgu uza.

Xozini hikmat magarkim xol birla qildi muhr,
La’ldin chun soldi qufl ul huqqaliq inju uza.

Qoshi yosin qurg‘ali el qasdig‘a bo‘lmish kerish,
Fitnalig‘ chinkim tushar ul nargisi jodu uza.

Anbarin zulfung maloyik shahparidin soyadur
Kim, ayon bo‘ldi tajalli aqshomi yog‘du uza.

Soqiyo, ishrat mayin bunyod ila sog‘arg‘a quy,
Ne uchunkim, dahr bunyodin ko‘rarmen su uza.

Ko‘yi tufrog‘ida qon yutsa Navoiy, yaxshiroq
Bodai kavsar chekardin ravzai minu uza.

534

O‘zgalar bog‘indadur navras niholim bu kecha,
Tongg‘a tegru o‘zgadur har lahza holim bu kecha,

Hajr dashtida yuz o‘tluq vodiyu har dam meni
O‘zga vodiyg‘a solur, vahkim, xayolim bu kecha.

So‘rma ko‘nglum holini, bedod ila o‘lturgusi,
O‘zin ul devonai bee’tidolim bu kecha.

Barcha bir-birdin sovurmoq biymidur, nekim o‘tar,
Anjumu aflok birla qiyulu qolim bu kecha.

Yuz quyosh qilsa tulu’, ermas yorug‘luq yetkudek,
Andoq etmish tiyra olamni malolim bu kecha.

Buylakim, har dam urarmen jong‘a yuz tig‘i halok,
Tongg‘acha, vah, to qayon yetkay maolim bu kecha.

Ey ajal, jonim fidong o‘lsunki, botroq et xalos.
Chun ko‘runmaydur tirilmak ehtimolim bu kecha.

To qiyomat subh toli' bo'lmasun emdiki, bor
Hashr subhi sari mayli intiqolim bu kecha.

Ey Navoiy, har ne zulmikim qilib erdi xayol,
Barchani jonimg'a qildi charxi zolim bu kecha.

535

Yoqodek qurb agar topmon sening siymin saqoqingg'a,
Etakdek ham yomon ermas tusha olsam ayoqingg'a.

Chuchukluktinmu yo kuydurganidinmu qabarmishtur,
Labim to yetti la'li otashin yanglig' dudoqingg'a.

Ko'ngul mujgoning uzra kirpigimda qatra qondektur,
Bu yanglig' dashna yebtur to asir o'l mish firoqingg'a.

Banogo'shingni o'pmak komu, vahkim, xalq biymidin,
De olmon oshkoro, gar desang aytay quloqingg'a.

Labing o'pmakka haddim yo'q vale lutf aylasang oncha
Ki, munglug' ko'zlarimni surtsam qoshu qaboqingg'a.

Sanga yondoshmoq istab qomatin yo, ohim o'q bo'ldi,
Hasaddin bir taraf qurbaninga, bir yon sadoqingg'a.

Ajab ermas agar, ey mug'bacha, maydin ko'tarman bosh,
O'lubmen, tashna labning boshi bir yetmish ayoqingg'a.

Junundin tog'u sahro ichra ayb etma fig'onimni,
Budur ish, ey pariy, tokim tushubturmen suoqingg'a.

Navoiy ko'ngli qonin to'kkali asrabsen, ey qotil,
Umidim yo'q edi ko'nglumni muncha asramoqingg'a.

536

Tushda yetkandek dururmen sarvi hurizodima,
Ko'r, yomon tole'ki, ul ham yaxshi kelmas yodima.

Sog'inurmenkim, topilmas bir ko'ngul olamda shod,
Shodlig' hargiz chu yetmas xotiri noshodima.

Yo'qli, za'fimdin unum chiqmasda rahm etmas ul oy,
Ko'kka ham yetkanda nolam, yetmadi faryodima.

Aytsam, xushtur ko'ngul bog'i giyohi mehr ila,

Derki, bu javharni tengri bermamish po'lodima.

Dod sultondin toparlar, vahki, ul sultonи husn
Azm yetar har lahza tig'i kin chekib bedodima.

Odat aylar yor hijron shevasin, ey do'stlar,
Voykim, netkaymen onsiz xotiri mu'todima.

Men chu bo'ldum dayr pirining muridi, ne osig',
Emdi shayxi xonaqah qo'yamoq ko'ngul irshodima.

Bir xarob o'lg'ayki, hargiz topmag'ay obodliq,
Kimki qilsa bir guzar kunji xarobobodima.

Ey Navoiy, telba ko'nglum dardu g'am tog'in qozar,
Ko'rsang, axvolim degil Majnun sifat Farhodima.

537

Xalq mehriga yana, yo rab, meni zor aylama,
Aylasang ham, mehri yo'qlarg'a giriftor aylama.

Mehribonlarg'a dog'i uchratsang, elning mehrini
Nogahon xotirlari ichra padidor aylama.

Ey pariy, qatlimg'a mayl etsang, fido jonim valek
O'zga sari xotiringning maylin izhor aylama.

La'lidin kim qilsa bir jonbaxsh so'z naql, ey ko'ngul,
Ollida jon javharidin o'zga isor aylama.

Tushda vasli bo'lsa gar xud barcha so'ngg'i uyqudur,
Ey Xizr, hayvon suyi ichmakka bedor aylama.

Halqai kufr ichra chun qo'ydum qadam, ey piri dayr,
Mug'bacha zulfi xamidin o'zga zunnor aylama.

Ey Navoiy, dam-badam afgor ko'nglung sog'inib,
Ittik-ittik un bila el ko'nglin afgor aylama.

538

Tomida ermas kabutar xayli bu jur'at bila
Kim, pariylar keldi oshiqqliqqa ul suvrat bila.

Yo maloyik xaylidur tomida parvoz aylabon.
Evrulur boshig'a har kun yuz tuman hayrat bila.

Yo ko‘ngullar qushlaridur ko‘yini qilg‘an vatan
Kim, qo‘narlar sa’y etib, qovg‘an soyi shiddat bila.

Yo kabutarlar keturmish nomalar ushshoqidin,
Ani ko‘rgach ko‘yini aylab vatan ulfat bila.

Soqiyo, tortay kabutar dam, ketur bir bodakim,
Bir kabutarboz uchun o‘ldum g‘amu mehnat bila.

Ey kabutar, netti bir pardek qanotingda nihon
Eltsang nomam angakim, yozmisham hasrat bila.

Gar kabutardek Navoiy o‘lsa ul oy ko‘yida,
Yuz muallaq urg‘ay ul xurramliqu ishrat bila.

539

Isitqon, nozanin jismingki, terdin tushti tob ichra,
Erur bir otashin gul bargikim, yotqay gulob ichra.

Isitma ranjidin, ey gul, bo‘lubsen g‘uncha andoqkim,
Hariru hullaliq jisming tushubtur pechu tob ichra.

Isig‘lig‘din taning o‘t bo‘ldi, tong yo‘q, iecha tolpinsa,
Haroratdin qolibtur shu’la doyim iztirob ichra.

Qizil chodirshabu moviy to‘saklar ichra titrarsen,
Aningdekkim quyosh ko‘klar bila gulgun sahob ichra.

Labing yoquti ichra qatra-qatra termudur, yoxud
Tushubtur dona-dona inju ikki la’li nob ichra.

Dedilarkim, xarob o‘lmish isitmoq birla jononing,
Ne o‘tlarkim bu so‘zdin tushmadi joni xarob ichra.

Ne kun bo‘lg‘ay yangi oydek taning bo‘lg‘ay to‘lun oykim,
To‘la sog‘ar chekarga bazm tuzsang mohi tob ichra.

O‘zumni, soqiyo, sog‘ istamon, tutqil to‘la sog‘ar
Ki, charxi munqalib davronni istar inqilob ichra.

Navoiy, yorni topsang salomat, xayrbod etkim,
Yana za’f etsa nogah, qolmag‘ay joning azob ichra.

540

Uzdi mendin do‘stluq ul sho‘xi siymin tan yana,
Onchakim mumkindur, etgil aysh, ey dushman, yana.

Mazra'i jismimda ermastur qorarg'an toza dog',
Toki, kuymish barqi ishqingdin qayu xirman yana.

Ishqim erdi yoshurun, fosh etti giryon ko'zlarim,
Qildilar g'ammozliq bu ikki tardoman yana.

Sham' yanglig' o't tutoshib boshima hijron tuni,
Yoshurun holimni elga ayladi ravshan yana.

Qochtilar ahli junun har yondin andoqkim sharar,
Baski to'ldi o'tluq ohim dudidin gulxan yana.

Dahr ra'nosi fanu makri bila topsang firib,
To ne makr etkay ayon bu dallai purfan yana.

Ey Navoiy, chun zamon zulmig'a sud etmas jaza',
Kasb qil bu shevaniyu qilma ko'p shevan yana.

541

Menki g'am dashtida ittim ohi dard olud ila,
Istagan topqay kecha o't birla, kunduz dud ila.

Infiolingdin quyosh kirdi qora tufrog' aro,
Qilg'aningda jilva ul ruxsori gardolud ila.

Ul og'iz ma'dumu menda o'pmaki savdosidur,
Sudkim istabdurur sarmoyai nobud ila.

Ne iting bo'lmoqqa tole', ne itingga tu'mamen,
Tushkali ko'ying aro bu jismi g'am farsud ila.

G'am tuni qilmish qora bosqan kebi muztar meni,
Buylakim, nokormen bu baxti qir andud ila.

Uyla mahvungmenki, kelmas xotirimg'a hajru vasl
Sen murodimsen, ishim yo'qtur ziyonu sud ila.

Ey Navoiy, asru maqbul el bila xo'y etti yor,
Xushlug'i gar yo'qturur, ne ayb, sen mardud ila.

542

G'uncha gul ichra gahe paydo bo'lur gulzorda,
Bo'lmadi hargiz ayon og'zing sening ruxsorda.

Za'fdin kulbamda qo'pmoq istasam, aylar madad,

Ankabute rishta osqon bo'lsa har devorda.

Kim jununumg'a yozar ta'viz iynak ashku yuz,
Gar kerak shingarf birla za'faron tumorda.

Sayli ashkimdin demakim mulk emas mardumnishin,
Balki mardum qolmadi bu diydai xunborda.

Dayr tufrog'ida butmish sabza der ko'rgan kishi,
Zanglik yuz no'gi paykon bu tani nokorda.

Har birisin angla bir kofir jafosidin hisob,
Bu girihsarkim, tugubmen rishtai zunnorda.

Sinsa ibriqi vuzu, andin manga bas bir safol,
May gadoliq aylamakka kulbai xammorda.

Charx ayvoni munaqqashdur, vale naqqoshi sun'
Chekmadi naqshi vafo bu toqi minokorda.

Ey Navoiy, yer yuzin ag'yor tutsa, g'am yema,
Bir sarimo' gar sening fikring bor ersa yorda.

543

Za'fdin ingrond'onim elning fig'oni zoricha,
Har damim ishq ahlining bir ohi otashboricha.

Mehri ruxsorida ne qoshdur, ne ko'z, ne xat, ne xol,
Vah, desa bo'lg'aymu ani mahvashim ruxsoricha.

Nuqtai mavhumni yuz qism farz etsang birin,
Desa bo'lmas bor aning yo'q og'zining miqdoricha.

Gul yuzungdin qatra ter har yerda tomsa, ul sudin
Charx ul yerni yasay olur Eram gulzoricha.

Dayr ko'yi sokinimenkim, bu zangori sipehr
Rif'at ichra ermas aning kulbai xammoricha.

Bo'ldi mug' dayrida xirqamning chubulg'on iplari
Har biri kufr ahlig'a bir barhaman zunnoricha.

Dayr piri ne ajab, gardunni sog'ar aylamak,
Va'da chun qilmishki, bergay boda maylim boricha.

Faqr atvorida yo chiqmaq kerak ofoqdin,
Yo kerak tuzlanmak ofoq ahlining atvoricha.

Ey Navoiy, ayladim har ko'y aro sayru suluk,
Kelmadi ollimg'a ishq oyinining dushvoricha.

544

Sarv qad gulruxlar o'tmas xotiri noshodima,
Sarvu gul ko'rsam, alar kirgay magarkim yodima.

Uyla gardun zulmi et mish ro'zgorim tiyrakim,
Yoruta olmas quyosh kirsa xarobobodima.

Nega faryod etmayin, yoxud netay faryod etib,
Buylakim, faryod etib, yetmas kishi faryodima.

Qazmasa ko'nglum yana g'am Bestunin yaxshiroq,
Hech Shirin lab chu qilmas rahm bu Farhodima.

Sho'xlar mujgonidin zuhdum qutulsin, vah, necha
Igna birla naqb teshmak qal'ai po'lodima.

May quyoshin dayr aro har dam chekar bo'lsam, ne g'am,
Gar quyosh tig'in falak har dam chekar bedodima.

Ey Navoiy, ofiyat ko'yi g'animatdur valek
Naylayin, gar kirmasa shaydo ko'ngul irshodima.

545

Bas yomon hole tushubtur, yorlar, men zorg'a
Kim, yomon holimni zohir aylayolmon yorg'a.

Eyki, debsen yer yuzini lolazor et mish bahor,
Go'yiyo ko'z solmading bu diydai xunborg'a.

Toshlaringdin yaxshiroq bo'lmoq tanimda dog'lar,
Sikkai behbud urg'ondek durur dinorg'a.

Subhi vaslim, demasang, qilg'ay nihon shomi firoq,
Nega yo pting zulfi shabgun mehrdek ruxsorg'a.

Jonfizo qilmish yuzung bo'stonini har sari xay,
Bu gul ochg'ay bersalar hayvon suyi gulzorg'a.

Qatl mayli qilmasang, nevchun yana minding samand,
Belga rust aylab etak gul sanchibon dastorg'a.

Ey nasihatgo', ko'zumni tiyra aylab tur xumor,

Rahm etib qil rahnamunluq kulbai xammorg'a.

Jomi may tutqilki, tarixi binosin topmadim,
Nechakim soldim nazar bu toqi minokorg'a.

Dayrdin gar bo'lmasun g'oyib der ersang mug'bacha,
Ey Navoiy, bog'la zunnore uchun zunnorg'a.

546

Har gulki ochibdur may ul orazi diljo'da,
Gullarmu ekin suda, gul aksimu ko'zguda.

Ko'zguda yuzung aksi, gar yaxshi nazar qilsang,
Bor uyla biaynihkim kun aksi tushar suda.

Noz uyqusida ul ko'z oshubi jahon ichra,
Uyg'onsa ko'zung netkay olam buzub uyquda.

Ollimga yuzung kelgach, husn ahlini ko'rmasmen,
Ko'z anglamas ashynoni, bo'lg'ach quyosh o'truda.

Gar shahrni tark aylab, sahrog'a qo'yubmen yuz,
Ma'zur erurmenkim, mohim erur urduda.

Olam ishi sar-tosar g'am yerga kari qilmas,
Soqiy, tutubon jome qo'yma meni qayg'uda.

Vasl istasang, o'l foniq andoqli Navoiykim
Har ishki munung g'ayri bordur, bori behuda.

547

Tiyralik xatting savodidin labi xandon uza
Xizr soldi soya go'yo chashmai hayvon uza.

To hazin ko'nglumna la'ling hasrati qon aylamish,
Anda xoling naqsh o'lturg'an chibindur qon uza.

Jonu ko'nglum nolasidin ikki haqgo' qush kebi,
Kecha ul oy ko'yida afg'on erur afg'on uza.

Toiri mehnat buzuq ko'nglumda tutmisht oshyon,
Chug'z andoqkim nishiman aylagay vayron uza.

Ey musulmonlar, yeting faryodimakim, kofire
Jonu ko'nglum oldi, emdi so'z borur imon uza.

Charx toqidin topar kun chashmasi har kun zavol,
Zarvaraqtin shamsa chekkan ne osig‘ ayvon uza.

Ey Navoiy, to dedi dardim yukin ko‘nglungga qo‘yg
Ko‘nglum uzra qo‘ydum ul yukniyu minnat jon uza.

545

Ne ajab, ushshoq aro bo‘lsam meni zor o‘zgacha
Kim, erur ma’shuqlardin ul sitamkor o‘zgacha.

Boshima ahbob bo‘lmish jam’, ya’ni itlaring,
Go‘yiyokim za’fdin bo‘lmish bu bemor o‘zgacha.

Dahr aro oshubdurkim, chiqmish ul bebok mast,
Egnida to‘n o‘zgacha, boshida dastor o‘zgacha.

O‘zgacha bo‘ldi o‘tum paykonlaringdin, uylakim,
Qatra terlardindur ul gulrangi ruxsor o‘zgacha.

Holim o‘lmish o‘zgacha har damkim, ul oy ko‘rguzur
Labda guftor o‘zgacha, qomatda raftor o‘zgacha.

Qil riyat, soqiyyokim, bazmida bir dam bo‘lay
Kim, manga har dam bo‘lur hole padidor o‘zgacha.

Jondin oyirmoq emas mumkin aning zulfinikim
Chirmashibdur rishtai jonimg‘a har tor o‘zgacha.

Olam ahli ichra odam demak o‘lmas anikim,
Joh ila bo‘lg‘ay anga qonuni atvor o‘zgacha.

Ey Navoiy, dahr gulzoridin o‘tkim, har guli
Ko‘rguzur yuz xoru har xorida ozor o‘zgacha.

549

Tanimdur halqai zulfida ne yanglig‘ dard qofinda,
Yilondek to‘lg‘anib har lahza bir xoro shikofinda.

Chiqorib qoni birla la’ldek boshimg‘a tikkaymen,
Ayog‘img‘a iting tosh ursa ko‘yiniing tavofinda.

Netay oy-kunni onsizkim, emas bir sabzayu gulcha,
Ham oy qolqoni, ham kun nayzasi hijron masofinda.

Ko‘rub ko‘rmay qoshin ushshoq aro ko‘p bahs voqe’dur,
Xirad ahli aro andoqli ru’yat ixtilofinda.

Saloh ahlida garchi qo‘ymading satru ifof, ammo
Seni haq asrasin o‘z pardai satru ifofinda.

Sabuhi vaqtı gul ochilg‘anın naylayki, ul yotmish
O‘zini g‘uncha yanglig‘ chirmabon gulgun lihofinda.

Ne maykim tutsa piri dayr, olib rindona sipqorkim,
Emastur rind ulkim, so‘z der aning durdu sofinda.

Der erdilarki, voiz harza ko‘p der, emdikim ko‘rdum,
Jununu savt munkir ham muzof ermish gazofinda.

Navoiy mu’tarifdur jurmig‘a, yo rab, sen o‘tkarkim,
Qaram ahlig‘a lozim afvdur jurm e’tirofinda.

550

Ko‘yida toshe tilarmen qo‘yg‘ali bosh ostig‘a,
Toki o‘lsam, qo‘ysalar boshimni ul tosh ostig‘a.

Kunduzi xurshidi oltun xishtidin o‘tkay boshim,
Ostoning xishtini qo‘yg‘an kecha bosh ostig‘a.

Go‘shadin tushmish po‘lak chekkanda mushkin yoy aro,
Anbarin xoli savodi ul qora qosh ostig‘a.

Su kishisidur biaynih ko‘zlarimning mardumi,
Yig‘larimdin qolg‘ali daryo kebi yosh ostig‘a.

Hajr aro baytulhazanda qilmangiz ashkimni man’,
Yemrulub vayrona kulbam, qolg‘amen kosh ostig‘a.

Sof eting may durdi sajjodamdkim, bordur haqir,
Olib egnim ustidin solmoqqa avbosh ostig‘a.

Ey Navoiy, ko‘k qizib bo‘lmish qizil, ermas shafak,
Shu’la o‘tlardinki, ohing ayladi fosh ostig‘a.

551

Yor agar bazmi aro g‘amginlarin shod aylasa,
Rozi o‘ldum, kosh men g‘amginni ham yod aylasa.

Naxli qaddig‘a sabodin yetsa oseb o‘zni bor,
Sadqasi yuz sarv yanglig‘ banda ozod aylasa.

Bog‘bon qaddu yuzungni ko‘rsa bog‘ ichra, ne tong,

Sarvini gar o‘tg‘a yoqsa, gulni barbod aylasa.

Ko‘nglum afg‘oni anga ermas ajab, gar yetmasa,
O‘t uni yetmas quyoshqa, garchi faryod aylasa.

Ey ko‘ngul, chun olam ahlig‘a vafo yo‘qtur, kishi
Avlo ulkim, o‘zni bekaslikka mu’tod aylasa.

Shayx ila zuhdri riyoyidin malul o‘lsam, qani
Dayr pirikim, fano oyinin irshod aylasa.

Ey Navoiy, odamilig‘din yiroqdur sen kebi
Yorliqqa kimki mayli odamizod aylasa.

552

Kishi visol tuni yori birla yotquncha,
Jamoli sham’ig‘a qilsun nazar tong otquncha.

Muyassar o‘lmadi jon bermaku labin o‘pmak,
Nedinki qolmadi jonio ani unatquncha.

Meni yo‘q etkan erur hajri sangboroni,
Nedinki yog‘di tanim tosh ichiga botquncha.

Maloldin meni bir jur‘a birla sotqun, ol
Xurushu arbada birla jahong‘a sotquncha.

Ko‘ngul jarohatig‘a yoq visol marhamini,
Firoq xorasi birla boshim ushatquncha.

Saloh to‘nini chok etsa yaxshiroq, ey shayx,
Ryo yuruni bila xirqani yamatquncha.

Navoiy, ahli fano dayri halqasin xush tut,
O‘zungni zuhdu ryo majma’ig‘a qotquncha.

553

Manga bo‘limg‘ay yor begona nogah,
Meni qilmag‘ay zoru devona nogah.

Base ashk oqizding, ey ko‘z, bas etkim,
Yiqilmasun ustunga vayrona nogah.

Deding chekma ohu fig‘on, voy naylay,
Chiqib kelsa ul sho‘xi mastona nogah.

Musallo yukin rahn etarga chekarmen,
Agar maskanim bo'lsa mayxona nogah.

Ko'p usrukmen, ey dayr piri, uyatdur,
Qo'lumdin tushub sinsa paymona nogah.

Zamon ahlidin, ey ko'ngul, gar qutulsang,
Alar sari mayl etmagil yona nogah.

Kiyomatqacha yotsa usruk, ajab yo'q,
Navoiyg'a may tutsa jonona nogah.

554

Ne sud gulshan aro ichmaking nihon boda
Ki, yuzda gullar ochardin bo'lur ayon boda.

Ko'zung xayoli kelib qonim ichsa xushdilmen,
Biaynih uylaki dilxohi mehmon boda.

Labig'a boda olib qildi no'shu jon toptim,
Ul ichti, lek manga bo'ldi no'shi jon boda.

Ne munkir o'lmoq erur kecha boda ichkandin,
Chu qo'ydi xullang uza qatradin nishon boda.

Agarchi tavba buyurding manga, bil, ey zohid
Ki, sing'usi, yona chun tutsa dilsiton boda.

Ko'zungki qonim ichar mayli qildi, mast o'ldi
Ki, botroq usruk o'lur, ichsa notavon boda.

Zamona mehnatidin bir zamon desang qutilay,
To'la-to'la quyubon ich zamon-zamon boda.

Biravki yaxshi-yomon ranjidin farog' istar,
Icharda tolg'amadik yaxshi, gar yomon boda.

Navoiy ayladi dorulamone maykadani
Ki, berdi dahr g'amidin anga amon boda.

555

Tongg'a solma va'dai vaslingni bore bu kecha
Kim, meni o'Iturgusi tong intizori bu kecha.

Chun yoshurdi ul quyosh o'tluq jamolin, vah, ko'rung
Kim, o'tar gardundin ohimning sharori bu kecha.

Charx uza har yon shihob ermaski, ko‘kning holima
Yosh to‘kar har lahza chashmi ashkbori bu kecha.

Subh agar urmas nafas, o‘lgumdurur yo ul Masih
Bir nafas kelmas meni dilxasta sari bu kecha.

Anglating bazmida, ey sham’u qadah, yig‘lab, kuyub,
Buki o‘lturdi meni hajr iztirori bu kecha.

Soqiyo, vasling shafaqgun jomidin tirkuz meni
Kim, qilibtur qasdi jon hajring xumori bu kecha.

Ey Navoiy, sen agar kunduzga yetsang, beg‘am o‘l
Kim, g‘amidin qolmadi jon bizga bore bu kecha.

556

Sunbuli shomida yuz ayladi gulrez yana,
Bo‘ldi har uchqunidin ko‘nglum o‘ti tez yana,

Gulning atrofida yuz g‘uncha degil zohir etar,
Orazing davrida ul zulfi dilovez yana.

Otashin la’lu yuzi sham’in ochar, tong yo‘q, agar
Kuysa xoshoku xas, tavbayu parhez yana.

Ne tarovatdurus ul yuzdaki, xo‘ydin qilmish
Gulni shabnamzada, shabnamni gulomez yana.

Meni hijronda ukar xalq va lekin onsiz
Zor ko‘nglumga erur boda g‘amangez yana.

Anglag‘an ishq aro Farhod ishi Shirinlig‘ini,
Ulsa ham aylamagay hashmati Parvez yana.

Ey Navoiy, kelur ul husn bahori bu taraf,
Barki ohingni bu kun qilma sabukxez yana.

557

Boda tobidin qizil raglar uzoring bog‘ida,
Obkashlarning misoli keldi gul yafrug‘ida.

Furqatingda dog‘ ila qonim emastur loladek
Kim, yo‘q o‘lturmak aning qonida, kuymak dog‘ida.

Lutf ko‘rkim, bir surohidekkim ul bo‘lg‘ay, billur

Bodakim no'sh etti, zohirdur aning qursog'ida.

Ko'r mening holimnikim, ul tog'ning ostidamen,
Ishq aro Farhod agar qolmish baliyat tog'ida.

Topti jon ishq ahlikim, ul ko'y aro dafn ettilar,
Go'yiyo hayvon suyidur ko'yining tufrog'ida.

Qoridim isyon aro, emdi pushaymonlig' ne sud,
Koshki qilsam edi taqvo yigitlik chog'ida.

Bordi tishlab barmog'in, ko'rgoch Navoiy holini,
Ham hayotu ham o'lum ko'rdum aning bormog'ida.

558

Dardlar ko'nglumga yuzlansun, balolar jonima,
Gar ikkisin istamas bo'lsam fido jononima.

Har jihatdin o'rtanurmenkim, bag'ir birla yurak
Ikki o'tdurlarki, tushmishdurlar ikki yonima.

Aksini ko'rgay qizil kisvat aro jalloddek,
Qatl vaqtı nogahon nazzora qilsa qonima.

Ko'rmagaylar bir-birin yog'qon mazallat gardidin,
Kirsalar Farhod ila Majnun dame vayronima.

Topqasen charxe nujumi muhtariq, qilsang nazar
Toza yuz ming dog' birla jismi sargardonima.

Siflag'a jon o'ynasang mehnat zamone tonimas,
Dahr eli bu nav' erur, sen ham alarni tonima.

Tiyri boroni balodin chun tanim bo'lmish zirih,
Yo'q, Navoiy, emdi andin g'am, tani uryonima.

559

Xasta ko'nglum qushini boshing uchun shod ayla,
Yo boshingdin evurub tashlabon ozod ayla.

Lutf yo zulmki g'ayrimg'a qilursen, chidamon,
Aylayolg'ancha mening jonima bedod ayla.

Yor o'Iturgali ishq ahlig'a yuz ming tuhmat,
Ey raqib, aylama borin manga, isnod ayla.

Ey ko‘ngul, xalq jafosin yetkururdin o‘lgung,
Emdi temon seni afg‘on cheku faryod ayla.

Bu chaman gullarida yo‘q chu vafo, ey bulbul,
Zor ko‘nglungni jafo xorig‘a mu’tod ayla.

Ey ko‘ngul, sayli sirishk ani tubidin qo‘ngarur,
Nechakim sabr uyining tarhini bunyod ayla.

Hajr ko‘p shiddat ila o‘lturadur, bir dam anga,
Ey ajal, joning uchun sen dog‘i imdod ayla.

Tarki ishq ayla deding, kech bu so‘zungdin, ey shayx,
Tengri ishqisi manga, o‘zga nima irshod ayla.

Soqiyo, mehnatu g‘am buzdi Navoiy ko‘nglin,
May suyi birla bu vayronani obod ayla.

560

Ko‘nglum itti zor husni onining tug‘yonida,
Ayladi oshiq meni husnu malohat onida.

Yuz tuman taqvo sipohin raxshi aylar poymol,
Mast aylar chog‘da javlon xo‘bluq maydonida.

Qasri davlat ichra eldin jon olurning ne g‘ami,
Xastadinkim jon talashqay za’fdin vayronida.

Necha ul oy itlari bor ersa sondin tashqari,
Men kimu bo‘lmoq aning ko‘yida itlar sonida.

Vah, ne kofir erkin ulkim, zulfining zunnoridin
Soldi yuz ming uqda taqvo ahlining imonida.

Ey xush ulkim, garchi tunlar yoni yerga yetmadi,
Ko‘rdi o‘z sham‘i shabistonini bir tun yonida.

To Navoiy telbarabtur sensiz, ey gulrux pariy,
Bir tikan har tuk soyu ko‘rgil tani uryonida.

561

Ne haddim yozmoq bitik ul mehri olamtobg‘a,
Chun yoza olmon jafosin zarrae ahbobg‘a.

Nomasig‘a rishta chirmabkim yubordim rashkdin,
Tori jiismim rishta yanglig‘ tushti pechu tobg‘a.

Bordi qosid, bo'ldi shomu kelmadi andin javob,
Tongg'acha to nelar o'tkay diydai bexobg'a.

Kim o'qug'ay noma dog'i kelsa chun ko'z bahridin,
Men tushubmen nomaning pechi kebi girdobg'a.

Kimki istar nomae sabru salomat boqmasun
Xo'blar xolu xatdin nuqtau a'robg'a.

Boda mavjining xututidin ko'zum topti jilo,
Soqiyo, jon ham erur moyil bu la'li nobg'a.

Jonda yoshurg'um alifdek, ey Navoiy, nomasin,
Shoyad andin za'f daf o'lg'ay tani betobg'a.

562

Halokingmen, chekib tig'i jafo o'lganni o'lturma
Chu ishqing o'rtadi hajr o'tidin, kuyganni kuydirma.

Meni devona chun tufrog'ing o'ldum, ey pari paykar,
Jafo toshini majnun deb, bu tufrog' uzra yog'durma.

Ichib qonin tilar ko'nglum shikastin ko'zlarin, deykim,
Chu mayni no'sh qilding, shishasin, ey sho'x, sindurma.

Seni ko'rgachki faryod ayladim, beixtiyor erdim,
Yozuqdin ihtiroz aylab meni bu ishda yozg'urma.

Men ar zulmungdin o'ldum, lutf etarga oshiqing ko'ptur,
Alar birla o'zungni shod tut, holimg'a qayg'urma.

Chu men tufrog' bo'ldum ko'yida, ey sarsari hijron,
Esib ul yon damo-dam tufrog'imni bore sovurma.

Qotiqdur ishq, ul sho'x etsa jilva, boqma, ey oqil,
Ko'ngulni gar desang oldurmay, avval ko'zni oldurma.

Mayi la'lingdin ahli bazm usrukdlar, ey soqiy,
Chu ichsang boda, mendin o'zgaga sog'arni topshurma.

Navo gar yetkurursen, sen bilursen tindurub elni,
Navoiyni jafoyu javr o'tidin bore tindurma.

563

Kecha el osudadur, ko'nglum birav qayg'usida,

Ulki, men qayg‘usida, osuda noz uyqusida.

O‘lturub tun, subh turguzmak meni zohirdurur,
Shomning giryonlig‘iyu subhning kulgusida.

Ohkim, bu shomi hijronimg‘a yo‘q subhi visol,
Garchi yo‘q shomeki, yo‘q subhi aning o‘trusida.

Uyquda orom yo‘q tun-kunki, aksin topmadim,
Tun qamar mir’otida, kunduz quyosh ko‘zgusida.

Mehr yog‘dusida zarra bo‘limg‘andek oshkor,
Yuz tuman ming mehr pinhondur yuzung yog‘dusida.

Kimsa chun o‘tkanga yetmas, holni tut mug‘tanam,
Umrni o‘tkarma, o‘tkan hayf ila afsusda.

Na’l kesmaydur Navoiy qullug‘idindur nishon,
Ishq aynidur alomat yorning belgusida.

564

Ey xush ulkim, gohi-gohi yetsa yori qoshig‘a,
Ul tuyassar bo‘lmasa, evrulsa ko‘yi boshig‘a.

Ishq bemorig‘a ham sharbat yasabtur, ham g‘izo,
Hajr aro qo‘shqan bag‘ir pargolasin qon yoshig‘a.

Bir sarimo‘ anda qolmaydur salomatdin nishon,
To sinuq boshim nishon bo‘lmish malomat toshig‘a.

Bas ajab suvratdurur, qaysig‘a jon aylay fido,
Suvrating naqshig‘a yo ul naqshning naqqoshig‘a.

Men ayog‘ ko‘yida berkittim jafodin ochmayin,
Garchi boshimg‘a balo yog‘di munung podoshig‘a.

Pardadar keldi nujumung, ey falak, yo‘q pardador,
Yo‘q anga ul holkim, dayri fano xuffoshig‘a.

Qo‘ldar erdi soqiy ul damkim Navoiy bo‘lsa mast,
Lutf etib, davr ahli, ani yetkurung qo‘ldoshig‘a.

565

Yor hajridin agar za’f erdi jismu jonima,
Za’fidin hajr o‘ldi jismu joni sargardonima.

Za'fi to quvvat tutubtur, quvvatimda za'fdur,
Ko'r nelardur ranjidin ham jonu ham jononima.

Gar ko'zi bemordur, ammo base qonlar qilur,
Ko'zidek ul ham biaynih kirgudekdur qonima.

Xastalig'din, vahki, bo'lmishtur to'lun oyim hilol,
To qachon bo'lg'ay yangi oylig' mahi tobonima.

Nola pinhon aylaramkim, sinmag'ay ko'ngli aning,
Yo rab, etkil rahm anga yo nolai pinhonima.

Chun isitti tushti ul dam notavon jonimg'a o't,
Notavon jon hirqati o't soldi xonumonima.

Ul pariy chun za'fdin emdi kishini tonimas,
Ey Navoiy, telba bo'l, sen ham kishini tonima.

566

Bir qadah may ichmadim sarvi gulandomim bila,
Bir nafas evrulmadi davron mening komim bila.

Har maekim onsiz ichtim topg'ali g'amdin amon,
Zahri g'am go'yo ezilmish erdi ul jomim bila.

Tunga yetmas kunni o'tkardim o'lub hijronida,
Kunga yetkaymenmu, vah, bu subhi yo'q shomim bila.

Qayda bo'lsin muztarib ko'nglumga orom, ey rafiq,
Tutmadim orom chun bir dam diloromim bila.

Ey sabo, ul gulga muhlik furqatim payg'omin ayt,
Balki jon naqdin anga yetkur bu payg'omim bila.

Ko'nglum ichra but g'ami, kufr ichra o'lsam yaxshiroq,
Ahli din ollinda borg'uncha bu islomim bila.

Ey Navoiy, o'lsam armon eltkimdur, ichmayin
Bir sabuhi guluzori boda oshomim bila.

567

Ko'ngulni xayli g'aming qildi yo'l ubur bila,
Nechukki mo'r safi yo'l yasar murur bila.

Gar uchmaq itti sening ko'yung ollida, ey hur,
Anga ne nav' ko'rungay o'kush qusur bila.

Quyosh qoshida erur zarradek base maxfiy,
Yuzung qoshida quyosh g‘oyati zuhur bila.

Huzuri toat etar shayx vasf, vah, netayin,
Xayoli qo‘ymasa toat aro huzur bila.

Shabobu ishqu bahoru firoqdur, ey shayx,
Bo‘lurmu zuhd ila tavba bu nav’ umur bila.

Yo‘lida men kebi yuz xasta o‘lsa, qayda g‘ami,
Samandi husnki javlon berur g‘urur bila.

Bo‘lay rafiq junun dashtidayu hush ilakim,
Vafosiz eldin o‘lubmen, base, nufur bila.

O‘zungni asrama bir lahza mutribu maysiz,
Desang bu g‘amkada ichra bo‘lay surur bila.

Navoiy, istama nazmingda rabtu jam’iyat
Ki, ko‘nglung o‘ldi zamondin o‘kush futur bila.

568

Biravkim, rashk elturmen kechurmakka xayol ichra,
Ne kechkay ko‘ngluma, gar el bila ko‘rsam visol ichra.

Bag‘irda yuz balo nishi, ko‘ngulda ming firoq o‘ti,
Kishini solmag‘il ishq ahlidin, yo rab, bu hol ichra.

Ko‘ngul bir lahza el bedod etardin yuz suubatda,
Zamone yor beparvolig‘idin ming malol ichra.

Tanimda kasrati paykoni to tig‘ini yondurdi,
Hamul damdin erur tig‘i, yuzidin infiol ichra.

Topilmas kom ila ko‘nglum labingdin o‘ldi andoqkim,
Skandar obi hayvondin tamannoi muhol ichra.

Tun aqshom uylakim bo‘lg‘ay shafaq ichra quyosh pinhon,
Kirar har shom ul gulchehra shodravoni ol ichra.

Belu og‘zing xayolidin agarchi lolmen, lekin
Jadal ahli masallik o‘tti umrum qiyulu qol ichra.

Xalal yo‘l berma ishrat vasfig‘ayu tut g‘animatkim,
Damo-dam dahr avzoin ko‘rarmen ixtitol ichra.

Navoiy topti muhlik noladin ul za'fkim, siqqay,
Qalamda nol andoqkim, sig'ar ul dog'i nol ichra.

569

Ne bir yoreki, vaslim sa'yig'a pomardlig' qilsa,
Ne bir rozeki, hajrim ranjida hamdardliq qilsa.

Qizig'roqdurmen ul oy ishqida, har nechakim nosih
Bu ish tarkida o'zni garm etib damsardliq qilsa.

G'ami birla aningdek juftmenkim, o'lgum ayrilsam,
Nechakim sarvi ozodim qo'lidin fardliq qilsa.

Meningdek aqlu dinin yelga bergen topmag'ay hargiz,
Sabo har nechakim sayr ichra olamgardliq qilsa.

Falak ul oynikim mendin yiroq solg'an bila o'ldum,
Tirilmak mushkil ermas emdi bozovardliq qilsa.

G'amidin topmag'ay mingdin birin, gar ishq yuz ming yil
Balo ahlig'a chohi g'amda g'amparvardliq qilsa.

Agar ko'yungda o'lturmoq topar jonig'a yuz minnat,
Agar yillar Navoiy bu havoda gardliq qilsa.

570

Bas tiyra erdi subhidamim shomi g'amg'acha,
To shomi g'amda naylagamen subhidamg'acha.

Og'zi xayoli buylaki yo'qlug' sari chekar,
Turmaq bo'lurmu kimsaga mulki adamg'acha.

El rashkidin nekim qilur ul, qilmisham qabul,
Mehru vafovut lutfini zulmu sitamg'acha.

Ko'yini ko'rsang erdi, yo'lung qisqarur erdi,
Bir umr, eyki, po'ya ko'tarding haramg'acha.

Bot o'lg'ay, ulki vasl tilab, ming yil ursa gom,
Aylab jahonni qat' qadardin qadamg'acha.

Bir sarv qomating kebi, bir gul yuzung kebi
Yo'q, kezsa xuldu ravzani bog'i Eramg'acha.

Bo'lmish iting safoli Navoiyg'a jomu bor
Ko'p farq ushbu zarf bila jomi Jamg'acha..

Boshimg'a shu'lai hijron tutashqandin emas ogah,
Visol avji uza boshig'a oltun toj qo'yg'an shah.

Biravkim, yuz pariy devonavor etkay anga qulluq,
Ne bilgay holin aningkim, pariy devona etmish, vah.

Balo chohi giriftori halokin, vah, qachon bilsun,
Siyosatgohida tutqunlarig'a ulki qozg'ay chah.

Ne ogah ulki, hashmatdin quyoshni zarracha ko'rmas,
Quyosh hijronidin sargashta bo'lsa zarrae nogah.

Ne voqif vasl Misri ichra manzil aylagan shohe
Gadodinkim, anga vayronai hajr o'ldi manzilgah.

Menikim qatl uchun xos etti furqat qayda mustankir,
Biravkim, qatli om etsa, emas ko'ngliga mustakrah.

Mangadur bir pariy matlubu zohid hurg'a tolib,
Qachon suhbat chiqishqay, chunki menmen telba, ul ablah.

Tut, ey soqiy, fano jomiki, ishq ollinda yaksondur,
Agar fosiq, vagar zohid, vagar bo'lsun gado, gar shah,

Navoiyni ul oykim, ruhi qudsi keldi anfosi,
Desa bismil qilurmen, ne degay ul g'ayri bismillah.

Yo'l erur yuz manzil ortiq mendin ul qotilg'acha,
Yuz o'lum vahmi bu manzildin yana manzilg'acha.

Vahki, har mahfilda ishqim qissasidur, yo'lda ham,
Gar kishi azm etsa bu mahfildin ul mahfilg'acha.

Gar meni majnung'a tashbih etsangiz, ey ahli hush,
Ne tafovut bo'ldi, bas, devonadin oqilg'acha.

Vah, ne kofirdurki, nogah tig' tortib chiqsa mast,
Qatlining muhtoji bo'lg'ay shohdin soyilg'acha.

Ulki ashkim bahri to'fonida qoldi, yetmagay,
Nuh umri sursa jismi zavraqin sohilg'acha.

Tosh otib atfolkim, har yon surar men telbani,
Kosh bore qovsalar ul sho'xi sangin dilg'acha.

Xo‘blar zulmi ko‘ngul mulkin xarob aylar, bale,
Ko‘p tafovut keldi zolim shohdin odilg‘acha.

Hajr dardi buylakim jondin malul etmish meni,
Farq o‘lumdin yo‘qturur bu umri behosilg‘acha.

LOM-ALIFNING LOLARUXLARINING LOBASI «BADOYE»DIN

573

Ko‘nglum olg‘ach ul pariy majnunu shaydo qildilo,
Aqlu hushumni junun dashtida yag‘mo qildilo.

O‘zgacha zulmu taaddilar bila qonim to‘kar,
Turfa erdi, turfa ishlar dog‘i paydo qildilo.

Hurmati taqvo tutar erdi, vale mast otlanib,
Boshima chopmoq bila olamg‘a rasvo qildilo.

Ohkim chektim, ko‘rub javlonini beixtiyor,
Yoshurun ishqim ulusqa oshkoro qildilo.

Bir qadah quymoq bila og‘zimg‘ayu xirqamg‘a ham,
Xirqa mayg‘a rahn o‘zumni boda paymo qildilo.

Dayr aro jomi labolabkim ichurdi, holima
Xonaqah ahli kelib bir-bir tamoshlo qildilo.

Bexud o‘lg‘ach, zulfi zunnorig‘a din naqdin berib,
Ishq bozorida ko‘nglum turfa savdo qildilo.

Menmen emdiyu fano dayrida bo‘lmoq mayparast,
Mug‘bacha ishqil ulusqa sirrim ifsho qildilo.

Gar vatan dayr ichra toptim, kimsaga yo‘q hech ayb,
Dayr piridin Navoiy bu tamanno qildilo.

574

Munisi jon deganim ofati jon bo‘ldilo,
Jonima bedodidin sheva fig‘on bo‘ldilo.

Dedi, ko‘zung qonini vaslim ila turg‘uzay,
Voyki, bag‘rim dog‘i hajrida qon bo‘ldilo.

Gar yuzi may tobidin gul-gul erur qon yoshim,
Yuz uza tim-tim tomib, lolasiton bo‘ldilo.

Ko‘zu ko‘ngul qonini yosuray eldin dedim,
Har biridin yuz sari yuzda nishon bo‘ldilo.

Zuhd aro har mushkilimkim bor edi, ey faqih,
Jomg‘a may quyg‘och-o‘q, barcha ayon bo‘ldilo.

Kimki zamon ahlidin aylamadi ijtinob,
Bir kun ani ham degung ahli zamon bo‘ldilo.

Yaxshilar ichra vatan tutsa Navoiy, ne tong,
Kimki yomonlar bila bo‘ldi, yomon bo‘ldilo.

Yo XARFINING YaG‘MOYILARINING YuZ KO‘RGUZMAKLARI «BADOYE»DIN

575

Zulmu bedod aylab andoq buzmamish davron meni
Kim, topa olg‘ay o‘zi tuzmakka ham imkon meni.

Tuzmakimdin charx ojizdur, nedinkim qilmamish,
Lutfi tutqan chog‘da obod etgudek vayron meni.

Kofiri ishq o‘lmisham, tong yo‘q, siyosatgoh sari,
Bo‘ynuma zunnor bog‘lab, cheksalar uryon meni.

Ashk mavjida ushalsa paykarim, vah, ne ajab
Kim, urar bir tog‘ uza har lahza ul to‘fon meni.

Istadim ko‘nglumga tig‘in, g‘arqa bo‘ldum qonig‘a,
Chun men aning qonig‘a kirdim, tutubtur qon meni.

Ashk bahri igrimiga tushmamishmen chiqqudek,
Ishq ul daryoda qilmish asru sargardon meni.

Ko‘p suubat birla olma xalq jonin, ey ajal,
Chunki men mushtoqmen, o‘ltur kelib oson meni.

Toli’imning quvvatin ko‘rkim, baliyat toshlari
Kimga ko‘ktin insa, aylar yer bila yakson meni.

Ming balo zaxmi bila o‘ldi Navoiy, qilsa xalq
Ishq sari mayl, sudrab ko‘rguzur har yon meni.

576

Ne may xushtur manga, ne gul kerakliktur, ne gulzore,
Kerak maydin gul ochqon yorning gulzori ruxsore.

Ne may xushtur manga, ne gul kerakliktur, ne gulzore,
Kerak chun ul hayotim gulshanining sarv raftore.

Junun tumorida zangoru shingarf aylama zoe'
Ki, daf' aylar ani ul la'l xat shingarfu zangore.

Mening xud ro'zgorim tiyra bo'ldi shomi hijrondin,
Qiling subhi visoli shukrin, ey aysh ahli, siz bore.

Ne sud emdi ayog'imdin tikon chekmaklik, ey mushfiq
Ki, toshlar birla ko'ksumga qoqilmish hajr mismore.

Nihoni yuz yaram bor hajr tig'idinki, sharh etsam,
Qilur ozurda bir olam elin har birning ozore.

Aningdek mastlig' uyqusidin ochqay Navoiy ko'z,
Sabohi hashr ul ham yovar o'lsa baxti bedore.

577

Necha ko'yidin chiqarg'a yo'l sari boqib turay,
Chiqsa el yoqin taloshib, men yiroqtin telmuray.

Necha ul sho'xi balo yuz ishva aylab har taraf,
Men fig'ondin boshima har dam balolar kelturay

Necha el raxshi Sovurg'an gard ila ko'z yorutub,
Men yiroqtin boshima tufrog'larni sovuray.

Necha ul yuz o'tidin el ravshan aylab sham'i vasl,
Jon qushin ul o'tqa men parvona yanglig' ko'yduray.

Necha bazmi aysh aro har kim bo'lub hamdam anga,
Men yutub qop kulbai hijronda har dam oh uray.

Vasli jomidin xumori hajr chun daf' o'lmadi,
O'zni o'lmastin burun mayxona sari yetkuray.

Ey Navoiy, gar manga topshursa sho'xi mayfurush
La'li may, tutqoch mayi la'lin, evaz jon topshuray.

578

O'lukka jon berur chun nukta aytur la'li guesi,
Masiho mimidin go'yo chiqar jonbaxsh anfosi.

Qadi naxli hayotimdur, magar topmish havovu su,

Dami Iso bila hayvon sunidin sarvi ra'nosi.

Tilar munglug' ko'ngul har lahza ishqing bir yangi dog'in
Gado yanglig'ki, bir eski diram bo'lg'ay tamannosi.

Erur ahbob bazmingda, meni mardud nettimkim,
Yiroqtin ham tuyassar bo'limg'ay hargiz tamoshosi.

Demang jismingda pechu ro'zgoring tiyra nevchundur,
Bu holim bor to tushmish boshimg'a zulfi savdosi.

Xumori hajr ichinda sa'b ahvolimni ul bilgay
Ki, ichkay andin ayru mayni sho'xi bodapaymosi.

Tikonlar hajr nishidin, chechaklar ashk qonidin,
Ajoyib dasht emasmu, Olloh-Oolloh, ishq sahrosi,

Sarimo'e emas ogah fano oyinidin ulkim,
Jahon boru yo'qidin bir sarimo' bo'lsa parvosi.

Ko'ngul mulki aro solik ne jam'iyat topa olg'ay,
Agar har dam anga yetsa xavotir xayli yag'mosi.

Menu, mug' dayriyu jomi fano, zohidg'a man'im yo'q,
Yachib kavsar suyidin, bog'i jannat bo'lsa ma'vosi.

Navoiy za'fi g'olib erdi bu ko'y ichra ul aqshom,
Agar o'lmaydurur, ne erdi itlar sho'ru g'avg'osi.

579

Har necha javr qilsa noz ahli,
Tortmay naylagay niyoz ahli.

Og'zi ramziyu nutqi vaqtida
Ajzg'a qoyil o'ldi roz ahli.

Ko'yi davrida benavo ushshoq,
Tavf aro uylakim Hijoz ahli.

Buzdi husn ahli ko'nglum andoqkim,
Yog'i mulkini turktoz ahli.

Rishtai jonim uzdi mutribi bazm,
Uzsa torin nachukki soz ahli.

Menu ishqil majozi, eltur esa
Yo'l haqiqat sari majoz ahli.

Sham' yanglig‘ Navoiy o‘rtansa,
Tong emas, buyladur gudoz ahli.

580

Bog‘din keldi nasimu gul isin kelturmadi,
Ne tikonlarkim bu g‘am ko‘nglum aro sindurmadi.

La’li yodidinki yuttum dam-badam hasrat suyin,
Olloh-Oolloh, qaysi qonlarkim bu g‘am yutturmadi.

Shomi hajrim tiyradur andoqki, kunduz ham bo‘lub,
Har nechakim ehtiyot ettim, quyosh bilgurmadi.

Hajr zulmidin dedim aylay ajalg‘a dardi dil,
Oqibat jonimg‘a rahm aylab, anga yetkurmad.

Vasl aro ko‘p istadi jonioiki bir dam tinmayin,
Hajr to jonioini tandin olmadi, tindurmadi.

Qaysi gul bedodi bir bulbul parin sovurdikim,
Charx zulmi ham aning yafrrog‘larin sovurmadi.

Ey Navoiy, bevafodur xo‘blar, bo‘ldi xalos,
Ulki ba’zig‘a ko‘ngul, ba’zig‘a ko‘z oldurmadi.

581

Demaki, qatlima ushshoqi notavon yaxshi
Ki, buyla javrunga bir men kebi yomon yaxshn.

Xush ulki, qatlg‘a ushshoq aro yomonlardin
Ul oy meni sog‘inib dedikim, falon yaxshi.

Kishiki vasl tilar, g‘urbat ixtiyor etsun,
Ul orzug‘a burun tarki xonumon yaxshi.

Aning visolida jonus ko‘ngul emas mahram,
Gar ul tuyassar o‘lur, g‘ayrdin nihon yaxshi.

Qadahni tashlaki, bas tashmalabmen, ey soqiyl,
Mening sumurmakima bahri begaron yaxshi.

Ne ayb, mug‘bachag‘a dayr tomi uzra xirom,
Yoreki qilsa quyosh jilva, osmon yaxshi.

Ajab malohat emasmu yuzungakim, ko‘runur

Senga, senga chu boqarmen zamon-zamon yaxshi.

Agarchi kelmadi bemehr yor javri yomon,
Chu yaxshi boqsang, erur yori mehribon yaxshi.

Navoiyo, yomon eltur chu noladin ul gul,
Ne sud, bulbul agar aylasa fig‘on yaxshi.

552

Yana hnjon o‘ti jonimg‘a tushti
Ki, aning tobidin qonim qurushti.

Xumori hajrdin, ey soqiyi bazm,
Qadahkim, chiqqaln jonim yovushti.

Ilik ber, ko‘zga surtay bushmas, ey sho‘x,
Qafi poyingnikim o‘ptum, ne bushti.

Mening holimg‘a afg‘on chekti ahbob,
Kecha ko‘yungdakim itlar ulushti.

Azalda rind xushhol o‘ldi maydin
Vale xilvat aro zohid tumushti.

Safar ranji ko‘nguldin chiqtikim, yor
Meni ko‘rgach, ravon istab ko‘rushti.

Navony hajr o‘ti urg‘anda tug‘yon,
Chu urdum bodadin su, o‘lturushti.

583

Qirqib erdi qoshin ul bodaparast xudroy,
Toza chiqmish, ne ajab, gar desam ani yangi oy.

Qirqqandin iki-uch kun o‘tubon bo‘lmish edi,
Uylakim xangi pay etkaylor iki dilkash yoy.

Yopti qavvosi qazo har biriga mushkin qavs,
Otqali kirpik o‘qin jon bila ko‘nglum sari, voy

Koshki xattig‘a yetkurmagan erdi poki
Kim, bu to‘ti bo‘lur ul ko‘zgu bila bolkushon.

Lo‘li o‘lmoq tong emas, bor esa shahlarg‘a havas,
Gar bu yuz ko‘zgusiga ilgi bo‘lur oshshasoy.

Ne ajab, bo'lsa yerim kunji qalandarxona
Kim, qalandarvash erur ul sanami beparvoy.

Ey Navoiy, yetilib qoshi aning, shukr deykim,
Husni qasrig'a ayon bo'ldn yana toqi namoy.

584

Muddailar betarahhum, yor beparvo, base,
Ham alar ko'p zulm etarlar, ham bu istig'no, base.

Zulfi zanjirn magar bo'lg'ay ilojim, ey hakim
Kim, dimog'imni parishon aylamish savdo, base.

Men o'lar holatdayu motam edi ahbob aro,
Buki aqshom qildi ko'yung itlari g'avg'o, base.

Turfa menmen ishq dashti ichra, yo'qsa anda bor
Vomiqu Farhod ila Majnun kebi shaydo, base.

Men kishi ermon junun ichra, yo'q ersa ko'rguzur
Odamiliq ul pariy paykar, malaksiymo, base.

Ey sabo, ko'yida itti ko'nglumnikim, aylar emish
Bul-ajabvashliqlar ul oshuftai rasvo, base.

Xastamen davron jafosidin, keturgil bodakim,
Nofi' ermish ul marazg'a sog'ari sahbo, base.

Boda ichkim, charx rif'at ahlini ko'p qildi past,
Pastlarni ko'mdi tufrog' ostig'a dunyo, base.

Ey Navoiy, gar desang ko'p injimay davr ahlidin,
Har ne derlar yo qilurlar, qilmag'il parvo, base.

585

Emas firoq tuni, ey ko'ngul, naqora uni,
Erur zamona uni holima firoq tuni.

Bu tiyra shomim ila Nahsi anjumin har yon
Firoq do'zaxining bil sharoraliq tutuni.

Ne nav' etay meni sargashta vasl yo'lin qat'
Ki, har zamon sovurur hajr dashtining quyuni.

Tanimni za'f qilib subha toridek halqa,
Birin-birin ko'runub muhradek bo'g'un-bo'g'uni.

Firoqning o'ti gar bot tutashsa, tong ermas
Ki, ahli dard quruq jismidur aning o'tuni.

Hisob asradi din ahli qatlin ul kofir
Ki, behisobdurur zulfi torining tuguni.

Agarchi sarvg'a gul qildi bog'bon payvand
Va lek sarv qadi gulruxumcha yo'q yo'suni.

Ko'ngulni buzsayu sindursa ishq, bok ermas
Ki, xo'b emasturur aning tuzuklugu butuni.

Chu xirqam o'ldi garav mayg'a, kiyma bodafurush
Ki, dog'i hajr qo'yar har diram kebi yuruni.

Zamona ahlig'a garchi o'yunchiliqdur ish,
Yengar ham oxir alarni zamonaning o'yuni.

Navoiy olmadi ko'z anbarin hilolingdin,
Nedinkim ul tilabon ko'kta, yerda topti muni.

586

Olacha hoshiyaliq to'n kiyib ul rashki pari,
Ol etuk birla xirom etsa, erur kabki dari.

Barcha gar umr charog'in o'churur, xushdilmen,
G'am tunidin meni qutqarsa nasimi sahari.

Angla har qaysini ishq ahlig'a bir hajr o'qicha,
Chiqla hajrim o'tining har sari yuz ming sharari,

Rutab la'likim erur qomati naxlig'a samar,
Ne chuchuk meva emish naxli malohat samari.

Gul ruxsoriki may suyi bila topti furug',
Suda gul aksimudur yo yuzida may asari.

Do'stlar, ko'ksi shigofini tikardin ne osig',
Uyla majruhki, yuz poradur aning jigari.

Yo'l xatarliqdur, ilik chekma tavakkuldinkim,
Yo'q bu yo'l solikinnng mundin ulug'roq hunari.

Ey xush ul rindki, to kelgayu ketgay bir dam,
Bo'l mag'ay dayri fano ichra o'zidin xabari.

Oncha ko‘nglumdadurur gulshani hijron tikani
Ki, nazar solmas anga g‘amzai novak fikani.

Ko‘zga sarrishtai tavfiq xati uldurkim,
Sudralib yerga tishon keldi itingning rasani.

Ko‘z qorasin o‘yubon tashlag‘anim sa’b ermas,
Onchakim solsa qorasin g‘ami ishqing tugani.

G‘arqi may ko‘nglak erur hushida yo‘q mastingda,
Yo shahidning erur qong‘a bo‘yalg‘an kafani.

Lolazoreki to‘kar jola, erur zoringning
Dam-badam tish bila pargolalar etkan badani.

Garm mehr o‘lg‘an ila zoli falak topma firib
Kim, bu ayyoraning asru ko‘p erur makru fani.

Ey Navony, qaddinga soldi shikast uzra shikast,
Chun sangal bo‘ldi vatan zulfi shikan barshikani.

Kosh bo‘lsa har tungan jismimda javshan yafrog‘i
Kim, o‘qi ko‘nglumga yetkach, o‘tmasa tandin dog‘i.

Ishq abvobin chekar daftarlarinda ahli dard,
Buylakim, shingarfgun bo‘ldi shahidning tufrog‘i.

Sunbulungga bir xitoe bandadur mushki Xo‘tan,
Gar dalil istar esang, bordur libosi yorg‘og‘i.

Go‘yo ul sho‘xning ko‘nglin olibtur o‘zga sho‘x,
Gar emas bedil, nedur eldin ko‘ngul oldurmog‘i.

Va‘da qilding ham vafo, ham qatl, parvo qilmading,
Qil vafo va‘dangg‘a, yoxud burnag‘i, yo so‘ngrog‘i.

Eyki gul fasli yigitsen, bir nigorning dog‘i bor,
Kelsa ilgingdin may ichkilkim, budur ishrat chog‘i.

Zulfi savdosida bilmaslar Navoiy nuktasin
Kim, junun guftoridur yoxud yilonning arbog‘i.

Ko'z bila ko'nglumga bo'l mish go'yiyo vasling chog'i
Kim, ko'zumning uchmog'i tez o'ldi ko'nglum solmog'i.

Dema ko'nglung mulki qay chog'din bu nav' o'l mish xarob,
To bu kishvar ahlig'a tushti firoqing bulg'og'i.

Ey ko'ngul, qilma ayog'i tufrog'i haqqin qasam
Kim, ko'zumning haqqidur aning ayog'i tufrog'i.

G'am tuni ko'nglum xaroshia gar istarsen dalil,
Iynak-iynak charx tahrikiyu anjum tirnog'i.

Qatl hangomi shahidingkim ko'tardi barmog'in,
Go'yi aning oti mundindur shahodat barmog'i.

Dahr gulzorig'a, ey ko'nglum qushi, mayl etmakim,
Anda bulbul qonidin rangin erur gul yafrog'i.

Hajr aro qo'ydum diramdek dog'lar ko'ksin yorib,
Vasl erur mumkin, Navoiyning chu ko'ptur yormog'i.

590

Uyqu hamsoyalardin ketarur hajr tuni,
Gah boshim yerga urub, gah yurakim solmoq uni.

G'am tuni tiyra dog'i anjumi raxshon demakim,
Yer yuzin tutti shararlar bila ohim tutuni.

Meni sargashta emon vodiyi hijrondaki, bor
G'ussa tufrog'iyu anduh yelining quyuni.

Rishtai jonima har yon tugun andoqdurkim,
Tori jismim aro farsuda so'ngaklar bo'g'uni.

Ishq rasvosi deb o'zni tikar egniga tiroz,
Dayr aro tushsa falak engiga xirqam yuruni.

Dahr bog'ida nechuk vasl guli butsunkim,
Hajr o'qidur yog'ini, ashk suyidur juvuni.

Gar Navoiy so'ngakiga tutashur ko'nglidin o't,
Ne ajab, ishq o'tidur ulu bu aning o'tuni.

591

Ul quyosh oquydayu men muztaribmen har sari,

Uylakim, fonusdin parvona qolg‘ay tashqari.

Sadqasi bo‘lmoq erur maqsud men sargashtag‘a,
Oquyi davrig‘a bukim aylanurmen har sari.

Ichkari ul gul tuvurlug‘ni ko‘tarmaslar, netay,
Ey sabo farroshi, bir lutf aylabon ul yon dari.

Parda ketgach, men zaifi zorg‘a oson erur,
Yo‘llaridin chig‘ning solmoq o‘zumni ichkari.

Oquy ichra har nedur, zohirdur ul yuz tobidin,
Sham’ bo‘lsa uyda, tashqardin bo‘lur zohir bari.

Gar falak xirgohi bo‘lsa peshxonang, ne osig‘,
Umr xayli chunki kundin-kunga kelmas ilgari.

Ey Navoiy, ul mahi xirgahnishin hifzi uchun
Ko‘zanak ermaski, har sari tikilmish ko‘zları.

592

Xasta jonom rishtasi ko‘rganda hajr ozorini
Gar uzuldi, qil anga payvand zulfung torini.

Dema og‘zin g‘uncha, qaddin sarvkim, el ko‘rmamish,
Sarvning raftorini yo g‘unchaning guftorini.

Gulda xolu mehrda xat yo‘q, ne yanglig‘ o‘xshatay,
Mehru gulga xol ila xatlig‘ iki ruxsorini.

Yog‘madi hargiz chu shabnam injusi gul bargidin,
Anga tashbih etsa bo‘lmas la’li gavharborini.

Ne qilurdin qasdi sunbul, ne etar jon sandi dom,
Aylamon monand alarg‘a zulfining zunnorini.

Charx qasrinda quyosh uzra ko‘ngul mayl aylamas
Kim, g‘animat tutmish aning soyai devorini.

Sayridin paykonlarining ko‘nglumda topmishdur sabot,
Ko‘zga ilmasmen falakning sobitu sayyorini.

Davr sirri pardasin gar ochmamishsan, soqiyo,
Boda tutkim, dey sanga bu pardaning asrorini.

Ey Navoiy, daxl qilma, gar tilar ersang navo,
Har necha xorij navo ko‘rsang sipehr advorini.

Zihi naxli qaddingdin xijil sarv bo'stoni,
Xat ichra labingdin munfail rohi rayhoni.

Tushumga yuzung kirdi ham yaxshi toli'din,
Ko'z ochtim, tulu' aylab edi subhi nuroniy.

G'amming dog'i jonimg'a labing xoli yanglig'dur
Ne bo'ldi surushsoq biz muni dog'i, sen oni.

Firoq ichra ruxsoring quyoshig'a ber jilva
Ki, bas tiyra aylabtur meni shomi zulmoni.

Dema, yoshurun dog'im sening ichingda yo'qtur,
Ichim yoru ko'r ulkim, erur naqdi pinhonni.

Baqo chun emas mumkin, mudom o'zni xush tutqil
Ki, qayg'urg'ali qilmas gari olami fonyi.

Navoiy, behisht ichra farog'at yo'lin so'rdung,
Namudoridur aning Hirining xiyoboni.

Siyosat etti soching mushk chun xato qildi
Ki, borcha jismi qorarib teriga tortildi.

Qadingg'a qullug'i ahdini nayshakar buzmish
Ki, buyla bir-biridin bandi-bandi ayrildi.

Boshinda toj zar o'ldi, ayog'i ostida nat',
Chu sham' xidmating aylarda poyasin bildi.

Magarki ko'z yumub ochquncha noz o'qin otting
Ki, bir ajab tikoni ko'nglum ichra sonchildi.

Ko'zi xadangi balo yog'dururni fahm ettim
Ki, raxshi na'lidin o'tlar ko'zumga choqildi.

Qadah keturgilu dam urma dahr sirridin
Ki, mubham o'ldi bu so'z har nechaki aytildi.

Jigari kabobg'a mayl etmagan esa ul mast,
Navoiyo, nega bag'ringni har taraf tildi.

Sayllarkim to'kar ko'zum yoshi,
Soyining toshidur yado toshi.

Da'vo etgaymu erdi qoshing ila,
Bo'lmasa yoyning ikki boshi.

Qahrdin chinki tushti manglayig'a,
Chinning ostida nun erur qoshi.

Rangin ezmakka solmish obi hayot,
Chehrang ochqanda sun' naqqoshi.

Qarig'an chog'da ayladi rasvo
Meni, garchi kichiqdurur yoshi.

Ne rafi' o'ldi dayr toqiki, bor
Mehr anga shamsa, ko'k anga koshi.

Gar Navoiy qochar fano yo'lidan,
Ne ajab, chun yo'q anda yo'ldoshi.

596

Jon mazraida bo'lsa, ne tong, dard xirmani,
Ohimdin o'ldi chunki falak yel tegirmani.

Xatting xayoli ko'nglum aro qildi yuz teshuk,
Bu nav' o'lur buzug'da qolin mo'r maskani.

Ko'nglum yorur, chu nomasini ko'zdin olmasam,
Uydekki, zeb kog'az ila topsa ravzani.

Zaxmi dog'i fatilag'a o't tushti, ey rafiq,
Dard uyining magar budurur sham'i ravshani.

Basdur yuzu qadding, gulu savsan, yana nedurur
Gulgun yilakning ustida takband savsani.

Bulbulg'a, ey gul ayla vafo toza-tozakim,
Serobu toza doim emas dahr gulshani.

G'amdin Navoiy o'lgusidur, ko'nglin asrag'il,
Chun sencha kimsa bilmadi dildorliq fani.

597

Intizoridin ul oyning ko'zki soldim har sari,

Ko‘z yumub ochquncha o‘tti ko‘z yoshim andin nari.

Yolinib ul ko‘y iti birla borurmen ko‘yiga,
Vahki, ul ko‘y ichra bormen men keyin, it ilgari.

Dardu g‘am turmish yasovuldek ko‘ngul choki aro,
Qo‘ymamoqqa kelsa hushu sabr xayli ichkari.

Ko‘rmasangkim o‘tni su tez aylagay, bir-bir turur
Ko‘nglum ichra qatra-qatra su kebi paykonlari.

Lab aro og‘zing chuchuk til birla go‘yo anglasam,
Shahdlig‘ nishi bila gul bargini teshmish ari.

Zohidu har lahza o‘lmak xonaqah fikridakim,
To tirikmen chiqmag‘um dayri fanodin men bari.

Ey Navoiy, dema har damkim qadahni quy to‘la,
Mayni oxir quysa xud bo‘lmas qadahdin tashqari.

598

Ne ishq ediki, adam ayladi vujudumni,
Chu urdi soiqa, gardung‘a chekti dudumni.

Ne nukta budu nabudumdin aytayinkim, ul
Nabud qildi fano o‘ti birla budumni.

Agar shikof esa ko‘ksum yaqo kebi, ne ajab
Ki, hajr bir-biridin uzdi toru pudumni.

Bu yo‘lda sudu ziyondin takallum etmangkim,
Tugatti ishqida savdo ziyonu sudumni.

Chu ishq kufri aro belga bog‘ladim zunnor,
But ollida yana ayb aylamang sujudumni.

Yuzung mushohadasi qilmish uyla mustag‘raq
Ki, hajr salb qila olmas ul shuhudumni.

Navoiy o‘zdin asar topmon o‘lg‘ali oshiq,
Ne ishq ediki, adam ayladi vujudimni.

599

Tilarmen islab-islab g‘abg‘abingni,
Gah o‘psam orazingni, gah labingni.

Erur bu bir tamanno baski topsam,
Yuzum surtarga na'li markabingni.

Yuzu zulfin ko'rarga borg'um, ey charx,
Judo qilg'il qamardin aqrabingni.

Falakdin o'tti gardi anbarolud,
Chu maydon ichra surdung ashhabingni.

Yuzi, ey charx, burqa' ochti terlab,
Bulutqa chirma oyu kavkabingni.

Qadi borinda to'bidin dema so'z,
Qil, ey zohid, biyikrak mashrabingni.

Navoiy, yor rahm etkaymu, yo rab,
Eshitsa muncha «yo rab-yo rab»ingni.

600

Tushta sarvu guldin islab birni, quchtum birini,
Aylagil, ey sarvi gulrux, bu tushum ta'birini.

Angladik o'tluq yuzi, ko'nglum ne yanglig' qildi su,
Mo'm arokim ko'rmamishtur shu'lanning ta'sirini.

Do'stlar, daf'i jununum gar tilarsiz, bog'langiz,
Ul pariy ko'yida bu devonaning zanjirini.

Suvratingdin ojiz ersa Moniy, ermastur ajab,
Qayda naqqosh aylagay kilki qazo tasvirini.

Vasl ila qilg'il buzug' ko'nglum ilojinkim,
Qilur Shoh adl etmak bila vayronalar ta'mirini.

Ishqu may, ey shayx, azaldin sarnavisht ermissh manga,
Vah, netib xush ko'rmagaymen tengrining taqdirini.

Ey Navoiy, dersen ul oy ishqini eldin yoshur,
Oti mazkur o'lsa, naylay holatim tag“yirini.

601

Ko'ksumda na'l bo'ldi xadanging nishonasi,
Ko'ksum uyi erur aning omochxonasi.

Paykonlaringki, til kebi ko'nglumdin urdi bosh,
Go'yo bir o'tdur ulki, bulardur zabonasi.

Ko‘p so‘z yasadi Layliyu Majnun so‘zida xalq,
Ermas nachukki husnunuq ishqim fasonasi.

Deb erdi bir bahona bila seni o‘lturay,
O‘lturdi, vahki, har dam aning bir bahonasi.

Mehri ruxungda mehrigiyah sabzai xating,
Go‘yoki xoling o‘ldi hamul sabza donasi.

Mug‘ dayri pirining qulimenkim, g‘am etsa qasd,
Aylar xalos bir to‘la jomi mug‘onasi.

Ishqing Navoiy aylar ulustin nihon, valek
Fosh aylar elga zamzamai bexudonasi.

602

Sahar kuyar g‘ami hajringda xasta jiism xasi,
Magar o‘tumni qilur tez subhning nafasi.

Ko‘ngulga oncha xadanging tikildi har yondin
Ki, bo‘ldi xasta ko‘ngul andalibining qafasi.

Ko‘ngulki tolpinadur tanda, ko‘yung istaydur,
Qafasda sekresa qush, uchmoq o‘lg‘usi havasi.

Ul oyg‘a yetmasa qo‘l o‘tluq oh ila, ne ajab,
Chinor kuysa, bo‘lurmu quyoshqa dastrasi.

Ne rind o‘lsa soching kufrida yetar zunnor,
Jahon yuzidagi din ahlig‘a aning marasi.

Talab yo‘lidag‘i ovoralarg‘a mujda dengiz
Ki, yo‘lg‘a hodiy erur do‘st mahmili jarasi.

Fig‘onki xastalarin ul Masih turguzubon
Vale Navoiy dilxastani unutti base.

603

Vahki, hajring o‘ti jismi notavonim o‘rtadi,
Notavon jismimg‘a tushkan shu‘la jonim o‘rtadi.

Qo‘zg‘abon ko‘nglum aloxonu alomon ayladi,
Ne aloxonu alomon, xonumonim o‘rtadi.

Barqi ishqing chunki tushti, xonumonim bo‘ldi kul,

Turfa o't erdiki, paydovu nihonim o'rtadi.

Dema, ishqim nayladikim ro'zgoringdur qora,
O'rtadi, ey qotili nomehribonim, o'rtadi.

La'li mahlul aylagandin o't yoqib xoshok ila,
Hajri jonim kuydurub, jismimda qonim o'rtadi.

Bo'lmasa nomu nishonim, ayb qilmangkim, firoq
Ro'zgor avroqida nomu nishonim o'rtadi.

Shomi hajrida shafaq ko'rsang, Navoiy, bil yaqin
Kim, falakni shu'lai ohu fig'onim o'rtadi.

604

Gul ne bo'lg'aykim, yuzung hajrida ko'rgaymen ani,
Solsalar kulbamg'a, xas yanglig' supurgaymen ani.

Bazmidin bo'lsa nasibim bir so'ngak, to umr bor
Islagaymen, yo'qli it yanglig' ko'murgaymen ani.

Jon chiqar holatda keldi yoru taskin topti jon,
Emdi nomahram deb istarmen iturgaymen ani.

Ko'nglum o'tidin yorut mehring charog'in, ey sipehr,
Sarsari ohimdin ul damkim uchurgaymen ani.

Lablaring hajrinda gar xud boda huro la'lidor,
Mumkin ermasturki, og'zimg'a yeturgaymen ani.

Uyla hijrondin tilarmen bexud o'lmoq, ey rafiq
Kim, falak jomin to'la tut sang, sumurgaymen ani.

Ey Navoiy, telba ko'nglum itti, emdi istamon,
Necha tog'u dashtdin istab keturgaymen ani.

605

Yo'qli, yomg'urdin meni holimg'a davron yig'lag'ay,
Ko'rguzub gulgun bulut istar magar qon yig'lag'ay.

Anjum ermaskim, erur aflok ashki donasi,
Har tun ahvolimg'a baskim charxi gardon yig'lag'ay.

Chok bag'rim qonu dog'in ko'z yoshim daf' etmadi,
Lola naf'idur, nechakim abri nayson yig'lag'ay.

Ko'z qurubtur ashkdin ul oy havoiy ishqida,
Bas qilur oxir bulut chun ulcha imkon yig'lag'ay.

Parda ichra yig'lab ashkim, vahki, pinhon qolmadi,
Sham' fonus ichra eldin qayda pinhon yig'lag'ay?

Mu'tabar ermas, agar zarq ahli ko'p to'kkay sirishk
Kim, musha'bid oz diram istab farovon yig'lag'ay.

Hajr tig'idin ne g'am har dam Navoiy yig'lasa,
Kimki bo'ldi pora-pora bag'ri, oson yig'lag'ay.

606

Gar bahor el topsa bo'stondin gulu rayhon isi,
Kelur ul rayhon ila guldin manga hijron isi.

Menki bir guldin jahon bog'ida bo'e topmadim,
Naylayin, qilsa muattar dahrni bo'ston isi.

La'li hajrinda nihon ashkim so'zin ag'yor aro
Desa bo'lmaskim, kelur ul nav' so'zdin qon isi.

Qaydakim jonbaxsh la'lidan Masihososo kalom
Surdi, ul yerdin kelur yuz qaridin so'ng jon isi.

Jon isi tutti jahonni, men borurmen ko'yiga
Kim, tilar el jon isi, men istaram jonon isi.

Ey gado, olam eliga shayalillah demakim,
Bu chamandin kelmadi hargiz guli ehson isi.

Chun Navoiyg'a kelur hijron isi har dam, ne sud,
Gar bahor el topsa bo'stondin gulu rayhon isi.

607

Tan qora tufrog' o'lub, oh o'ti oxir bo'ljadi,
Garchi xas kul bo'lg'ach, andin shu'la zohir bo'ljadi.

Husnunga mehr etti da'vo, zulfdin chiqqach yuzung,
Tun hijobig'a kirib majlisqa hozir bo'ljadi.

Dema ko'ksung chokini yopqilki, ko'p yoptim valek
Choklik ko'nglak aning chokiga sotir bo'ljadi.

Orzu aylarmen o'psam, deb ko'zumni har zamon
Kim, sening yuzungdin o'zga yuzga nozir bo'ljadi.

O‘rtamakta furqating shogirdidur do‘zax, valek
Pesha aylab kasb ustodicha mohir bo‘lmadi.

Vah, ne manzildur fano ko‘yikim, anda yetmayin
Kimsa ikki kavndin osuda xotir bo‘lmadi.

Ey Navoiy, qayg‘u yetsa charxdin, ich bodakim,
Ketmadi davron g‘ami, to jomi doir bo‘lmadi.

608

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtimu chektim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘ayu ul sho‘xi badxo‘ kelmadi.

Orazidek ondin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro‘zgorimdek ham o‘lg‘anda qorang‘u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim yig‘ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi.

Ko‘zlarindin necha su kelgay, deb o‘lturmang meni
Kim, bori qon erdi kelgan, bu kecha su kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsakim qo‘ydi qadam
Yo‘lg‘akim avval qadam, ma’shuqi o‘tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

609

Nozuk harir agar tанинга hoyil o‘lmag‘ay,
Ko‘rsa jamod mumkin emas moyil o‘lmag‘ay.

Chun toru pudi lutfda jon rishtasidurur,
Tong yo‘qturur, agar tанинга hoyil o‘lmag‘ay.

La’ling xayoli jon aro bir naqsh tuttikim,
Obi hayot ila yuvsalar, zoyil o‘lmag‘ay.

Osori hajr agar budururkim, ko‘rar ko‘ngul,
Do‘zax alomati bu sifat hoyil o‘lmag‘ay.

Qildim kumush bilaklaridin bo‘sai savol,

Mendek jahonda xomtama' soyil o'limg'ay.

Isboti juzvi loyatajazzo qilib xirad,
Og'zing vujudi nuktasiga qoyil o'limg'ay.

Yilliq ibodat ermish ayog'ingda sajdae,
Boshin Navoiy olmag'usi to yil o'limg'ay.

610

Chehra o'ti birla ko'nglum xonumonin o'rtadi,
Otashin gul ishqil bulbul oshyonin o'rtadi.

Ishq ko'nglum bog'in asrab toza, oxir soldi o't,
Bog'boni mastdekkim, bo'stonin o'rtadi.

Otashin la'lingda xol ermaksi, qo'ymish toza dog',
Har bahona aylabon ushshoq jonin o'rtadi.

Ishq o'tidin zor ko'nglum ichra solding so'zi hajr
Kim, bu yanglig' birta kuygan notavonin o'rtadi.

So'zi ishqim daftarig'a har kishikim soldi ko'z,
O'rtanib Farhodu Majnun dostonin o'rtadi.

Ishq zuhdum xaylig'a o't solsa, tong yo'qkim, bu barq
Dahr aro ko'p buyla taqvo korvonin o'rtadi.

Xonaqahg'a soldi o't kirgach Navoiy dayr aro,
Hirfavardek ganjkim topti, do'konin o'rtadi.

611

Ohkim, nomehribonim azmi bedod ayladi,
Bir yo'li mehru vafo rasmini barbod ayladi.

Qo'rqaram, ahli vafo ohi anga qilg'ay jafo,
Bu jafolarkim vafo ahlig'a bunyod ayladi.

Bo'ljadi noshod oxir dam gunah bo'lg'ay debon,
Begunah ahbobni mundoqli noshod ayladi.

Bir dam nchra tund sayle qahr ila qildi xarob,
Har vafo qasriki, yillar ani obod ayladi.

Dam urarg'a topmadi had kimsa to ushshoq uchun,
Shahna aylab g'amzasin, kirpikni jallod ayladi.

Tindi abnoyi zamonning ixtilofi tab'idin,
Kimki o'z tab'ini bekaslikka mu'tod ayladi.

Ko'ngli mulkin istar obod, vah, buzar xayli firoq,
To Navoiy azmi mulki Astrobod ayladi.

612

Gar yana bir qatla o'z vaslingg'a yetkursang meni,
Istasam hajring,bihildurmen gar o'ltursang meni.

Ul eshikdin kirgum uy toshini itdek aylanib,
Bu eshikdin tosh ila yuz qatla gar sursang meni.

Qolg'usi bir dog' ko'yungda kulumdin yodgor,
Yozg'urib hijron gunohi birla kuydursang meni.

Orzudur ostoning tufrog'ida o'lmakim,
Toza jon topqum, gar ul tufroqqa topshursang meni.

Garchi jurmum ko'p, xusho ul jurmkim, tahqiq uchun
So'rg'ali gah-gohi o'z qoshingg'a keltursang meni.

Tarki jon ettim, boshim bo'lg'usiyu ul oston,
Sen bilursen, lutf qilsang, xoh yozg'ursang meni.

Ka'bai ko'yiga yuz qo'ydum, bu yo'ldin yonmag'um,
Ey Navoiy, har nechakim yo'ldin ozg'ursang meni.

613

Chu ul huri parivash jilva aylar vaqt, noz etkay,
Malak xayli ko'rub andoq baloni ihtiroz etkay.

Taolalloh, ne istig'nodur ul husn ichrakim, nozin
Yuz oncha aylagay, oshiq necha arzi niyoz etkay.

Yorutqay el ko'zin barqi jamoling lam'asi har dam,
Vale men xasta ko'nglining ishin so'zu gudoz etkay.

Ko'pu ozim fidosidur aning, ya'niki shavqu sabr,
Agarchi ul sanam ko'p javr qilg'ay, rahm oz etkay.

O'zin pok aylamay oshiqki, yor ollinda qo'yg'ay bosh,
Erur ul nav', zohidkim tahiratsiz namoz etkay.

Ko'p o'l mish bul-ajabliq ishq aro ul jumladin bir bu
Ki, shohi G'aznaviy mahkum bo'lg'ay, hukm Ayoz etkay.

Chu haq nuri yuzungda zohir o'ldi, bebasar ulkim,
Haqiqat rasmi bor erkanda ishqingni majoz etkay.

Toriqtim xonaqahdin, xushturur mayxonakim, anda
Ayoqli jomi may tutg'ay, mug'anniy nag'ma soz etkay.

Chu solsam eski xirqamni, xarobot ahli, tong ermas
Ki, har bir-bir yurunni andin egniga tiroz etkay.

Erur hisni hasin matlubu zikri bo'lg'ali emin,
Xavotir xayli solik ko'ngliga chun turktoz etkay.

Navoiy yor ila bo'lqa, haramdur anga dayr ichra,
Agar mayli Ajam qilg'ay, gar ohangi Hijoz etkay.

614

Mening baxtim yuzi g'am kochidin ul kun qora bo'ldi
Ki, ko'nglum ul ko'zi, qoshi qorag'a mubtalo bo'ldi.

Qutulmish erdi oshig'liq balosidin ko'ngul, ketcish
Ul oy ko'yiga, bilmon, yona anga ne balo bo'ldi.

Qoshu kipriklarin ko'nglum uyin qildi kamonxona,
Aliflardin o'qu har na'l anga bir halqa yo bo'ldi.

Buzulg'an xasta ko'nglumdin o'qin zinhor chekmangkim,
Ul uyg'a bu sutun, ul notavong'a bu aso bo'ldi.

Labingg'a qaysi til birla fido dey xasta jonimni,
Anga jonim fidokim, joni la'lingg'a fido bo'ldi.

Ajab muhlik emasnu ishq dashti, ey musulmonlar
Ki, bir mo'rig'a har kun tu'ma ikki ajdaho bo'ldi.

Fano istar esang, tut dayr piri ilgidin jome,
Nedinkim xonaqah shayxi ishi zarqu riyo bo'ldi.

Vujudum foniylaylab oldi din bir mug'bacha, tong yo'q,
Agar zunnor bog'lab, maskanim dayri fano bo'ldi.

Navoiy, g'ussadin maxlas tilarsen, mastu bexud bo'l
Ki, davron dardu ranjig'a davo bu bo'ldi, to bo'ldi.

615

Bir kun meni ul qotili majnunshior o'lturgusi,

Usruk chiqib, javlon qilib, devonavor o'lturgusi.

Gar za'f ila ojizlig'im ko'ngliga rahme solsa ham,
Boshimg'a yetkach, sekretib beixtiyor o'lturgusi.

Vasli aro gar o'lturur, jonimg'a yuz ming shukr erur,
Chun qolsam andin bir zamon, hijroni zor o'lturgusi.

Oshiq bo'lurda bilmadim, men notavoni xastakim,
Hajr o'lsa, g'am kuydurgusi, vasl o'lsa yor ulturgusi.

Maydon aro, ey ahli din, kirmang tamoshosig'akim,
Yuz ko'rmayin ul kofiri chobuksuvor o'lturgusi.

La'ling zakoti may tutub tirkuzmasang, ey mug'bacha,
Dayr ichra men dilxastani ranji xumor o'lturgusi.

Derlar Navoiy qatlig'a gul-gul ochibtur orazin,
Ko'rguncha ani, voykim, bu xor-xor o'lturgusi.

616

Gar alamimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay,
Var g'amima shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Ranjima yo'q esa adadi xost bu ersa naylayin,
Dardima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Jam' emas ersa xotirim, jam' o'lurig'a, zohido,
Hojati istixora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Yordin elga komlar, buki mening sari gahi
Ko'z uchidin nazzora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Mash'ali vasl ila ulus shomi munavvaru mening,
Baxtima bir sharora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Qismi azalg'a shodmen, buki falak rioyati,
Holima oshkora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

Dedim, erur Navoiy o'z dardig'a chorasisiz, dedi,
Gar alamimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

617

Vahsh xaylin dasht aro men telbai mahzun sari,
Om g'avg'osi xayol et shahr aro Majnun sari.

Ham borurda, ham yonarda o'tkudekdur charxdin,
Chiqsa ul oy hajrida ohim o'ti gardun sari.

Sham'ig'a parvona maylidekdurur ko'nglum qushi,
Borsa nogah ul qadu ruxsori otashgun sari.

Turfa ko'rkim, nosihim Farhod ila Majnun erur,
Bul-ajab holimg'a boqib tog' ila homun sari.

Har tun afzun bo'lg'an ohim o'tig'a jonim sipand
Kim, gazande yetmagay ul husni ro'zafzun sari.

Soqiyo, kup kunjidin tut bizga la'li nobkim,
Bu borinda mayl bo'lmas ganji Afridun sari.

Ey Navoiy, majma'ul bahrayn bo'lg'ay oshkor,
Mayl qilsa sayli ashkim nogahon Jayxun sari.

618

Ashk xunobidin o'l mish ko'zlarim ummon kebi,
Qon yosh aritmog'din ilgim panjai marjon kebi.

Ko'nglum o'tidin qizorg'an har taraf paykonlaring,
Su bo'lub emdi tomarlar zaxmlardin qon kebi.

Tanni gar do'zax o'ti kuydursa, jonne o'rtamas,
Qilmag'il hech o'tni, yo rab, shu'lai hijron kebi.

Ishq dashtida quyun chekmas fig'on, vah, bo'lmasun,
Xoksori bodpaymoe bu sargardon kebi.

Sabzai xat yopqan og'zing o'psam, ey gul, ne ajab,
Tufrog'imdin g'uncha butsa zaxmliq paykon kebi.

Dahr bog'inda necha kunkim tiriksen, aysh qil
Kim, yana topmoq emas ma'lum bu bo'ston kebi.

Ey Navoiy, ishqimu husni erurlar onchakim,
Men anga hayronmenu ul dog'i men hayron kebi.

619

Bir pariy paykar g'ami oshuftahol etmish meni,
Elga ahvolim demaktin gungu lol etmish meni.

Men havoyini, ne tong, ko'rguzsalar bir-birgakim
Egma qoshing fikri andoqkim hilol etmish meni.

Oshkor etmas edim ishqin, vale o'tkan kecha
Boda zo'r aylab, yig'i bee'tidol etmish meni.

Yor ko'yi ichrakim tufrog' ila teng bo'lmisham,
Ishq g'avg'osi bu yanglig' poymol etmish meni.

To tanimg'a o't tutashmish, barqdekdur hay'atim,
Furqating to za'fdin andoqki nol etmish meni.

O't solurmen oh ila olamg'a men kim, zuhd kim,
Zohidi afsurda oyo ne xayol etmish meni.

Dashti vahshig'a anis o'lsam Navoiydek, ne tong,
Ul pariy savdosi chun Majnun misol etmish meni.

620

Hijron kuni har xastaki jonong'a yo'luqtyi,
Qil uyla tasavvurki, o'luk jong'a yo'luqtyi.

Zulfung qora qayg'usida jonong'a yo'luqqan,
Zulmat ichida chashmai hayvong'a yo'luqtyi.

Qochti ko'ngul ashkimdinu ohim aro tushti,
Yomg'ur suyidin qochtiyu to'fong'a yo'luqtyi.

Majnung'a yo'luqtyi, manga g'am dashtida itkan
Majnun demakim, g'uli biyobong'a yo'luqtyi.

Hayronlig'ima hayrati mendin dog'i oshti,
Ishq ahlidin ulkim meni hayrong'a yo'luqtyi.

Davronda kamol ichra quyoshtin biyik o'ldi,
Har zarraki bir komili davrong'a yo'luqtyi.

Ishq ahli ishi topti bori vasl ila chora,
Bechora Navoiy g'ami hijrong'a yo'luqtyi.

621

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Garchi xalq ozodasimen, yor agar bandam desa,
Andin ortuq anglakim, bir banda ozod aylagay.

Yordin har kimki bir so'z der, tuganmasdin burun,

Istaramkim, avvalidin yona bunyod aylagay.

Yor hijronidin o'lgumdur, bu nav' ermish sazo
Ul kishigakim, biravga o'zni mu'tod aylagay.

Necha sabr avroqi yozg'ay ko'nglumu bir oh ila
Sarsari ishqing yetib, borini barbod aylagay.

Shayxdin zuhdi riyoyi kasb o'lur, yo rab, qani
Dayr pirikim, fano rasmini irshod aylagay.

Odam avlodida kamdur odamiliq shevusi,
Odam ermas, ulki mayli odamizod aylagay.

Ne balodurkim, falak har kimga cheksa tig'i kin,
Yongilib avval mening jonimg'a bedod aylagay.

Besha ichra devlar maqtuli o'lsun, ey pariy,
Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay.

622

Tig'i hijroning kirib ko'nglumni g'amnok ayladi,
Ichkaridin ko'kragimni sar-basar chok ayladi.

Ayladi men zori mahzunni balovu javrkash,
Ulki dildorimni mundoq mastu bebok ayladi.

Husn aro ulkim nasibing qilmadi juz poklik,
Xotirim lavhini g'ayring naqshidin pok ayladi.

Zor jismim lam'ai husnungdin o'rtanmak ne tong,
Chunki ishq ul birni o't, bu birni xoshok ayladi.

Dam urub, gardimni yetkur ko'yiga, ey subhi vasl
Kim, tanimni hajr bepoyon tuni xok ayladi.

Ma'rifat naxlidin ul orif hamono topti bar
Kim, tafakkur birla fahmi moarafnok ayladi.

Nosiho, ul husndin qilmas Navoiy man'ini,
Har kishikim ishq atvorini idrok ayladi.

623

Chun ilik bermaski o'psam, ul sitamkor ilgini,
Bir kishi ilgin o'paykim, o'pkay ul yor ilgini.

Chun ayog‘i tufrog‘in o‘pkuncha topmon e’tibor,
So‘yasa ham nogah, o‘parga ne hadim bor ilgini.

Jon sotarmen xoki poyingg‘a, nedinkim, ahli bay’
Tuttururlar sotquchi birla xaridor ilgini.

Zulfidin, tong yo‘q, kalimullohdek etsa ajdaho
Kim, yadi bayzodin aylabtur namudor ilgini.

So‘rg‘ali kelsa Masihim boshima domankashon,
Ul etakdin kim olaolg‘ay bu bemor ilgini?

Dog‘u qondin bordurur ulkim ochilmish lolazor,
Hajring ayyomida cheksang oshiqi zor ilgini.

Ey Navoiy, bilki, hijron dashtidin bo‘lmas xalos,
Sayr aro matlub agar tutmas talabgor ilgini.

624

Biravki ishq bila qildi muttaham bizni,
Ne nav’ yo‘q deylikim, etti muhtaram bizni.

G‘amingda bir-iki dam qoldi, jonni botroq ol,
Hayot vahmidin o‘lturma dam-badam bizni.

Ko‘ngul ne mujda berursenki, bazm aro tuno-kun
Hariflar aro yod et mish ul sanam bizni.

Demangki, tig‘ surub, boshimizni soldi quyi
Ki, qildi hajrda sharmanda ul karam bizni.

Firoq muhliku vasl ichra shodlig‘ muhlik,
Firoqi o‘lturur ermish, visoli ham bizni.

Icharda durdi may aylab sinuq safolni jom,
Bo‘lur bu joh ila davr ahli desa Jam bizni.

Navoiy ayladi hijronda nolayu faryod,
Xarob qildi ul ohangi zeru bam bizni.

625

Vahki, savdodur dimog‘imda, parishonlig‘ dog‘i,
Telba ko‘nglum ichra o‘z holimg‘a hayronlig‘ dog‘i.

Gar meni olam eli bedodi buzdi, bok yo‘q,
Olamedur bu buzug‘ olamda vayronlig‘ dog‘i.

Xonumonim gah balo tog‘i, gahe g‘am dashtidur,
Buyla kim ko‘rdi aloxonlig‘, alomonlig‘ dog‘i.

Qatlim aylab qonimakim kirdilar ko‘zu ko‘ngul,
Ikkisi dushmandururlar jonima, qonlig‘ dog‘i.

Yor kelgumdur debon bordiyu kelmas, vah, yana
Bevafolig‘ zohir etti, ahdi yolg‘onlig‘ dog‘i.

Hajrida o‘lturmadim o‘zni agar ko‘rsam yuzin,
Infiolim dog‘i sud etmas, pushaymonlig‘ dog‘i.

Furqati dashtida ham sargashta, ham ovoram
Kim, quyunlug‘dur ishim, g‘uli biyobonlig‘ dog‘i.

Dahr elining zulmi gar budurki yetti jonima,
Qilmayin anda vatan billahki, mehmonlig‘ dog‘i.

Ey Navoiy, sen xud itting, kimsa sendek itmasun,
Shohidin hirmonlig‘u mohidin armonlig‘ dog‘i.

626

Komi la’lingning xayolidin ko‘ngul qozg‘onmadi,
Tushta su ichkan bila lab tashna hargiz qonmadi.

Oh sargardon ko‘nguldinkim, ul oy ko‘yi sari
Borg‘ali bir ham bizing sari yana aylonmadi.

Ko‘r, ne o‘t bo‘lg‘aykn o‘rtandim, qayonkim solding o‘t,
Yolg‘iz ul o‘tdinki men kuydum, ko‘ngul o‘rtonmadi.

Hajr aro o‘lmakni xo‘y ettimki, chun toptim visol,
O‘lmak etkach orzu ollinda jon emgonmadi.

Hajr o‘lturgon qiyomat dog‘i qo‘pmas, ko‘rmadik
Uyqukim, g‘avg‘oe rustahez ila uyg‘onmadi.

O‘lmak osondur, ko‘ngul uzmak biravdin sa‘b erur,
Ey xush ulkim, ko‘ngli bir badmehr ila o‘rgonmadi.

Gar Navoiy za’fi tebranguncha bor erdi, valek
Hajr o‘qi ko‘ksigakim tegdi, yana tebronmadi.

627

Ne chog‘lig‘ toshkim Farhod ushotti,

Falak borin yig‘ib boshimg‘a otti.

Mening afsonam erdi bul-ajabroq,
Necha Majnun so‘zin roviy uzotti.

Taharruk qilmadi hajr aqshomi charx,
Sirishkimdin magar bolchiqqa botti.

O‘lum sardobasi erdiki, gardun
Manga orom uchun maskan yasotti.

Firoq ollinda erdi shahd yanglig‘,
Mazoqimkim o‘lum zahrini totti.

Ko‘p erdi ishq bozorida savdo,
Meni gardun vale olamg‘a sotti.

Navoiy la’li serobing g‘amidin
Yurak qonini ko‘z yoshig‘a qotti.

628

Barcha bazm ahlig‘a lu’batboz ishining hayrati,
Kelturub hayrat manga har lahza ul Chin lu’bati.

Chun qarig‘on chog‘da men lu’batqa bo‘ldum shefta,
Vah, ne tong, atfol la’bining boshimg‘a mehnati.

Shayx pandidin ne osig‘kim qilur lu’batni man’,
Menki, jonimni olur bir sho‘x lu’bat hasrati.

Garchi lu’bat birla but bir-birdin ermaslar yiroq,
Vahki, lu’batlar aro ul but erur jon ofati.

Ham ani lu’bat deyin, ham but deyin, nevchunki bor
Zotida but husniyu husnida lu’bat ziynati.

Charx zolikim o‘zin lu’batdek oroyish berur,
Qochqil andinkim, emas lu’bat, erur haq la’nati.

To Navoiy bo‘ldi lu’bat sari vola, vahki, bor
Barcha lu’batbozlar hangomasig‘a ulfati.

629

Ey xush ulkim, bag‘rima bir lolaruxdin dog‘ edi
Kim, havosinda sabodek jilvagohim bog‘ edi.

O'tqa yog'in gar berur taskin va lekin shavqida
Ko'z yoshimning yog'ini o'tlug' ko'ngulga yog' edi.

Maydek ikki la'lul mushaf kebi yuzdin ko'ngul
Usruk erdi ikki soat, gar zamone sog' edi.

To'tiyolardin ko'zum aylab edi qat'i nazar,
Surmasi chun chobukum maydonidin tufrog' edi.

Rindlar, tavbam ne tongkim, umr o'tub isyon bila,
Do'sti oliv dargahig'a azm aylar chog' edi.

Barqi rahmat choqilurda tog' emas xoshokcha,
Tavba vaqt g'am yo'q, ar jurmum nechukkim tog' edi.

Vaqt chun yetti, Navoiy haqqa qildi bozgasht,
Garchi zoli charx ishi yuz lobayu ming log' edi.

630

Dasht aro dermenki Majnunni o'zumga uchratay,
Hush andin o'rganib, devonalig'ni o'rgatay.

Zuhdu taqvo ahli pandimg'a agar jam o'lsalar,
G'am emas, bir oh barqidin borisin butratay.

Bog' gulgashtida beinsoflig'dur, gar desam
Sarvni qaddingg'a, gulni orazingg'a o'xshatay.

Ul gul uyg'onmas quyosh chiqquncha, har tun necha men
Nolai shabgir ila tong qushlarini uyg'otay.

Ul pariyyash tifl maxtabdin toriqmish, piri dayr
Qo'yki, bir dam ani majnunlug'lar aylab o'ynatay.

Bo'lsalar Farhodu Majnun bul-ajab holimni deb,
Goh ani kulduray, gohi bu birni yig'latay.

Deb emishsen bir xadang otqum Navoiy ko'ngliga,
To'qta onchakim, qarori yo'q ko'ngulni to'qtatay.

631

O'qungkim jismi uryonimg'a yetti,
Tanimdin o'tmayin jonimg'a yetti.

Bulut gar zohir etti barq ila ra'd,
Qachon bu o'tlug' afg'onimg'a yetti.

Chamanda jilva aylab naxl hosho
Kim, ul sarvi xiromonimg‘a yetti.

Qochib chiqsam, ne tong, g‘am tog‘i uzra,
Balo sayli chu vayronimg‘a yetti.

Dedim, nevchun sabo keldi parishon?
Dedi, zulfi parishonimg‘a yetti.

Bir o‘qkim elga otti ul qoshi yo,
Yuz o‘q bu joni qurbanimg‘a yetti.

Navoiy, bag‘rimu ko‘nglum o‘tidin
Tutashti, chunki bir yonimg‘a yetti.

632

Havo xushdurur, tut qadah, yor, axi,
Qadahni o‘zung burna sipqor, axi.

Chu sipqarding, ani yona qil to‘la,
Ulug‘roq topib jom zinhor, axi.

O‘zung birla teng tutma sog‘ar manga,
Sen ozodasen, men giriftor, axi.

Hiloliy qadah birla sen boda ich,
Manga jom tut charxikirdor, axi.

G‘amimdin bo‘lur charx javfi to‘la,
Muni ham qil andin namudor, axi.

Mayi sof ham tutmasang, yaxshidur,
G‘amim daf‘ig‘a durdi xammor, axi.

Zamon javri birla zamon ahlidin
Zamone bu bedilni qutqar, axi.

Manga gar bu nav’ aylasang yorliq,
Sanga doim o‘lsun xudo yor, axi.

Navoiy jahondin kechib ista yor,
Sanga buyla g‘urbatda ne bor, axi.

633

Kelsa your bo‘lmasa hamrah raqibi tiyra roy,

Qilmasa gard imtizoji obi hayvonimni loy.

Kelsa yoru hamrahi bo'lsa raqib, ozurdamen,
Kelmasa yoru raqibi kelsa sarvaqting'a, voy.

Yor chun yolg'uz qoshimg'a kelmaki mumkin emas,
Chorae yo'qtur, agar shabgun bulutdin chiqmas oy.

Gar ikovlon kelsalar ham bok emastur, negakim,
Bu bir etsa g'amfizoliq, ul bir o'lg'ay g'amzudoy.

Dahr bog'ida tikandin ayru chun gul butmadi,
Gar tikan jonkohdur, ammo erur gul jonfizoy.

Vasl sofi gar yo'q, ey soqiy, manga tut jur'ae,
To quyay bir dam baloyi hajring ustiga loy.

Ey Navoiy, yuziga yuz surtmak qilma havas,
Qoni' o'l, bo'lsang eshiki tufrog'ig'a chehrasoy.

634

So'ra kelmadi yor bemorini,
Bu ish qildi bemorroq yorini.

Ko'ngulsizlik anduhidin, vah, ne g'am,
Kishi ko'rsa yonida dildorini.

Aningkim qadin tubiy etti xudoy,
Bihisht etti gulzor ruxsorini.

Ne had ko'nglaking istamaklik, valek
Yaram tikkali bir aning torini.

Musavvirog'a jonim fido aylasa,
Ezib la'l ul lab namudorini.

Yuzung davrida go'yo naqqoshi sun'
Quyosh birla teng tutti pargorini.

Ko'ngulni firoq uyla zor ettikim,
Magar vasl daf' etkay ozorini.

Xumor oldi jon, ey ko'ngul, ishq de,
Chu ko'rsang fano dayri xammorini.

Navoiyg'a javr etma, ko'r lutf ila
Tani zorini, joni afgorini.

Poklar ko‘nglidur ul orazi mahvash sari,
Rostlar mayli ham ul qomati dilkash sari.

Ko‘nglum ul yon chekadur, negaki Majnun ko‘ngli
Yo pariy sari chekar, yo‘qsa pariyvash sari.

Zulf olib, bizni mushavvash qilib o‘tti, lekin
Iltifot etmadi bir dam bu mushavvash sari.

Xalq maydon aro har sari boqib, vahki ko‘zum
Rokibi mahvash ila markabi abrash sari.

Oncha naqsh o‘ynadi aflok mening birlankim,
Boqa olmon yana bu saqfi munaqqash sari.

Axtari nahsdurur muhtasib, ar boda to‘kar,
Zuzanb der, kishi solsa nazar ul fash sari.

Jonni bir dov ila gar xasta Navoiy o‘ynar,
Ul muqammir sifat, albatta, erur g‘ash sari.

Bizga yetmas erdi bir nomehribon dardu g‘ami
Kim, fuzun ham bo‘ldi yori mehribonning motami

Ikki yor erdi manga — nomehribonu mehribon,
Mehribon bordi, qolib nomehribon dardu g‘ami.

Bordi ulkim bor edi ham mahramu ham mehribon,
Jon berib bo‘lmon bu bir nomehribonning mahrami.

Har jarohatkim urar nomehribonim bag‘rima,
Mehribonim bu jarohatlarning erdi marhami.

Vahki, ming zaxm ursa jong‘a emdi bu nomehribon,
Yo‘q ilojig‘a ko‘ngulning mehribonu hamdami.

Mug‘tanamdur, ul pariy bor ersa ham nomehribon,
Dahr aro chunkim topilmas mehribonvash odami.

Mehribonim chiqsa olamdn, Navoiy, chora yo‘q,
Yordin ham hushturur nomehribonlig‘ olami.

Yor borg'an chog'da bormish bedilin o'lturgali
Keldiyu kelgan emish o'lturbanin kuydurgali.

Oolloh-Oolloh, ey hayotim, ul borishqa bu kelish
Kim, biri kuydurgali bo'lg'ay, biri o'lturgali.

Xoh o'ltur, xoh kuydurkim sanga berdim rizo,
Rozi ermasmen vale, jono eshikdin surgali.

Itlarin aning ayab boshimni qilmon tu'ma ham,
Ishq yuz turluk baliyat boshima kelturgali.

Xoni vaslingdin ulusqa bahra yetkurgilki, men
Yaxshimen soyil kebi hasrat yebon telmurgali.

Dahr elidin ihtiroz et, ey ko'ngulkim, men dog'i
Muhtarizdurmen vafosizlig'lari bilgurgali.

Ey Navoiy, ishq bizni garchi rasvo ayladi,
Ul ne qilsa, pardai kitmong'a ani churkali.

638

Ulus qo'zg'alur, go'yo yorim yetishti,
Ulus ofati, gul uzorim yetishti.

Yana gard ko'zga erur to'tiyo rang,
Hamonoki chobuksuvorim yetishti.

Tomar qatra-qatra ko'zum yoshi gul-gul,
Magar boisi xor-xorim yetishti.

Jahonga agar o'zga zeb o'lsa, tong yo'q,
Jahon zebi birla nigorim yetishti.

Ne tong, nolada qolmasa ixtiyorim
Ki, zulm ichra beixtiyorum yetishti.

Ochilsa nishotim guli, yo'q ajabkim,
Buzug' bog'ima navbahorim yetishti.

Xush ulkim, Navoiy yetishkach, dedi yor
Ki, ovorai beqarorim yetishti.

639

Ohki, ishq ayladi shaydo meni,

Soldi junun ko'yiga savdo meni.

Ishq ila savdo bo'lubon muttafiq,
Ayladilar dahrda rasvo meni.

Dasht aro Majnun demayinkim, vurush,
Keldilar aylarga tamosho meni.

Kimniki ishq istadi qatl etkali,
Hajr ravon ayladi paydo meni.

Kimki meni o'lturur, ul tirguzur,
Yo'qsa qochar, ko'rsa Masiho meni.

Dayr emas erdi yerim, ozg'urub,
Soldi buyon bir buti tarso meni.

Voyki, o'lturgali qilmas pisand,
Ishq yana kimsani illo meni.

Soqiyi gulchehradin oshuftamen,
Demaki, mast ayladi sahbo meni.

Yor Navoiyni tilab, ey ko'ngul,
Yo seni o'lturgusidur, yo meni.

640

Gulshan ichra jilvai noz etsa jonon qomati,
Tufrog' o'lg'an soyadek sarvi xiromon qomati.

Nozanin qadding tiriklik gulshanining naxlidur,
Sarvu tubi sendek o'lmoqning ne imkon qomati.

Sarvdek uksuni axzar birla Layli qaddidur,
Tokdek yuz xam bila Majnuni uryon qomati.

Garchi qomat cheksalar, elga bo'lur mayli namoz,
Vahki, din qasdi qilur ul nomusulmon qomati.

Vasl shomi ravshan o'ldi partavi ruxsoridin,
Yo'q ajab, desam erur sham'i shabiston qomati.

Dahr elidek egridurlar sho'xlar boshtin ayoq,
Tik nazarda tuz ekin ul ahdi yolg'on qomati.

Ey Navoiy, xo'blar qaddida yo'qtur e'tidol,
Nega o'xshar sarvdin undurrak inson qomati.

Vahki bir g‘oyib xayolidin parishonmen, base,
Hush mendin g‘oyib, o‘z holimg‘a hayronmen, base.

Ul quyosh bordi buzub ko‘nglumni, sen ham, ey sipehr
Bir yo‘li buzma meni, nevchunki vayronmen, base.

Ollida jon bermadim vasli zamonin qizg‘onib,
Furqatida ul tiriklikdin pushaymonmen, base.

Lahza-lahza buki yig‘larmen g‘amidin talx-talx,
Ayb emaskim, mubtaloi dardi hijronmen, base.

Tog‘ ila vodiyda, ey Farhodu Majnun, siz toping
Ofiyatkim, men aloxonu alomonmen, base.

Vasli komin sabru somondin toparlar, vahki men
Hajr oshubi aro besabru somonmen, base.

Yordin qosid kelur derlar, firoqu vasldin
Ne xabar kelturmakin bilmay harosonmen, base.

Dinu donish ahlig‘a ber tavba, ey nosihki, men
Mast tun-kun dayr aro beboku nodonmen, base.

Ey Navoiy, dashti vahshi ichra bo‘lsam, shod bo‘l
Kim, kirib hush ahlig‘a bu vaqt insonmen, base.

Ne kun o‘lg‘ayki, nigorim kelgay,
Bog‘i umrumda bahorim kelgay.

Umr bog‘ida bahor uldurkim,
Sarv qad lola uzorim kelgay.

O‘limgaymen yo‘lida, gar boshima
Sekretib shahsuvorim kelgay.

Ul gado jonig‘a o‘t tushkaykim,
Olg‘ali sham‘i mazorim kelgay.

Ko‘yida itti ko‘ngul, vah, qachon ul
Masti devona shiorim kelgay.

Qani maykim, chu ichib mast o‘lsam,
Ko‘kka tuz boqqali orim kelgay.

Ey Navoiy, tilamon huru pariy,
Shoyad ul bazmda yorim kelgay.

643

Yuzi xurshididin ko‘zlar qamoshti
Va lekin tobidin jonlar tutoshti.

Bu xurshid uzra maydin gullar o‘lg‘on,
Gul uzra qatralar yanglig‘ yaroshti.

Sochi savdosida oshufta qissam
Tasalsul birla bir-birga uloshti.

Ajalni jon olurda yengdi hajring,
Nechakim ul muning birla o‘choshti.

Qo‘lini to‘lg‘adi ishqing xiradning,
Agarchi ul munung birla taloshti.

Falaktin nolani, tong yo‘q, oshurmoq,
Falak zulmi chu bizga haddin oshti.

Shafaqdin ko‘k yuzi gulgun emaskim,
Firoqingdin Navoiy qoni toshti.

644

Bog‘ aro go‘yo sabo solmish edi jonon isi
Kim, yetishkach gul isi, men toptim andin jon isi.

La’li ko‘nglum qatlini qilmoqqa bo‘ldi nuktasanj,
Ey ko‘ngul, dam asrakim, keldi bu so‘zdin qon isi.

Yuzu xattining nasimidin chu toptim toza jon,
Vah, ne jonimg‘a kerak emdi gulu rayhon isi.

Bordi ul yon zor ko‘nglum, bermagay tashvish anga,
Zaxmi islangan ko‘ngulning yetsa nogohon isi.

Og‘ziyu dur tishlaridin ruhuma aytur xabar,
Kelsa nogah jola to‘lg‘an g‘unchai xandon isi.

G‘uncha atrin xushlamasmen menki, ko‘nglum bog‘ida
Dark etarga o‘rganibmen zanglig‘ paykon isi.

Xoli savdosin dema ko‘nglung nega fosh ayladi

Kim, yoshurg'on birla bo'lmas mushkning pinhon isi.

Muhtasib gar ahli fahm o'lsa, yiqilg'ay mast o'lub,
Ko'p ushatqondaki aylar bodaning tug'yon isi.

Guldin ul gulrux isin topqach Navoiy ochti ko'z,
Uylakim, Ya'qub ko'nglakdin maxi Kan'on isi.

645

Boshni gar yerga qo'ya olmon, boqib mohim sari,
Boshima tufrog' sovurmoqqa boray shohim sari.

Tun aro anjum tutunda uchqun anglar, solsa ko'z
Kimsa, ko'nglum o'tidin bo'lsa ayon, ohim sari.

Men ko'nguldin rashk elturmen, ko'ngul mendin hasad,
Istasa ko'nglumki, qilsam azm dilxohim sari.

Ul quyosh sari borurda soya hamrohimdurur,
Rashkdin boqmon keyin bir qatla hamrohim sari.

Jon labing shavqidin ogah bo'lg'ali aylar Masih,
Jon berur chog'da tavajjuh joni ogohim sari.

Ey ko'ngul, ul husn ganjidin gadolig'dur ishim,
Garchi yo'q parvoysi aning shayalilohim sari.

Husni bog'idur nazargohim, Navoiy, zinhor
Solmag'il gohi nazar bog'i nazargohim sari.

646

Bu sababdin yorumish go'yo Xuroson kishvari
Kim, chiqibdur boxtardin oftobi xovari.

Boxtarg'a tegru xovardin yoritmoq juz quyosh,
Ravshan ermas barcha gar xud bo'lsa mohu Mushtariy.

Qaysi mohu Mushtariy ulkim quyosh bir lam'adur,
Nuridin, vah, buyyla kim ko'rmish saodat axtari.

Ul ne yuzdurkim, yozarda vasfini yuz ming quyosh
Safha gar yetkursa yuz yilda tiganmas daftari.

Husnini aning quyosh tashbihi qilmoq uyladur
Kim, degaylar xo'bliqda devga o'xshar pariy.

Bo'lsa husni yuz quyoshcha, ishqim o'tidin erur,
Bir sharar yuz ming tamug'ning shu'la birla axgari.

Ey Navoiy, sen kebi oshiq magar loyiq ekin,
Har kishikim, dilbaringdek bo'lsa aning dilbari.

647

Istamon ko'nglumni aylarda xayol ul mohni
Kim, taxayyul birla sayr aylar, netar hamrohni.

Ko'nglum istarni tilarmen boring, ey oyu quyosh,
Sizni ko'ngli istamas, ulkim tilar dilxohni.

O'qi zaxmin tan aro ul yuz xayoli yorutur,
Uylakim, Yusuf jamoli ravshan etkay chohni.

Jonu aqlu hushtin kechkil deding, qildim qabul,
Tark eta olmon, netay nazzorai gah-gohni.

G'arqa bo'ldi notavon jismim sirishkim bahrida,
Garchi su necha terang bo'lsa, cho'murmas kohni.

Oshiq ersang ko'r magil, ey shah, gadolarni haqir
Kim, balolig' ishq farq etmas gadoyu shohni.

Ey Navoiy, yor eshigi poklarga qibladur,
Qilmag'il ko'z qonidin og'ishta ul dargohni.

648

Za'fliqdur, dedilar, ul buti mah siymoni,
Jon fidoyu tan anga sadqa, ko'ngul qurboni.

Ulki jonimdurur, ul bo'lsa bu yanglig' ranjur,
Qayda bo'lg'ay meni bedilg'a hayot imkon.

Ko'r nedek hullai gulrang uza yotmis bemor,
Yo erur davrida qatl aylagan elning qoni.

Do'stlar, ollida otimni tuta olmasangiz,
Naqdi jonimni boshig'a evurung pinhon.

Bargi gul uzra degay shahd yopushmish ko'rgan,
Buki tutmishdur uchuq ul labi shakkarxon.

Sadaqa, chunki balolarni rad aylar, yo rab,
Jon anga sadqa qilay manga bag'ishla oni.

Ey Navoiy, yana dam urmakim, ul oy der emish
Kim, kecha uyquga qo'ymas meni it afg'oni.

649

Ne diloromeki, so'rg'ay dardi holimdin gahe,
Ne dil afgoreki, qayg'urg'ay malolimdin gahe.

Sarsari ohimg'a o't tushsin, xusho, mushkin nasim
Kim, berur erdi xabar navras niholimdin gahe.

Ey Xo'tan jayranlari, netkay bu majnun ko'ngluma
Nafxae yetkursangiz mushkin g'azolimdin gahe.

Tiyra nahsiyat durur kulbamda, ani, ey sipehr,
Ravshan etkil axtari farxunda folimdin gahe.

Turfa ko'rgilkim, labi zikrin toparmen jon aro,
Aylasam g'oyib maozalloh xayolimdin gahe.

Telba ko'nglum itti, lekin ul pariyya yod ber,
Ey sabo, devonai bee'tidolimdin gahe.

Fikr etarmen vaslini gohi, vale kirganda hush,
Asru ko'p sharmandamen fikri maholimdin gahe.

Ul quyoshtin mehru, mendin tiyralik, vah, istaram
Yer yorilsa, yerga kirsam imfiolimdin gahe.

Ey Navoiy, zulmi ko'p ersa, pushaymonmen yana,
O'zni ozod istasam ul sho'xi zolimdin gahe.

650

Yoyib orazda mushkin xollarni sunbulung domi,
Ko'ngulning qushlari ul domu su donaning romi.

Chamanda sarvu gul bo'lg'ay, ne sarvu qaysi gul vah-vah,
Qachon bo'lg'ay chamanning sen kebi sarvi gulandomi.

Ne yanglig' subhi vaslidin tutay ummidi ravshanlig',
Sahardin chun erur novmid hajrimning qora shomi.

Dema parvona, de Jibril, agar bir g'am tuni nogah
Kishiga bersa bir sham'i shabiston vasli payg'omi.

Ko'ngul za'fi kam o'lmas furqatingda, vah, o'ngalg'aymu

Marizekim, qilur har dam baliyat zahri oshomi.

Ayog‘img‘a tikan sinjobu xoro xulla, tong ermas
Bu damkim bog‘lamishmen Ka’bai ko‘yining ehromi.

Bu yo‘lda garmro‘larning tong ermas gar choqin yanglig‘,
Jahonpaymolig‘ etsa, yorutub olamni har gomi.

Fano dayri dog‘i zunnor ila buttin uyatlig‘dur,
Riyoyi shayxning afsurda dini botil islomi.

Navoiy fardu behush o‘lg‘anin demang qachondindur,
Hamondinkim, ani mast etti vahdat jomidin Jomiy.

MUSTAZOD

Ne vo'smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,
ne g'amzai jodu,
Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,
xurshid anga ko'zgu.
Qosh yosi bila kirpik o'qin har sari otsang,
imkonni xato yo'q,
Har kimsaki, bo'lg'ay anga bu nav' o'qu yoy,
tuz bo'lg'usi qobu.
Masjid yo'lin asrab necha din ahli yo'luqsa,
rahzanliq etarsen,
Tengri yo'lini asramoq, ey kofiri xudroy
bu nav' bo'lurmum?
Gar istamadi subhi ummidimni yoshurg'ay
mehnat qora shomi,
Har yon sochilib, bas, ne uchun bo'ldi sumansoy
ul turrai hindu.
Hijron tunining tiyrallig'in kavkabi ashkin
daf' aylasa, tong yo'q,
Anjum sipahi ko'prak erur anjumanoroy,
tun bo'lsa qorong'u.
G'am dashtini qat' aylabon ul ko'yg'a yetmon,
ko'rmon ani tush ham.
Kim bo'lsa haram shavqi bila bodiyapaymoy,
ko'zdin o'char uyqu.
Ul sho'x Navoiyni, dedikim, qilayin qatl
bir ko'z uchi birla,
Ey voyki, bir ham anga ko'z solmadi, ey voy,
qatl ushbudur, ushbu.

MUXAMMASLAR

1

Sharbati yuhyl izom erni mayi nobindadur,
Surai «vashshams» tafsiri yuzi bobindadur,
Sharhi mozog‘ulbasar nargislari xobindadur,
Laylatul me’rojning sharhi sochi tobindadur,
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur.

Ul qadi to‘bidin ortuq yuzi rizvondin jamil,
Kim berur jon la’li har kim bo‘lsa ko‘zidin qatil,
La’li rashkidin fig‘on aylab, qilib ashkin sabil,
Ko‘p yugurdi ravzada aynan tusammo salsabil,
Topmadi ul choshnikim, shakkari nobindadur.

Jon berur erdi Xizr suyi xaloyiqqa sarih,
Iso o‘luk turguzur erdi deb alfozi fasih,
La’lidin tokim-takallum qildi ul sho‘xi malih,
Xizrnning ayni yoshunmish ko‘kdin inmas ham Masih,
Netsun ul, mu’jiz bu dam yoquti serobindadur.

Xattidin bo‘ldi xijil sunbul bila mushki tator,
Qomatig‘a sarv ila shamshoddin yuz qatla or,
Farrux ermas orazi navro‘zidek iydu bahor,
Zulfig‘a qadru barot o‘xshar vale yuz farqi bor,
So‘z aning yonindag‘i xurshidu mahtobindadur.

Har gado egnida bo‘lsa eski to‘n yo choki jayb,
Bilmay asli niyat qilmoq g‘alatdur shakku rayb,
Ey Navoiy, chun sanga ma’lum emastur sirri g‘ayb,
Lutfini mayxonada oshufta ko‘rsang, qilma ayb
Kim, bu majnun ixtiyori zulfi qullobindadur.

2

Necha, ey oy, mendin ayru aylagay davron seni,
Bo‘lmag‘ay yillarda ko‘rmak bir nafas imkon seni,
Jon tilar, ko‘nglum uyinda aylagay mehmon seni,
Kel-kel, ey oromi jonimkim, tilaydur jon seni,
Chehra ochkim, ko‘rmak istar diydai giryon seni.

Borg‘ali ul sho‘xkim jonim surog‘in olmadi,
Jism ani istab ne sahrokim qadamni solmadi,
Yo‘qturur bir damki, bu vodiyda bag‘rim tolmadi,
Ey g‘azoli mushkbo‘, kelkim, quyundek qolmadi
Vodie axtarmag‘an, istab bu sargardon seni.

Furqatingdin, ey pariy, ko‘nglum xayoli za’fdin
Forig‘ ermastur zamone qilu qoli za’fdin,
Demakim, nevchun ko‘runmaysen maloli za’fdin,
Sen pariy pinhon uchun men ham kamoli za’fdin,
G‘oyib o‘ldum el ko‘zidin ko‘rgali pinhon seni.

Chiqti ul oy huonig‘a ziynat berib, zevar taqib
Qatl etarga jonne zor aylab, ko‘ngulga o‘t yoqib.
Ani ko‘rgach, ko‘zni daryo qildi qon yoshim oqib
Qon aro gar g‘arqasen, ey ko‘z, ne tongkim, bir boqib,
Zor ko‘nglumni chu qon etting, tutubtur qon seni.

Qani ulkim, sog‘ari vaslingni bersang ilgima,
Hazl etib gohi gulu gah nuql tersang ilgima,
Noumid ermon, nechakim kirmas ersang ilgima,
Garchi mumkin yo‘q, vale bir qatla kirsang ilgima,
Borsa bosh, eldin chiqarmoq o‘zga ne imkon seni.

Garchi dey olmonki netkil, netmagil, ey mug‘bacha,
Hajr ila jonimg‘a har dam yetmagil, ey mug‘bacha,
Rahm etib har dam qoshimdin ketmagil, ey mug‘bacha,
Ko‘z yuzungdin olmasam, ayb etmagil, ey mug‘bacha,
Aylay olmon diydadin g‘oyib meni hayron seni.

Gar meni majnuni shaydo po‘ya qilsam bahru bar,
Yo‘qsa shahru ko‘y aro har yon Yugursam bexabar,
Demagilkim, har eshikka nevchun aylabsen guzar,
Ey pariy, gar telbarab bo‘lmish Navoiy darbadar,
Budurur maqsud angakim, istagay har yon seni.

MUSADDASLAR

1

Jonim o‘rtarga ul o‘tluq chehra gulzori Halil,
Ani ravshan aylagan ko‘kurd o‘ti yonida nil,
Yo rab, ul husnu jamol avjida yuz ming oyu yil
Ne jamolingg‘a zavol o‘lsun, ne husningga badil
Ey jamoling loyazolu bebadal husnung jamil,
Oy yuzungdur ahsani taqvim uchun ravshan dalil.

Turfadurkim, yuz uza ikki labing go‘yo bo‘lur,
Bir quyosh ikki Masihog‘a qachon ma’vo bo‘lur,
Ko‘nglum ichra qoshlaringdin hayratim paydo bo‘lur.
Kim, qachon bu nav’ bir qurbonda ikki yo bo‘lur,
Zulfungiz hayronimenkim, yilda bir yaldo bo‘lur,
Oyda kim ko‘rdi iki yaldo tuni mundoq tavil?

Ul og‘iz paydo emastur nuktae aytilmayin,
Bil dog‘i zohir emas borikbinliq qilmayin.
Ul ayon ermas adam sari nazar ochilmayin,
Bu yaqin bo‘lmas, vujud asbobidin ayrilmayin,
Og‘zingu belingning asrorin kamohi bilmayin,
Mushkofu xurdabinlar ichra tushti qolu qil.

Ko‘zlarining bodomi hajridin bo‘lub jismim saqim,
Chiqti jonim, ey qora ko‘z, baski hajring berdi bim,
Bu vasiyyat qilmishamkim, mushfiq yoru nadim
Na’shma ul ko‘y tufrog‘ini qilg‘aylar harim,
Chun qora bodom tobut uzra rasmidur qadim,
Ko‘z janozam sari solkim, sensizin bo‘ldum qatil.

Borakalloh, ey sabo, ahlan va sahlan marhabo
Kim, xabar ko‘p berding ul gulchehradin qilmay ibo,
Vaslig‘a chun yettimu ochti jamol ul dirlabo,
Uzlukum bordi fano yeliga andoqkim habo,
Ishq mahv etti meni, sen chiq arodin, ey sabo,
Lima Ollohning maqomida ne hojat Jabrail.

Nechakim sursun Masih anfosi jonparvar kalom,
Yoki jannat vasfida Idris qilsun ehtimom,
Charx bog‘i birla jannat gulshanin qilman maqom
Kim, manga holo banaqd, ey zodi sarvi xushxirom,
Sunbulungdur uqtai ra’su yuzung mohi tamom,
Orazing firdavs, qad to‘biyu la’ling salsabil.

Ul pariyning chun erur qon to‘kkali mohir ko‘zi,
Ul sababdin har nafas yuz qatl etar zohir ko‘zi,

Ey Navoiy, sehr birla chun bo'lur nozir ko'zi,
Har nazarda o'lturur men xastani sohir ko'zi,
Jon berur Lutfiyu qilmas bir nazar kofir ko'zi,
Tole'img'a, ohkim, usruk ekach bo'ldi baxil.

2

Ishq zor etti xaloyiq ibtilosidin meni,
Har zamon bir ta'nagir muhlik adosidin meni,
Hajr xud kuydurdı dardi bedavosidin meni,
Ham o'lum qilg'ay xalos aning jafosidin meni,
Ey ajal, ozod qil hijron balosidin meni,
Bir yo'li qutqar ulusning mojarosidin meni.

Ishq bog'i holatin so'r oshiqi ogohdin
Kim, qazosinda tafovut yo'q gadog'a shohdin,
Ham suyi paykon yuraklar ichra qozg'on chohdin,
Ham havosi o'tluq ohi nolai jonkohdin,
Za'fim oshti hajr bog'ida sirishku ohdin,
Qutqar, ey vasl, ul chaman obu havosidin meni.

Necha hijron o'tig'a onsiz meni kuydurgasen,
Jonima har lahza furqat shu'lasin yetkurgasen,
Notavon ko'nglumga har dam yuz balo kelturgasen,
Zor jismimni ajal vodiysi sari surgasen,
Ey ajal, qo'rquyma o'lturgum debon, o'lturgasen,
Gar tirik topsang firoqining jafosidin meni.

Kofiri ishq o'lmisham, ishqingga imonim fido,
Bo'lsa yuz imon sanga, ey nomusulmonim, fido,
Ishq aro rashk ayladi bu jismi vayronim fido,
Hajr xud qildi nekim bedodu pinhonim fido,
Ishqu rashku hajri muhlik, vah, anga jonim fido
Kim, chiqarg'ay bu balolarning arosidin meni.

Muddaiy kim har zamon aylar jafo bunyodu zulm,
Sabru hushumni berur andoq jafo barbodu zulm,
Jon bila ko'nglumni aylar ul jafo noshodu zulm,
Garchi tab'ig'a aning bo'lmish jafo mu'todu zulm,
Har necha o'tkarsa haddin muddai bedodu zulm,
O'tkara olmas visoling muddaosidin meni.

Dardi hijron qasdi jonim ayladi bil, soqiyo,
Hajrdin jonimg'adur har lahza yuz yil, soqiyo,
Uyla dard ichra erur xud sabr mushkil, soqiyo,
Ushbu dardimg'a davo jome karam qil, soqiyo,
Derki, sabr etkil hakimi aql, qilg'il, soqiyo,
Bir qadah birla xalos aning davosidin meni.

Chun Navoiy jonini may orzusi kuydurur,
Yo‘q gadoliqqa ajab mayxonalarda gar yurur,
Jur’ai dayr ahli berguncha zamone telmurur,
Shoh agar mundoq gadoni sultanatqa yetkurur,
Ey Husayniy, sultanatdin oncha faxrim yo‘qturur
Kim, degaylar ko‘yining xayli gadosidin meni.

TARJI'BAND

I

Ey kirpiki neshu ko‘zi xunxor,
Jonimni necha qilursen afgor.

La’ling g‘amidin ko‘ngulda erdi,
Har qonki sirishkim etti izhor.

Hayhotki, hajring ilgidindur
Jonimda alam, tanimda ozor.

Yuzungni ko‘rub meni ramida,
Ishq o‘tig‘a bo‘lgali giriftor.

Sen erding majlisim harifi
Kim, yedi hasad sipehri g‘addor.

Yuz hasrat ila meni ayirdi
Vaslingdin, ayo, xujasta diydor.

Emdiki firoq aro tushubmen,
Topquncha yana harif, yo yor.

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko‘ngulga munis.

II

Jonimg‘a qilur esang jafoni,
Gah-goh aroda ko‘r xudoni.

Darding bila uyla shodmenkim,
O‘lsam dog‘i istamon davoni.

Sendin der edimki chora bo‘lg‘ay,
Hajr etsa hazin bu mubtaloni.

Har lutfki, men tutar edim ko‘z,
Yuz voyki, senda ko‘rmon oni.

Vasling bila dedim aylayin shod,
Bu shiftai joni benavoni.

Qasdimg‘a vale chekibdurur xalq
Yuz xanjaru novaki jafoni.

Men dog‘i qachon zarurat o‘lsa,
Bir go‘shada o‘lturub nihoni,

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko‘ngulga munis.

III

Gah-goh itim deb aylagil yod
Devona qulungni, ey pariyzod.

Bir lahzada buzdi sayli ashkim
Har tarhki sabr qildi bunyod.

Har ruq’aki yozdi sabr ila hush,
Sovug‘ nafasimdin bo‘ldi barbod.

Ko‘p istama ko‘nglum iztirobin,
Qush talpinurin nechukki sayyod.

Sen garchi g‘amimdin etmading fikr
Yo telbaligimni qilmading yod.

Sultonsenu yo‘qturur sanga hukm,
Lekin meni dardmandi noshod.

Bu g‘ussag‘a topmasam chu tadbir,
Har lahza chekib fig‘onu faryod.

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko‘ngulga munis.

IV

Bilmonki, yuzung pariydek, ey jon,
Nevchun yana ko‘zdin o‘ldi pinhon.

To bo‘ldi yuzung nihon ko‘zumdin,
Ashk o‘rnig‘a tinmayin oqar qon.

Lutfung bila bir kun etmading yod,
To tushti manga baloi hijron.

Vah, qani burung‘i mehru payvand,
Go‘yo unutuldi ahdu paymon.

Baxtim kebi dushman o‘ldung oxir,
Bu dardg‘a yuz nafiru afg‘on.

Sendin manga chun g‘araz sen-o‘q sen,
Bas bo‘ldi firoqu vasl yakson.

Tahqiq chu angladimki, emdi
Vaslingg‘a yetarga yo‘qtur imkon.

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko‘ngulga munis.

V

Jismingki emas hayotdin kam,
Ne jismiki, ruh erur mujassam.

Bir-bir sog‘inib labing hadisin,
Qon yig‘lar iki ko‘zum damo-dam.

G‘amgin tilasang meni qutilmay,
G‘amdin tilasam o‘zumni xurram.

To bo‘ldi bu zori xasta mahrum
Vaslingdinu g‘amg‘a bo‘ldi mahram.

Chekti ko‘ngul andoq o‘tlug‘ ohe
Kim, kuydi sharori birla olam.

Bu nav’ sharoralig‘ o‘tumning
Taskini uchun meni hazin ham.

Ranjingni tilay tanimg‘a rohat,
Nishingni deyin yaramg‘a marham.

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko‘ngulga munis.

VI

Ul durji aqiqu la’li serob,
Juz’imdin oqizdilar duri nob.

To jomi muhabbatning tortib
Ko‘nglumga yetishti ishqdin tob.

Ham do‘stlar o‘ldi manga dushman,
Ham tarki muhabbat etti ahbob.

Sendin ajab erdi bori, ey do‘st,

Dushmanlar uchun tuzatmak asbob.

Mahrum qulungni mahram etsa
Vasling haramig'a hayi vahhob,

Ko'yungni qilay o'zumga qibla,
Qoshingni etay ko'zumga mehrob.

Yoxud yetibon xumori hijron,
Vasling mayi bo'ldi ersa noyob,

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko'ngulga munis.

VII

Ey kishvari husn uzra hokim,
Xo'blar bori hazratingda xodim.

Buzdung bu ko'ngulni lojaram mulk —
Vayron bo'lur, o'lsa shoh zolim.

Hijron meni chunki o'lturur zor,
Sen ham madad etmaging ne lozim.

Har nechaki beinoyat o'lub,
Qilding meni begunoh mujrim.

Ummid budurki, yona tengri
Qilsa meni maqdamingga azim.

Iqbol kebi turub qoshingda,
Bo'lsam yana xidmatingg'a jozim.

Vaslingda g'azal tafakkur aylab,
Unutg'amen ushbu baytnikim.

Yodingni qilay harifi majlis,
Fikringni etay ko'ngulga munis.

QASIDA

Chun nihon qildi turunji mehr raxshon tal'atin,
Oshkor etti falak bir tavqi g'abg'ab hay'atin.

Bas xayoli ravshani erdi vale andoq daqiq
Kim, nazargoh anglar erdi gah yo'q aning diqqatin.

Uyla zohir bo'ldikim, qilg'ay ani ko'rgan kishi
Dilbarim qoshig'ayu mening qadimg'a nisbatin.

Yo xurusi charx qildi oshkoro shahparin,
Yoki Bahrom ayladi zohir qilichi hiddatin.

Yo tushub qoldi alam ustidagi raxshanda na'l,
Chun nigunsor ayladi xurshidi raxshon ra'iyatin.

Yo Utorud kilkida zarhal tugandi, ko'kta chun
Yozdi ayni iydning avvalg'i juzviy suvratin.

Yo falak qaddin xam aylab, kelturub bir halqa yoy,
Ixtiyor aplaydurur Doroyi a'zam xidmatin.

Bu ajoyibdinki yetti rahbaning avvalg'isi,
Zohir etti, soldi tug'yong'a ko'ngulning hayratin.

Moyil o'ldi ko'k tamoshosig'a hissi bosira,
Topti chun har lahza bir a'juba paykar ru'yatin.

Bor edi ikkinchi maskanning muqime nodire,
Ko'p bilik ahli durust etkan anga o'z hirfatin.

Su kebi har zarf aro tutqan ham aning rangini,
O'z dimog'ig'a solib g'arro qasida fikratin.

Aylamakka tahniyat arzini bayram jashnida,
Shah vujudi chun musharraf qilsa taxti shavkatin.

Jilvagar uchinchi gulshan ichra ra'no shohide,
Butratib bo'lmoqqa aql oshufta zulfi nakhatin.

Soz etib changu tuzub ul unga ruhafzo surud
Kim, malak ko'ngliga solib aysh ila may rag'batin,

Cholibon naqshu amal bog'lab Navoiy she'rig'a,
Iyd jashni xush tutarg'a shoh bazmi ishratin.

Yo'q edi to'rtunchi manzilning shabistonida sham',

Borib erdi yoruturg‘a shah harimi xilvatin.

Ne uchunikim ro‘za yubsidin dimog‘ aylarga ratb
Aylabon mayli sabuhiy, tuzsa bazmi himmatin.

Har taraf sham‘i muanbar dudi nogah qilmag‘ay
Tiyra ham nozuk dimog‘in, ham eramvash suhbatin.

Hukmron beshinch toram avjida bir qahramon,
Tig‘i qahridin tomib qon, sursa kinu vahshatin.

Xud ila javshan kiyibu bog‘labon tig‘u kamar,
Rustam oyin soz etib parxosh hayjo olatin.

Kim, sahargah chun qaboq maydonig‘a otlansa shoh,
Ollida qilg‘ay yasovulluqqa zohir jur’atin.

O‘lturub oltinchi manzar uzra bir farxunda zot
Kim, vujudi aylabon zohir maloyik ismatin.

Ruh anglab jabhasidin nuri taqvo lam’asin,
Aql topib zotidin ilmu saodat savlatin.

Aylabon inshoki minbar uzra tangla xutbada,
Zohir etkay shoh otidin so‘ng duoyu midhatin.

Mustiqan yettinchi dayr ichra muammar hindue,
Rangu sayri ko‘rguzub ushshoq shomi furqatin.

Sabrdek kohil xiromu hajr yanglig‘ tiyraro‘y,
Kimsa bilmay junbushu oromi tuli muddatin.

Shohdin bayram sharaf topqonni anglab, gum qilib
Obi hayvondek adam sari nuhusat zulmatin.

Sekkizinch sohat uzra yuz tuman siymin badan
Zohir aylab sabza uzra jola yoqqon hay’atin.

Yo‘qli gardun, lojuvardi atlasin yopib qazo,
Gavharu dur birla soz aylab sarosar ziynatin.

Yopqali shahning falakvash taxtig‘a bayram kuni
Chun yopar jinsi bashar xaylig‘a xoni ra’fatin.

To‘qquzunchi borgah andoqli lu’bat chodari,
O‘ynatib charxi muloib anda yuz ming lu’batin.

Kim chu shah bayram nashoti qilg‘ali tuzganda jashn,

Har o'yunchi zohir etkan chog'da la'bu san'atin.

Shohning in'omu ehsonidin o'lg'ay bahravar,
Ko'rguzub o'z fannida ul ham kamoli diqqatin.

Bu taajjubluq safardin chun taaqql qildi ud,
Sayr aro qilg'an kebi zohir Utorud raj'atin.

Chun Utorud charxig'a yettim, tabiat qildi mayl,
Ko'rgali nazminki zohir qildi tab'i javdatin.

Ul xud etkan ermish ushbu she'rima fikri javob,
Matla'i bu erdi, ko'rdum chunki nazmi riqqatin:

«Ey, sening qoshing qilib zohir yangi oy xijlatin,
V-ey, yuzung sharmanda aylab iydi akbar tal'atin»

Chun bu matla'ni eshittim, rashk tug'yon ayladi,
Fosh qilmoq istadim ollida tab'im quvvatin.

Shoh madhida bu matla'ni raqam qildim ravon
Kim, qulqutti Utorud zohir aylab hayratin.

«K-ey qoshingning rashki aylab xam yangi oy qomatin,
Iydi ruxsoring qilib nobud bayram ziynatin».

Chun Utorudni xijil qildim nishotu zavq ila,
Uyga kirdim, ko'rdim anda sarxush ul jon ofatin.

Kelgan ermish mahvashim bayram hilolin ko'rgach-o'q,
Zoyil aylarga ko'nguldin savmu taqvo mehnatin.

Ham hayoda ko'rguzub aqli mujarrad paykarin,
Ham safoda anglatib ruhi mujassam suvratin.

Lafzi zohir aylabon har lahza ruhulloh damin,
Nutqi aylab har dam ifsho ruhi qudsi holatin.

Ham uzori sindurub xurshidi raxshon ravnaqin
Ham dudog'i past etib la'li Badaxshon qiymatin.

Chun meni ko'rdiki, kirdim muztarib, qildi savol:
Kim ne hol o'l mish sanga, sharh et aning kayfiyatini?

Yuz tafoxur birla arz ettim Utorud holini
Kim, bu matla' birla sindurdum shukuhu shavkatini.

Aningu o'z matla'imni chun o'qudum ollida,

Tab'idin aylab tama' ko'nglumda tahsin g'oyatin.

Kuldiyu ollinda bor erdi qalam birla davot,
Yozdi bu matla'ni bir soatqa bermay muhlatin:

«K-ey, yuzung zohir qilib bayram sabohi safvatin,
Anda qoshing aylabon paydo yangi oy hay'atin».

Men bo'lub beholu masru' uylakim ko'rgay hilol,
Obi hayvondek ko'rub jonbaxsh lafzi liynatin.

Hayratimdin shoh bazmig'a o'zumni yetkurub,
Sharh etib bu so'zni hayratqa solurg'a hazratin.

Ham Utorud, ham o'zum, ham ul parivash nazmini
Bir-bir aylab sharhu aytib har birining riqqatin.

Aylabon da'voki, mumkin yo'q yana matla' demak,
Shah kulub, zohir qilib bu fang'a tab'i ulfatin.

Filbadiha deb bu matla'ni o'qub yuz ofarin,
Xusravu Salmonu Jomiy ruhi anglab nadratin.

«K-ey, hiloling mayli aylab toq ko'nglum toqatin,
Jon berib, yod aylagach iydi visoling jannatin».

Shoh chun qildi bu matla'ni ado, mulku malak
Chekti un, deb ofarin birla duoyi davlatin.

Qaysi shoh ulkim, azaldin haqqa ul ermish murod,
Xalq qilmoqqa salotin gavharining xilqatin.

Shoh Abulg'oziy saodat axtari Sulton Husayn
Kim, quyoshni zarra der ko'rgan sipehri hashmatin,

Shohlar shohi demay, ul shohlarning shohikim,
Har biri yuz shohlar shohicha tutqay muknatin.

Shohlig'da g'oyati darveshlig'din ko'rmayin,
Bo'ryoyi faqrcha zarkash sariri rif'atin.

Shohlar darveshiyu darveshlar shohiki, haq
Shoh qildi suvratin, darvesh qildi siyratin.

Ey janobing past etib garduni volo poyasin,
V-ey, zamiring sindurub firdavsi a'lo nuzhatin.

Tig'inga qozib qazo «inno fatahno» surasin,

Tug‘unga yozib qadar «nasrun minalloh» oyati.

Jannati lutfung nasimi essa, ruhullah dami
Nisbatida ko‘rguzub do‘zax duxoni xirqatin.

Do‘zaxi qahringdin ayrilsa havog‘a bir sharar,
Aylab anfosi Masiho barqi ofat xislatin.

Zoting ichrakim erur har yaxshilig‘ning jomi’e
Hayi qodir zohir aylab o‘z kamoli qudratin.

Royer ichrakim kelibdur har yorug‘lug‘ manba’i,
Fardi vohid bohir aylab o‘z jamoli rahmatin.

Chun saxovat ilgi ochsang, dahr chekmas zarrae
Zarfishonlig‘da quyosh sarpanjasining minnatin.

Chun ziyofat xoni yoysang, janbida topmas sipehr,
Jashni lu’bat Hotamu Barmak bisoti ne’matin.

Tab’ing ollinda sahob andoq hayodin terlabon
Kim, hamul sudin yub o‘zdin durfishonlig‘ tuhmatin.

Hilming ollinda jibol andoq o‘zin topib xafif
Kim, tahattukda begonmay barqi Xotif sur’atin.

Ish kunikim ko‘k temur birla takovar gardidin
Yer falak rangin tutub, kiygay falak yer kisvatin.

Yer bila ko‘kni sovurmog‘ birla ofat sarsari,
Zohir etkay olam ahlig‘a qiyomat shiddatin.

Charxi zolim kiynavarlar tig‘in aylab vosita,
Qatli om oyinida tutqay g‘animat fursatin.

Tig‘lar po‘lodidin pargolalarmi tosi charx
Jam’ qilg‘ay, muzdek ezmakka ajalning sharbatin.

Har qizil volo yalov bo‘lg‘ay sarig‘, baskim qilich
Boshqa kelgan chog‘da, zoyil qilg‘ay aning humratin.

Shaxs jismi loyi nafy o‘lg‘ay baqosi shonida,
Xasmi topqoch xasm ilgidin balorak zarbatin.

Dulug‘odin tig‘kim o‘t sekretib, rangin qilib,
Shu’lasi Bahrom vajhin, dudi Kayvon jabhatin.

Charx mir’otida aksidin shafaq qilg‘ay zuhur,

Baski qondin la'lgun qilg‘ay qazo yer sohatin.

Ul zamon har sari yuzlansa humoyun mavkabing,
Solib ofoq ichra rustoxez shaynu hinjatin.

Tushsa har yon tig‘ing, olg‘ay benihoyat xalqning
Jismidin bosh zahmatin, boshtin tamanno zahmatin.

Razm maydonida tig‘ing chiqsa hindin bir nafas,
Kimsa taxmin aylay olmay xasm jismi kasratin.

Har biriga yuz tuman yotqon o‘luk bo‘lg‘ay nasib,
Yuz tuman ming mo‘rnung gardun ayirsa qismatin

Lahza-lahza royati mansurung o‘lg‘ay jilvagar,
Esturub haq fath bog‘idin nasimi nusratin.

Razm aro har shohning mulkinki olib bazm aro,
Bir gadog‘a jud etib ani, ko‘rub chun zillatin.

Xusravo, zotingni vasf etmak Navoiy haddi yo‘q,
Avlo ulkim, zohir etkay benavolar odatin.

Toki bayram shomi savm ahli talab qilg‘ay hilol,
Ro‘za niyat aylamay qilmaq may ichmak niyatin.

Har kunung bayram bo‘lub, joming hilol o‘lsun mudom,
Ko‘rmagil beaysh umrung muddati bir soatin.

Lek umrung tuli yuz navbat Zuhal davronicha,
Farz eta olsa xirad ming yil aning har navbatin.

Yangi oyu iyd ikki qullug‘ching o‘lsun, aylagan
Sen hilol aning otin, bayram bu yerning kunyatin.

QIT'ALAR

1

BADOYE' UL-VASAT MUQATTAOTINING SARSUHANLARI TYeNGRINING XAZONAI KARAMIN MAMLU BILIB ELDIN TAMA' QILG'AN DARYeBORIDA XO'Y SUYIDIN DUR TILAGAN BO'LG'AY

Haq taolo maxzanim anglabki xoli bo‘lmamish,
Xalqdin har kimki jam’iyatqa asbob istagay.

Mehr olamni munavvar aylabon ul kulbasin
Yoriturg‘a tiyra tundin garm shabtob istagay.

2

NABI ShAR'IDIN AYoQ ChIQARG‘AN KAJRAV VA QO‘ZI ZULMAT BODIYaSIDA HIDOYaT ShAM'IDIN BYePARTAVDUR

Bu yo‘lda kimki nabi shar’idin chiqardi qadam,
Yo‘l ozdi chunki mute’ o‘ldi aqli johilig‘a.

Tavakkul ahliki chiqmas safarda jodadin,
Yaqindururki, yetar gom birla manznlig‘a.

3

HADIS MAZMUNIKIM ALQOSIB XABIBULLOH HAZRAT XOJAI NAQShBAND QADDASA SIRRAHU MUNDOQ BAYoN QILIBDURKIM:

Nukta asnosida Habibulloh
Dedi, alkosibu habibulloh.

Ma’ni aytur bu so‘zga piri komil
Ki, so‘zi erdi haq sari shomil.

G‘araz ermas bu kasbdin dunyo,
Bal erur kasbdin murod fano.

4

HADIS TARJIMASI SAHIYNING O‘TDIN NAJOTI BOVUJUDI UBUDIYaT VA BAXILNING JANNATDIN HIRMONI BOVUJUDI SIYoDAT

Kirmagay jannat ichra hech baxil,
Garchi ul bo‘lsa sayyidi Qurashiy.

Bormag‘ay do‘zax ichra hech sahiy
Filmasal bo‘lsa bandai habashiy.

**AMIRUL MO‘MININ ALI KARRAMALLOHU VAJHAHU SO‘ZIGA TARJIMAKIM —
UNZUR LIMOQOLA LOTANZUR LIMANQOLA**

Chun g‘araz so‘zdin erur ma’ni anga,
Noqil o‘lsa xoh xotun, xoh er.

So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim ne der.

**TUZLUK TA‘RIFIDAKIM, ShIOR KILG‘ANG‘A SA‘B IShLAR OSONDUR VA KULLI
UMUR SUHULAT BILA YaKSON**

Tuzlukka moyil o‘lki, ishing borg‘ay ilgari,
Yuz mushkil o‘lsa yo‘qsa ming ollingda har zabon.

Yuz safha bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo‘yni bir aso bila har yon surar shubon.

**HUSNNING ZOTI ISTIG‘NOSI ShARHIDAKIM, TO ShAMMAYe ANDIN BOQIYDUR, IShQ
AHLIG‘A AJZ VA ZABUNLIQ MULOQIYDUR**

Tah-tah yuragim qon edi bir-bir sitamidin,
Ko‘p-ko‘p keluri chog‘ida kelsa edi oz-oz.

Kech-kech keluri vaqtida ham rozi o‘libmen
Bot-bot keluriga qiladur anda dog‘i noz.

**FANO AHLINI O‘Z VAQTINING PODShOHI DYeBTUR, BALKI VAQT PODShOHINI
ANING GADOYI**

Gadolig‘ yaxshiroq ahli fanodin
Ki, olam ichra qilsang podsholig‘.

Jahon ahlig‘a, ko‘rkim, shah ne aylar,
Jahon tarkini qilg‘andin gadolig‘.

Tirik chu oxir o‘lar, bas, ukush g‘am muhlik,
Chekib ajal madadig‘a bu iztirob nedur.

Chu har kishiki tug‘ar, o‘lmayin yo‘q imkoni,
Ne ishki bo‘lmayin imkoni yo‘q, shitob nedur.

10

Ajal chun muqarrardur o‘lmak uchun, bas tama’din
Nedur yuz g‘am o‘tig‘a kuydurmak o‘zni,

Chu tug‘moqdur o‘lmak uchun, bas ne ya’ni
O‘lardin burun har dam o‘lturmak o‘zni.

HUKAMO QAVLINING TARJIMASI

Uch kishidin uch ish yomon ko‘rinur,
Sanga arz aylay ahli dunyodin:

Shohdin tundlug‘, g‘anidin buxli,
Molg‘a maylu, hirs donodin.

12

O‘G‘ULG‘A ANO HAQQI ATODIN KO‘PROQ EKAN BOBDA ANDAKI, DURG‘A DARYO TARBIYATI BULUTDIN ORTUG‘ROQDUR

Ano o‘rnin ato tutmas o‘g‘ulg‘a
Ki, mumkindur o‘g‘ul bo‘lmoq atosiz.

Masiho birla Mar’yamdin qiyos et
Ki, imkon yo‘qturur bo‘lmoq anosiz.

13

GULShANDA BIR SARVI GULANDOMDIN AYRU BAHRAMAND BO‘LSA BO‘LUR KOMDIN DYEBTUR, BALKI NOKOMDIN DYEBTUR

Gulshan aro gul xadde agar yo‘q,
Gul, bas, kishining tarab fizoyi.

Gar lolarux xitoyi anda
Topilmasa, lolayu xitoyi.

14

YaXShI XOTUNLAR SAFOYI RO‘ZGORI QUYoSh NURIG‘A MISOLDUR VA ShAMSNING MUANNAS EKANI MUNGA DOL

Yaxshi xotunlar safoyi zuhdidin
Olam ichra gar yorug‘luq bo‘lsa fosh,

Yo‘q ajab, chunkim arab alfozida
Istiloh ichra muannasdur quyosh.

15

**O‘Z MANZURINING KAJ NAZAR TAVOBI’IDIN BADHOL VA BYeBASAR LAVOHIQIDIN
XOTIRIDA MALOL IZHORINI QILUR**

Bizing g‘azolai mushkin tavobi’in ko‘rkim,
Qadim nigundurur ul xayl mehnati yukidin.

Agarchi itcha emasturlar odamiylig‘da,
Bu turfadurki, qalinrog‘dururlar it tukidin.

16

**SABZAI XATNING AVVAL ChYeKINU ULG‘AYA QIYoG‘ EKANI VA AVVAL
ChYeKILURIN VA SO‘NGRA KIYoDIN DYeGANI**

Chekilur erdi sabzai xatti,
Ko‘nglum ichraki dedim ani chekin,

Bu chekin ko‘yi emdi bo‘ldi qiyog‘
Ki, ko‘ngulni qiyar qiyog‘ bikin.

17

**SALOMAT AHLINING MALAKVASHLIQQA MAYLI VA O‘ZIDYeK MALOMATIYLARNI
ShAYTON XAYLI DYeBTUR**

Malak atbo’idururlar ul xayl
Kim, alar keldi salomat ahli.

Menu shaytong‘a tatbig‘kim, erur
Mendek ul dog‘i malomat ahli.

18

**ARZI HOLINI HIMMATI ChARX PAYVANDLARG‘A DYeMAK VA SAVOLNI ZAMIRI
XURShID MONANDLARDIN QILMOQ MUNOSIB DYeBTUR**

Biyik himmatlik elga arzi hol et,
Zamiri nurposh eldin savol et.

Ki bor abri bahore gavharafshon,
Choqin ham olam ahlig‘a zarafrshon.

19

MUTASAYIDI NOPOK, NODON, FOSIQ BOBIDA

Seni sayidi pok, donoyi zohid
Dedim, ey ulusqa so‘zung fitna solg‘on.

Ajab kimsasenkim, ham avvalg‘i misro’,
Sening davlatingdin dedim to‘rt yolg‘on.

20

BOBOBYeK O‘G‘LI FAVTINI ADO QILIBTUR VA UL O‘G‘IL BOBOSINI DUO

Agar Bobobek o‘g‘li ayladi naql,
Haq etsun ravzani ma’vosi aning.

O‘g‘il gar bordi tengri rahmatig‘a,
Yashasun qarilar bobosi aning.

21

MAXFIY ROZNI HUQQA IChINDAGI MUSHK ISI DYeBTURKIM, HUQQA OChILSA, UL ISINI NYe YIG‘ISHURSA BO‘LUR, NYe YoShURSA

Rozni asra, chunki fosh etting,
Yana pinhon bo‘urni qilma havas.

Ko‘nglung ichra nafas kebidur roz,
Qaytmas, kimsadin chu chiqti nafas.

22

MAZLUM OHI BARQIDIN XABAR BYeRURKIM, YaShM BILA DAF’ BO‘LMAS BALKI LUTF SUYI BILA O‘ChURMAGUNCHA DAF’ BO‘LMAS

Eyki, istarsen choqin daf’ig‘a yashm,
O‘zga tekmakka berib imkong‘a yo‘l,

Bexabar mazlum ohi barqidin
Kim, choqindin dog‘i so‘zonroqdur ul.

Turfaroq bukim, sanga maxsus erur,
Gar sanga joning kerak, ogoh bo‘l.

23

DONO NUKTASINI NODON EShITMASA, QOYILG‘A NYe ZIYoN, GAVHARYeKI BU SOChAR, UL TYeRMASA, MUNGA NYe NUQSON

Biravkim xiradmandning nuktasin
Qulog‘ig‘a olmas, ne nuqson munga.

Javohirni termak anga sa’b esa,
Erur sochmamag‘lig‘ xud oson munga.

24

**ShOHI G‘OZIYNING KARAMI DARYoSIN VA RAVShAN ZAMIRI XURShIDI
OLAMOROSIN DYeBTURKI, UL YeL BILA LOY VA BU GARD BILA TIYRA BO‘LMAS**

Shohi G‘oziy erur karam tengizi,
Poku sofiy zamiru ravshan roy.

Harza ko‘p so‘zdin o‘lmasa tiyra,
Bahr yel kasratidin o‘lmas loy.

25

**NODONNING HARZASIN ANKAR UL-ASVOT DYeBTUR VA MUNING DALIR AYTURIN
NING SAVTIDA ANGA ADAMI ILTIFOT**

Agar nodon mahalsiz harzakim aytur, dalir aytur,
Qulooqqa yoqmasa, man‘ig‘a tanbih aylamak bo‘lmas.

Eshak savti kalomulloda keldi ankar ul-asvot,
Aning savtig‘a taqribu tahoshi istamak bo‘lmas.

26

**RAZILI BYeHAVSALA MUKNAT KO‘RSA, O‘ZIN AZIZ TUTMOQ NYe G‘ARIB VA JOH
MAYI NASH’ASIDIN O‘ZIN UNUTMOQ NYe AJIB**

Chu razl havsalasizdur, ne tong, agar nogah
Yetishsa muknat anga, arjumand tutqay o‘zin.

Chu sukr boisi nisyon erur ajab ermas
Ki, joh ani chu mast aylagay, unutg‘ay o‘zin.

27

**MAYDIN TAVBA QILG‘ANG‘A NIQUHISH VA BANGGA BOSh INDURGANGA
SARZANISH**

Sovuqda qochibon o‘t shu’lasidin,
Tezak dudi sari qilmoqdur ohang.

Kishi zuhd ichra maydin tavba aylab,
Nashot andin xayol aylab yemak bang.

28

**ShOHI G‘OZIY BILA NAVVOBINI ANBIY Yo SARAFROZI BILA ASHOBIG‘A TAShBIH
QILIBDUR**

Bizing shoh ul sifatkim bori shahlardin erur mumtoz
Erur noyiblari ham buyla ya’ni davlat arbobi.

O‘zi shahlar aro xayli nubuvatda Muhammaddek,
Va lekin beklar aning ollida payg‘ambar ashobi.

29

**POKDOMAN ZUAFOKIM ETAKLARIDIN YuRUNNI ERANLAR SAJJODASI
MYeHROBIG‘A TIROZ QILSA SAZODUR VA UL MYeHROBDA NAMOZ QILSA,
RAVODUR**

Pokdoman zuafodin neki zoyanda bo‘lur,
Ruhparvarduru jonbaxsh zihn xilqati pok.

Ko‘rki, Mar’yamg‘a o‘g‘il Isoi ruhulloh erur
Ursa bu holg‘a nopol ulus ta’n ne bok.

30

**ERNI XURUS DYeBTUR VA KULAH GO‘ShASIN ANING TOJI, NOMARDNI MOKIY oN
DYeBTUR YeMAKTA NAJOSAT MUHTOJI**

Er urub la’l toj ila gulbong,
Zangvash el qaysi harzakim demagay,

Vaqtida tortibon xurus nido,
Ne najosatki mokiyon yemagay.

31

**O‘ZIN FISQ IChINDAGI QORI KOFIR DYeBTUR VA ANI TARJIH HAM QILIBDURKIM,
O‘ZIDA BU HOL NIHON VA ANDA OShKOR ERKANIN BILIBTUR**

Ey Navoiy, bir qori kofirni ko‘rsang ishq aro,
Ko‘rma aning holatin o‘z holingdin ko‘p yiroq.

Senda bu holat nihoniy keldi, anda oshkor,
Lekin ul yakranglik bobida sendin yaxshiroq.

**ShAHNING ADOLATI OLAMNI QUYoShDYeK RAVShAN QILURIDA VA ZULMDIN
TIYRALIK YoYILURIDA AYTIBDUR**

Quyoshdek shahadolat pesha qilsa,
Jahon mulkini bir damda yorutg‘ay.

Agar zulm etsa aqshom zulmatidek,
Hamul dam tiyralik olamni tutg‘ay.

**XO‘BKIM ShAMOYILIDA ONSIZ BO‘LG‘AY, ANI SURATQA TASHBIH QILIBDURKI,
JONSIZ BO‘LG‘AY**

Xo‘bkim, yo‘qtur shamoyil birla shirin so‘z anga,
Saydi bo‘lmas el, nechakim bo‘lsa zebo suvrati.

Xil’atin zarbaft debodin gar etsun bil yaqin
Kim, namudor ichradur zarbaft debo suvrati.

**MUTOYaBA RUXSAT BYeRGAN NAVKAR BOBIDAKIM, YaNA IXTILOTI
BYeHAMiYATLIG‘DUR VA BYeHIMMATLIG‘**

Chu navkarga berding ijozat, yana
Kelib, qilsa xidmatqa qo‘ldoshliq,

Bil andoqli, juftunga bersang taloq,
Yana istagay qilmoq o‘ynoshliq.

**MANZURNING HUSNI BAHORI OLU GULIDIN SAPIDA QILIB, ShAFTOLU GULIDIN
GULGUNA QILG‘ONI**

Ul bahori husnning ruxsorini dehqoni sun'
Arg‘uvoni to‘n uza aylabdurur olu guli.

Turfa ko‘rkim, bir chamandur orazikim, davrida
Ochilur olu guli, o‘rtada shaftolu guli.

Husnu ra’noliq bila dastori uzra sonchibon,
Vahki, shaftolu gulidur yo erur solu guli.

Barcha bir saridur, ulkim aylabon qaddimni xam,
Ashkim etti la’l, erur daklay uza dolu guli.

36

**TIYRALAR TAQADDUMIN AHLI SAFOG‘AKIM BULUT BILA QUYoShDIN ZOHIRDUR,
DALIL KO‘RGAZMAQ**

Gar tiyralar taqaddumi ahli safog‘a bor,
Bu nuktani muomaladin ko‘rma tashqari.

Davron aroki ko‘rayi so‘zu gudoz erur,
Shu’la erur hamisha quyi, dud yuqqori.

37

**ShAH LUTFI OM BO‘LSA HAM, BARChAG‘A TYeNG TARBIYaT BO‘LMASQA JIHAT
AYTUR VA XURShIDDIN RAVShAN DALIL KO‘RGIZUR**

Shah lutfi garchi bo‘lsa ko‘p qobil, topar nashvu namo,
Bevajhdur, bu nuktaga har kimsakim diqqat tutar.

Garchi quyoshtin parvarish olam yuziga omdir,
Sahroda qumg‘og‘u tikan, bo‘stonda sarvu gul butar.

35

TOJNING TARKIN ISTAB, DARDISARDIN ShIKOYaT QILUR

Toj ko‘p dardisar berur bizga,
Zulmidur aqlu hush toroji.

Boshimizdin bu tojni gum qil,
Barcha gar bo‘lsa saltanat toji.

39

**O‘ZI SO‘ZI BOBIDA DYeRKIM, MUQOBALADA HAR KIM ILIK URG‘AY, AMMO
QALAM SURA OLMAG‘AY VA ORZU QILG‘AY VA LYeKIN TILGA KYeLTURA
OLMAG‘AY**

Ey Navoiy, so‘z ila oncha guhar sochtingkim,
Bahru kon kirdi qora yerga sening kilkingdin.

Biriga, yo o‘nig‘a, yo yuziga, yo mingiga,
Degay el naylagay ortug‘ esa ellik mingdin.

40

**O‘Z NAZMINING RUTBASI POYaSIN TI'DOD QILUR VA HAR BIRIGA MARTABAYe
ISNOD QILUR**

Navoiy she'ri to'qquz baytu, o'n bir bayt, o'n uch bayt
Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.

Bukim albatta yetti baytdin o'ksuk emas, ya'ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.

41

**FALOKATDIN AYOG'IG'A KAFSh BO'L MAG'ANG'A ChUN KAFSh UChUN AYOG'I BOR
ShUKR VOJIBDUR**

Ulki, iflosdin ayog'inda
Kafsh yo'li azmi chog'i yo'qtur aning,

Shukr qildik boqib birav sari
Ki, yururga ayog'i yo'qtur aning.

42

MASX BOBIDAKIM, MASXARA YEDUR BYETARIQ TAKALLUM SURMAK

Falon masx agar chin desun, yo'qsa aks,
Aning asl zotig'a ne bokdur

Ki, koyokni aks ham qilsalar,
Vuquf ahli ollinda koyokdur.

43

O'ZI TAMA' VODIYSIN QAT' VA TALAB BODIYaSIN TAY QILG'ANIN AYTUR

Ey Navoiy, olam ahlida tama'siz yo'q kishi,
Har kishida bu sifat yo'qtur, anga bo'lg'ay sharaf.

Sen agar tarki tama' qilsang, ulug' ishdur bukim,
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf.

44

**O'LUMDIN ASHRAF DIN ILMIDUR, ANDIN HAM G'ARAZ AMAL, YO'Q ERSADIN VA
DUNYODA XALAL**

Ilmi din kasb qilki, sud ermas,
Charx mushkillarini hal qilmoq.

Lekin ul ilm dog'i naf' etmas,
Bilibon bo'lmasa amal qilmoq.

ShAHNING QUYoShQA MUShOBAHATINING DALOYILI VA HAR QAYSINING NAF' VA ZARAR JIHATIDIN MASOYILI

Shahni donokim quyosh debtur, anga budur dalil
Kim, quyosh yanglig‘ erur fayzi jahon ahlig‘a om.

Oydin ansab yo‘q nima xurshiddin fayz olg‘ali,
Ko‘rki, ul dog‘i erur gohi hilolu gah tamom.

Bir kecha-kunduzda davron gah qorong‘u, gah yoruq,
Charx aning bir davrasinda goh subhu goh shom.

Chun quyoshqa budurur holat, ajab yo‘q, shoh ham
Bo‘lsa o‘z tobi’laridin gah ramida, goh rom.

BIRAV DUNYoLIK NAJOSATIG‘A OLUDA BO‘LSA, DUNYo AHLI TAMAVVULI SO‘ZIN ORZU BILA DYeRLAR, BALKI HASRAT HAM YeRLAR

Dunyo ahlidin agar topti tamavvul birisi
O‘zgalar hasrat ila moli hadisin derlar.

Biri xud botti najosat ichiga bo‘g‘zig‘acha,
O‘zgalar ushbu najosatqa hasad ham yerlar.

AMIRUL MO‘MININ ALI KARRAMALLOHU VAJHAHU KALOMINING TARJIMASI

Zamona ahli emaslar atolarig‘a shabih,
Erur zamong‘a mushobih alarg‘a har xislat.

Muti’ erurlar angakim, zamondin olg‘ay kom,
Adu angaki, yetishkay zamonadin shiddat.

ROZ GAVHARIN KO‘NGUL MAXZANIDA YoShURA OLMAG‘ANG‘A, YaNA BIROV FOSh QILG‘ANDIN ShIKOYaT TYeGMASLIKDA

Har kimki ko‘ngul maxzanida yoshura olmay,
Sochqay tiliga kelturubon maxzani rozin,

Topshurg‘ay eshitkangaki, fosh aylamagaysen,
Ham nuktai tahqiqinu ham sirri majozin.

Chun ganj iyosi naqdni har yon o‘zi sochqay,
Bemuzd ajab yo‘qtur, agar soyg‘asa xozin.

49

**ABNOYI JINSIMDIN XALQ GILAMAND EDILARKIM, ELDIN NOMAQDUR OLURLAR,
NIMA BYeRMAS DYeB MYeNDIN HAM ShIKOYaT QILURLAR**

Mening abnoyi jinsimdin shikoyat bu edi elga
Ki, nomaqdur olurlar, bu shikoyat xud ajab ermas,

Ajab budurki, mendin ham shikoyat zohir aylarlar
Ki, nomaqdur olam ahli har nekim tilar, bermas.

50

**XATNI TAROSh QILURDIN Yo YaRAMASLIG‘NI ISBOT QILUR VA Yo YaRAR
DYeMAKIN UYoT BILUR**

Eyki, yuz safhasida xattinga yuzlandi tarosh,
Yana dersenki, bu xat yaxshilik‘ida yo‘q shak,

Yaxshi ersa, ne uchun bas har ikki-uch kunda
Tig‘ tortarsenu boshtin ayog‘ aylarsen haq?

51

**ISSIQ XAVODA SOVUG‘ SO‘NI DYeRKIM DO‘ZAX ARO ZULOLI KAVSARDUR VA
ANING IChINDA MUZ BILLURI TAR**

Xush ko‘rarmen dahrnisovug‘ su birlakim, bu yoz
Bo‘ldi issig‘din quyosh ko‘zlarga chatri sanjari.

Bir ayoq muzluq su jomi Jamdurur, nevchunki bor
Bir ayog‘ og‘zicha muz oyinai Skandariy.

52

**TAMA’ TUXMIN SOChMOG‘NI MAN’ QILURKIM, ANDIN PUShAYMONLIG‘DIN O‘ZGA
BAR YO‘QTUR VA MAZALLATDIN O‘ZGA SAMAR**

Navoiy, tama’ tuxmini sochma ko‘p,
Riyo ashkidin anga su ochma ko‘p,

Amal mazra’in ekkali berma yer,
Havovu havas xirmanin yelga ber.

53

RIYo MAZALLATIDA SO‘Z DYEr AGARCHI KA‘BADUR VA FANO MADHIDA NUQTA SURARDA GAR XUD BUTKADADUR

Riyoyi Ka'bardin dayri fanog'a
Kirib, gar butka zohir qildim imon,

Meni yozg'urma, ey shayxi riyoyi
Ki, gar kofur edim, bo'lдум musulmon.

54

QALAM ADHAMi XUSh XIROMIDIN VARAQ KOFURI MAYDONIDA SO‘RMAKKA TASKIN TILAR VA OQU QORA MADHI TARKINI OYIN ISTAR

Kofur uza mushk olib ko‘p harza raqam chektim,
Eyki, koshki bu ishdin haq bersa manga tavba.

Oqu qora madhida har neki dedim, yoqmas,
Emdi bu mazallatdin oq tavba, qora tavba.

55

ROYIHA UChUN GULOB VA OLMA QAZONINING KICHIKLICKKA JIHAT AYTUR VA MUXTASARLIG‘IG‘A MUNOSABAT

Olmavu gulob qaynaturg'a
Tab'i ermas ulug' qazong'a rog'ib.

Demak bu qazon kichikdur asru,
Ermas munga himmat ahli tolib.

Kim ruh g'izosining qazoni,
Mundin ham ulug' emas munosib.

56

ShOHIDI RA’NODIN LA’B ANDUZLIQ TILA VA RINDI FARZONADIN JONGUDOZLIQ VA DILSO‘ZLIQ ISTA

Harzagard o‘ldi shohidi ra’no,
Lek jonso‘z rindi farzona.

Ul pariy rost uylakim ko‘palak
Bu bir, ammo nechukki parvona.

57

O‘Z ISYoNINING ShIDDAT VA KASRATIN DYeR VA HAQ KARAMI OLLINDA ANI AFV QILMOQNING SUHULATIN

Qilibmen oncha isyonkim, agar do‘zax aro kirsam,
Mening behad gunohim birla do‘zax sarbasar to‘lg‘ay.

Xudoyo, afv osonroqdurur, yo‘qsa g‘azab qilsang,
Magarkim o‘zga do‘zax, o‘zga o‘t, o‘zga azob o‘lg‘ay.

58

DO‘STDINKI DUSHMAN XO‘YI BO‘LG‘AY, DUSHMAN YaXShIROQDURKI, DO‘ST RO‘YI BO‘LG‘AY

Nihoniy igna sanchar yorlardin
Aduvvash novakafganlar ko‘p ortuq.

Munofiq sheva zolim do‘stlardin
Muxolif tab’ dushmanlar ko‘p ortuq.

59

AShHABNING TUVOG‘I BYeRKLIGIN TYeMURGA O‘XShATQONDYeK O‘ZIN HAM BYeRK EKAN JIHATDIN TYeMUR BUZ DYeBTUR

Falonning sarkun otiki gar erur berk,
Qilur ta’vil aqli nuktaomuz

Ki, go‘yo g‘oyati mahkamlig‘idin,
Aning otini debturlar Temur bo‘z.

60

BARLOSBYeK BILA XOJA MAJID BOBIDA AYTILBDUR VA DUO QILIBTUR VA MUSTAJOB BO‘LUBTUR

Tutulmish edi Majid Barlos bekka
Kim, aytur edikim bu yanglig‘ qutulg‘ay.

Qutuldi ulu bu tutuldi, ilohiy,
Tutulg‘on qutulg‘ay, qutulg‘on tutulg‘ay.

**ChISTON
(LUG‘Z)
1**

QALAM

Ne lo‘lidurki, chun hangoma tutsa,
Qadam boshtin qilib tortar navozir.

Boshin keskandin ortib anga tahrik,
Tilin yorg‘andin o‘lub anga tahrir.

Qora sug‘a boshin yuz g‘uta bersa,
To‘lar og‘ziyu bo‘lmas lek damgir.

Kiromul kotibin andin qilib sabt,
El etkandin yamon-yaxshini bir-bir.

Vale oshiq bila Majnun ishiga
Qazo yetkurmay andin ranju tashvir.

Bihamdillahki, ollimda azaldin
Jununu ishq yozdi kilki taqdir.

2

TANGA

Ne sho‘x erurki, ulus ko‘ngli ichra savdosi
Aning yuzidagi xatlar kebi muharrardur.

Kumushdurur taniyu qimmati aning lekin
Un ikki o‘z tanidek vajh ila muqarrardur.

Ishida ul o‘n ikki har birisidur dinor
Ki, adl sikkasidin yuzlarida zevardur.

Magarki angladi xumsul muborak asrorin
Ki, soni bu adad o‘lmish, agarchi yuz mardur.

Gadog‘a xumsidin ar saltanatdurur, ne ajab,
Qachonki beklik aning rub’idin tuyassardur.

3

IGNA

Qaysi ayyor erkim ulkim, naqb urar san’atda bor

Bir sinon yanglig‘ ayog‘din, bosh qotiqlig‘din tani.

Nozaninlarning libosi nechakim sangin erur,
Toru pudi ko‘zlaridin ichkari kirmak fani.

Pardai ismatda har gulruxki ursun lofi zuhd,
Ko‘nglakining darz-darzi ichra ko‘rmishlar ani.

Bu sifatkim topti ul ayyorliq sarrishtasin,
Tong emasdur, gar otin qo‘yg‘aylar aning so‘zani.

4

MIQROZ

Ne qushlar erkin alarkim, birardurur qanoti,
Qanotining uchida har birisiga minqor.

Biror ayog‘lari ham boru turfaroq bukim,
Ayog‘ uchida biror ko‘z ham ettilar izhor.

Qachon ayog‘larin olmashtururlar, ul soat
Qanot urarg‘a bo‘lurlar tuyurdek tayyor.

Qanot ko‘p urmoq ila qari ucharlari yo‘q,
Ucharda garchi qaridur alarg‘a istizhor.

5

O‘Q

Ne qushdururki, uchar uch qanot bila, lekin
Agar qo‘nar ham, ochiqdur qanotlari bori,

Qanoti saridur og‘zi valek doim ochuq,
Bu turfaroqki, bo‘lur quyrug‘ida minqori.

Erur aning kebi tuz ko‘ngli oshyonida o‘q,
Sipehr ja’basidin istasang namudori.

6

ANOR

Ne majmardur, to‘la axgar, vale ul majmar andomi,
Erur sun’ ilgidin gohi musaddas, gah musamman ham.

Chiqar ravzandin axgar dudiyu bu turfakim, aning
O‘tig‘a dud yo‘qtur, majmarig‘a balki ravzan ham.

O‘tu majmar dema, bor ul sadafkim, durlarin aning
Evurdi qong‘a davroni mush’abat charxi purfan ham.

Agar bu nav’ emas, bas ne uchun bormoq kuchi bnrla
Bo‘shar jismi, oqar qoni, anga majruh o‘lub tan ham.

Nechakim tab’i noridur va lekin me’da norig‘a
Berur taskin, munung naf’in topibmen voqian men ham.

7

BYeL

Ne nav’ paykari konidur ul uzun tillik
Ki, og‘zig‘a qoqilur bir uzun yog‘och mahkam.

Munungdek og‘zini mahkam qilib emas mumkin
Ki, ul uzun tilidin hech nav’ qilg‘ay kam.

Teparlar onchaki maqdur erur va lekin ul
Bu tepmak ila qotiq yerni chok etar har dam.

Bu nav’ yer yora olmas jahonda ul kishikim,
Yo‘q ersa belida kuch gar ani, degil Rustam.

8

YuMURTQA

Ul huqqai ojkim, qilurlar gulfom
Kim, javfi paniru maskadin to‘ldi tamom.

Kim ani urushtirmog‘idin istar kom,
Nokom ani ushatg‘usidur ani nokom.

9

POKI

Ne paykardurki, aylar nojihin tez,
O‘zi birladurur masofiy.

Magar Bahromi Cho‘bin naslidindur
Ki, ahvolida zohirdur xilofi.

Ravondur tig‘i el boshida doim,
Vale o‘z ko‘ksidur aning g‘ilofi.

Bu holatqa, tonug‘dur el boshining,
Safosi, dog‘i o‘z ko‘ksi shikofi.

Chu men qildim ayon poki nishonin,
Kerakkim, topqay emdi tab’i sofi.

10

PARVONA

Ul qushki, taashshuqdurur andisha anga,
Bir naxlg‘akim shomdadur besha anga.

Shoxi uchidin ayon bo‘lub resha anga,
Gul ochmaq o‘shul reshaside pesha anga.

TUYuQLAR

1

Yo rab, ul shahdu shakar, yo labdurur,
Yo magar shahdu shakar yolabdurur.
Jonima payvasta novak otqali
G'amza o'qin qoshig'a yolabdurur.

2

Javr o'qin jonimg'a soqiy yozmadi,
Vasl jomidin xumorim yozmadi.
Kilki qudrat sabz xatlar ishqidin
O'zga ish ollimg'a go'yo yozmadi.

3

Yo qoshingdin necha bir o'q ko'z tutay,
Otqi, o'trusig'a aning ko'z tutay.
Necha ko'rgach o'zga mahvashlar qoshin,
Yangi oy ko'rghan kishidek ko'z tutay.

4

La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin «yo» qilur.

Men vafosi va'dasidin shodmen,
Ul vafo, bilmonki, qilmas yo qilur.

5

Bovujud ul yuz erur gulgunasiz
Kim, ko'runur ollida gulgunasiz.
Yuz qizilliq yo'qturur, ey ahli zuhd,
Toki munkirsiz mayi gulguna siz.

6

Charx tortib xanjari hijron bu tun,
Qo'ymadi bir zarra bag'rimni butun.
Tunga borib bizni behol aylading,
Ne balolig' yer emish, yo rab, bu tun.

7

O'tkali ul sarvi gulruxsoridin,
Yo'q xabar ul sarvi gul ruxsoridin.

Hajridin bog‘ ichra berur yodima
Qomatidin sarvu gul ruxsoridin.

8

Tig‘i ishqing yorasidur butmagan,
Dardini har kimga aytib butmagan.
Hajr sahrosidur ohim o‘tidin,
Anda gul yoxud giyohe butmagan.

9

Vah, qachong‘a tegru ishqing kojidin
Ko‘zuma har lahza o‘t choqilg‘usi.
Basdurur ko‘nglumda ishqing, yoqma o‘t
Kim, harorat ul ham o‘tcha qilg‘usi.

10

Ul pariy ishqida bu devonani
Eyki istarsen, kelib gulxanda ko‘r.
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,
Ey ko‘ngul, nazzora qil, gulxanda ko‘r.

11

Yog‘di javrung o‘qi hajring toshidek,
Qildi qon ko‘nglum ichin ham toshidek.
Sochqali mohim ayog‘ig‘a sipehr,
Ko‘z yoshimning la’lu durrin toshidek.

12

Naqsh tushmish ko‘zda ul yoshim mening,
Uylakim, bormas buyon yoshim mening.
Komim o‘lmoqdur habibimdin yiroq,
Gar xud o‘lsun Xizrcha yoshim mening.

13

Necha dedim ul sanamg‘a bormag‘in,
Qilmadi ul tark oxir bormag‘in.
Munchakim xudroyliq ko‘rguzdi ul,
Aql hayrat qildi, tishlab bormag‘in.

KO'RSATKICHLAR

TARIXIY, ADABIY VA MIFIK ShAXSLAR NOMI

Ayoz — g‘azal 613, 6.
Afridun — g‘azal 492, 5; 617, 6.
Barmak — qasida 7, 4.
Bahrom — g‘azal 372, 6; qasida 1, 4; 8, 2.
Bahrom Cho‘bin — chiston 9, 2.
Bobobek — qit'a 20, I.
Bulahab — g‘azal 213, 6.
Bulqosim — g‘azal 393, 6.
Vomiq — gazal 16, 3; 79, 4; 142, 7; 155, 2; 200, 2; 202, 6; 296, 7; 584, 4.
Doro — qasida 1, 7.
Jabrail (Jibril) — g‘azal 290, 8; 650, 4; musaddas 1, 5.
Jam (Jamshid) — g‘azal 59, 5; 69, 6; 83, 7; 105, 13; 148, 9; 173, 6; 266, 8; 281, 7; 316, 6; 324, 3; 331, 6; 334, 4, 6; 361, 7; 396, 6, 7; 397, 6; 413, 6; 419, 6; 476, 1; 492, 5; 570, 7; 624, 6; qit'a 51, 2.
Jomiy — g‘azal 215, 7; 650, 9; qasida 5, II.
Zol — g‘azal 141, 6; 215, 5.
Idris — musaddas 1, 6.
Iso (Masih, Raxulloh) — g‘azal 1, 3; 6, 2; 10, 2, 4; 22, 2; 31—3 33, 1, 2; 59, 4; 82, 5; 83, 2; 87, 4; 93, 4; 101, 2; 103, 1, 9 105, 6; 121, 3; 135, 4; 145, 4; 156, 6; 176, 1; 178, 2; 193, 2 196, 2; 203, 3; 227, 3; 234, 5; 235, 3, 4; 250, 1; 258, 3; 276, 3 285, 1; 324, 5; 326, 1; 351, 2; 374, 5; 376, 5; 386, 4; 393, 3, 4 416, 1; 417, 2; 442, 7; 476, 2; 495, 4; 512, 5; 521, 3; 555, 4; 578, 1, 2; 602, 7; 606, 4; 623, 5; 639, 5; 645, 5; muxammzs 1, 3; musaddas 1, 2; qasida 6, 11; qit'a 12, 2; 29, 2.
Layli (Laylo) — g‘azal 9, 5; 32, 1; 43, 4; 45, 6; 67, 2; 144, 7; 146, 4; 157, 3; 161, 9; 176, 2; 177, 5; 184, 5; 213, 5; 257, 5; 275, 1; 305, 4; 337, 5; 344, 1; 415, 4; 444, 2; 463, 8; 493, 4; 601, 3; 640, 3.
Lutfiy — muxammas I, 5; musaddas 1, 7.
Majid barlos — qit'a 60, 1.
Majnun — g‘azal 8, 5, 6; 9, 5; 12, 9; 15, 3; 23, 8; 43, 4; 45, 6; 53, 6 56, 4; 64, 1; 67, 2, 11; 73, 3; 79, 4; 83, 1; 86, 10; 89, 2, 5 96, 7; 133, 3; 137, 6; 142, 7; 146, 4; 155, 2; 157, 3; 160, 5 161, 9; 166, 4; 174, 6; 176, 2; 177, 5; 184, 5; 198, 3; 200, 2 211, 6; 213, 5; 220, 3; 231, 5; 235, 4; 239, 2; 243, 7; 247, 5 254, 4; 257, 5; 258, 7; 259, 5; 267, 1; 270, 5; 272, 3; 275, 1 296, 7; 299, 7; 305, 4; 308, 2; 314, 3; 337, 5; 343, 4; 344, 1 382, 3; 415, 4; 428, 1; 440, 2; 442, 4; 444, 2; 451, 2; 452, 1 458, 3; 460, 3; 463, 2, 4, 8; 464, 6; 469, 4; 474, 4; 479, 6 481, 5; 493, 4; 496, 2; 497, 7; 515, 5; 536, 9; 558, 4; 572, 3; 584, 4; 601, 3; 610, 5; 617, 1, 4; 619, 7; 620, 4; 627, 2; 630, 1, 6; 635, 2; 639, 3; 640, 3; 641, 5; chiston 1, 5. Maryam — g‘azal 10, 4; 82, 5; 476, 2; qit'a 12, 2; 29, 2. Moniy — g‘azal 600, 4. Musai Umron — g‘azal 4, 4. Muhammad — g‘azal 393, 1; qit'a 28, 2. Nuh — g‘azal 132, 7; 452, 5. Nushirvon — g‘azal 500, 7. Odam — g‘azal 426, 7.
Parvez — g‘azal 99, 6; 149, 3; 199, 6; 556, 6. Rustam — g‘azal 141, 6; 215, 5; qasida 1, 9; chiston 7, 4. Sayid Jamoliddin — g‘azal 91, 7. Skandar — g‘azal 69, -1; 95, 1; 132, 8; 183, 1; 316, 6; 396, 6, 7; 447, 1; 470, 4; qita 51, 2. Solmon — qasida 5, 11. Sulaymon — g‘azal 69, 2; 331, 6. Farhod (Ko‘hkan) — g‘azal 8, 5; 15, 3; 23, 8; 53, 6; 58, 4; 64, 1; 67, 2; 89, 2; 91, 2; 96, 7; 99, 6; 125, 5; 133, 4; 137, 6; 142, 7; 149, 3; 198, 3; 199, 6; 200, 1, 2; 202, 6; 211, 6; 218, 3; 220, 3; 226, 3; 243, 7; 272, 3; 279, 5; 292, 2; 296, 7; 314, 3; 315, 5; 373, 4; 415, 4; 440, 2; 451, 2; 460, 3; 464, 6; 474, 4; 493, 4; 496, 2; 497, 7; 523, 4; 536, 9; 544, 4; 556, 6; 557, 4; 558, 4; 584, 4; 610, 5; 617, 4; 627, 1; 630, 6;

Xalil — musaddas 1, 1.

Xizr — g‘azal 31, 3; 74, 3, 4; 83, 7; 101, 2; 103, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9; 105, 8; 108, 5; 183, 1; 250, 1; 338, 6; 421, 2; 470, 4; 509, 4; 522, 4; 527, 3; 537, 5; 547, 7; muxammas 1, 3; tuyug‘ 12, 2. Xotam — qasida 7, 4. Xotib — qasida 7, 6. Xusrav — g‘azal 215, 7; qasida 5, 11. Shirin — g‘azal 67, 2; 91, 2; 125, 5; 315, 5; 415, 4; 493, 4; 544, 4; 556, 6. Yusuf — g‘azal 4, 3; 19, 5; 149, 7; 191, 2; 256, 2; 257, 4; 521, 8; 644, 9; 647, 3. Ya’qub — g‘azal 79, 7; 644, 9. Qorun — g‘azal 69, 3; 296, 6. G‘aznaviy (Mahmud) — g‘azal 79, 7; 644, 9. Husayn, sulton (Shoh Abulg‘oziy Bohodirxon, Xusravi G‘oziy) — g‘azal 134, 9; 205, 13; muxammas 2, 7; musaddas 2, 7; qasida 5, 4; qit‘a 24, I; 28, sarlavha.

GYEOGRAFIK NOMLAR

Adam — g‘azal 14, 3; 23, 3; 241, 2.

Ajam — g‘azal 613, 11.

Aras — g‘azal 356, 7.

Astrobod — g‘azal 611, 7; 621, 9.

Badaxshon — qasida 5, 1.

Batxo — g‘azal 6, 7.

Bag‘dod — g‘azal 99, 7.

Bestun — g‘azal 544, 4.

Birjis (Mushtariy) — g‘azal 69, 5; 295, 2.

Bobil — g‘azal 19, 5; 520, 5.

Bog‘i jahon — g‘azal 105, 11.

Buxoro — g‘azal 6, 7.

Dajla — g‘azal 141, 3; 275, 5.

Jayxun — g‘azal 141, 3; 275, 5; 617, 7.

Zuhal — qasida 9, 2.

Zuhro — g‘azal 251, 3.

Iroq — g‘azal 364, 7.

Kayvon (Saturn) — qasida 8, 2.

Kan’on — g‘azal 201, 1; 231, 1; 644, 9.

Ka’ba — g‘azal 173, 4; 295, 9; 311, 8; 334, 6; 345, 9; 364, 5; 420, 7; 448, 8; 501, 8; 513, 6; 612, 7; 621, 1; 650, 6;

Qit‘a — 53, 1.

Kobul — g‘azal 230, 7.

Marv — g‘azal 484, 1.

Mashhad — g‘azal 505, 1.

Misr — g‘azal 571, 5.

Omu — g‘azal 356, 7.

Suhayl — g‘azal 251, 3.

Tabriz — g‘azal 99, 7.

Utorud — qasida 1, 6; 4, 1, 2, 6, 7; 5, 3, 9.

Xito — g‘azal 204, 5; 249, 6.

Xuroson — g‘azal 364, 7; 469, 7; 646, 1.

Xo‘tan — g‘azal 588, 3; 649, 3.

Chin — g‘azal 22, 1; 516, 1; 628, 1.

Eram — g‘azal 397, 5; 405, 2; 510, I; 543, 4.

Haybar —g‘azal 57, 3; 204, 5; 295, 7; 337, 1.

Hijoz —g‘azal 364, 7; 469, 7; 579, 3; 613, 11.

Hind (Hindiston) — g‘azal 37, 7; 230, 7; 266, 2.

Hiriy (Hirot) — g‘azal 295, 9; 593, 7.

ETNIK NOMLAR

Lo‘li — g‘azal 166, 5; 185, 2.

Turk — g‘azal 144, 9; 205, 5.

Qiyot — g‘azal 73, 9.

Qo‘ng‘irot — g‘azal 73, 9.

Habash — g‘azal 249, 6.

Hindu — g‘azal 166, 1; 181, 4; 308, 5; 344, 2; 506, 1; 508. 4, 5; qasida 3, 3.